O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ONLAYN ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2021-yil 29-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ONLAYN ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2021-yil 29-may

Toshkent – 2021

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-fevraldagi 56-F-son farmoyishi bilan tasdiqlangan 2021-yilda Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga asosan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-yilning 29-mayida “O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta’lim nazariyasi va amaliyoti” Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o‘zbek tilining xorijiy til sifatida o‘qitishda qo‘llanayotgan va foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha o‘zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO‘TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o‘rin olgan.

To‘plam til va adabiyot ta‘limi bilan shug‘ullanuvchi professor-o‘qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistr va talabalarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

B.Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor
G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay’ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, M. Shodmonova, X.Qodirova

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2021-yil 3-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas‘uldirlar.

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

O‘ZBEK TILINI CHET ELLIK TALABALARGA VAZIFALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Fatma Achik
filologiya fanlari doktori, professor,
Turkiya Çumhuriyati
Gazi universiteti professori (Turkiya)

Vazifalar asosida chet tillarini o‘qitish. Vazifalarga asoslangan chet tilini va grammatikani o‘qitish metodikasi 1970-yillarda Prabxu tomanidan kashf etilgan va birinchi bo‘lib amalda qo‘llanilgan (Wang, 2006:98-99).

Mazkur metodni Janubiy Hindistonning Bangalor shahridagi boshlang‘ich maktablarda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlarini olib boragan Prabxu, ular foydalanadigan tilga e’tibor berish o‘rniga, kerakli vazifalarga e’tibor qaratish til o‘rganishda kerakli muvaffaqiyatlarni keltirib chiqaradi, deb ta’kidlaydi.

McLaughlin (2001: 1-22) hozirgi kunga qadar o‘quv dasturlari til va tildan foydalanish bilan bog‘liqligini ta’kidlagan bo‘lsa, Long va Crooks o‘quv dasturiga ko‘proq e’tibor qaratib, tilni vazifalar orqali o‘rgatishni taklif qildilar.

Feezning fikriga ko‘ra, vazifalarga asoslangan chet tilini o‘qitishning xususiyatlari quyidagichadir (Richards and Rodgers, 2001: 224):

1. Asosiy e’tibor jarayonga qaratiladi, natijaga emas.
2. Asosiy elementlar kommunikatsiya va ma’noni ta’kidlaydigan maqsadga muvofiq faoliyat va vazifalardir.
3. Talabalar mashg‘ulotlar va vazifalar doirasida jamoaviy va maqsadga muvofiq o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali tilni o‘rganadilar.
4. Faoliyat va vazifalar talabalar hayotda hal qilishlari kerak bo‘lgan vaziyatlar yoki sinfdagi pedagogik maqsadga qaratilgan faoliyat va vazifalar bo‘lishi mumkin.
5. Vazifalarga asoslangan dasturning faoliyati va vazifalari qiyinchilik darajasiga qarab tartiblanadi.
6. Vazifalarning qiyinligi ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu omillar orasida talabaning avvalgi tajribasi, vazifaning murakkabligi, topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan til va mavjud qo‘llab-quvvatlovchi materiallar darajasi kiradi.

Ta’lim jarayonidagi o‘qituvchilarning rollarini quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

1. Asosan kommunikativ tuzilishga ega bo‘lishdan tashqari, vazifalarni tanlaydigan, moslashtiradigan va tayyorlaydigan kishi bo‘lishi kerak.
2. U o‘quvchilarning topshiriqni tayyorlashi va tayyorgarlik faoliyati uchun mas’ul bo‘ladi (mavzuni taqdim etish, tushuntirishlar, o‘quvchilarga o‘rganishda yordam berish va topshiriq haqida maslahatlar berish va h.k).
3. O‘quvchilarga yangi tuzilmalarni – til birliklarini o‘rganish, belgilangan vazifalarni bajarish paytida tinglash yoki ko‘rish orqali idrok etishga hozirlash kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi topshiriq oldidan yangi tuzilma – til birligini o‘rgatmaydi, balki o‘quvchilar e’tiborini yangi tuzilmalarga va vazifa davomida o‘rnatiladigan o‘zaro munosabatlarni anglashga qaratadi(Samuda, 2001: 119-140).

Vazifalarga asoslangan o‘qitishda talabalarning vazifalar mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan rollari quyidagilardan iboratdir:

1. Har bir talaba ma’lum bir guruhga kiradi, chunki talabalar guruh-guruh bo‘lib topshiriqlarni bajaradilar.

2. Talabalar guruh a’zosi bo‘lar ekan, vazifalar shunga muvofiq ishlab chiqilishi kerak. Vazifalarning talabalar tomonidan guruhlarga bo‘linib bajarilishi guruh talabalariga lingvistik ta’sir o‘tkazishini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zaro ta’sirni shakllantirishda talabalar tildan foydalanishda bir-birlari uchun bilvosita modelni shakllantirishlari kerak.

3. Guruhlararo o‘zaro munosabatlarda talabalarning xatti-harakatlari va munosabatlari, masalan, vaqti-vaqti bilan lisoniy bo‘lmagan muloqotdan foydalanish, ba’zi bir iboralarni takrorlash, savollar berish va boshqalar bilan maslahatlashish ham talabaning vazifalari qatoriga kiradi.

Oldindan topshiriq. Mavzu va topshiriq bilan tanishish: o‘qituvchi talabalar bilan mavzuni topadi, foydali so‘zlar va iboralarni ajratib oladi, o‘quvchilarga tushunish va topshiriqlarni tayyorlashga yordam beradi. Talabalar shunga o‘xshash topshiriqqa oid lenta yozuvlarini tinglashlari mumkin.

Vazifa sikli		
Vazifa	Rejalashtirish	Taqdim
Talabalar topshiriqni juft yoki kichik guruhlarda bajaradilar. o‘qituvchi uzoqdan kuzatib turadi.	Talabalar butun sinfga vazifani qanday bajarganligi, nimani topganligi, taqdimotga qanday hozirlik ko‘rganligini taqdim etishga tayyorlanadilar.	Ba’zi guruhlar sinfga taqdimotlar o‘tkazadilar yoki yozma taqdimotlar bilan almashadilar. Taqdimotlarni taqqoslash ishlarini amalga oshiradilar.
So‘ngra talabalarga shu kabi vazifani bajarayotgan boshqa talabalarning lenta yozuvlarini ko‘rish va taqqoslash imkoniyati berilishi mumkin.		

Tilga e’tibor bering	
Tadqiqot	Amaliyot
Talabalar matn yoki tinglash dialoglaridagi xususiyatlarni o‘rganadilar va muhokama qiladilar.	O‘qituvchi yangi so‘zlarni yoki konstruktsiyalarni qo‘llashni tashkil qiladi.

Olimlar vazifalar turlarini quyidagicha tavsiflaydilar:

Vazifa dizayneri	Vazifalar turlari
Pica, Kanagy ve Falodun (1993)	1. Qismlarni birlashtirish uchun vazifalar 2. Bilimlar oralig‘idagi vazifalar 3. Vazifalarni hal qilish 4. Qaror qabul qilish vazifalari 5. Fikr almashish vazifalari
Nunan (2001)	1. Haqiqiy dunyo missiyalari 2. Ta’limiy: sinov topshiriqlari faollashtirish vazifalari
Willis (1996)	1. Ro‘yxat tuzish 2. Saralash va tasniflash 3. Taqqoslash 4. Muammoni hal qilish 5. Shaxsiy tajribalar bilan o‘rtoqlashish 6. Loyiha va ijodiy vazifalar

Vazifa doirasi (Willis, 1996: 56-57) uchta asosiy bosqichda tashkil etiladi. Bular:

1. "oldingi vazifa",
2. "ish tashkili“,
3. "tilga e’tibor" deb nomlanadi.

1. Vazifaning old bosqichi: Bu bosqich eng qisqa bosqich bo‘lib, yigirma daqiqa davom etishi mumkin.

Vazifa oldi bosqichi uch bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni bilish darajasiga qarab mavzuni beradi. Agar talabalar mavzu bilan tanish bo‘lmagan bo‘lsa, o‘qituvchi yangi tushunchalarni tushuntirishi kerak.

Ikkinchi bosqichda mavzu bo‘yicha tilda tushuntirish beriladi. Ya’ni o‘qituvchi o‘quvchilar topshiriq davomida ishlatishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni taqdim etadi. Ushbu bosqichda tilni o‘rganish lug‘at yoki grammatikani o‘qitishga tegishli emas. Vazifa oldidan o‘qituvchining zimmasiga tushadigan yana bir vazifa – o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish va ularga mavzuga tegishli kalit so‘zlarini kiritishi uchun ba’zi bir vazifalarni bajartirishdan iboratdir. "Aqliy hujum" va "so‘z o‘yinlari" – bu topshiriq oldidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullarning namunalari. O‘qituvchi darsga kirish va vazifalarni tayinlash oldidan tegishli faoliyat sifatida o‘z tajribalari va xotiralarini ham ulashishi mumkin. Bu vazifalar tufayli talabalar nafaqat mavzu bilan tanishadilar, balki topshiriqni bajarish uchun g‘ayratli ko‘rsatishadi.

Oxirgi qadam - bu o‘qituvchi o‘quvchilarga vazifani qanday boshlash, qanday bajarish va qancha vaqt ajratilishi to‘g‘risida aniq ma’lumot beradigan qadamdir.

2. Navbatdagi sikl bosqichi: Bu bosqish o‘quvchilar til haqida o‘rgangan konstruksiyalarini ishlatish va o‘zlariga yuklatilgan vazifani bajarish orqali o‘zlarini ifoda etadigan qadamdir. Ushbu bosqichda o‘qituvchi kuzatuvchi va rahbar rolida bo‘ladi. Bu bosqich o‘quvchilarni maqsadli tilda muloqot qilishga undaydi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqot paytida o‘qituvchi talabalarning xatosini to‘g‘rilamaydi. Ammo, agar talaba jiddiy muammoga duch kelsa, muammoni hal qilishga yordam beradi va yana dars jarayonidan chekinadi. O‘qituvchining kuzatuvchilik roli o‘quvchilarning tildan maqsadli foydalanishida muhim rol o‘ynaydi. Talabalarning til darajasi juda past bo‘lsa ham, barcha talabalarni tildan maqsadli foydalanishga undash kerak va maqsadli tilni ishlatishda gap tuzilishidagi xatolar hisobga olinmasligi kerak.

Vazifani bajarish paytida ba’zi talabalar imo-ishoralar va yuz ifodalari bilan aloqa qilishadi va shu tariqa lisoniy bo‘lmagan muloqotga o‘tadilar.

Vazifalarga asoslangan o‘qitish doirasida navbatchilik sikli bosqichida rejalashtirish va taqdimot bo‘limlari mavjud.

Rejalashtirish topshiriqning bajarilishi va natijasi haqida talabalar tomonidan ma’lumot beriladigan bosqichdir. Ma’ruzani o‘g‘zaki yoki yozma shaklda tayyorlash uchun talabalar og‘zaki va yozma ravishda tildan eng yaxshi tarzda maqsadli foydalanishga harakat qilishadi. Ular o‘z xatolarini boshqa o‘quvchilarga etkazmaslik uchun ehtiyot bo‘lishadi.

Talabalar topshiriq uchun taqdimotni tayyorlashda guruh a’zolari va o‘qituvchilardan yordam olishlari mumkin. Shuning uchun bu qadam tilni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

O‘qituvchi taqdimot uchun guruh a’zolariga printer va lug‘at kabi masalalarda ko‘mak berishi mumkin.

O‘quvchi hech narsa talab qilmasa, aralashmaslik kerak. Shu yo‘l bilan talabalar ma’ruzani o‘g‘zaki yoki yozma shaklda tayyorlash uchun o‘zlari kerakli tuzilmalarni topishiga ishonch hosil qiladi.

O‘quvchilarga ijobiy turtki berish orqali tildan to‘g‘ri maqsadli foydalanishni rag‘batlantirish kerak. Taqdimotning davomiyligi vazifalar va guruhlar soniga yoki talabalar soniga qarab o‘zgaradi. Taqdimot davomiyligining uzashi talabalarga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Taqdimot paytida talabalar grammatik va leksik xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi ushbu xatolarni ko‘rganida, o‘quvchilarni maqsadli tilda gapirishiga rag‘batlantirishi va salbiy baholash hamda tanqidlardan qochishi kerak. Barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini yakunlagach, o‘qituvchi guruhlarni maqsadli tildan fikr-mulohazani ifodalash usuli sifatida to‘g‘ri foydalangani uchun tabriklaydi va ijobiy foydalanilgan iboralarga e’tibor qaratadi. Agar o‘qituvchi jiddiy bo‘lgan xatolarni tuzatmoqchi bo‘lsa, u o‘quvchilarga mashq sifatida bo‘shliqlarga yozdirib, haqiqatni aniqlashga yordam berishi mumkin. Rejalashtirish bosqishi lingvistik rivojlanishga hissa qo‘shgani holda, taqdimot bosqichi o‘quvchilarga bir-biridan o‘rganish imkoniyatini beradi.

3. Tilga e’tiborni qaratish bosqichi: Willisning (1996: 52-62), ta’kidlashicha, o‘quvchilar tilni o‘z yoshi va darajasida ishlatishi uchun til haqida o‘ylashi zarur.

Tilga yo‘naltirilgan bosqichda ikki turdagi faoliyat mavjud:

Birinchidan, til maqsad emas, balki tilni o‘rganish faoliyatidagi vosita bo‘lib, uni “ongni uyg‘otish" deb ham atashadi. Ikkinchidan, til bilimini oshirish, deganda talabalar yangi grammatik tuzilma haqida xabardor bo‘lishlari kerak. Grammatikani o‘qitishda ma’no va shakl birgalikda o‘qitilishi kerak. Tilni o‘qitishning har bir bosqichida deduksiya metodinin qo‘llanilmasligi kerakligi haqida takliflar ham mavjud.

Willis (1996: 52-62) til amaliyotini boshlash uchun to‘rtta asosiy element (semantik tushunchalar, so‘zlar yoki so‘z qismlari, ma’no qatlamlari va fonetik xususiyatlar) mavjudligini va ularni hisobga olgan holda, talabalarning til bilish darajasini oshirish kerakligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi talabalar uchun mavzular o‘rtasidagi aloqadorlikni (so‘zlar, prefiks va qo‘shimchalar bilan vaqt munosabatlari) o‘rganishi uchun ham sharoit yaratish lozim.

Tinglash ko‘nikmasi.

Tinglash-tushunish faoliyati quyidagilardan iboratdir:

1. Lentadan tinglash.
2. Lentadan tinglang va uni baland ovoz bilan takrorlang.
3. Tasmani tinglash va yozilgan matndan mavzuni kuzatib borish.
4. Tinglash va matnda nechta so‘z borligini aniqlash.
5. Rasmlarni matnga ko‘ra joylashtirish.
6. Dialogni tinglash va yakunlash.
7. So‘z o‘yini / guruhda ishlash.
8. Tinglash va javob berish.
9. Tinglayotgan matnni eshitib, xulosa qilish.
10. Tanlab tinglash.
11. Tasmani tinglash va mavzu bo‘yicha o‘z fikrini bildirish.

Tinglash qobiliyati – bu tilni o‘rganishning to‘rtta asosiy yo‘nalishlari orasida eng ko‘p ishlatiladigan qobiliyatdir. Kundalik hayotda tez-tez ishlatiladigan tinglash qobiliyati talaba o‘qish va yozishni o‘rganishdan oldin muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘nikma boshqa ko‘nikmalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tinglash mahorati muloqotning birinchi bosqichi bo‘lganligi sababli, u boshqa ko‘nikmalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Sog‘lom tinglash faoliyati bilan bir qatorda, odamlar nutq, o‘qish va yozish qobiliyatlarini ijobiy va kerakli yo‘nalishda yaxshilashi mumkin.

Tinglash turlarini yoki tinglash maydonlarini beshta toifaga ajratish mumkin (Keskinkilich va Keskinkilich, 2007: 125).

1- toifa o‘zaro suhbatlarni tinglash. Bu ikki tomonlama munosabatlarda sodir bo‘ladigan tinglash turi. Buni tushunish va o‘rganish faoliyatini amalga oshirish deb tushuntirish mumkin, bu erda ikki yoki undan ortiq kishi bir mavzu atrofida suhbatlashish yoki suhbatlashish, o‘z xohish va fikrlarini bildirish orqali fikr almashadilar.

2-toifa o‘qilgan matnni tinglash. Bu boshqa odamlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy axborot vositalari (lenta, internet, televizor, radio va boshqalar) tomonidan eshitilgan she'rlar, hikoyalar, insholar kabi matnlarni tegishli muhitda tinglash deb ta'riflanishi mumkin. Bunday tadbirlar tinglash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham qo‘llaniladi.

3-toifa sinfda o‘qituvchini tinglash. Garchi o‘qish muvaffaqiyat uchun zarur deb qabul qilingan bo‘lsa-da, ba'zi talabalar ortiqcha o‘qimasdan muvaffaqiyat qozonishlari ma'lum. Boshqa omillar mavjud bo‘lsa-da, eng muhimi, talabaning sinfda o‘qituvchini tinglashi.

4-*toifa konferentsiya-seminarni tinglash.* Konferentsiyalar va seminarlarni tinglash boshqa maqsadga muvofiq va ongli tadbirlar qatorida ko‘rsatilishi mumkin. Bu yerda tinglash faoliyatida tinglovchilar tinglash mavzusi bo‘yicha ma'lum darajada bilimga ega bo‘lishlari va tinglash sifati jihatidan ushbu mavzu bo‘yicha izlanishlar olib borishlari muhimdir. Bunday tinglash faoliyati sinf muhitida ham qo‘llanilishi mumkin.

5-toifa audio-vizual aloqa vositalarini tinglash. Kundalik hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarda, internet-brauzerlarda, radio va televizion dasturlarda tinglash faoliyati ko‘p vaqt va kuch sarflamasdan ma’lumot beradi.

Tinglashni o‘rgatish uchun esa uchta faoliyat bosqichi mavjuddir. Bular quyudagichadir:

1. Tinglashdan oldingi tadbirlar:

a) motivatsiya va assotsiatsiya;

b) darsning maqsadini aniqlash;

c) matnni taxmin qilish;

d) muhim so‘zlarni va ba’zi bir iboralarni o‘rgatish;

e) tinglash maqsadlarini aniqlash.

2. Tinglash vaqtidagi tadbirlar:

a) umumiy tushunchalarni tinglash;

b) tushunish uchun savollarga berilgan javoblarni tinglash;

c) javoblarni tekshirish uchun tinglash.

3. Tinglashdan keyingi tadbirlar:

a) talabalardan tushunchaga oid savollarga javob berishlari so‘raladi;

b) talabalar guruh ishini bajarish orqali paragrafni ovoz chiqarib o‘qiydilar;

c) talabalardan o‘qiganlarini tushuntirishlari so‘raladi;

d) asosiy g‘oyani topish;

e) matnni umumlashtirish;

f) bunda asosiy fikrlarni muhokama qilish;

g) matn haqida insho yozish;

h) o‘yinlar: rol o‘ynash / drama, simulyatsiya, muammolarni hal qilish, qo‘shiqlar.

Eshitish ko‘nikmasini egallash va rivojlantirishda quyidagi tadbirlardan foydalanish mumkin:

Matnni o‘qish amaliyoti. Bu usul tinglash qobiliyatini rivojlantirishda tez-tez ishlatiladigan usuldir.

1. O‘qituvchi sinfga o‘quvchilar darajasiga mos keladigan matnni olib keladi va ovoz chiqarib o‘qiydi.

2. Talabalar berilgan qog‘ozlarga o‘qilgan matn haqida asosiy va qo‘shimcha fikrlarni yozadilar.

3. Shuningdek, o‘quvchilar qog‘ozdagi savollarga javob berishadi.

4. Javob berish jarayoni tugagandan so‘ng o‘qituvchi yana matnni o‘qiydi va o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zlarini boshqarish imkoniyatini beradi.

5. Matnni o‘qiyotganda talabalar qo‘llaridagi qog‘ozlarni to‘ldirish uchun diqqat bilan tinglashlari kerak. Bu talabalarning tinglash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

6. Bu metodni mazmunan bog‘langan matnlar bilan boshlash kerak. Zero, voqeaband matnlardagi fikr yo‘nalishlarini yozuvlarga ko‘ra kuzatib borish va eslab qolish darajasi yuqori.

Vizual va eshitish vositalaridan foydalanish. Tinglash qobiliyatini oshirish xotirani tovushlarni bir-biridan ajratib turishiga bog‘liq. Radio, televizor, kompyuter, kasseta va kompakt-diskdan ham foydalanilish orqali bu ko‘nikmani kuchaytirish mumkin bo‘ladi.

Til qoliplariga asoslangan matnlarni tinglash. Matnlardagi til namunalarini tinglash asosida tez anglash mahorati hosil bo‘ladi. Usulni amalga oshirishda o‘qituvchi o‘zi tanlagan matndagi ba’zi til namunalarini o‘chirib tashlaydi va talabalardan matnni bir necha marta o‘qib bo‘lgandan keyin bo‘sh qismlarni to‘ldirishni so‘raydi. Matn tanlashda o‘qituvchi ta’lim va tarbiya maqsadlarini, o‘quv rejasini va o‘quvchilar darajasini hisobga olishi kerak.

Turli xil texnika va usullar. Ta’lim oluvchilarni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga jalb etish orqali, masalan, o‘quvchilarga kino va teatr tomosha qilish, keyin shular to‘grisida vazifalar berish, konferensiyalarda qatnashish orqali tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak. Chunki bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tinglash va gapirishdagi faolligini oshiradi.

Dramaturgiya yoki o‘yinlar o‘ynash. Ushbu turdagi o‘yinlarda "chetlatish qoidasi" o‘quvchilarga diqqatlarini og‘zaki so‘z yoki suhbatga qaratishga imkon berish nuqtai nazaridan tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bir nechta topshiriq tavsiflari bilan gapni o‘qing va tinglang. Ulardan buni takrorlashlari so‘ruladi. Noto‘g‘ri ism, ma’lumot yoki tushuntirish bilan matni tinglash va to‘g‘ri javobni topish mumkin. Matnning yozuvchisi yoki shoirini topish uchun hikoya, she’r kabi turlardan foyidalanish mumkin (Demirel, 1999: 37).

Diqqat bilan tinglashni o‘rgatish. Bu usulni qo‘llashda, birinchi navbatda, tinglovchilarga tinglashning ba’zi qoidalari o‘rgatiladi. Birinchi bosqichda talabalarga tinglash va eshitish o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadigan misollar keltiriladi. Ikkinchi bosqichda talabalarga “Diqqat bilan tinglash"da nimalarga e’tibor berish kerakligi o‘rgatiladi.

O‘qitishning yagona jarayonidagi o‘zaro ta’sir. Bunga ko‘ra, har bir til qobiliyatining rivojlanishi boshqa til ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Agar til ta’limi bir butun sifatida qaralsa, talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’minlanishi kerak.

To‘rt asosiy ko‘nikma bilan bog‘liq tadbirlarni birgalikda o‘tkazish barcha ko‘nikmalarning bir xil darajada rivojlanishiga imkon beradi.

Vazifa usulida o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha bir namuna keltiramiz.

Vazifaning maqsadi talabalardan televizion dasturlarga oid so‘zlarni eslab qolishlari, tinglash orqali dastur turlarini aniqlashlari so‘raladi.

Talabalarga 19:00 dan 24:00 gacha televizion dasturlarining ro‘yxatini yozishlari talab qilinadi. So‘zlarni ketma-ket qo‘shish va tavsiflash uchun qanday ishlatilishini e’tiborga olishga harakat qilinadi.

Darsning asoslari: talabalar, avvalgidek, so‘zni simulyatsiya qilish uchun qanday ishlatilishini o‘rganishadi.

Darsning boshlanishi: talabalarga televizion dasturlar va ulardan so‘raladigan narsalar bilan bog‘liq ikkita vazifani bajarishlari aytiladi.

Vazifadan oldin (15 daq.) 1. TELEVIZOR so‘zini doskaga yozib, ularga fikr almashish texnikasi bilan biladigan televizion dasturlarining turlarini aytib berishlari so‘raladi. 2. Talabalar qanday dasturlarni yoqishini doskaga qarab erkin aytib berishadi. Faqat dasturlarni emas, balki tanlash sabablari muhokama qilinadi. 3. Keyin talabalar o‘rnidan turib juftliklar tuzib, muhokama uyushtiradilar. Vazifa tuzimi 1 (10 min.); Vazifa (7 min.).

Masalan, talabalarga Turkiya telekanallaridan yozib olingan ba’zi dasturlarning lenta yozuvlari ijro etiladi va ulardan ushbu dasturlarning qaysi dastur ekanligini aytib berishlari so‘raladi.

Rejalashtirish (1 min.) Talabalardan yozgan so‘zlarini tekshirish vazifasi beriladi.

Taqdimot (2 min.) Talabalar navbatma-navbat qanday dasturlarni tinglayotganlarini namoyish qiladilar.

Vazifa tuzimi 2 (20 min.).

Vazifa (10 min.) Talabalar juft-juft bo‘lib guruh tuzishadi, o‘z jufti bilan o‘zlari xohlagan televizion dasturlarini soat 19:00 dan 24:00 gacha rejalashtirishadi. Buning uchun ular doskada yozilgan so‘zlardan foydalanadilar.

Rejalashtirish (2 min.) Taqdimotdan oldin talabalardan yozganlarini ko‘rib chiqish so‘raladi.

Taqdimot (8 min.) 1. Talabalar o‘zlari tayyorlagan dastur ro‘yxatini birma-bir o‘qiydilar, qolgan o‘quvchilar esa ularni tinglaydilar. 2. Talabalardan qaysi juftlikning dastur ro‘yxatini ko‘proq yoqtirgani so‘raladi va ovoz berish orqali eng yaxshi oqim tanlanadi.

Tilga e’tibor qarating (15 min.).

Tahlil (5 min.).

Xuddi shu vazifani bajarayotgan ikki o‘zbekning suhbati matni o‘quvchilarga tarqatiladi va ulardan hammasi kabi so‘zlarning ostini chizish talab qilinadi. Talabalardan qaysi biri yangi ekanligi so‘raladi. Yangi tuzilmaning mazmuni va undan qanday foydalanilishi muhokama qilinadi.

Amaliyot (10 min.) Talabalarga bo‘sh joylarni to‘ldirish uchun mashq, shu jumladan, yangi o‘rganilgan barcha tuzilmalar beriladi.

Mazkur vazifaning sinfdagi namunasini keltiramiz:

Ali: Menimcha, yangiliklarni soat 7 ga yaqin qo‘yishimiz kerak. 7-8 oralig‘ida yangiliklar va ob-havo bo‘lishi lozim, qanday deb o‘ylaysiz?

Nilufer: Balki bo‘lishi mumkin, lekin keling, avval 7 dan 12 gacha qaysi dasturlarni joylashtiramiz, shuni kelishib olaylik, keyin soatlarni belgilab olamiz.

Ali: Yaxshi. Siz yangiliklarni qabul qilmayapsizmi?

Nilufer: Ha. Agar siz xabardor bo‘lsangiz, biz bu narsalarni juda yaxshi biladigan kabi gaplashamiz.

Ali: Ha, bu juda kulgili. Kino qo‘yamiz, nima deb o‘ylaysiz?

Nilufer: Ha. Yana hujjatli film ham bor.

Ali: Balki, lekin biz hujjatli film yoki teleserial qo‘yishimiz mumkin. Agar siz ikkalasini ham qo‘ymoqchi bo‘lsangiz, aytib qo‘yay, menga seriallar unchalik yoqmaydi.

Nilufer: Menga ham yoqmaydi, lekin xalq buni yaxshi ko‘radi. Ularning ba’zilari serial ko‘rishmasa, “kasal” bo‘lib qolishadi.

Ali: Siz haqsiz.

Nilufer: Keling, ko‘rib chiqamiz. Bizda yangiliklar, ob-havo, filmlar, hujjatli filmlar, seriallar va tabiiy ravishda o‘rtasida reklama bo‘lishi kerak. Bularning barchasi necha soat bo‘ladi?

Ali: Kamida 4 soat.

Nilufer: Yangiliklar va ob-havo 7dan 8gacha. Men roziman. Undan keyin ketma-ketlikni qo‘yamiz. Reklama bilan bir soat vaqt ketadi.

Ali: Menimcha hami shunday. Demak, soat 9.

Nilufer: Ha.

Ali: Unday bo‘lsa keyin nima bo‘ladi?

Nilufer: Keyin hujjatli film va badiiy film.

Ali: Menimcha, bu juda yaxshi fikr. 9dan 10gacha hujjatli filmlar bo‘ladi va 10dan 12gacha badiiy filmlar bo‘ladi. Yaxshi bir qo‘rquv filmi shu soatlarga to‘g‘ri keladi.

Nilufer: Balki, bo‘lishi mumkin, lekin men bunday filmlar ko‘rmayman.

Ali: Nega?

Nilufer: Men qo‘rquv filmlardan qo‘rqaman! O‘ylaymanki, biz ushbu so‘nggi soatlarda qo‘rquv filmini ham, sarguzasht filmini ham qo‘yishimiz mumkin.

Ali: Yaxshi. Biz xuddi sarguzasht filmni tomosha qilish kabi o‘qishni boshlaymiz.

Nilufer: Xo‘sh, men siz kabi mehnatsevar emasman, o‘sha soatdan keyin men aniq uxlayman.

Xulosa: Vazifalarga asoslangan o‘qitish metodikasini o‘zbek tilinining tinglash qobiliyatini o‘stirish borasida tinglashdan oldin tinglanadigan mavzu haqida umumiy ma’lumot, maslahatlar berib, matn nima haqida bo‘lishini taxmin qilishlari so‘raladi. Mavzuning xususiyatiga qarab, rasmlar, fotosuratlar va plakatlar kabi turli xil vizual vositalardan foydalaniladi. Tinglash uchun matndagi yangi so‘zlar va agar kerak bo‘lsa, yangi jumla tuzilmalari o‘rgatiladi. Tinglash vaqtida o‘qituvchi matnni ovoz chiqarib o‘qigan paytida talabalar turli xil intonatsiya va urg‘uga e’tibor berishlari so‘raladi. Agar boshlang‘ich guruh o‘quvchilariga darslar berilsa, matn

takroriy mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu mashq o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishiga yordam beradi. Tinglashdan keyin; matn bo‘yicha savollarga batafsil javob beriladi, matnning og‘zaki yoki yozma xulosasi tuziladi, eshitiladigan matning yakuniy qismini to‘ldirish so‘raladi, eshitilgan so‘z va tuzilmalar, matnlarni ifoda etishlari so‘raladi, matn uchun tegishli sarlavha taklif etiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilini xorijliklarga vazifa usuli vositasida o‘rgatish tilni amaliy jihatdan egallah uchun muhum dastak bo‘ladi. Zero, o‘zbek tilini o‘rganishda asosiy maqsad uning amalda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasiga qaratiladi. Talabalarni jufliklar va guruhlar taqsimlab o‘qitish, ularning o‘zaro fikr almashinuvini tashkil etish, bajarilgan vazifalarni baholashga undash talabalarning bu tilini o‘rganishga bo‘lgan rag‘batini oshirishiga hech bir shubha yo‘q. O‘zbek tilini chet ellik talabalarga yoki O‘zbekistonda yashovchi Rus tillilarga vazifalar usuli orqali o‘qitish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mazkur usul shu tilini tinglab tushunish, yangi so‘z va qurilmalarni o‘zlashtirish borasida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Demirel, Özcan (1999). İlköğretim Okullarında Türkçe Öğretimi. MEB, İstanbul Basımevi.
2. Keskinkılıç K., ve Keskinkılıç S. B. (2007). Türkçe İlkokuma ve Yazma Öğretimi. PEGEMA Yayıncılık, Ankara.
3. McLaughlin, James (2001). ‘A task – based program in Korea: a case anaylsis’, *SSLT*, Vol: 1(1), 1-22.
4. Richards, J.C. &Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge UniversityPress, New York.
5. Samuda, Virginia (2001). ‘Guiding relationships between form and meaning during task performance: the role of the teacher.’ In M. Bygate; P. Skehan; M. Swain (Eds.) *Researching Pedagogic Tasks: Second Language Learning, Teaching and testing*, Longman, London: UK.
6. Wang, Cheng-jun (2006). *Designing Communicative Tasks for College English Courses*: A Dessertation Submitted as a Partial Fulfillment for the Degree of M.A. in English Language and Literature. School of Foreign Languages and Literature Chongqing University & Yangtze Normal University, China. https://www.asian-efl-journal.com/thesis_Wang_Cheng_jun.pdf (18.05.2021)
7. Willis, Jane (1996). A Flexible Framework for Task-based Learning. In: J. Willis& D. Willis, eds. Challange and Change in Language Teaching, Mac Millan Publishers Limited, Oxford, UK.
8. Willis, Jane (1998). Task- Based Learning. What Kind of Advanture. http://www.jalt-publications.org./tlt/files/98/jul/wills.htlm
9. Yangın, Banu (2002). Kuramdan Uygulamaya Türkçe Öğretimi. Dersal Yayıncılık, Ankara.
10. Yorulmaz, Murat (2009). Göreve Dayalı Öğretim Yönteminin Türkçenin Yabancı Dil Olarak Öğretiminde Dinleme Becerisinde Kullanılmasının Avantajları. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yük. Lis. Tezi. Edirne.

TURKIYADA O‘ZBEK TILINING O‘QITILISH TARIXI VA METODIKASI (ANQARA UNIVERSITETI MISOLIDA)

Aynur O‘z O‘zjan
filologiya fanlari doktori, professor,
Anqara universiteti professori (Turkiya)

Barchamizga ma’lumki, Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning mustaqilligini birinchi bo‘lib tan olgan qardosh davlatdir. Bu esa aloqalarimizning uzoq yillarga tayanishidan dalolat beradi. Mustaqillikka erishgandan keyin o‘zbek tilidan foydalanish va uning dunyo bo‘ylab o‘rgatilishi alohida bir ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili maqomiga erishishi uchun qo‘yilgan qadam o‘zbek tilining O‘zbekistondan tashqarida o‘rgatilishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu jumladan, O‘zbekistonning o‘zbek tiliga bergan e’tibori Turkiyada ham o‘z aksini topdi. Turkiy davlatlar, jumladan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritishi munosabati bilan Turkiya Respublikasining Prezidenti farmoniga binoan1992-yilda Turkiya Respublikasining ilk universiteti bo‘lgan Anqara universitetida Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturk tomonidan tashkil etilgan Til, tarix va jo‘g‘rofiya fakultetida “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedrasi ochildi.

1992-yilda kafedra ochilgandan keyin turkiy davlatlardan olimlar taklif qilindi. O‘zbekistondan ham hurmatli olim, kelgusida ilmiy ishimga rahbarlik qilgan professor Iristoy Qo‘chqortoyev tashrif buyurdilar. U kishi bakalavr, magistratura, doktorantura talabalariga o‘zbek tili grammatikasi va leksikologiyasi fanlaridan dars berdi, kafedramizda ilmiy kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shdi.

Kafedramiz nafaqat universitetimizda, balki Turkiyaning boshqa univetsitetlarida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislarni yetishtiruvchi muassasalar orasida ham asosiy o‘rinni egallab kelmoqda. Kafedrada ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg‘iz, xakas, yoqut, tuva kabi turkiy tillar bilan birgalikda o‘zbek tili ham o‘qitilmoqda.

Anqara Universiteti Til, tarix va jo‘g‘rofiya fakulteti “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedrasidagi tajribalar boshqa universitetlarda ham bunday kafedraning ochilishiga turtki bo‘ldi. Anqara universitetidan keyin 1992-yilda G‘ozi universitetining Fan-adabiyot fakultetida “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedrasi ochildi. 1993-1994-o‘quv yilida Mug‘la Sitqi Ko‘chman Universitetining Fan-adabiyot fakulteti tarkibida ham “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedrasi o‘z faaliyatini boshladi. Hozirgi vaqtda bu uch universitetdan tashqari Turkiyaning bir qancha universitetlarida ham aynan shunday kafedra ochildi. Turkiyada dastlab “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedrasi Anqara universitetida ochilgani sababli kafedra zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklandi.

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili va adabiyotidan mutaxassis yetishtirish uchun xoslangan yangi ochilgan bir qator kafedralar uchun mutaxassis tayyorlash,

o‘quv jarayonini tashkil etish borasida tajribalar almashinush ana shunday ma’sulyatli vazifalardan biri edi. Shu nuqtai nazardan, kafedramizning o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha tajribalari boshqa universitet kafedralariga dasturul amal bo‘lib xizmat qildi. Turkiyadagi boshqa universitetlarning “Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot” kafedralaridan farqli o‘laroq bizda o‘zbek tili har tomonlama mukammal darajada o‘rgatilmoqda. Boshqa kafedralarda o‘zbek tili fani ikkinchi yoki uchinchi kursda bir semestr davomida o‘qitiladi, Anqara universitetida esa o‘zbek tili fani birinchi kursning birinchi semestridan e’tiboran majburiy fan sifatida o‘tiladi, shu bilan birga, bu fan sakkiz semestr mobaynida davom etadi. Kafedramizda bakalavr bosqichi talabalari 4 yil davomida jami 24soat “O‘zbek tili”, 4 soat “O‘zbek tilini o‘qib-tushunish”, 4 soat “O‘zbek tilida o‘g‘zaki va yozma ish yuritish”, 8 soat “O‘zbek adabiyoti”, 2 soat “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, 2 soat “O‘zbek tili leksikalogiyasi” va 2 soat “O‘zbekiston tarixi” fanlarini o‘qiydilar.

Birinchi kursning birinchi semestrida “O‘zbek tili I” fanini o‘qigan talabalarga o‘zbek tili fonetikasi batafsil o‘rgatiladi va boshlang‘ich leksik minumumlar o‘rgatiladi. Bu davrda talabalar o‘zbek tilining alifbosidan boshlab, unli va undosh tovushlar, tildagi fonetik hodisalarni kiril alifbosida o‘rganadilar, natijada talabalar kiril alifbosida ham o‘qish va yozishdan xabardor bo‘ladilar. Talabalar o‘zbekcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishi uchun darslarda talaffuz mashqlari o‘tkaziladi. Talabalar o‘zbek alifbosidagi ba’zi harflarning birdan ortiq tovushni ifoda etganligi tufayli ularni talaffuz qilishga qiynalishadi. Shu sababli ham unli tovushlar mavzusiga amaliy dars soatlari ko‘proq ajratiladi. Bu darslarda o‘zbekcha manbalardan, xususan, O‘zbekistonda chop etilgan kitoblardan talabalar darajasiga mos matnlar o‘qitiladi.

Ikkinchi semestrdan e’tiboran o‘qitiladigan “O‘zbek tilining morfologiyasi” fani to‘rtinchi kursga qadar davom etadi. Birinchi kursning ikkinchi semestridan boshlab talabalarga grammatik ma’no, grammatik shakl tushuntiriladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda e’tiborga olinadigan qoidalar batafsil o‘rgatiladi. O‘zbek tili grammatikasidagi so‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari tili turk grammatikasidagi qoidalarga solishtirilib tushuntiriladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan otlar va uning grammatik kategoriyalarining barcha qonun-qoidalari o‘rgatiladi. Hurmat kategoriyasi mavzusiga alohida to‘xtash orqali talabalarning bu mavzuni tushunishlari uchun maxsus dialoglar va matnlar o‘qitiladi. Bu maqsadda qisqa va oson tushuniladigan, kundalik hayotga oid so‘zlar ko‘p qo‘llaniladigan matnlar tanlanadi. Xususan, ikkinchi kursdan boshlab Afandi latifalaridan foydalaniladi. Keyinchalik yanada katta hajmdagi matnlarga o‘tiladi.

Sifat, olmosh va son so‘z turkumlari turk tili bilan solishtirilib o‘rgatiladi. Son so‘z turkumi turk tilida alohida so‘z turkumi sifatida ajratilmagani uchun bu so‘z turkumi haqida ko‘proq tushuncha berishga to‘g‘ri keladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan “Fe’llar” mavzusi ikkinchi kursning ikkinchi semestrida yarim yil davomida keng qamrovda o‘qitiladi. Fe’l so‘z turkumi ham turk tili bilan qiyoslanib tushuntiriladi. Grammatik mavzularni o‘zlashtirish oson bo‘lishi uchun o‘zbek hikoyalaridan misollar o‘qitiladi. Talabalar o‘rganilgan grammatik

kategoriyalar va so‘z turkumlarini matnlar ichidan topib tahlil etish bo‘yicha topshiriqlar bajarishadi.

Bundan tashqari, talabalarning o‘qigan matnlariga qarab tushunish darajasini aniqlash maqsadida matn haqida o‘zbekcha (savol-javob shaklida) suhbatlar o‘tkaziladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan oxirgisi bo‘lgan ravishlar mavzusu ham o‘tilgandan keyin o‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumlari haqida ma’lumotlar beriladi.

Ikkinchi kursning ikkinchi semestrida talabalar “O‘zbek tilini o‘qib-tushunish” darslarini olishadi. Bu darslarda talabalarning saviyasiga mos matnlar tanlanilib, o‘qigan matnni tushunish va o‘z fikrini ifoda etish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Uchinchi kursning birinchi semestrida yordamchi so‘z turkumlariga oid mavzular bayon etiladi. O‘zbek tilidagi ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rgatiladi. Bu so‘z turkumlarining o‘ziga xos jihatlarini anglatish jarayonida turk tilidagi muqobillari bilan solishtirilishi natijasida talabalarning bu so‘z turkumlarini to‘g‘ri qo‘llashi va bexato tarjima etishi ta’minlanadi. Uchinchi kursning ikkinchi semestrida “O‘zbek tili sintaksisiga kirish” fanidan dars o‘tiladi, bu darsda o‘zbek tilidagi gap bo‘laklari va sodda gaplarnin o‘ziga xosliklari tushuntiriladi.

To‘rtinchi kursning dastlabki semestrida talabalarga o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplar va ularning turlari mukammal o‘rgatiladi. Dars o‘tsih jarayonida gap bo‘laklarini tahlil qilish usuli bilan bu mavzu mustahkamlanadi. Uchinchi kursning dastlabki semestridan boshlab ikki semestr “O‘zbek tilida ish yurutish” fani o‘tiladi.

Kafedramizda to‘rtinchi kurs talabalariga “O‘zbek dialektologiyasi” fani ham o‘qitiladi. O‘zbek shevalarining fonetik, morfologik va leksikologik xususiyatlari haqida umumiy ma’lumot berilgandan keyin talabalar tomonidan shevalarda yozilgan matnlar o‘rganiladi. Bu matnlarning adabiy tildagi shakli asosida fonetik o‘zgarishlar ko‘rsatiladi.

Kafedramizda til darslaridan tashqari o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyoti, O‘zbekiston tarihi bilan bog‘liq fanlar ham professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladi. “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” fanidan umumiy 8 soat dars beriladi. Og‘zaki adabiyot esa asosan o‘zbek og‘zaki ijodini tanitish bilan cheklanadi. Talabalar 4-kursda bitiruv malakaviy ishi yozadilar.

Bu darslar, yuqorida ta’kidlangani kabi, O‘zbekistonda chop etilgan darslik ve o‘quv qo‘llanmalar asosida tushuntiriladi. Til darslarida, ayniqsa, grammatika darslarida ushbu kitoblar yetarli darajada. Lekin talabalarga o‘zbekcha gaplashishni o‘rgatish doirasida manbalar yetarli emas. O‘zbekistonda chet elliklar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishga oid nashr etilgan manbalar bizga bu masalada asqotadi. Qardosh xalqlarning o‘zbek tilini o‘qitishga mo‘ljallangan kitoblarga ehtiyoji kundan-kunga ortibormoqda.

Kafedramizda magistratura va tayanch doktorantura bosqichlarida magistrant va doktorantlar ikki semestr davomida “O‘zbek tili” fanidan tahsil olishadi. Bu fan magistrant va doktorantlarni mutaxassis sifatida shakllantiradigan darajada olib boriladi. Til sohasida ilmiy ish olib boradigan talabalarga til darslari, adabiyot

sohasida ilmiy ish olib boradigan talabalarga esa adabiyot darslari beriladi. Magistrant va doktorantlar darslarni muvaffaqqiyatli tamomlaganlaridan so‘ng dissertatsiya yozishni boshlashadi.

Bo‘limimizda bakalavr, magistratura va doktorantura bosqichlari talabalari tomonidan o‘zbek tili va adabiyoti bilan bog‘liq mavzularda dissertatsiyalar yozildi va hozirda ham tayyorlanmoqda.

Bo‘limimizda o‘zbek tili va adabiyoti bilan bo‘g‘lıq ancha ilmiy ishlar amalga oshirildi, bir qator tarjima ishlari qilindi. Xususan, o‘zbek yozuvchilarining ko‘plab asarlari turkchaga o‘girildi. Misol uchun, o‘zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri bo‘lgan Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asari turk tiliga tarjima qilinib, 1997-yilda bosildi (I.Qo‘chqortoyev, Aynur O‘z. Gelinlerin İsyanı-Kelinlar qo‘zg‘oloni “, Ecdad yayınları, Anqara, 1997). I. Qo‘chqortoyev, Aynur O‘z O‘zjon Gelinlerin İsyanı. Tiyatro Almanağı V, s.137-190).



Bundan tashqari, o‘zbek xalq o‘g‘zaki ijodining gultoji bo‘lgan *“Alpomish” dostoni* 2000-yilda turk tiliga tarjima qilindi. (Aynur O‘z O‘zjon, Shimshak Jonpo‘lat. *Alpamış Destanı.* Anqara, 2000). Shu jumladan, o‘zbek adabiyotining Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Botu, Zulfiya kabi 40 dan ortiq ijodkorning hayoti va asarlaridan saylanmalar nashr qilindi. (*Türkiye Dışındaki Türk edebiyatları Antolojisi “Turkiyadan tashqaridagi Turkiy adabiyotning antologiyasi: o‘zbek adabiyoti, 15-II*, Madaniyat Vazirligi, Anqara, 2000).

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq ishlar va orttirilgan tajribalar turli maqolalar va kitoblarda o‘z ifodasini topdi. 2009-yilida xalq og‘zaki ijodining eng kichik turlaridan biri bo‘lgan va “hayot qomusi” deb baholanadigan madaniyat xazinasi – o‘zbek maqollari ham to‘planib, kitob shaklida bosildi. (Oynur O‘z O‘zjon. *Kadınlarla İlgili Özbek Atasözleri - Xotin-qizlar bilan bog‘liq o‘zbek maqollari.* Ankara: Grafiker Nashriyoti, 2009). O‘zbek maqollari bilan bog‘liq o‘ndan ortiq maqolalar ham chop etildi. O‘zbek maqollarining turkcha nashri chiqish arafasidadir.



Tanıqli tilshunos olim Iristoy Qo‘chqortoyev sakkiz yil davomida Anqara Universiteti Til va tarih-jo‘grafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot bo‘limida ishlab, son-sanoqsiz talabalarga ustozlik qildi. O‘z ilmiy ishlarini Turkiyada ham davom ettirgan ustozimiz juda ko‘p maqolalar yozdi. Olimning

maqolalari shogirdlari tomonidan tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlab to‘plam sifatida nashr qilindi. (Oynur O‘z O‘zjon, 2018, *Doğumunun 80. Yılı Münasebetiyle Pro.Dr.İristayKuçkartayev’in Türkiye’deki Bilimsel Mirası “ Tavalludinig 80 yilida Professor Iristoy Qo‘chqortoyevning Turkiyadagi ilmiy merosi.* Anqara: Turk tili qurumu).



Bundan tashqari, Modern Türklük Araştırmaları Dergisi “Modern Turkluk Arashtirmalari(MTAD)” jurnalining 2016-yil sentabr soni ham Iristoy Qo‘chqortoyev tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlandi. Olimning shogirdlari tomonidan tayyorlangan bu sonda o‘zbek tili bilan bog‘liq ilmiy maqolalar o‘rin oldi. (http://mtad.humanity.ankara.edu.tr/XIII-3Eylul2016.php.)

Anqara Universiteti Til va tarix-jo‘g‘rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot bo‘limi O‘zbekiston bilan hamkorlikda ilmiy anjumanlar tashkil qildi. 2006-yilda O‘zbekiston Respublikasi Anqara Elchixonasi bilan birgalikda o‘tkazilgan Doğumunun *565. Yılında Büyük Özbek Şairi, Devlet Adamı Alişir Nevayi Bilimsel Toplantısı“Buyuk O‘zbek shoiri, davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 565 yilligi”* ilmiy anjumani bulardan biridir. Bu ilmiy anjumanda Alisher Navoiyning ijodi har tomonlama tahlil qilindi. 2009-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharshunoslik instituti bilan hamkorlikda

Tarihselden Moderne Özbekistan: Timur Dönemi ve Sonrası Kaynak Araştırmaları Sempozyumu “O‘tmishdan bugungacha O‘zbekiston: Amir Temur davri va keyingi manbalar tadqiqotlari” simpoziumi bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlangan bu sempoziumda ko‘plab yetuk olimlar qatnashdi hamda Temuriylar davri bo‘yicha qiziqarli ma’ruzalar qildi.

2020-2021- o‘quv yili 2-semestrida Anqara Universiteti Til va tarix-jo‘g‘rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va turkiy adabiyot bo‘limi Mirzo Uug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika fakulteti, O‘zbek tilshunosligi va O‘zbek adabiyotshunosligi kafedralari bilan hamkorlikda “Zamonaviy turkologik tadqiqotlar ma’ruzalari”ni tashkil qildi. Bu seminarlarda ishtirok etgan 14 nafar o‘zbek va turk olimlari o‘zbek tilshunosligi, turk tilshunosligi, turkiy tillar tarixi sohalarining dolzarb masalalari bo‘yicha qiziqarli ma’ruzalar o‘qishdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, aynan mana shunday hamkorlikda tashkil etilgan simpozyum va seminarlar O‘zbekiston-Turkiya aloqalarining yana ham rivojlanishiga, olimlarning o‘zaro fikr almashinishiga katta hissa qo‘shadi. Bugungi tadbirning barcha tashkilotchilariga chin dildan samimiy minnatdorchilik bildiraman. Kelajakda do‘stona aloqalarimiz va ilmiy hamkorligimizning muvaffaqiyatli davom ettishiga umid qilaman.

ЎЗБЕК ТИЛИНИ ХОРИЖИЙ ТИЛ СИФАТИДА ЎҚИТИШДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Худайбергенова Зилола
филология фанлари доктори, профессор
Бартин университети профессори
(Туркия) aloliz74@mail.ru
zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

Бугунги глобаллашув даврида ҳар қандай ташаббуснинг якуний мақсади самарали натижага эришишдан иборат. Муваффақиятга эришишнинг калити эса мулоқот, коммуникацияга бориб тақалиши олимлар тарафидан эътироф этилган. Маданиятлараро, давлатлараро муваффақиятли мулоқотнинг гарови эса, нафақат, тил билиш, балки миллий маданият ва миллий менталитет, миллий урф-одатлар ва анъаналарни билиш тақозо этилади. Бу ўринда ҳақли савол туғилади: Жамиятнинг ҳар бир аъзоси ҳам осонлик билан мулоқотга кириша оладими? Албатта, йўқ. Чунки мулоқот типига кўра барча инсонларни шартли равишда икки гуруҳга бўлиш мумкин: **интровертлар ва экстравертлар**[11]. Баъзи одамлар мулоқотга осонлик

билан киришишга мойил бўладилар, суҳбат жараёнида етакчилик қиладилар. Улар учун суҳбатни бошлаш ёки бошқа одамлар билан танишиш қийин эмас. Бундай одамлар экстраверт ҳисобланади. Бундай шахсларнинг танишлари, ўртоқлари кўп бўлади. Бундай талабаларга тил ўргатишда мустақилликка йўналтирилган, ижодийликни ривожлантирувчи топшириқлар лозим.

Интровертлар бошқа масала. Улар мулоқотда фаол эмас, кўпинча жим ўтиришади, суҳбат жараёнида ташаббус кўрсатишмайди, бошқалар билан осонликча танишишмайди, саволларга кўпинча қисқа жавоб беришади. Интроверт талабаларга мустақил қарор қабул қилиш керак бўлган топшириқларни, активлик талаб этиладиган машқларни ёқтиришади. Уларга аниқ ташкил этилган, ўқитувчи батафсил тушунтиришига асосланган дарслар маъқул келади [6; 9]. Ўзбек тилини хорижликларга ўқитишда интроверт ва экстраверт талабаларни фарқлай билиш керак. Фандан белгиланган мақсадга эришиш учун талабаларнинг ички хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Талабаларнинг нутқий фаолиятини таҳлил қилиш орқали талабаларнинг экстравертлиги/ интровертлигини аниқлаш мумкин: таниш/ нотанишлар билан суҳбатда тортинчоқлик/сўзамоллик, талабанинг нутқий статуси, одатий ва ноодатий вазиятлардаги хулқи, шахсий ишларини муҳокама қилишга тайёрлик/ тайёр эмаслик ва б. Шунингдек, талабаларнинг экстраверт / интровертлигини аниқлаштирувчи анкета сўровномаси ўтказиш мумкин.

Узоқ муддат давомида тил ўқитиш назарияси ва амалиётида грамматик-таржима услубининг устунлиги туфайли нутқий компетенцияни эгаллаш грамматик ва семантик жиҳатдан тўғри жумлаларни қуриш учун тил тизимини онгли ёки интуитив билишни англатган эди. Хусусан, унинг амалга оширилиши, дейилганда, нутқ орқали тизим ҳақидаги билимларни намойиш этиш кўникмаси ва қобилияти назарда тутилган.

Чет тилларни ўқитиш методикасида бундай компетенция ғояси ва уни амалга ошириш йўллари тилшунослик соҳаси таъсири остида шаклланди, улар тил фанида грамматиканинг етакчи ўринни белгилаб бердилар ҳамда улар таклиф қилган грамматик тизимларнинг мулоқотни бошқарадиган психологик грамматикаларнинг ажралмас қисми эканлигини исботлашга ҳаракат қилдилар.. Психолингвистиканинг юзага келиши билан вазият тубдан ўзгарди. Тадқиқотнинг марказий объектини коммуникатив фаолият эгаллади, натижада ўқув машғулотининг мақсади нутқ фаолияти ва мулоқот соҳаларининг ҳар хил турлари бўйича коммуникатив компетенцияни эгаллашга айланди. Тилшуносларнинг аввалги муваффақиятсизликлари компетенцияни нутқ ҳаракатлари ва сўзлар билан эмас, балки жумлалар билан шуғулланадиган лингвистик соҳа деб тушунганлари сабабли юзага чиққанлиги психолингвистика соҳасидаги мутахассислар томонидан жуда аниқ ва ишончли далилланган.

Фаолият назарияси ва психолингвистика доирасида ишлаб чиқилган хорижий тилларни ўқитишга фаолиятли-психологик ёндашиш олимларга ва амалиётчи методистларга, умуман, тилларни ўқитишнинг коммуникатив йўналиши ва хусусан, коммуникатив компетенция моҳиятини тушунишга

имкон берди. Коммуникатив компетенция замонавий маънода мураккаб бир яхлит тушунча бўлиб, уни битта назария доирасида таърифлаш мумкин эмас. Бизнинг фикримизча, коммуникатив компетенция муаммоларини услубий, лингвистик, психологик ва социолингвистик муаммолар деб гуруҳларга ажратиш мумкин. Шубҳасиз, ушбу ёндашувга кўра, коммуникатив компетенциянинг мазмуни – бу мулоқот вазиятларини шакллантирувчи барча таркибий қисмларнинг услубий, лингвистик, психологик ва социолингвистик жиҳатдан мувофиқлаштирилган бирлашмаси, шунингдек талабаларнинг ўз нутқий хатти-ҳаракатлар дастурларини тушунишлари ва яратишлари учун зарур бўлган билим ва кўникмалар жамини қамраб олади. Коммуникатив компетенциянинг ўзига хослиги ва кўлами ўқувчилар ўзлари олдига қўйган тилларни ўрганиш мақсадларига, уларнинг қизиқишлари ва турткиларига, танланган ролларига, ўқув жараёнида ва у тугаллангандан сўнг амалга ошириладиган алоқа фаолияти турларига боғлиқ. Коммуникатив компетенция таркибининг кўплаб объектив ва субъектив омилларга боғлиқлиги уни турли тоифадаги талабалар учун ўзгарувчан қилади, бу, албатта, ҳар қандай алоқа вазиятларида зарур бўлган кўникмалар, тайёрлик ва қобилиятлар тўпламидан иборат бўлган умумий коммуникатив ядро мавжудлигини истисно етмайди.

Коммуникатив кўникмаларни шакллантиришнинг қонуниятлари мавжуд. Коммуникатив кўникмаларни шакллантиришнинг асосий қонуниятлари - тинглаш, гапириш, ўқиш ва ёзиш малакалари ҳали ҳам етарлича ўрганилмаган, дейиш мумкин[1; 5]. Шунга қарамай, ўқитувчининг эътиборини жалб қилиш зарур бўлган, ўзбек тилини хорижлик талабаларга ўргатиш учун нутқ фаолиятининг бир нечта асосий қонуниятларини ажратиб кўрсатиш мумкин.

Биринчи қоида: Мулоқот қилишни фақатгина коммуникатив фаолият жараёнида ўрганиш мумкин. Тинглаш, гапириш, ўқиш ва ёзиш кўникмаларини ривожлантириш жараёнида ҳар қандай фаолиятни ўрганишнинг асосий қонуниятига таяниш керак, яъни ҳар қандай фаолиятни фақат шу фаолият жараёнида ўрганишингиз мумкин.

Айнан шу қонуният чет тилидаги мулоқот орқали (бу ўринда хорижлик талабалар учун чет тили бўлган ўзбек тили назарда тутиляпти) чет тилида мулоқот қилишни ўрганишга асосланган ётади: гапириш орқали гапириш, ўқиш орқали ўқиш, тинглаш орқали тинглаш, ёзиш орқали ёзиш ўрганилади [7]. Шунинг учун ҳам коммуникатив кўникмаларни шакллантиришнинг энг муҳим шарти талабаларнинг нутқ фаолиятининг тегишли турларида машқ қилдиришдир.

Taklif qilinayotgan mustaqil ishlar, eng avvalo, talabalar bajara oladigan holatda bo‘lishi, yangiliklardan foydalangan ravishda tuzilgan bo‘lishi, muammoli vaziyatlar qo‘llangan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bir xil mazmundagi, bir xil ko‘rinishdagi topshiriqlarni bajarish talablar uchun qiziqarli bo‘lmaydi. Shuning uchun mustaqil ishlar mazmunida ijodkorlik, ijodiy izlanishni talab qiladigan jihatlar bo‘lishi, odatdagidek bo‘lmagan yondashuvlarning bo‘lishi, qo‘shimcha bilim va malakalarning talab qilinishi, ayniqsa, talabalarning qiziqish doirasi mazmunida bo‘lgan topshiriqlar ularni ko‘roq jalb etishi mumkin. Shunga qaramasdan talabalarning eng yuqori darajadagi qiziqishlari ular uchun tamomila yangi bo‘lgan axborotlarga nisbatan paydo bo‘ladi, axborotning asosiy qismi talabalarning dunyoqarashi, bilim va malakalari darajasida bo‘lishi talab qilinadi. Mana shunday holatdagina talabalarning qiziqishlari yuqori bo‘ladi, mustaqil ishning samaradorligiga erishish imkoni katta bo‘ladi. Mustaqil ishlarni tayyorlash amaliyoti davrida olingan bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida uning samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi, tanlangan yo‘nalish bo‘yicha doir asosiy kasbiy ko‘nikmalarni, shuningdek, qo‘shimcha ko‘nikmalarni shakllantirishga, mustaqil, faol va o‘z ustida ishlashga tayyor mutaxassislarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Бим И.Л. Некоторые актуальные проблемы современного обучения иностранным языкам // Иностранные языки в школе. М., 2001. № 4. С. 5-7.

2.Лапидус Б. А. Обучение второму иностранному языку как специальности. М.: «Высшая школа»,1980. С.−175.

3.Профессиональная компетенция преподавателей перевода английского языка.Учебно-методическое пособие / Д. М. Бузаджи и др. – М.: ИПК МГЛУ «Рема», 2010. С.− 239.

4.Рахманов И. Б. Очерки по методике обучения немецкому языку. М.: «Высшая школа»,1980. С.− 241.

5. Рабочая программа дисциплины Б1.О.19.04 Практический курс второго иностранного языка (узбекского) 41.03.01– Зарубежное регионоведение. Направленнность (профиль, специализация) образовательной программы: Междунароно-политический анализ регионов мира. –М.: 2019. С.– 58.

1-SHO‘BA. MULTILINGUALIZM MUHITIDA O‘ZBEK TILI VA MADANIYATINI O‘RGATISH MASALALARI

OTATURK UNIVERSITETIDA O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ILMIY TADQIQOTLAR VA FAOLIYATLAR

Hüseyin BAYDEMİR
f.f.d., Otaturk universiteti professori (Turkiya)
huseyinbaydemir@gmail.com

Ushbu maqolada faqat so‘nggi o‘ttiz yildan beri Otaturk universiteti adabiyot fakultetida olib borilgan o‘zbek tili, adabiyoti, folklori bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar va faoliyatlar haqida ma’lumot berildi.

Otaturk universiteti adabiyot fakultetida tashkil etilgan birinchi bo‘limlardan biri – bu turk tili va adabiyoti kafedrasidir. 1958-yilda o‘quv faoliyatini boshlagan ushbu bo‘limda turkologiya tadqiqotlari boshidan buyon uzluksiz davom etib kelmoqda. Geografik yaqinl2-ikning afzalligi bilan Otaturk universiteti turkologlari ozarbayjonlik hamkasblari bilan 1970-yillardan beri yaqin aloqalarni o‘rnatdilar va SSSR chegaralaridan oshib, til va adabiyot sohalarida izlanishlar olib bordilar. Turkiy olam bilan filologiya sohasidagi dastlabki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar sifatida qabul qilishimiz mumkin bo‘lgan ushbu faoliyatlar natijasida Otaturk universiteti kutubxonalariga boshqa turkiy tillarda yozilgan dastlabki nashrlar kela boshladi. O‘rnatilgan ushbu dastlabki aloqalar natijasida, hatto Sovet Ittifoqi qulashidan oldin ham ozarbayjonlik olim filologiya fanlari doktori, professor Abbos Zamanov o‘z kitoblarini Otaturk universiteti adabiyot fakulteti kutubxonasiga sovg‘a qilganlar. Ammo bu kitoblar Ozarbayjon mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina keltirilishi mumkin bo‘ldi. Professor Abbos Zamanov tomonidan sovg‘a qilingan ushbu kitoblar orasida boshqa turkiy tillar va adabiyotlarga oid nashrlar, shuningdek, o‘zbek tili, adabiyoti va folkloriga oid kitoblar ham mavjud edi. Masalan, ular orasida Moskvada nashr etilgan ikki tomlik "O‘zbek tilining izohli lug‘ati" ham borligini alohida qayt etish kerak. 1990-yillarning boshidan boshlab, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, Otaturk universiteti ilmiy xodimlari O‘zbekistonga, ayniqsa magistrlik ishlari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish uchun borishdi. 1993-yildan boshlab Otaturk universitetida O‘zbek tili, adabiyoti va folklori mavzuida dissertatsiyalar himoya qilina boshlandi. Shu nuqtai nazardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston madaniyati bilan bog‘liq birinchi dissetatsiya - bu ff. doktori, professor Bilge Seyidog‘lu ilmiy rahbarligida tayyorlagan "Go‘ro‘g‘li eposining o‘zbek varianti bo‘yicha qiyosiy tadqiqot" nomli magistrlik dissertatsiyasi bo‘lib, 1993-yilda himoya qilingan. Xuddi shu yillarda doktorantlar ham O‘zbekistonga yuborila boshlandi. 1995-yilda Otaturk universiteti adabiyot fakulteti tarkibida hozirgi turkiy tillar va adabiyotlar kafedrasi tashkil etildi. Bakalavriat talabalari 2008-yildan beri hozirgi turkiy tillar va adabiyotlar kafedrasiga qabul qilinmoqdalar. Bakalavriat darajasida *O‘zbek tili I-II; Yangi o‘zbek adabiyoti I-II,*

O‘zbekcha matn tarjimasi, o‘zbekcha matn tahlili, Eski o‘zbek tili, O‘zbek mumtoz adabiyoti fanlaridan darslar beriladi. 2013-yildan boshlab magistrantlar qabul qilindi. *Magistrantlarga o‘zbek tili fonologiyasi, o‘zbek tili morfologiyasi, Yangi o‘zbek adabiyotida she'riyat, Yangi o‘zbek adabiyotida nasr va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi fanlari*dan saboq beriladi. Bugungi kunga qadar taxminan 1100 talabaga o‘zbek tili, adabiyoti va folklori bo‘yicha darslar o‘tkazildi.

Quyida Otaturk universitetida amalga oshirilgan o‘zbek tili, adabiyoti va folkloriga oid ilmiy tadqiqotlar va faoliyatlar yillar bo‘yicha xronologik tartibda keltirilgan. Hozirda davom etayotgan dissertatsiyalar va nashr etish bosqichida bo‘lgan tadqiqotlar ham ushbu ro‘yxatga kiritildi. Tadqiqotlar va faoliyatlar, 1. *Dissertatsiyalar (magistrlik dissertatsiyalari, doktorlik dissertatsiyalari),* 2. *Kitoblar / Kitoblardagi bo‘limlar,* 3. *Maqolalar*, 4. *Simpoziumlar / Konferentsiyalar va boshqalar* 5. *Tarjima va Tahririyatlar* shaklida beshta asosiy sarlavha ostida birlashtirilgan. Jami 34ta dissertatsiyadan 28tasi magistrlik dissertatsiyasi va 6tasi doktorlik dissertatsiyasidir. Kitoblar yoki kitoblardagi bo‘limlar nomi ostida jami 25ta nashr mavjud. Ularning 16tasi kitoblar, 9tasi kitoblardagi bo‘limlardan iborat. Hakamli jurnallarda chop etilgan maqolalar soni 34tani tashkil etadi. Simpoziumlar ve konferentsiyalar sarlavhasi ostida jami 38ta tadbir o‘tkazildi. Ular orasida xalqaro simpoziumlarda taqdim etilgan 11ta maqola to‘liq matn sifatida va 3ta maqola qisqacha matn sifatida nashr etildi. Tarjimalar va tahririyatlar nomi ostida 42ta nashr mavjud. Ularning 7tasi kitoblar, qolganlari maqola yoki hikoya tarjimalaridir. Hammasi bo‘lib 173ta ilmiy tadqiqotlar va tadbirlarning 167tasi O‘zbekiston sohasiga tegishli bo‘lib, ulardan 7tasi Afg‘onistonda yashovchi o‘zbeklar jamoasiga tegishli. Ushbu 7ta tadqiqotning barchasi magistrlik dissertatsiyasidir.

Otaturk universiteti ilmiy xodimlari tomonidan olib borilgan ushbu 173 ilmiy tadqiqotlar yoki tadbirlarning taqsimoti quyidagicha:

	Dissertatsiya	*Kitob yoki Kitobda Bo‘lim*	*Maqola*	*Simpozium Konferensiya va h-k.*	*Tarjima yoki tahririyat*	**Jami**
Yangi ad.	7	2	4	4	37	**54**
Folklor	9	7	14	20	1	**51**
Til	16	12	9	8	2	**47**
Mumtoz ad.	2	2	6	4	2	**16**
Umumiy	-	2	1	2	-	**5**
Jami	**34**	**25**	**34**	**38**	**42**	**173**

1. Tezler (Dissertatsiyalar)

1.1. Yüksek Lisans Tezleri (Magistirlik dissertatsiyalari)

Kırbaşoğlu, Filiz (1993). *Köroğlu Destanı’nın Özbek Rivayeti Üzerine Karşılaştırmalı Bir Çalışma.* Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Bilge Seyidoğlu)

Baydemir, Hüseyin (1998). *Rüstem Han Destanı (Metin-İnceleme)*, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Bilge Seyidoğlu).

Güler, Mustafa (2011). *Pirimkul Kadir'in 'Ana Laçin Vedası' Romanı (Dil İncelemesi-Metin)*, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Yrd. Doç. Dr. Hüseyin Baydemir).

Fevzi, Firuz (2013). *Maymana (Özbek) Şehir Folkloru*, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Doç. Dr. Hüseyin Baydemir).

Housain, Hairatullah M. (2015). *Tuhfetullabidin (İnceleme- STT'ye Aktarım-Dizin)*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Dili Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Muharrem Daşdemir)

Darawgar, Sayed Barmak (2016). *Afganistan Özbek Türkçesi Grameri.* Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Dili Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Muharrem Daşdemir)

Hamdard, Hasamuddin (2018). *"Hoca Nazar Hüveyda Divanı (İnceleme-Metin-Sözlük)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Kazım Köktekin).

Quyash, Mujtaba (2018). *Atalarsözü-Akılnıng Közü (Transkripsiyon-İnceleme-STT'ye Aktarım).* Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Dili Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Muharrem Daşdemir)

Aslan, Aslıhan (2019). *"Çolpan'ın Köşe Yazıları (İnceleme-Metin)"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Avcı, Muhammed Lütfü (2019). *Fatih ve Baykara'nın Gazellerinde Dini Unsurların Karşılaştırılması,* Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Doç. Dr. Recai Kızıltunç).

Bakar, Emine (2019). *"Fazıl Yoldaşoğlu'nun Ferhat ile Şirin Hikâyesi"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Bora, Derlihan (2019). *"Özbek Cedit Edebiyatında Hacı Muin ve Tiyatro Eserleri"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Bura, Olena (2019). *Aleksandr Borovkov'un "Bedâyiü'l-Lugat" Üzerine Yaptığı Çalışmanın Türkiye Türkçesine Çevrilmesi ve Dil İncelemesi*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Dili Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Hüsna Kotan).

Koç, Demet (2019). *Üveysî Divanı'ndaki Gazellerin Dil Özellikleri (Ses ve Şekil Bilgisi),* Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Doç. Dr. Recai Kızıltunç).

Oyghagh, Karimullah (2019). *"Afganistan'ın Tahhar Şehrinde Yaşayan Özbek Türkleri Folkloru"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Öztürkci, Hamza (2019). *Çolpan'ın Yarkınay Adlı Piyesi (İnceleme-Metin)*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Topaloğlu, Kenan (2019). *"Özbek Destanlarında Kadın Motifi"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Halk Bilimi (Folklor) Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir).

Faiq, Nisar Ahmad (2021). *Şefika Yarkın'ın Alisdan Bir Ses Adlı Şiir Kitabı Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin-Aktarma- Dil İncelemesi)*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Türk Dili Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Hüsna Kotan).

Atila, Kübra Ece, *"Tağay Murad'ın "At Kişnegen Akşam (Ot Kishnagan Oqshom)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi – Sözlük)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan Ildırı). Devam ediyor.

Çebi, Seda, *"Özbek Yazar Ma'suma Ahmedova'nın Hikâyeleri (İnceleme-Metin)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Devam ediyor.

Dinç, Meryem Cemile, *"Özbek Destanlarında Savaş"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Devam ediyor.

Erdem, Kübra, *"Tağay Murad'ın "Yulduzler Mengü Yanedi (Yıldızlar Ebediyen Parlar)" Adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi - Sözlük)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan Ildırı). Devam ediyor.

Hemşinli, Gülşah, *"Pirimkul Kadirov'un "Erk (Özgürlük)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan Ildırı). Devam ediyor.

Kuzu, Ebru, *"Özbek Yazar Saide Zünnunova'nın Hikâyeleri (İnceleme-Metin)".)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Devam ediyor.

Pekşen, Ezgi, *"Özbek Yazar Mirmuhsin'in Hikâyeleri (İnceleme-Metin)".)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Devam ediyor.

Tayhan, Osman, *"Özbek Yazar Said Ahmad' in Hikâyeleri (İnceleme-Metin)".)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Hüseyin Baydemir). Devam ediyor.

Yapar, Emel. *"Ali Şir Nevai'nin Türkçe Divanlarında Meslekler"*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Doç. Dr. Recai Kızıltunç). Devam ediyor.

Zeliha Erken, *"Tağay Murad'ın "Mama Yer Koşığı (Ana Toprak Türküsü)" adlı Eseri Üzerine Bir Dil İncelemesi (Metin – Aktarma – Dil İncelemesi - Sözlük)"*. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı. (Ilmiy rahbar: Dr. Öğr. Üyesi Nursan Ildırı). Devam ediyor.

1.2. Doktora Tezleri (Doktorlik dissertatsiyalari)

Kırbaşoğlu, Filiz (2000). *Köroğlu Destanı`nın Özbek Varyantları Üzerine Bir Araştırma -Göroğlu`nun Doğuşu, Yunus Peri, Hasan-Han, Miskal Peri; Avazhan, Göroğlu`nun Ölümü,* Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Muhan Bali).

Tekin, Feridun (2001). *Agehi Divanı (Ta'vizül-Aşıkin)'nin Dil Özellikleri (Ses ve Şekil Bilgisi),* Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Efrasiyap Gemalmaz).

Güzeldir, Muharrem (2002). *Abuşka Lügati (Giriş-Metin-İndeks)*. Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Doç. Dr. Avni Gözütok).

Baydemir, Hüseyin (2004). *Özbek Halk Masalları (İnceleme-Metin)*. Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Bilge Seyidoğlu).

Ildırı, Nursan (2016). *Mücrim Abid Dîvânı (İnceleme-Metin-Dizin)*, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Kazım Köktekin).

Kurukaya, Onur (2019). *Eski Türkçeden Çağatay Türkçesine Anlam Olayları*, Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü. (Ilmiy rahbar: Prof. Dr. Kazım Köktekin).

2. Kitaplar / Kitaplarda Bölümler (Kitoblar / Kitoblardagi bo'limlar)

Köktekin, Kazım (2000). *"Seyyid Ahmed Mirza - Taaşşukname (İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım)*". Erzurum: Atatürk Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Yayınları.

Köktekin, Kazım (2007). *Yusuf Emirî Divanı (Giriş-İnceleme-Tenkitli Metin-Sözlük-Tıpkıbasım).* Erzurum: Fenomen Yayınları.

Gözütok, Avni (2008). *Haydar Tilbe – Mahzenü'l-Esrâr (Metin-Dizin-Tıpkıbasım).* Erzurum: Fenomen Yayınları.

Baydemir, Hüseyin (2011). *Özbek Efsaneleri*. Erzurum: Fenomen Yayıncılık.

Baydemir, Hüseyin (2011). "Adil Yakuboğlu'nun Köhne Dünya Romanında Kültürel Düzey", *Bilge Seyidoğlu Kitabı*, (hz. Dilaver Düzgün, Gülhan Atnur, Ahmet Özgür Güvenç, Zeynep Yörük), İstanbul: Dergâh Yayınları, s. 144-153. (Kitapta Bölüm)

Kara, Funda (2011). *Muhammed Yakûb-ı Çingî Zebân-ı Türkî (Kelür-nâme) İnceleme-Metin-Dizin*. Erzurum: Fenomen Yayınları.

Baydemir, Hüseyin (2013). *Özbek Halk Masalları*. Ankara: AKM Başkanlığı Yayınları.

Köktekin, Kazım (2013). *Yusuf Emirî – Dehnâme (İnceleme-Metin-Dizin-Tıpkıbasım).* Ankara: TDK Yayınları.

Kızıltunç, Recai (2015). *Çağatay Edebiyatında Antoloji Geleneği Olarak Beyazcılık.* Erzurum: Fenomen Yayınları.

Baydemir, Hüseyin (2016). "So'z Qiymatini Bilganga", *To Quyosh Sochgayki Nur Erkin Vohidov Hayoti va Ijodi Zamondoshlari Nigohida,* (Nashrga tayyorlovchi va Mas'ul muharrir: Ibrohim G'afurov). Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti, s. 202-210. (Kitapta Bölüm)

Baydemir, Hüseyin (2016). "Erkin Vohidov Haqida Turkiyada Amalga Oshirilgan Ayrim Tadqiqotlar", *To Quyosh Sochgayki Nur Erkin Vohidov Hayoti va Ijodi Zamondoshlari Nigohida*, (Nashrga tayyorlovchi va Mas'ul muharrir: Ibrohim G'afurov). Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti, s. 210-218. (Kitapta Bölüm)

Baydemir, Hüseyin (2016). "Özbek Bahşılık Geleneği ve Termeler", *Türk Dünyası Âşık Edebiyatı*, (Ed. Naciye Yıldız, Fatma Ahsen Turan). Ankara: Gazi Kitabevi, s. 579-634. (Kitapta Bölüm)

Ildırı, Nursan (2017). "Son Dönem Çağatay Şairi Mücrim Âbid ve Türkçe Divânı'ndaki Oğuz Türkçesi Unsurları", *Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları/Makaleler*, Erzurum: ATASEM, Yayın No: 4025652. (Kitapta Bölüm)

Baydemir, Hüseyin (2018). "Abide Bir Şahsiyet: Cumali Şabanov", *Olimlik va Odamiylik Falsafasi*, Toshkent: Mumtoz So'z Nashriyoti, s. 15-24. (Kitapta Bölüm)

Efendioğlu, Süleyman (2019). *Mevlana Lutfi, Gül ü Nevruz (Dil İncelemesi, Metin ve Aktarma, Gramatikal Dizin, Tıpkıbasım)*. Erzurum: Eser Yayınları.

Kızıltunç, Recai (2019). *Muhammed Niyaz Nişati Divan*. Erzurum: Fenomen Yayınları.

Köktekin, Kazım (2019). *Şeyh-Zâde Atâyi Divân.* Ankara: TDK Yayınları.

Öztürkçi, Hamza (2019). *Çolpan'ın Yarkınay Adlı Piyesi (İnceleme-Metin-Aktarma-Sözlük).* İstanbul: Akademi Titiz Yayınları.

Baydemir, Hüseyin (2020). "Tağay Murad'ın 'Atın Kişnediği Akşam' Adlı Eserinde Halk Kültürü Unsurları", *Prof. Dr. Avni Gözütok - Armağan Kitap.* (Ed. Süleyman Efendioğlu, Hüsna Kotan). Erzurum: Atatürk Üniversitesi Yayınları, s. 155-171. (Kitapta Bölüm)

Ildırı, Nursan (2020), "Özbekistan Matbuatında 'Seda-i Fergana' Gazetesi", *Prof. Dr. Avni Gözütok - Armağan Kitap.* (Ed. Süleyman Efendioğlu, Hüsna Kotan). Erzurum: Atatürk Üniversitesi Yayınları, s. 423-433. (Kitapta Bölüm)

Kara, Funda (2020). "Sözlük Bilimi Açısından Kelür-nâme", *Prof. Dr. Avni Gözütok - Armağan Kitap.* (Ed. Süleyman Efendioğlu, Hüsna Kotan). Erzurum: Atatürk Üniversitesi Yayınları, s. 173-191. (Kitapta Bölüm)

Bakar, Emine (2021). *Fazıl Yoldaşoğlu'nun Ferhat ile Şirin Hikâyesi Üzerine Bir İnceleme*, Ankara: Sonçağ Yayınları, 259 s.

Efendioğlu, Süleyman (2021). *Gül ü Nevruz (Dil İncelemesi - Metin ve Aktarma - Gramatikal Dizin - Tıpkıbasım).* Erzurum: Fenomen Yayıncılık.

Baydemir, Hüseyin; Nursan Ildırı, *Büyük Özbekçe-Türkçe Sözlük. (Basım aşamasında).*

Baydemir, Hüseyin, *Özbek Halk Edebiyatı El Kitabı*. *(Basım aşamasında).*

3. Makaleler (Maqolalar)

Baydemir, Hüseyin (2001). "M.T. Aybek'in 'Nevai' Adlı Romanına Sosyolojik Açıdan Bir Yaklaşım", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 18, s. 193-199.

Adıgüzel, Sedat (2002). "Ali Şir Nevayi Yaşamı Edebi Kişiliği ve Eserleri", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 19, s. 109-115.

Baydemir, Hüseyin (2002). "Rüstem Han Destanı ve Destandaki Olağanüstü Motifler", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 20, s. 169-177.

Köktekin, Kazım (2002). "Ali Şir Nevâyi'nin Türkçeciliği", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 19, s. 117-121.

Baydemir, Hüseyin (2006). "Hadi Zarifov ve Folklor Faaliyetleri", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 30, s. 125–132.

Kızıltunç, Recai (2008). "Türk Edebiyatında Tuyug ve Bazı Problemleri", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 37, s. 107-126.

Baydemir, Hüseyin (2009). "Fazıl Yoldaşoğlu'nun Leyla ile Mecnun Hikâyesi Üzerine Bir İnceleme", *Turkish Studies*, Volume 4/3, s. 319-337. (Prof. Dr. Hamza Zülfikar Armağanı).

Baydemir, Hüseyin (2009). "Özbekistan'da İskender, Zülkarneyn, Lokman Hekim ve Hatem Tay ile İlgili Halk Anlatıları", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 41, s. 109-130.

Baydemir, Hüseyin (2009). "Özbekistan'da Ölüm Âdetleri", *Turkish Studies*, Volume 4/8, s. 662-683. (Prof. Dr. Ahmet Buran Armağanı).

Kızıltunç, Recai (2009). "Klasik Doğu Edebiyatlarında Bir Derleme Olarak Beyaz ve Beyaz Geleneği", *Turkish Studies, International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*, Cilt. 4, S.8, s. 1866-1891.

Baydemir, Hüseyin (2010). "Özbek Folklorunda Rekabet ve Yarış", *Acta Turcica Çevrimiçi Tematik Türkoloji Dergisi*, II/1, s. 47-58.

Baydemir, Hüseyin (2010). "Bâbürnâme`de Folklorik ve Etnografik Unsurlar", *Gazi Türkiyat Türklük Bilimi Araştırmaları Dergisi*, S. 7, s. 107-134.

Yavuz, Esra (2010). Said Ahmad'ın "Ufq" Romanı Esasında Özbek Türkçesinde –GAn Ekiyle Yapılan Zarf-Fiiller, Turkish Studies, International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic, Cilt. 5, S. 3, s. 1970-2001.

Baydemir, Hüseyin (2011). "Özbek Koğırçak (Kukla) Tiyatrosu", *Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi*, Cilt: 4, Sayı: 17, s. 63-74.

Baydemir, Hüseyin (2011). "Özbekistanda Geleneksel Tiyatronun Bir Şubesi: Maskarabazlık ve Kızıkçılık", *Turkish Studies - International Periodical For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*, Volume 6/1, s. 741-754.

Baydemir, Hüseyin (2011). "Özbek Folklorunda Diğer Dünyaya Geçiş Noktaları", *Türkoloji Kültürü*, Cilt: IV, Sayı: 7, s. 35-44.

Ildırı, Nursan (2011). "Farsçadan Özbek Türkçesine Geçmiş Kelimelerde Ses Değişmeleri", *Türkoloji Kültürü*, C. IV, N: 7, s. 81-97.

Kızıltunç, Recai (2012). "Halfelik ve Harezm Halfeleri", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 47, s. 197-210.

Kızıltunç, Recai (2012). "Çağatay Edebiyatında Kadın Şairler" *Turkish Studies, International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic*, Cilt.7, s.731-759.

Baydemir, Hüseyin; Akhmedov, Khurshid (2013). "Özbek Yazar Adil Yakubov ile Söyleşi", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi*, S. 51, s. 311-318.

Ildırı, Nursan (2014). "Özbek Hikâyeciliğinde Abdullah Kahhar", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi*, S. 53, s. 197-204.

Baydemir, Hüseyin (2016). "Askiya Şekilleri ve Benzer Türlerle Mukayesesi", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 56, s. 903-921.

Baydemir, Hüseyin (2017) "Özbek Masallarında Milli Motifler" *Journal of Current Researches on Social Sciences*, S. 2, s. 91-100.

Baydemir, Hüseyin (2017). "Uluğbey'in Hazinesi Romanında Tarihi Gerçeklik", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 60, s. 167-180.

Ildırı, Nursan (2017). "Son Dönem Çağatay Şairi Mücrim Âbid'in Türkçe Divânı'nın Söz Varlığı ve Deyimler", *Gaziosmanpaşa Üniversitesi Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi*, Cilt. 12, S. 2, s. 129-147.

Karkınlı, Reyhan (2017). "Özbeklerde Çocuk Oyun - Oyuncak Kültürü ve Çocuk Oyunları Üzerine Bir Tasnif Denemesi" *Turkish Studies*, Volume 12, Issue 22, s. 485-489.

Efendioğlu, Süleyman (2018). "Lütfi'nin Gül ü Nevruz'u ve Yazma Nüshaları", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 60. s. 147-172.

Ildırı, Nursan (2018). "Özbek Türkçesinde Yer Alan "Nafaqat" Yapısının Türkiye Türkçesine Aktarımı", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 61. s. 337-347.

Yavuz, Esra (2018). "Özbek Türkçesi-Türkiye Türkçesi Arasındaki Aktarım ve Çeviri Yazı Problemleri", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 61, s. 215-253.

Kızıltunç, Recai (2019). "El Yazma Seçki Örneği Olarak Beyaz-ı Hazık" *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 62, s. 63-83.

Kotan, Hüsna (2019). "Fālnāme Dānyāl ʿAleyhi's-Selām (Metin-İnceleme-Sözlük)", *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi*, S. 65, 131-152.

Kotan, Hüsna (2019). "Risāle-i Serterāş", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 63, 563-591.

Yavuz, Esra (2019). "Süleyman Efendioğlu'nun Mevlânâ Lutfî "Gül ü Nevrûz" (Dil İncelemesi – Metin ve Aktarma – Gramatikal Dizin - Tıpkıbasım) Adlı Eseri Üzerine", *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 62, s. 435-437.

Kotan, Hüsna (2020). "Ferheng-i Türkî-i Çagatâ-i Be Fârsî", *Kesit Akademi Dergisi*, S. 22, 183-193.

4. Sempozyumlar / Konferanslar / Paneller vb. Faaliyetler (Simpoziumlar / Konferensiyalar / chiqishlar va boshqa faoliyatlar)

Baydemir, Hüseyin (2002). "Özbek Sovyet Edebiyatı", *SSCB Döneminin Türk Dünyası Edebiyatları Üzerindeki Etkileri*, 17 Ekim 2002 Perşembe, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2003). "Özbekistan'da Nevruz ve Nevruz Sofrası", *Türk Dünyasında Nevruz Kutlamaları*, 21 Mart 2003 Cuma, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2003). "Abdülhamit Süleymanoğlu Çolpan", *Türk Dünyasında Edebiyata Yön Verenler*, 16 Ekim 2003 Perşembe, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2004). "Görüntülerle Özbekistan'da Nevruz", *Türk Dünyasına Genel Bakışlar, Görüntülerle Türk Dünyasında Nevruz,* 17 Mart 2004 Çarşamba, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Konferans).

Baydemir, Hüseyin (2004). "Türk Dünyasına Geziler, Görüntülerle Özbekistan İzlenimleri: (Taşkent, Buhara, Semerkant)", 14 Nisan 2004 Çarşamba, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Doç. Dr. Metin Akkuş ile; Konferans/Söyleşi)

Baydemir, Hüseyin (2005). "Hadi Zarifov ve Folklor Araştırmaları", 25 Mayıs 2005, Atatürk Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi Toplantı Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2005). "Adil Yakuboğlu'nun Romanlarında Halk Kültürü", 30 Aralık 2005 Cuma, Atatürk Üniversitesi, Fen-Edebiyat Fakültesi Toplantı Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2007). **"**Sovyetler Birliği Döneminde Özbekistan'da Egemen İdeolojinin Destanları", *Uluslararası Türklük Bilgisi Sempozyumu 25-27 Nisan 2007 Erzurum-Bildiriler I*, s. 171-182.

Baydemir, Hüseyin (2008). "Özbek Düğünlerinden Görüntüler"*, Türk Dünyasına Geziler: Görüntülerle Özbekistan izlenimleri 2,* 19 Kasım 2008 Çarşamba, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2008). "Özbekistan'da Nevruz Sofrası", 21.03.2008 – TRT Erzurum Radyosu. (Söyleşi).

Baydemir, Hüseyin (2009), "Özbek Masallarının Kaynağı ve Motif Yapısı", *Timur Dönemi ve Sonrası Kaynak Araştırmaları (Uluslararası) Sempozyumu*, Ankara, 13-17 Temmuz 2009.

Shabanov, Jumali (2009). "Özbekistan'da Nevruz Gelenekleri", 21.03.2009, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Konferans).

Baydemir, Hüseyin (2010). "Özbek Halk Anlatılarında Diğer Dünyaya Geçiş Noktaları", *Uluslararası Zeki Velidi Togan ve Türk Kültürü Bilgi Şöleni (13-15 Ekim 2010), Afyonkarahisar.*

Erkinov, Aftondil (2010). “Çağatay Edebiyatı ve Ali Şir Nevaî”, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Konferans).

Baydemir, Hüseyin (2011). “Yeniden Yazma Örneği Olarak Yıldızlı Geceler Romanı”, *2. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Sempozyumu (19-21 Ekim 2011), Isparta*.

Baydemir, Hüseyin (2013). “Nevruz ve Türk Dünyası”, 21.03.2013 – Erzurum Polis Radyosu (Söyleşi).

Kara, Funda (2014). “Kelür Nâme Zebân ı Türkî Adlı Çağatayca Farsça Sözlükteki Eş Yazımlı ve Yakın Eş Anlamlı Kelimeler” *VIII. Milletlerarası Türkoloji Kongresi, 30 Eylül - 04 Ekim 2013, Bildiri Kitabı II,* İstanbul, s. 29-56.

Baydemir, Hüseyin (2015). “Türkistan`da Geleneksel Eğlence Kültürü ve Oyunlar Üzerine Bir Tasnif Denemesi" *, Uluslararası Oyun ve Oyuncak Kongresi (7-8 Mayıs 2015, Erzurum) Bildiriler Kitabı, s. 754-762.*

Baydemir, Hüseyin (2015). “Özbekistan’da Nevruz”, 21.03.2015 - Ata Tv. (Söyleşi).

Efendioğlu, Süleyman (2016). “Mevlana Lutfi’nin Gül ü Nevruz Adlı Eseri ve Yazma Nüshaları”, *I. Uluslararası Bilimsel Araştırmalar Konferansı İnsan ve Toplum Bilimleri Sempozyumu (IBAD (19-22 Mayıs 2016, Madrid – İspanya)*, Cilt.1, s. 576-589.

Raufhan, Nurullah Muhammed (2016). “Özbek ve Türk Kültürünün Müşterek Yönleri”, Atatürk Üniversitesi Kültür Merkezi B Salonu, (Konferans).

Ildırı, Nursan (2017). “Son Dönem Çağatay Şairi Mücrim Âbid ve Türkçe Divânı’ndaki Oğuz Türkçesi Unsurları”, *I. Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Bilgi Şöleni*, Erzurum (Özet Bildiri/Sözlü Sunum).

Ildırı, Nursan (2017). “Erkin Vahidov’un Saf Özbekçe ile İlgili Düşünceleri”, *II. Uluslararası Iğdır Sempozyumu,* (Özet Bildiri/Sözlü Sunum)(Yayın No:3905914).

Baydemir, Hüseyin (2018). “Ali Şir Nevai’den Fazıl Yoldaşoğlu’na Leyla ile Mecnun”, Alisher Navoiy va XXI Asr Mavzuidagi Respublika Ilmiy-Nazariy Anjumani Materiallari, Toshkent, 2018, s. 168-176.

Baydemir, Hüseyin (2018). “Özbekistan’ın Tanıtımında Özbek Efsaneleri”, *II. International Congress on Cultural Heritage and Tourism (ICCHT), Selcuk University and MDIS Tashkent University, May 03-05 2018, Tashkent.*

Baydemir, Hüseyin (2019). *“SSCB Döneminde Orta Asya’daki Aydınlar Üzerinde Baskı Politikası”,* 19.01.2019 Türk Ocakları Erzurum Şubesi Konferans Salonu (Konferans).

Baydemir, Hüseyin (2019). “Bağımsızlık Sonrası Özbekistan”, 27.01.2019 Otağ Derneği Konferans Salonu, Erzurum. (Konferans)

Ildırı, Nursan (2019). "Çağdaş Özbek Yazar Aybek'in Hikâyelerinde Tasvir Fiiller ve İşlevleri", *II. Türk Dili ve Edebiyatı Bilgi Şöleni, ERZURUM, 21-23 Haziran,* (Özet Bildiri/Sözlü Sunum).

Kotan, Hüsna (2019). “Senglâh Üzerine Yapılan İki Çalışmanın Sözlük Bilimsel Açıdan Karşılaştırılması” *Türk Dili ve Edebiyatı Bilgi Şöleni Sempozyumu (21-23 Haziran 2019) Bildiriler*, Erzurum, s. 646-661.

Baydemir, Hüseyin (2020). "Özbekistan'da Nevruz", 21.03.2020 – TRT Erzurum Radyosu. (Söyleşi).

Baydemir, Hüseyin (2020). "Büyük Özbekçe-Türkçe Sözlük ve O'zbek Tilining Izohli Lug'ati", *"Medialingvistika: Nazariyasi va amaliyoti xalqaro ilmiy konferansiyasi*, 16.12.2020 O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti.

Baydemir, Hüseyin (2021). "Dilci ve Sözlükçü Yönüyle Babür", *O'zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari" Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari, 2021-yil, 15- mart*. (Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov). Toshkent, s. 52-57.

Baydemir, Hüseyin (2021). "İskender, Zülkarneyn ve Lokman Hekim'e Yer Veren Özbek Masal ve Efsanelerinin Kaynakları", Folklor, til va madaniyat masalalarini ılmiy o'rganishda fan va ınnovatsiyalar uyg'unligi xalqaro ilmiy konferansiyasi, 15.03.2021 O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat ınstituti.

Baydemir, Hüseyin (2021). "Özbekistan'da Nevruz Gelenekleri", *22.03.2021 Türk Dünyasında Nevruz Gelenekleri*, Atatürk Üniversitesi (Panel).

Baydemir, Hüseyin (2021). "Özbekistan'da Nevruz Kutlamaları", 25.03.2021 Türk Ocakları Bartın İl Temsilciliği (Konferans).

Efendioğlu, Süleyman (2021). "Çağatay Şairi Lutfî ve Gül ü Nevruz Mesnevisi", *O'zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari" Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari, 2021-yil, 15- mart*. (Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov). Toshkent, s. 21-31.

Ildırı, Nursan (2021). "Özbek Nevai Araştırmacısı Parsa Şemsiyev ve Nevâyi Mirasına Katkıları, *Alisher Navai in the Context of World Orientalist, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, 5-6 Şubat*, (Özet Bildiri/Sözlü Sunum).

Ildırı, Nursan (2021). "Son Dönem Çağatay Şairi Mücrim Abid'in Türkçe Divanı'ndan Sözcük Yapımı", *O'zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari" Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari, 2021-yil, 15- mart*. (Mas'ul muharrir: Sh. Sirojiddinov). Toshkent, s. 188-192.

5. Çeviriler / Editörlükler (Tarjimalar / Tahririyatlar)

Yakubov, Adil (2010). "Ölmez Sima Üstad Aybek Hakkında Düşünceler", (çev. Hüseyin Baydemir). *Kardeş Kalemler Aylık Avrasya Edebiyat Dergisi*. Yıl: 4, S. 37, s. 87-88.

Gültekin, Mevlüt (2010). "Afgan Özbekçesinin Seripul Ağzında –GAn Eki", (çev. Esra Yavuz). Turkish Studies, Volume 5, Issue 1, s. 1437-1451.

Erkinov, Eftandil (2011). "XV XIX asır Beyazlarında Taşkent ve Paris Kütüphanelerinde Tespit edilen Ali Şir Nevâî nin Şiirlerine Dair Bir Araştırma", (çev. Recai Kızıltunç). *Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi,* S. 45, s. 295-320.

Sulton, Isajon (2015). "*İrem Bağı - Seçme Hikâyeler*", (Ed. Hüseyin Baydemir; çev.: Marufjon Yuldashev, Hüseyin Akbaş, Isajon Sulton). Antalya: Baygenç Ajans Yayınları.

Uzoqov, Haydarali; Islomjon Tursunov (2016). “Bilimadamı Gazi Âlim Yunus’un Hazin Sonu”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi*, S. 57, s. 267-274.

Raufhan, Nurullah Muhammed (2016). “Balon”, (çev. Coşkun Akpınar, Fatoş Caferoğlu). *Kuytudaki Kulübe.* İstanbul: Ferfir Yayınları, s. 73-81.

Aybek (2017), “Fenerci Baba”, (çev. Nursan Ildırı). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 245-247.

Hamdam, Uluğbek (2017). “Taş (veya Kötülüğün Doğuşu)”, (çev. Ayişe Humeyra Efe, Kerimullah Oyghagh). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 263-266.

Ishakov, Yakubcan (2017). **“**Gül ve Nevruz Mesnevisinin Müellifi Meselesi”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 233-244.

Tursınova, Marhaba (2017). “Türk Dillerinde “Ben, Sen, O” Zamirlerinin Çekimlenmesi”, (çev. Esra Yavuz). *Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi*, S. 59, s. 249-256.

Abdusamatov, Hafiz (2018). “Çolpan’ın Tiyatro‘ya Ait Fikirleri”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 27-30.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Edebiyat Nedir”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 25-26.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Gönül”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 4.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Güzel Türkistan”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 3.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Güzel”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 6.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2018). “Merhum Tevfik Fikret’e”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 23-24.

Gafurov, İbrahim (2018). “Çolpan’ın Dil ve Üslup Zarafeti”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 33-36.

Kuronov, Dilmurod (2018). “İlk Evvel Gözümü Aşk İle Açtım”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 37-41.

Otayev, Rahimjan (2018). “Coşkun Ruh”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, 2018, s. 19-22.

Ravşanov, Esangali (2018). “Şiirin Gökyüzünde Bir Çolpan Yıldızı: Abdülhamid Süleymanoğlu”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 88, s. 13-18.

Ibrohimova, Muazzam (2019). “İncir”, (çev. Hüseyin Baydemir, Ayişe Hümeyra Efe, Klara Abdurakhmanova, Nisar Ahmad Faik). *Hece Öykü*, s.148-154.

Jovliyev, Javlon (2019). “Buhara Buhara Buhara”, (Çev. Hüseyin Baydemir). *Temrin*, S. 94, s. 28-33.

Kerimov, Bahadır (2019). “Abdullah Kadiri’nin Yürek Sızıları ve Estetik Abidesi Olarak Ötgen Künler Romanı”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 39-45.

Kerimov, Naim (2019). “Kadiri Neden Hain İlan Edildi”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 20-25.

Mirvaliyev, Sabir (2019). “Büyük Özbek Mütefekkiri Abdullah Kadiri” (çev. Hamza Öztürkçü). *Temrin*. Sayı: 97, s. 3-4.

Raufhan, Nurullah Muhammet (2019). “Kıyamet”, (çev. Hüseyin Baydemir). *Kardeş Kalemler,* S. 143, s. 58-62.

Yoldaşev, Marufcan (2019). “Ninem ve Kırlangıçları” (çev. Hamza Öztürkçü). *Türk Dili*. Sayı: 813, s. 36-39.

Yoldaşev, Marufcan (2019). “Yeşil Miydi, Sarı Mı?” (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Öykü*. Sayı: 95, s. 160-164.

Yuldoshev, Marufjon; Yılmaz Özkaya (2019). *Bağımsızlık Dönemi Özbek Edebiyatı (Şiir, Hikâye, Roman, Piyes).* (ed. Hüseyin Baydemir). Ankara: Bengü Yayınları.

Ahmadova, Ma’suma (2020). “Dert Ortaklığı”, (çev. Elif Hümeyra Taşkara, Ezgi Pekşen, Gamzenur Akgüney, Gizem Nur Nazlı, Gülşah Hemşinli, Seda Çebi). *Hece Öykü,* Yıl 17, S. 100, s. 232-236.

Börihan, Lokman (2020). “Yalan”, (çev. Ebru Kuzu, Mine Akyüz, Enejan Hudayberdiyeva, Demet Kübra Duman). *Neşide (Eğitim, Kültür ve Sanat Dergisi),* Yıl 4, S. 4, s. 102-104.

Çolpan, Abdülhamid Süleyman (2020). “Çar’ın Armağanı”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece Öykü*. Sayı: 97, s. 148-150.

Artıkov, Şerzad (2021). “Babamın Güvercinleri” (çev. Emine Bakar). *Genç Yürekler Dergisi*. Sayı: 5, s. 12-14.

Esed, Nergize (2021). *Müjde.* (çev. Emine Bakar). Ankara: Asmaaltı Yayınevi, 90 s.

Günümüz Özbek Öyküsü (2021). (çev. Hamza Öztürkçü). Ankara: Hece Yayınları, 368 s.

Hemdem, Uluğbek (2021). “Söz” (çev. Emine Bakar). *Hece Öykü*. Sayı: 103, s.160-166.

Yoldaşev, Marufcan (2021). “Gördük de Ne Oldu?”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Edebiyat Ortamı*. Sayı: 79, s. 80-83.

Yoldaşev, Marufcan (2021). “Soğuk Haber”, (çev. Hamza Öztürkçü). Mahalle Mektebi. Sayı: 58, s. 27-30.

Jurakuziyev, Nadirbek, “Eski Türklerde Dağ Kültü ve Hayat Ağacı Mitolojisi”, (çev. Hamza Öztürkçü). *Hece (Mitoloji Özel Sayısı)*. (Basım aşamasında).

Özbek Öykü Seçkisi. (çev. Emine Bakar). (Basım aşamasında).

Yoldaşev, Marufcan, *Zerçadır Altında*. (çev. Hamza Öztürkçü). Ankara: Ötüken Yayınları. (Basım aşamasında).

Yusuf, Muhammed, *Şiirler.* (ed. Recai Kızıltunç; çev. Recai Kızıltunç, Emine Bakar, Hamza Öztürkçü). TÜRKSOY Yayınları. (Basım aşamasında).

ХОРИЖЛИКЛАРГА ЎЗБЕК ТИЛИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎҚУВ-ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИНИ ЯРАТИШ

Муҳитдинова Ҳадича Собировна,
педагогика фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети профессори

Бугунги кунда янгиланаётган Ўзбекистонда жадал олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий-демократик ислоҳотлар таълим соҳасида ҳам туб ўзгаришлар юз беришига, узлуксиз таълим тизимининг ҳар бир бўғинида ўзбек тилини ўқитишнинг замонавий методикасини яратиш, ўқув-услубий таъминотини янгилаш бўйича амалий тажрибалар ўтказилишига олиб келди.

Маълумки, тил таълимида бир-биридан фарқ қиладиган икки хил ёндашув – тилни она тили сифатида ўқитиш ва тилни иккинчи тил сифатида ўқитиш фарқланади. Айни вақтда тилни иккинчи тил сифатида ўқитишнинг ўзи ҳам тилни тил муҳитида ўқитиш (республикамизда яшовчи турли миллатлар вакилларига ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитиш) ҳамда тил муҳити мавжуд бўлмаган ҳолатда ўқитиш (хорижий мамлакатларда ўзбек тилини ўқитиш) йўналишларига бўлинади. Ҳар бир йўналишнинг ўзига хос тамойиллари мавжуд бўлиб, таълим мазмуни ва методлари шунга мос ҳолда танланади. Бу ҳар бир йўналишнинг ўқув-услубий дастурий таъминотини ҳам ёндашувлар ва йўналишлардан келиб чиқиб ишлаб чиқишни тақозо этади. Жумладан, республикамизда ўзбек тилини миллий мактабларда она тили сифатида ўқитиш мазмуни, албатта, таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда ўзбек тилини ўқитиш мазмунидан фарқ қилади ва ушбу таълим мазмуни ўзига хос методикани ва шунга мос ўқув-услубий таъминотни ҳам талаб этади.

Айни вақтда ўзбек тилини республикамизда яшовчи ўзга тиллар вакилларига ўқитиш мазмуни ҳам хорижликларга ўзбек тилини ўқитиш мазмунидан фарқ қилади. Кўп миллатли республикамизда яшовчи турли миллатлар вакиллари эса шу ерда туғилиб ўсиб, ўзбек тилида сўзлашувчилар муҳитида яшаб келмоқдалар, ўзбекча нутқни ҳар куни тинглаб эшитиб турганликлари туфайли улар ўзбек тилида муайян сўз заҳирасига эга, муайян даражада тинглаб тушуниш, гапириш ва бошқа тил кўникмаларига эгалар. Ўзбек тилини хорижий мамлакатларда ва республикамизга иш, ўқиш муносабати билан келаётган хорижликларга ўргатишда эса 0 даражадан бошлашни ва бунда чет тилларини ўқитиш мазмуни ва методикасини қўллашни тақозо этади.

Бугунги кунгача ўзбек тилини хорижликларга ўқитиш йўналиши тор доирада кўпроқ республикамизга иш, ўқиш муносабати билан келган хорижлик 1-2та фуқароларга индивидуал тарзда ёки дастлабки мулоқот юритишга ўргатишга қаратилган қисқа курслардан иборат бўлгани ҳеч кимга сир эмас. Ушбу жараёнда қўлланиб келинган ўқув-услубий материаллар ҳам

таълим берувчи ўзбек тили ўқитувчиларининг ёки ўзбек тилини ўргатувчиларнинг (айрим ҳолларда ҳатто бевосита мутахассис бўлмаган бошқа соҳа вакиллари масалан, чет тили ўқитувчилари шу иш билан шуғулланган учун, уларни ўзбек тилини ўргатувчилар деб аташ ҳам мумкин) ўзлари тайёрлаган материаллардан иборат бўлиб, кўп ҳолларда тизимли дастурий таъминотни ташкил этмас эди. Қайд этиш керакки, айрим хорижий мамлакатларнинг олий таълим муассасаларида (масалан, АҚШнинг Индиана, Оксфорд университетлари, Россия Федерациясининг МДУ, МДЛУ, МДХМИ, Германиянинг Гумбольдт университети, Кореянинг Пусан университети, Туркия университетлари ва ҳ.к.) фаолият юритаётган ўзбек тили бўлимларининг ўқув-дастурий таъминоти ҳам ўша таълим муассасаларида дарс берадиган ўқитувчилар томонидан индивидуал тарзда тузилган. Жумладан, Москва давлат лингвистик университетида иккинчи тил сифатида ўқитиладиган “Ўзбек тили” фани 2та дастур асосида ҳафтасига 5 соатдан ўқитилиши режалаштирилган (“Практический курс узбекского языка” (ҳафтасига 3 соат) ва “Касбий мулоқот юритиш” (ҳафтасига 2 соат) бўлса, Москва давлат университетида ҳафтасига 4 соатдан “Ўзбек тили” дастури асосида ўқитилади.

Ҳозирги кунга келиб Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътиборининг ортиб бориши республикамизга ва ўзбек тилини ўрганишга қизиқишнинг кучайишига, кўплаб хорижий мамлакатларнинг етакчи олий таълим муассасаларида ўзбек тили бўлимларининг ва ҳатто ўзбек тили лицей-коллежларининг очилишига олиб келди. Бугунги кунда ушбу таълим муассасаларини ўқув-услубий материаллар ва ҳатто, таълим берувчи кадрлар билан таъминлаш масаласи энг долзарб масалалардан бирига айланди. Бироқ айни вақтда бу ҳолат республикамизда бу соҳада махсус тайёрланган кадрлар ҳам, бу йўналиш учун ўқув-услубий таъминот ҳам мавжуд эмаслигини юзага чиқарди. Хорижликларга ўзбек тилини ўқитиш бўйича республикамизда ва республикамиздан ташқарида чоп этилган саноқли дарслик ва ўқув-услубий қўлланмалар, сўзлашгичлар ва луғатлар мавжудлиги, бироқ уларнинг бирортаси ҳам тизимли дастурий таъминот асосида яратилмаганлиги аён бўлди. Афсуски, хорижликларга ўзбек тилини ўқитиш бўйича бугунги кунда турли лойиҳалар асосида ишланаётган ўқув қўлланмалар ҳам тизимли ўқув-дастурий таъминот асосида яратилмаяпти.

Мавжуд қўлланмалар таҳлили шуни кўрсатдики, уларнинг деярли 80%и “Чет тилларини эгаллашнинг Умумевропа компетенциялари”да [1] қайд этилган тил кўникмаларининг А1 даражасига мувофиқ ҳолда яратилган, ҳатто айримлари А1.1. ва А1.2. даража кўрсаткичлари билан қисмларга ажратиб берилган бўлса-да, бироқ айнан шу даража кўрсаткичлари учун белгиланган таълим мазмуни ва лексик-грамматик минимум қайси дастур асосида ажратилгани, ушбу бошланғич даражадан кейинги А2 ва В1 даражаларда таълим мазмунига нималар киритилиши, қайси грамматик маълумотлар ва луғавий заҳира берилишининг дастурий таъминоти ишлаб чиқилмагани боис уларда ҳар хил материаллар тақдим этилган.

Тўғри, кўпчилик муаллифлар хорижликларга ўзбек тилини ўқитишда чет тилларини ўқитиш мазмуни ва методикасини қўллангани, чет тилларини ўқитиш дастурларидаги мавзулар киритилганини қайд этадилар. Бироқ бу ўринда шуни алоҳида таъкидлаш керакки, эталон сифатида олинаётган инглиз, немис тили дарсликларининг ўқув материали ва топшириқлар тизими генетик келиб чиқиши ва типологик тузилиши жиҳатидан мутлақо фарқ қилувчи ўзбек тили хусусиятларига кўп ҳолларда мутлақо мос келмайди. Юқорида қайд этилган тиллар структурасида лексиканинг катта ўрин тутиши, таркибий тузилишда аналитик хусусиятлар устувор бўлгани учун туркий тиллар оиласига кирувчи агглютинатив тузилишли ўзбек тили учун улар ҳар доим ҳам эталон вазифасини ўтай олмайди.

Республикамизда “Ўзбек тили” фани бўйича Давлат таълим стандартлари талабларида таълим бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфлари учун ўзбек тилини ўрганишнинг А1-бошланғич даражаси, 5-9-синфлар учун А2- таянч даражаси, 10-11-снфлар ва ўрта махсус таълим учун В1- асосий даражаси ва олий таълим учун В2- юқори даражаси белгиланган ва ўқув дастурлари, дарсликлар шу асосда яратиб келинмоқда [3]. Бироқ ушбу талаблар хорижликларга ўзбек тилини ўқитиш йўналишига тўғри келмайди. Демак, хорижликлар учун ҳам ўзбек тилидан ўқув-дастурий таъминоти мазмунини белгилаш учун, аввало, ўзбек тилининг бошланғич А1 даражаси, таянч А2 даражаси ва асосий В1 даражалари учун лексик-грамматик минимумлар чегараларини ажратиб олиш керак бўлади.

Бизнингча, хорижликларга ўзбек тилини ўргатишнинг бошланғич даража учун лексик минимумни ажратишда қуйидагилар эътиборга олиниши мақсадга мувофиқ:

- хорижликларга ўзбек тили кўп ҳолларда андрогогик таълим эканлиги эътиборга олиниши ва тақдим қилинадиган лексика ҳам андрогогик бўлишини таъминлаш;
- танишишда, ўзаро алоқа ўрнатишда ишлатиладиган сўзлар қатлами иш, ўқиш, ижтимоий алоқаларда кенг қўлланадиган сўз ва иборалардан иборат бўлишига эътибор қаратиш;
- айнан хорижликларни қизиқтирадиган сўзлар қатлами, масалан, миллий маданий реалиялар, уларнинг қисқа изоҳи билан таништиришга алоҳида ўрин ажратиш;
- сайёҳлик учун зарур бўладиган нутқ этикетларига (мурожаат шакллари, турли вазиятларда керак нарса, шахс, жой ҳақида маълумотларни сўраб билиш) кенг бериш;
- ижтимоий муҳитда ва расмий учрашувларда вазиятларга мос мулоқот юритиш иборалари билан таништириш;
- иш фаолиятида касбий мулоқот юритиш учун зарур бўладиган сўз ва иборалар билан таништириш.

Лексик минимум, албатта, ҳар бир даража учун алоҳида тузилиши ва борган сари кенг миқёсни қамраб олиши керак бўлади.

Грамматик минимумни белгилашда айнан аффиксал ўзбек тили хусусиятларидан келиб чиқиш ва имкон борича аввал қўшимчалар кам ишлатиладиган сўз шаклларидан фойдаланиш (масалан, **A1.1.** даражада фақат отли бирикмалар иштирок этган жумлаларни қўллаш), кейинги **A1.2.** даражадан бошлаб таркибида 3-4тадан қўшимчалар иштирок этадиган сўзларни нутқ жараёнига (масалан, феълли бирикмаларни) киритиб бориш мақсадга мувофиқ бўлади.

Маълумки, тил ўрганиш таниш шаклдан нотаниш шаклга қараб, оддийдан мураккабга қараб боради. Таркибида ҳали ўтилмаган грамматик шакл мавжуд бўлган феълларни дастлабки босқичдан бошлаб қўллаш тил ўрганувчиларнинг қўшимча изоҳлар талаб қилишларига, ушбу шаклни англамаган, тушунмаган ҳода қуруқ ёдлаш орқали қўллашларига ва бошқа вазиятларда нотўғри қўллаб, ноқулай ҳолатга тушиб қолишларига олиб келади.

Айтилган мулоҳазалар “Хорижликлар учун ўзбек тили” қўлланмаларини яратишнинг ўқув-услубий дастурий таъминотини ишлаб чиқиш бугунги кунда заруратга айланганини кўрсатади. Бунинг учун хорижликлар учун ўзбек тилидан қўлланмалар яратаётган турли муаллифлар бир жойга йиғилиб, ўзаро фикрлашиб олишлари ва якдил фикрга келишлари керак бўлади. Юқорида қайд этилган долзарб масала – хорижий мамлакатларда таълим муассасаларида очилаётган ўзбек тили бўлимларини ўқув-услубий материаллар билан таъминлаш учун, авало, хорижликларга ўзбек тилини ўқитишнинг дастурий таъминотини тезкорлик билан ишлаб чиқишни тақозо этади.

Ўзбек тилини хорижликларга ўқитиш йўналиши очилмаган қўриқ, у борган сари ривожланиб ва кенгайиб боради, шу боис баҳамжиҳатликда ишлаш ва мукаммал ўқув-услубий дастурий таъминотни ишлаб чиқиш келажакда жаҳоннинг турли мамлакатлари билан ҳамкорлик алоқаларимизни янада яхшилашга, шу йўналиш бўйича малакали кадрлар етиштириб чиқиб, ўтган йили БМТ минбарида илк бор янграган она тилимизни халқаро алоқалар тилига айлантириш учун мустаҳкам пойдевор яратишга хизмат қилади деб ўйлайман.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Практический курс второго иностранного языка (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010.

2. Профессиональная коммуникация (узбекский язык, рабочая программа) / Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. – Москва, МГЛУ, 2010.

3. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 256.

Например, практика освоения направлена, во-первых, на всеобъемлющее изучения основных правил грамматики, активного вокабуляра. Мы не просто знакомимся с теорией, но и обязательно учимся применять полученные и усвоенные знания в своей речи в форме групповых обсуждений на различные тематики, в форме интересных и эффективных игр, которые привносят ощущение полезного расслабления в ходе практики.

Также подключается профессиональная лексика, прослушиваются подкасты и передачи, видео на различные тематики для всеобщего развития многогранности, выразительности и красоты речи.

Чтение статей играют важную роль в получении дополнительной информации, так как направлены на уровень специализации, а именно учителем создаются структурированные тексты по политике, экономике и международным отношениям, что позволяет нам знакомиться с категориальной лексикой и применять ее в речи для развития своего словарного запаса и своей востребованности в качестве специалиста в данной области. Узбекская музыка, исторические фильмы и сериалы, современные книги на данном языке также идут полезным дополнением в изучении узбекского, так как дают прекрасную возможность познакомиться с конструкциями, сленгом и новым вокабуляром.

Данный процесс всегда увлекателен и интересен для нас!

Отдельно стоит упомянуть о многочисленных мероприятиях, связанных с событиями Узбекистана, в которых наша группа принимает постоянное участие. Такой вид практики даёт возможность не только узнать и окунуться в историю страны, познакомиться с поистине интересными и мудрыми людьми, но и получить возможность показать свои навыки изученности языка, что является отличной практикой.

Затронув немного слов из предыстории моего знакомства с данным языком, могу сказать, что я была удивлена, но мое удивление очень быстро превратилось в тотальное восхищение. Своим опытом и деятельностью мы хотим показать будущим студентам, как интересен, могущественен и перспективен данный язык. Поэтому одним из направлений наших действий стало создание Ютуб канала: **ozbek oilasi** на который я советую вам подписаться. Там мы будем вести несколько интересных рубрик: например, новостная рубрика, кулинарная с процессом приготовления узбекской кухни, журналистская - интервью у различных личностей, игровая. Таким образом, будущие студенты смогут понаблюдать за ходом освоения и опытом применения узбекского языка в жизни!

2-SHO‘BA. BADIIY MATN TAHLILI VA TIL TA’LIMI

ТИЛ ВА УСЛУБ МАТН ТАҲРИРИНИНГ БИРИНЧИ БОСҚИЧИ СИФАТИДА

Тоҳиров З.Т.
ТошДЎТАУ Ўзбек тили кафедраси
профессори, ф.ф.н.

Тасвирий фанлар умумий бир ном билан – тил деб аталади. Илмий адабиётларда тасвирий фанлар қуйидагича гуруҳланади: фонетика, лексикология, фразеология, сўз ясалиши, грамматика. Грамматика, ўз навбатида, икки қисмга ажралади: морфология, синтаксис.

Тасвирий фанларнинг ўрганиш объекти бўлиб қуйидагилар ҳисобланади:

1) тил тизимидаги бирликлар ва категориялар: муайян тилнинг фонетик, грамматик, лексик қурилиши (сўз ясалиши лексика ва грамматика оралиғидаги ўринда туради);
2) тил бирликлари ва категорияларининг шаклий ҳамда маъновий (улар нимани англатиши) томонлари;
3) тил бирликларини синфларга гуруҳлаш, анча йирик тил категориялари;
4) тилдаги бирикмалар ва категорияларнинг тил тизимидаги ўзаро муносабати ва алоқадорлиги.

Юқорида қайд этилган (яна бошқа) фанлар муайян тилдаги бирикмалар ва категориялар таркибини ўрганади ва таҳлил этади. Бошқача айтганда, бу фанлар тилда *бор*ини ўрганади. Муайян тил фикрни, ҳис-ҳаяжонни ифодалашда, маълумот етказишда қандай воситаларга эга эканлигини тадқиқ этади.

Тилшунослар тил эгаси, тилдан фойдаланувчиларнинг ўз фикрини англатиши, тушунчани ифодалаши, умуман, маълумот, хабар етказиш учун қаратилган тил имкониятларини ўрганадилар, Кенг маънода олганда маълумот (информация)лар тавсифига кўра илмий, иш юритишга оид, таҳлилий, ҳис-ҳаяжонли, объектив, таҳминий, ишонарли, тўқима бўлиши мумкин.

Биз тил деганда асосан “ҳозирги ўзбек тили”ни тасаввур этамиз. Аввало шуни айтиш керак-ки, ҳозирги ўзбек тили – шундай тил-ки, у адабий нутқ меъёрлари асосида яратилган матнларда ифода топган. Тил тарихида у икки босқичдан ўтиб, ҳозир учинчи босқичдаги кўринишга эга. Ҳозирги ўзбек адабий нутқи XX аср биринчи чорагидан шакллана бошлаган ва аввалги босқичдагига қараганда миллатнинг ижтимоий-сиёсий шаклланиши жараёнида ҳам фонетик, ҳам лексик, ҳам грамматик жиҳатдан умуммиллий адабий нутқга айланади.

XX аср 50–70-йиллари ҳозирги ўзбек адабий нутқининг янада ривожланиш даври бўлди, десак муболаға бўлмайди, Бу даврда ўзбек

тилшунослиги ривожига Аюб Ғуломов, Мазлума Асқарова, Шавкат Раҳматуллаев, Шоназар Шоабдураҳмонов ва бошқа олимлар катта хисса қўшадилар. Булар тасвирий тилшунослик йўналишида илмий фаолият кўрсатадилар. Ўзбек тилшунослиги бу даврда гарчи рус тилшунослиги таъсирида ривожланишни бошдан кечирган бўлса-да, унинг фонетикаси, лексикологияси, морфологияси, синтаксисида миллий тилга хос янги-янги қирралар очилди.

Юқорида номлари келтирилган тилшунослар қаторига кейинги тўлқин тилшунослари (аслида Аюб Ғулом мактабининг вакиллари)дан бўлмиш Азим Ҳожиев, Миразиз Миртожиевлар кириб келганлар. Улар анъанавий – тасвирий тилшунослик йўналишида фаолият бошлаган бўлсалар-да, кейинчалик, таҳлилий йўналишга ўтадилар ва ўзбек тилшунослигида семик таҳлилга асос соладилар. Бунинг натижасида тилшунослик услубияти ривожланади. Ўзбек адабий нутқи услубиятининг ривожланиши ўз навбатида мантиқий таҳлилни юзага чиқаради. Мантиқий таҳлил эса адабий таҳрир фанининг юзага келиши ва такомиллашувига кучли туртки бўлади.

Ҳўш, услубият ўзи нима? Уни қандай тушиниш керак? Уни тилдан фарқи нимада?

Услубият – нутқий мулоқот жараёнида (тил тизимини ташкил этувчи тил бирликмалари ва категориялари)дан фойдаланиш тўғрисидаги фан. Нутқий мулоқот оғзаки ва ёзма бўлади. Гап шунда-ки, услубият ҳақида сўз борганда тилдаги воситалардан фойдаланиш ёки тил воситаларининг муайян вазифани бажариши тушунилади. Ҳар икки ибора айни бир маъно ифодасига эга.

Шуни алоҳида таъкид этиш жоиз-ки, услубни тадқиқ этиш муайян тил материали, муайян тилда тузилган матн асосида амалга оширилади.

Тилдан фойдаланишни қуйидагича изоҳлаш мумкин:

а) услубий мақсадларда;

б) муайян мақсад ва вазифаларга кўра (сиёсий, илмий, иш юритиш, шахсий, ижтимоий, эзгу, жиноий, раддия, буйруқ, қаҳр-ғазаб, айблов ва б. мавзуида) матнлар тузишда;

в) муайян муомала шароитида.

Бунда оммавий мулоқот шароитлари кўзда тутилмоқда (газета, радио, телевидение ва б.), мулоқот гуруҳлар (парламент, маърузалар, судлов иши, йиғилишлар, конференциялар, семинарлар ва б.), шахслараро мулоқотлар, диалоглар, суҳбатлар (дўстона сўзлашувлар, курсдошларнинг гаплашишлари, оила даврасида, улфатлар тўпплангандаги гурунглашув ва б.). Газета ўқийдиганлар, радиотингловчилар, телевидение кўрсатувларини кузатиб борувчиларнинг ижтимоий, сиёсий, ёш жиҳатдан таркиби, уларнинг маданиятлилик даражаси, маълумотлилиги, савияси, дунёқараши, қай даражада хиссиётга берилганлиги ва бошқалар, шунингдек, жамиятнинг, халқнинг бугунги кундаги турмуш даражаси ва ҳоказолар ҳисобга олинади.

Биз юқорида услубият тилдаги воситалардан фойдаланиш дедик. Қандай? Бу саволга тилдаги воситаларнинг амалда қўлланиши деганда аёнлашадиган мазмун жавоб бўлади. Аслида, “тил воситаларидан амалда

фойдаланиш” масаласига “муайян тилдан фойдаланувчи, нутқ эгаси нуқтаи назаридан ёндашиш тўғри бўлади. Тилдан амалда фойдаланиш вазияти ва жараёнида биз тил бирикмаларининг қўлланилишига шаклий томондан эмас, балки мазмуний (мантиқий) томондан назар ташлаймиз, унда юз бераётган маъновий (семантик) ўзгаришни аниқлаймиз ва баҳолаймиз, экспрессивликни кузатамиз. Натижада, айрим тил бирликлари ва / ёки гуруҳининг вазифаси ўзгариши, грамматик шакл, конструкция (гап)лар, фонемалар ўзгаришини кузатамиз.

Агар тасвирий фанларда тил бирикмалари, категориялари адабий нутқ меъёрларига мосми, деган саволга жавоб бериши керак бўлса, услубиятда эса *қандай* деган саволга, яъни муайян тил бирликлари ва категорияларидан *“қандай фойдаланилади...*” га жавоб беради. Бундай савол қўйилиши табиий, чунки услубият муайян тил бирликлари, категориялари фикрни, хис-хаяжонни ифодалашда, фикр алмашишда, хабар, маълумот етказишда қўлланилишини ўрганади ва ўргатади. У тилнинг ҳаракатланишини кузатади.

Шундай қилиб, услубият тасвирий фанлардан фарқли ўлароқ тилдан, тил бирикмаларидан нутқий мулоқот (коммуникация)да фойдаланишини, уларнинг амал қилишини тадқиқ этади. Шунга кўра у тилшуносликнинг функционал-коммуникатив – нутқ маданияти, офтология (тўғри нутқ), тил маъёрлари ҳақидаги, социолингвистика, психолингвистика, адабий нутқ меъёрлари каби фанлари қаторида туради.

Рус тилшунос олими В.В.Виноградов услубиятга таъриф бериб шундай дейди: “Тилдан, айниқса, адабий нутқдан фойдаланишнинг барча усуллари услубиятнинг моҳиятини ташкил этади” [5] . Демак, тилдан фойдаланиш (қандай?) услубият предмети ҳисобланади.

Тилнинг асосий вазифаси комуникатив вазифалардир. Лекин тилдаги “...айрим сўз ва ибора (фразеологизм)лар нутқ эгасининг нутқи қаратилган объектга бўлган эмоционал-экспресив муносабатини ифодалаш хусусиятига эга”[6]. Шунга кўра луғат таркибидаги сўзлар функциявий услубнинг муайян турига мансуб, қўлланиши мазкур услуб доирасида бўлади.

Сўзлар қўлланиш доирасига кўра китобий, бадиий ва оддий сўзлашувга хос гуруҳни ташкил этади.

Китобий сўзлар ўз навбатида *публицистик, илмий* ва *расмий иш юритиш*га оид кичик гуруҳларга ажратилади: *хабар, куб,баённома.*

Бадиий нутққа хос сўзлар бадиийлик хусусиятига эга бўлади: *бўй, балқимоқ.*

Кундалик оддий ва эркин муомалада қўлланиладиган, адабий нутқ учун деярли меъёр сифатида қаралмайдиган сўзлар одатий сўзлашувга хос сўзлар ҳисобланади: *кетворган, жиндай, нуқул.*

---

[5] Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. –Москва: 1981.–173-б.

[6] Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Т.:Ўқитувчи, 1980.–133-б.

Айни сўзлар каби ибора (фразеологизм)лар ҳам услубнинг бирор турига мослашади, лекин бундай иборалар кам учрайди. Масалан, *қурилиш амалга ошади, далаларда экинлар барқ уриб яшнайди; сенмисан, жоним қоқиндиқ.*

Юқоридаги мисоллар таркибида келган иборалардан *амалга ошмоқ* расмий (ёзма) услубга, *барқ уриб яшнамоқ* бадиий услубга, *жоним қоқиндиқ* оддий сўзлашув услубига хос.

Адабий нутқ тилшунослик соҳасида марказий ўринни эгаллайди.

Ҳозирга ўзбек адабий нутқидаги функциявий услубларни қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Китобий нутқ (ёзма):

а) расмий иш юритиш услуби; илмий услуб; публицистик услуб (ёзма);

б) оғзаки публицистик: кинонутқ; теленутқ.

2. Эпистоляр (нома, хат, ёзишма) услуб.

3. Сўзлашув нутқи (оғзаки, адабий нутқ).

Юқоридагилар икки катта гуруҳни ташкил этади: ёзма нутқ; оғзаки нутқ.

Матн таҳрири жараёнида тил ва услуб биринчи босқич ҳисобланади. Таҳрирчининг бу босқичдаги вазифаси матн, аввало, тасвирий тилшунослик, сўнгра, адабий нутқ услубияти, яъни функционал услубият талабларига мослигини таъминлашдан иборатдир. Агар таҳрирчи биринчи босқич вазифасини бажаришга тил ва услуб ҳар иккисини қориштирмай, уларни яхши фарқлаган ҳолда киришса яхши натижага эришади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – Москва, 1981.
2. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўқитувчи, 1980.
3. Taxirov Z.T. Adabiy tahrir. Darslik. –T.: Tafakkur-bo‘stoni. Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2012.

NAVOIY ASARLARI MATNIDAGI FONETIK XUSUSIYATLAR TAHLILI

Abdulxayrov Manzar Xusanovich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU
Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik
kafedrasi dotsenti

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug‘atayn» asarlarida mumtoz yozuvimizdagi undosh va unlilar haqida qimmatli ma’lumotlar bergan. Ularni to‘plab, tartibga keltirish natijasida XV asr vokalizm va konsonantizmi – mumtoz yozuvimiz haqida zarur ma’lumotlar olish mumkin. Ayni ma’noda, avvalo, Navoiyning tovushlar tizimi haqidagi o‘z qarashlariga e’tibor qaratsak.

Masalan, shoir **a** unlisining sifat xususiyatlari haqida quyidagilarni bayon etadi. «... Ul jumladin biri, alif (ا) bila ho (ه) orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa bo‘lur. Andoqki, «**yado**»

(یدا) lafazin «**sado**» **(صد ا)** bila qofiya qilsa bo‘lur, «**boda**» (**باده**) bila ham qofiya qilsa bo‘lur» [Alisher Navoiy, 2000:19].

Shoir ushbu misol yordamida eski o‘zbek tilida ikkita **a** unlisi, biri alif (ا) belgisi orqali ifodalanuvchi me’yoriy cho‘ziqlikka ega **a** tovushini, ikkinchisi hoyi havvaz (ه) orqali ifodalanuvchi, ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘lmagan qisqa **a** unlisi mavjudligini ma’lum qilmoqda. Va nihoyat, shoir asarlarida uchrovchi, jumladan, Alisher Navoiyning Tehrondagi saltanat kutubxonasida saqlanayotgan shoir dastxatidagi so‘z boshida keluvchi alifi mamduda **(آ)** – cho‘ziq **a** bilan yozilgan: ***almishtur, atsa, ag‘uluq*** so‘zlarini hisobga olsak, XV asrda uch xil **a** unlisi mavjud bo‘lganligi ma’lum bo‘ladi» [Sh.Shukurov, 1990: 36-43].

Navoiy lablangan unli haqida so‘z yuritar ekan, XV asr eski o‘zbek adabiy tilida to‘rtta mustaqil fonema bo‘lganligini ta’kidlab, quyidagi misollarni keltiradi: «…**to‘r** (**تور**) ki domdur, yana **to‘r** (**تور**) ki andin daqiq (ingichka)roqdurki: qush o‘lturur yig‘ochdur va **to‘r** (**تور**) ki, andin daqiqroqdur: uyning to‘ridur va **to‘r** (**تور**) ki, barchadin ariqdur: to‘rlug‘ni yo eshikni to‘rmak uydur [Alisher Navoiy, 2000:19].

Ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, Navoiy eski o‘zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to‘rt mustaqil fonema borligini ta’kidlamoqda. Ulardan birinchisi oddiy cho‘ziqlikka ega **o‘** (**تور**– dom), ikkinchisi (**تور**– qush o‘tiradigan yog‘och) birinchisidan qisqaroq bo‘lganligi uchun birinchi darajali qisqa **u***, uchinchisi (**تور** – uyning to‘ri) ikkinchisidan qisqaroq bo‘lgani uchun ikkinchi darajali qisqa **u**; to‘rtinchisi [Alisher Navoiy, 2000:19] (**تور** – to‘rlig‘, eshikning to‘ri) uchinchisidan qisqaroq bo‘lganligi uchun uchinchi darajali qisqa **u**.

Shoir XV asrdagi **i** unlilari haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan: «Va **yoyiy** misol uch harakatdan ortiq topilmas: **ter** (**تیر**) ki, termak ma’nisi biladir. **Ter** (**تیر**) ki, andin daqiqdur, uldurki, sortlar oni «araq» va «xuy» derlar. **Ter** (**تیر**) ki, boridin ariqdur, o‘q ma’nosi biladur» [Alisher Navoiy, 2000:19]. Bu misollar XV asr eski o‘zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farq qilib, ma’no ajaratish xususiyatiga ega uchta **i** unlisi bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bulardan birinchi so‘zdagi **i** unlisini biz **i**^{e} deb oldik, ikkinchi so‘zda oddiy cho‘ziqlikdagi **i**, uchinchisida cho‘ziq **i** fonemasi aks etgan. Agar bu ma’lumotlarga shoir asarlardagi **q, g‘** undoshlari yonida keladigan qisqa **i** unlisini qo‘shsak, XV asrda to‘rtta **i** tovushi borligini bilish mumkin. Bu esa, shoirning «…va turkiy alfozda bu ma’ruf majhul harakat to‘rt nav’ topilur: ham **vovi**yi ham **yoyi**yi» fikrini to‘la tasdiqlaydi [Alisher Navoiy, 2000:19]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu to‘rtta **i** dan uchtasi fonema hisoblanadi, chunki yuqoridagi misollardan ko‘rinishicha, ular ma’no ajratish xususiyatiga ega. Qolgan bittasi (qisqa **i**) bu xususiyatdan mustasno. Bu unlilar yoniga o‘sha davr tilida mavjud bo‘lgan o‘rta keng **e** unlisini qo‘shsak, XV asrda quyidagi unli tovushlar bo‘lganligini ko‘ramiz: 1) maddali alif – cho‘ziq **ä**; 2) oddiy cho‘ziqlikka ega **a**; 3) hoyi havvaz orqali ifodalangan qisqa **a;** 4) oddiy cho‘ziqlikdagi **o‘**; 5) birinchi darajali qisqa **u**; 6) ikkinchi darajali qisqa **u**; 7)

* Alisher Navoiy asarlariga bag‘ishlab tuzilgan «Badoye’ ul-lug‘at» ma’lumotlariga asoslanib ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi fonemalar – u qilib olindi.

uchinchi darajali qisqa **u**; 8) oddiy cho‘ziqlikka ega **i**; 9) qisqa **i**; 10) uzun **i**; 11) **i^{e}** unlisi; 12) **e** unlisi.

Demak, Navoiy asarlari tilida, ya’ni XV asr eski o‘zbek tilida 12 ta unli tovush bo‘lgan. Ulardan to‘qqiztasi fonema xususiyatiga ega (**a, o‘, u –** birinchi darajali qisqa, **u** – ikkinchi darajali qisqa, **u** – uchinchi darajali qisqa **i**, **i^{e}, i; e)** qolgan uchtasi (cho‘ziq **ä,** qisqa **a** va **i**) bu xususiyatdan mustasno. Bundan tashqari, yozuv yodgorliklar tilidagi unli tovushlarning imlosi, ayniqsa, alif **(ا),** vov **(و),** yo **(ى)** harflarining imlosi va vazifalarini ayrim turkiyshunos olimlar o‘z ilmiy maqolalarida birma-bir batafsil tahlil qilib o‘tishgan [Sh.Shukurov,1990:19-24]. Ammo keyingi tadqiqotlar mumtoz o‘zbek tilida 12 ta emas 10 ta unli borligini tasdiqlaydi [E.Umarov, 2009:28]. Ular bir-biridan uzun- qisqalik bilan farq qilgan: **a: - a, i: -i, u: -u, o‘: -o‘, e: -e** [E.Umarov, 2017:30]. Undoshlar esa 31 ta bo‘lganligini ko‘rsatadi [E.Umarov, 2017:30].

Qo‘lyozma asarlardagi so‘z va iboralarning shakliy ifodasi, xususan, tovush tarkibidagi o‘zgarishlar, fonetik variantlarning yuzaga kelishi oddiy bir holat emas. Bu matnning ichki rivojlanish qonuniyatlari, davr muhiti, tillarning o‘zaro ta’siri, yangi-yangi so‘z va iboralarning kirib kelishi, fan va texnikaning taraqqiyoti singari tamoyillarga asoslanadi. Demak, ularni tabdil qilish jarayonida bu fonetik holatlarni chuqur o‘rganish joiz bo‘ladi. Bu borada XIV–XV asrlarda yaratilgan Navoiy asarlaridagi ayrim turkiy so‘zlarning imloviy xususiyatlari haqida so‘z yuritish o‘rinlidir. Shoir asarlarida ba’zi turkiy so‘zlardagi unli tovushlar MAT nashrlarida ifodalanmagan. MATdagi bunday so‘zlarni quyidagicha guruhlantirish mumkin:

1. Birinchi bo‘g‘indagi **a** tovushi yozuvda ifodalanilgan:

Majnun g‘amidin bori azoliq,
Layli o‘lumi uchun ***qaroliq*** [Alisher Navoiy, 1992:306].

قرا لیق qaroliq [LM, 306], **یشیرماك**yashirmak [NM,161],* **یخنه** yaxna [NM,222], **یخشیلیك**yaxshilik [NM,155], **یشقماق**yashqamoq [ML, 12], **قرلوغاچ** qarlug‘och [MQ,84], **قرداشلیغ**qardoshlig‘ [NM, 83], **قراقچی لیق**qaroqchiliq [TAH, 132], **قیلوله**qaylula [NM, 206] va boshq.

2. Birinchi bo‘g‘indagi **i** tovushi yozuvda ifodalanmagan:

Bir qadah may bersalar, vah, g‘oyati iflosdin,
Necha la’li ***qiymatiy*** *topqon gadodek oldaray* [Alisher Navoiy, 1987:528].

قیماتی qiymatiy [BB,528], **قیاغ**qiyog‘ [BV, 491] va boshq.

3. Birinchi bo‘g‘inda **u** tovushi yozuvda ifodalanmagan: «O‘z zamonida balki buncha **qurun (قرون)**larda alardek solik murtoz kishi yod bermas. Qabrlari ham ul kentda o‘qdur»[NM, 445].

4. Ikkinchi bo‘g‘inda **a** tovushi yozuvda ifodalanmagan: «Haqiqiy ishq beqarori va aning tajalliyoti sadamatining beixtiyori, **qalaq** (**قلق**) va iztirobda anga yarasha kerak bo‘lg‘ay» [MQ, 86]. Shuningdek bu so‘z shoirning boshqa asarlarida ham uchraydi **قلق**qalaq [NM, 356].

* Qavs ichidagi qisqartma asar nomining («Nasoyim ul-muhabbat» [NM], raqamlar esa asar sahifalarinigina bildiradi. Keyingi o‘rinlarda MATdagi barcha asarlarning nomi ana shunday tarzda beriladi. Bu haqda tadqiqotning «Shartli qisqartmalar» qismiga qarang.

5. Ayrim so‘zlar ikki xil shaklda yozilgan **a** – nul: **شوربه**sho‘rba [NM,167] – **شوربا**sho‘rbo [NM, 246]; **u – i: يوقسوزلوق**yo‘qsuzluq [NM, 497] – **يوقسيز ليک** yo‘qsizlik [NM, 59], **كونگوللو.ک**ko‘ngulluk [NSh, 411] – **كونگوللیک** ko‘ngullik [NM,168], **g – v: چوگورتکه**chugurtka [TAH, 131] – **چوورتکه**chuvurtka [NM, 23], **b – p: چوبروتماق**chubrutmoq [FK,114] – **چوپروتماق**chuprutmoq [MQ, 13], **q – g‘: آقلیق** oqliq [HA, 223] – **آقلیغ**oqlig‘ [MQ, 42], **آچیلماغلیق**ochilmog‘liq [FK, 393] – **آچیلماغلیغ**ochilmog‘lig‘ [HA, 61], **آرالیق**oraliq [XM,15] – **آرالیغ**oralig‘ [NM,193], **q-k: قوراغلیق**qurog‘liq [NM, 490] – **قوراغلیك**qurog‘lik [NM, 75], **كونگولسیزلیق** ko‘ngulsizliq [HA, 283] – **كونگولسیزلیک**ko‘ngulsizlik [G‘S, 433], **u – nol: یوروتاچی** yurutachi [MQ, 80] – **یورتاچی**yurtachi [LT, 31] va boshq.

Xulosa qilib aytganda, tabdilda fonetik variantdosh so‘z va iboralarni tahlil etishda eski o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilinishini ta’minlash uchun matnshunoslik, o‘zbek tili tarixi, shuningdek, adabiyotimizning ayrim mumtoz namoyandalari asarlarining asliyatdagi til xususiyatlari va oldingi asrlarda yaratilgan lug‘atlar e’tiborga olinishi lozim.

FOYDALAILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 2000. – B. 19.
2. Shukurov Sh. Eski o‘zbek yozuvi imlosi//O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1990. -№ 4. – B.36–43.
3. Shukurov Sh. Alif va uning vazifalari//O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1990. -№ 5. – B.19–24.
4. Shukurov Sh. Hoyi havvaz va uning vazifalari//O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1991. -№ 5. – B.20–25.
5. Умаров Э. Долгота – краткость гласных в староузбекском языке. – T., 2009. – C.28.
6. Umarov E. Alisher Navoiy unli va undoshlar haqida. – T., 2017. – B.30.
7. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 1992. – B. 306.

Alisher Navoiy. Badoye’ ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 1987. – B. 528.

O‘ZBEK TILIDAGI MORFOLOGIK VOSITALARNING LINGVOPOETIK TADQIQIGA DOIR

Nargiza Musulmanova,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili kafedrasi
dotsenti, f.f.n.

Bugungi kun o‘zbek tilshunosligida morfologik vositalarning bir qancha guruhlari farqlanadi. Zamonaviy darslik va adabiyotlarda barcha grammatik vositalarning turlicha talqinlarini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, grammatik

vositalarning tadqiqi, etimologiyasi, qo‘llanilish doirasi yuzasidan bir qancha munozaratalab fikrlar ham mavjud bo‘lib, bu zamonaviy o‘zbek lingvistikasining muhim nuqtalaridan hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu vositalar dunyodagi barcha tillarda o‘zgacha talqin qilinadi va qo‘llaniladi. Tillarda qo‘llanilishiga ko‘ra o‘ziga xos pozitsiyasiga va funksiyasiga ega.

Tilshunoslik asosiy fanlardan biri sifatida o‘rganilar ekan, uning tarkibidagi har bir element o‘ziga xos tadqiqni talab qiladi. Grammatik vositalar, shu jumladan, til nazariyasi paydo bo‘lgandan buyon o‘rganilib, rivojlanib kelayotgan tilning ma’lum bir qurilish obyekti bo‘lib, ular grammatik ma’noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Har bir grammatik vositaning o‘z ma’nosi bor va ular ba’zida birining o‘rniga ikkinchisi ishlatiladi, analoglariga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tilshunos A.A.Abuazizov so‘z o‘zgartirish va so‘z yasash qoidalari hamda grammatik konstruksiyalarni tuzishda qo‘llanadigan usullar majmuini “tilning grammatik vositalari” deb ataydi[7]. Olim bu tartib-qoidalar yig‘indisi tilning morfologik turini aniqlashda yordam berishini ta’kidlash bilan birga, dunyo tillari grammatik vositalarning qaysi birini ko‘proq qo‘llashi hamda bu vositalardan qaysi biri shu tilda borligi bilan farqlanishini ta’kidlab o‘tadi. Grammatik ma’nolarni ifodalashda ishtirok etuvchi vositalar miqdori cheklangan bo‘lib, ularning tarkibiga affiksatsiya, reduplikatsiya, so‘zlarni qo‘shish, ichki fleksiya hodisasi, urg‘u, ohang, so‘z tartibi va bo‘g‘in kiradi.

O‘zbek tili nihoyatda morfologik vositalardan unumli foydalanuvchi tillar tizimiga kiradi. Shu nuqtai nazardan, ularning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish ham bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri deb hisoblaymiz. Chunki, har qanday badiiy asar (janridan qat’iy nazar) tilning qoidalariga amal qilingan holda yozilishi lozim. Shunday ekan, har bir grammatik vositaning badiiy asarlarda qo‘llanilishini o‘rganish zarurati paydo bo‘ladi.

Sir emas-ki, o‘zbek tilida ayrim morfologik vositalar, ya’ni qo‘shimchalar o‘zak yoki asosga qo‘shilganda kontekstdan tashqarida bir qancha ma’no ifodalash xususiyatiga ham ega. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida morfemalar fnksional-semantik tasnifiga ko‘ra derivatsion va grammatik morfemalarga, grammatik morfemalar esa, o‘z navbatida, asosiy xususiyatlariga ko‘ra – lug‘aviy shakl hosil qiluvchi, lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalarga bo‘linadi. Morfemik polisemiya, omonimiya, sinonimiya kabi hodisalar badiiy asarlarning yaratilishida ayniqsa muhim o‘rin tutadi.

Lug‘aviy shakl yasovchilar tarkibiga kiradigan *-lar* qo‘shimchasining fanda 20dan ortiq ma’nolari e’tirof etilgan. Biz avvalgi tadqiqot ishlarimizda grammatik vositalarning kategorial, yondosh, hamroh ma’nolarini o‘rganib chiqqan va talqin qilgan edik[8]. Shundan kelib chiqib, ***-lar*** qo‘shimchasining qo‘llanilishiga ko‘ra turli ma’nolari misollar asosida ochib berilishi mumkin. Bu qo‘shimchaning, ayniqsa, ko‘plik, hurmat, piching-kesatiq va taxmin ma’nolarda qo‘llanilishi juda keng tarqalgan.

---

[7] https://fayllar.org/mavzu-grammatik-mano-ifodalash-usullari-grammatik-shakl-turlar.html

[8] Мусулманова Н. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида). Монография. – Т.: Фан, 2012.

Abdulla Oripovning barcha uchun sevimli bo‘lgan “Onajon” she’rida ham grammatik shakllarning kategorial, yondosh va hamroh ma’nolarini ko‘rish mumkin. Ushbu she’rda ***–lar*** qo‘shimchasi juda faol qo‘llanilgan bo‘lib, biz uning ma’nolarini ochib berishga harakat qildik. Uning asosiy kategorial ma’nosi ko‘plik bo‘lsa, unga yondosh ma’no bo‘lib yana hurmat, ta’kid, kesatiq, taxmin, juftlik, mo‘ljal, aniqlik, birgalik, kuchaytiruv, qurshov, tur-xil, bo‘linuvchanlik, noaniqlik va boshqa ma’nolar hamrohlik qiladi.

Necha kunki yo‘q oromim
Kelolmayman hushimga.
Onajonim kecha**lar**i
Kirib chiqar tushimga
Qo‘l**lar**ida oq yelpig‘ich
Oy nurida yaltirar.
Onajonim imlab meni
Qosh**lar**iga chaqirar.
Keltirar**lar** goho beshik
Ko‘z**lar**ida hayajon.
Yotar payting bo‘ldi-ku, der,
Kela qol, der, bolajon.
Qay**lar**gadir yuguraman,
Fig‘onimdan chiqar dud.
Yig‘lama, deb qo‘l**lar**imga
Tutqazar**lar** so‘ng tobut...
... Afsus, o‘zing erta ketding,
Erta ketding olamdan.
Uka**lar**im bag‘rim ezar,
Ajradik deb onamdan...
... Tush**lar**imda, mayli, boshim
Silab turgin, onajon.
Qolgan**lar**ga endi umr
Tilab turgin, onajon...
... U kun chetda oh chekardim
G‘ussa**lar**ning dastidan...
... Axir orzu qochib ketmas,
Bitkazar-ku tirik**lar**.
Onajonim, bir kunini
O‘tkazar-ku tirik**lar**.
Unutilar g‘ussa**lar** ham,
Orzu**lar** ham cho‘zar bo‘y...
... Kimdir uning yo‘l**lar**iga
Balki gul ham sochadi...
... Kuzatar**lar** meni ham so‘ng
Senga tomon, sen tomon.

Balki u kun boshim uzra
Do‘st**lar** bosh ham egadir...[9]

Ushbu she’rda ishtirok etgan *-lar* qo‘shimchali misralarni ajratib oldik. Ko‘rinib turganidek, ular anchagina ekan. Qo‘llarida, ko‘zlarida, qoshlariga so‘zlaridagi *-lar* qo‘shimchasi kategorial ma’nosi hurmat, yondosh ma’nosi ta’kid, hamroh ma’nosi juftlik. Bizga ma’lumki, ikkitadan ortiq bo‘lgan narsalarni ko‘plik ma’nosida olishimiz mumkin. Inson juft a’zolari esa bundan mustasno. Shuning uchun yuqorida keltirgan so‘zlarimizdagi *-lar* qo‘shimchasi grammatik ma’nolarida ko‘plik ma’nosi yo‘q. Hurmat ma’nosi juda bo‘rtib turganligi sababli biz uni kategorial ma’noda oldik.

Kechalari, qaylargadir so‘zlaridagi *-lar* qo‘shimchasi kategorial ma’nosi noaniqlik, yondosh ma’nosi ko‘plik, hamroh ma’nosi taxmin. Bu so‘zlarda noaniqlik ma’nosi yuqori pozitsiyada turganligi sababli uni kategoral ma’noda olishga ahd qildik. Lekin ko‘plik va taxmin ma’nolari ham bu so‘zlarda ko‘zga tashlanib turganligi sababli ularni yondosh va hamroh ma’nolarga kiritdik.

Orzular, yo‘llariga, kuzatarlar, qolganlarga, do‘stlar, g‘ussalar, tiriklar, keltirarlar, ukalarim kabi so‘zlardagi kategoral ma’no ko‘plik, yondosh ma’no kuzatarlar, keltirarlar so‘zlarida taxmin, qolgan so‘zlarda ta’kid, hamroh ma’no *orzular, yo‘llariga, keltirarlar, g‘ussalar* so‘zlarida noaniqlik, *kuzatarlar, qolganlarga, do‘stlar, ukularim* so‘zlarida aniqlik ma’nolari bor.

Biz ushbu maqolamizda faqat *-lar* grammatik shaklining ma’no taxlilini berdik, xolos. Ammo bu she’rda bunday tahlillarni talab etadigan ko‘plab grammatik shakllar bor. Ular haqida biz keyingi ishlarimizda batafsil to‘xtalamiz.

Umuman olganda, o‘zbek tilidagi ko‘plab grammatik shakllar ko‘pma’nolidir. Har bir shaklning tahlilida ularning qaysi grammatik ma’noga ega ekanligi ochilib boradi. Shu bilan birgalikda, ushbu qo‘shimchalarning qaysi so‘zga bog‘langanligi ham ahamiyatga egadir.

BADIIY MATNDA EVFEMIK VA DISFEMIK KO‘CHIMLARNING IMPLITSIT IFODASI

Qodirova Xurshida Botirovna
ToshDO‘TAU O‘zbek tili kafedrasi
dotsenti, f.f.n.

Implitsitlik oksimoron[10] singari axborot bo‘lib, u tilning aniq birliklari bilan bo‘lmasa-da, ifoda etilishga haqli hodisadir. Zero, zamonaviy tilshunoslik apparati muayyan mazmunni implitsit shaklda ifoda etishdek ziddiyat bilan ham ish olib bora

[9] Абдулла Орипов. Танланган асарлар: 4 жилдлик. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 1-жилд: Шеърлар ва достонлар. 106–б.

[10] Oksimoron (grekcha oxymoron – o‘tkir ma'noli be'manilik so‘zidan) – o‘z ma’nosidan ko‘chirilib, bir-biriga zid tushunchalarni ifodalab kelgan so‘zlar, komponentlari mohiyat e’tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan ko‘chma ma'nodagi birikma. Masalan: *shirin azob, zulmat ziyosi*.

oladi. So‘ngi yillarda axborotni yetkazishning implitsit shakllari tadqiq etilgan ishlar ko‘zga ko‘rina boshlandi [1, 2010: 200; 2, 2006: 56].

Dastavval, til fenomeni sifatidagi implitsitlik masalasi Katsnelson (1972), Shondels (1977), Bondarko (1978), Buligina (1982), Zaliznyak (1988), Timofeyeva (1986)larning til haqidagi nazariy qarashlarida to‘xtalinib ketilgan. Aksariyat tadqodchilarning fikrlari to‘qnash kelib, implitsitlikni, avvalo, jumlaning batafsil mohiyatining “ma’no zahirasiga” ega elementi (ifodaning yopiq shakli) ekanligini ta’kidlaydi. Undan keyin esa, yana bir qator olimlar progmatik omil (o‘quvchining appertsevtiv bazasi) implitsitlikning muhim manbai ekanligini – implitsit mazmun muayyan ifodaning semantikasi bilan mos kelmasligini va u faqat jonli so‘zlashuvda namoyon bo‘lishini e‘tirof etadi.

Badiiy matnda implitsitlikni o‘rganish tagma’no tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Yashirin ma’no maqol va matallarda ham mavjud. Biroq har biri o‘ziga xos ifoda qirralariga ega. Badiiy matn barcha badiiy diskursiv xususyatlarga ega bo‘lib, progmatikada, poetikada, umuman, kognitiv sohaning psixolingvistik tadqiqotlar qatorida tilshunoslik va uslubiyatning muhim tadqiq obyekti hisoblanadi. Shunday ekan, nutqiy evfemik va disfemik hodisalarning implitsitligi borasidagi tahlillar ham badiiy matn ustida olib borilishi tabiiy.

Badiiy matda nutqiy hodisaning turi sifatida evfemizm va disfemizmlarning qo‘llanilishi turlicha bo‘lishi mumkin. Uning so‘z, ibora va gap shaklidagi ifodalari mavjud bo‘lib [4, 2020: 45-49; 5, 2020: 163-169], noverbal ifoda etilgan ma’nolar ham ko‘zga tashlanadiki, bu vaziyatni yumshatish yoki, aksincha, bo‘rttirish uchun xizmat qiladigan evfemik va disfemik hodisasining iplitsit shaklda namoyon bo‘lishiga yuz tutadi. Masalan, *Qo‘lingdan qamchin, belingdan oshpichoq, shopdek murtingning ostidag‘i sassiq og‘zingdan “Qizingni... onangni... diningni... ota-bobongni...” degan zikri oliylar doim favvora urar edi* (A.Q. “Mochalov”). Bu yerda haqorat ko‘p nuqta bilan berilgan. Biroq, N.Ismatullayev K.K.Shaxjurining “so‘z yoki so‘z birikmasini, masalan “*Иди ты*…” iborasidagi “*к чёрту*” so‘zini tushirib qoldirish bilan ham evfemizm hosil bo‘lishi mumkin” [К.Шахжури, 1956] degan fikriga qarshi chiqib, “evfemizm hodisasi ma’lum bir so‘zning o‘rniga ikkinchi bir so‘z yoki so‘z birikmasining ishlatilishidir, bu yerdagi misolda ko’p nuqta (...) o‘rnida “к чёрту” ishlatilishi yoki boshqa bir so‘z ishlatilishi “*Иди ты...*” birikmasini aytgan kishidan boshqa odamga ma’lum emas, shu bilan birga, ko‘p nuqta faqat shartli belgi, u hech qanday so‘zni anglatmaydi” deydi. Kuzatishlarimiz natijalari esa yuqoridagi fikrga zid xulosa qilishga olib keldi. Chunki qo‘shtirnoqda berilgan so‘z yoki birikma matn ichida teskari mazmun ifodalayotgani tinglovchiga ayonligi, ma’lum guruhlarda ishlatiladigan argotik evfemizmlarning so‘zlovchi nutqida suhbatdosh uchun tanish mazmun berayotganligi va, nihoyat, ellipsisga uchragan (ko‘p nuqta orqali ifodalangan) “yopiq” tushunchalar ham subyekt uchun tushunarli bo‘lib kelayotganligi o‘z isbotini topdi. “Implitsit ifodada tabulashtirilgan voqelikning evfemik vositasi ko‘pincha qo‘llanmay, ular zamiridagi tushunchalar kontekst va intonatsiya (ohangning birdan kesilishi, to‘xtab qolish, cho‘zilishi, tugallanmaganligi, sukut, davomlilik kabilar) orqali anglashilib turadi.” [А.Омонтурдиев, 2006: 56] Negaki, matn mohiyatan shunga yaqin tushunchani

kishi ongiga undaydi. Baribir, birinchi yarq etib paydo bo‘lgan fikr to‘g‘ri bo‘lib, aytish noqulay, nutqiy etikaga mos kelmasligi sababli madaniyat yuzasidan qo‘shtirnoqda beriladi yoki ko‘p nuqta bilan yoziladi:

O‘ylab, qizning aslini bildimki, onasi yuqoridan tavba qilib tushgan haromzodalardandir va otasi ham ...lardandir. (A.Q. «Kalvak mahzumning xotira daftaridan»)

Bundan tashqari implitsitlikning tavsifi borasida shunday deyish mumkin: Implitsitlik bu insonning ong osti faoliyatining til va nutqda namoyon bo‘ladigan bilim shaklini yopiq, yashirin bilim sifatida namoyon qiladi va lisoniy matnga yuqori darajadagi umumlashtirish bilan evfemik yoki disfemik ma’no yuklaydi.

Men shu zamonning hezalaklariga sira tushunolmadim-da, voy, dedim, voy sani o’sha ***olipta qilub tuqqanni****... dedim.* (A.Q. «Toshpo‘lat tajang nima deydi?»)

Yuqorida “tagmano” tushunchasi haqida fikr bildirgan edik. U implitsitlik bilan bog‘liq bo‘lgani bilan muayyan farqlarga ham ega. Masalan, implitsit ma’no ham tagma’no ham referent ma’nolarga tegishlidir. Bundan tashqari ko‘plab tadqiqotchilar tagma’noning maqsadli ekanligini tan oladilar. Ammo implitsitlik muallifning niyatlari bilan emas, balki idrokning umumiy mexanizmi bilan bog‘liq. Tagma’no atamasi umumiylikka ega – u tez-tez kundalik muloqotda, munosabatda, murojaatda ishlatiladi, ya’ni hamma uchun mavjud bo‘lgan implitsit ma’noni anglatadi, implitsitlik esa faqat nutq muhiti va aqliy tomoni bilan bog‘liq bo‘lgan terminologik ma’noga ega. Demak, badiiy matnda evfemik-disfemik vaziyatda obrazning psixologik holati, kayfiyati, xarakter xususiyati bilan bog‘liq ifodalar implitsit shaklda berilishi quyidagi kabidir: *Senlarning o‘ylag‘aning faqat...* (A.Q. “Mehrobdan chayon”)

Gapning yashirin ma’nosi xususida gap ketganda implitsitlikning darajasiga ham to‘xtalib o‘tish joizdir. Bir nechta ma’no tarkibiy qismlarining mavjudligi aniqlik/noaniqlik darajasiga ta’sir qiladi. Umuman olganda, nutqimizda *shama qilmoq, nazarda tutmoq, ishora qilmoq, sirli ma’no, ikkinchi ma’no* kabi so‘zlarning mavjudligi, har qanday til egasining intuitiv ravishda xabarning to‘liqligi/to‘liqsizligini his qilishi va baholashidan dalolat beradi. Bundan tashqari, bir qator til hodisalari mavjud bo‘lib, ular “ikki planlik”, “iplikatsiya”, “yashirin ma’nolar”, “ko‘chimlar” orqali nutqda o‘z aksini topadi. Eksplitsit ifoda etilmagan ma’no matnda yashiringan bo‘lib, ulardagi “maxfiylik darajasi” har xiligini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin.

“Abdurahmoncha” har bir ishni o‘z tilagicha yuritar: may uchun soqiy bo‘lar, zaifona ko‘ylak, lozim va boshiga kokil kiyib o‘n olti yashar qiz suratiga kirar; choyg‘a labini tegizib “tabarruk” qilar; dutor, tanburg‘a yo‘rg‘alab o‘yunchi bo‘lar; boshidagi kokil bilan “oshiqlar”ni rahmsiz qamchilab sitamgar va zolimga aylanar, eng oxirida... (A.Q. “Mehrobdan chayon”)

Yashirin ma’noga asoslanib, shunday xolosaga kelish mumkin: matnda muayyan so‘zlarning muqobil proyeksiyalari, taxminlari, idroki, faraz (taxminiy proyeksiya)lari mavjud bo‘lib, u evfemik yoki disfemik holatga xizmat qilishi mumkin. Bunday gipotetik proyeksiyalar (aks ettirilmagan shaklda mavjud bo‘lgan yashirin ma’nolar) matnning semantik tuzilishining zaruriy qismlari va biz yuqorida

sanab o‘tgan ko‘chimlarning badiiy matndagi ifodasi sifadida imlitsitlikning toifasi, axboorot kategoriyasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ермакова Е.В. Имплицитность в художественном тексте (на материале русскоязычной и англоязычной прозы психологического и фантастического реализма) / Под ред. М.Б.Барисовой. – Саратов: Изд-во Сарат ун-та, 2010. – 200 с.
2. Имплицитность в языке и речи. Отв.ред. Е.Г.Борисова, Ю.С.Мартемьянов. – М: «Языки русской культуры», 1999. – 200 с.;
3. Omonturdiev A.J. Professional nutq evfemikasi. – T.: Fan, 2006. – B. 56.
4. Кадирова Х.Б. Классификация по структуре формы эвфемизмов в произведениях Абдуллы Кадири. // Вестник науки и образования. №8(86) – М: «Проблема науки» 2020, - ст. 45-49;
5. Қодирова Х., Абдуллаева Ч. Дисфемик бирликларнинг шаклий структурасига кўра таснифи. // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2020 № 1-2, Б.163-169
6. Шахжури К.К. Эвфемизмы и их роль в изменении значения слов: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Тбилиси, 1956.
7. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006. – Б. 56.

ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA FOYDALANILGAN ARABCHA, FORSCHA VA TURKCHA SO‘ZLARNING MA’NO XUSUSIYATLARI TAHLILI

Jo‘rayeva Nazokat Gulmuradovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti katta o‘qituvchisi, f.f.n. nazokatj@list.ru

Arab, fors-tojik va boshqa turkiy xalqlar mumtoz she’riyatida fikrni yagona vazn va qofiya asosidagi maqbul so‘zlar vositasida ifodalash bayt deb atalmish she’riy birlik orqali amalga oshirilgan. Mana shuning uchun ham muayyan fikrni o‘ziga xos vazn, ohangdorlik va nisbiy mustaqillikda ifodalash shakli bayt deb yuritiladi.

Bayt termini arab tiliga oid so‘zdan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi uy demakdir. Baytning istilohiy ma’nosi esa nisbiy mustaqil mazmunga ega bo‘lgan, bir vaznga solingan va yagona qofiya asosida birlashtirilgan ikki misradan iborat she’riy birlikni anglatadi. Arab she’rshunoslari baytga muayyan ma’noni ma’lum bir alfoz (so‘zlar) bilan ifodalash shakli deb qaraganlar. Shu bois bayt so‘zining lug‘aviy ma’nosi - uy, ya’ni badiiy fikr uyiga to‘g‘ri keladi. Haqiqatan ham bayt she’rdagi muayyan fikrni o‘ziga joylagan she’riy uydir.

Shunga qaramay, fors-tojik she’riyatida mutlaqo mustaqil baytlar yaratish orqali g‘azal yozish an’anasi Sa’diy Sheroziy, Hofiz She’roziy kabi shoirlar ijodida

kuzatilganligini ayrim tadqiqotchilar xolis aytib o‘tganlar.She’rihatda turli tillardan olingan so‘zlardan foydalanib bayt yaratish uning qimmatini yanada oshirgan. Masalan:

bad (forscha) – yomon

tiynat (arabcha) – xulq, tabiat, insonga xos xususiyat

mazmum (arabcha) – nafratlangan, ayblangan, yomon deb hisoblangan kabi.

qulzum – arabcha , 1) Qizil dengiz ;2) umumiy dengiz ma’nosida;

jarf – forscha, 1) chuqur (daryo, anhorga nisbatan); 2) uzun, uzoq;

shigarf – forscha, 1) ajoyib, go‘zal, kamyob; 2) ulug‘, katta;

gunjoyish – forscha, sig‘arlik, sig‘adigan, sig‘ish;

zarf – arabcha, suyuqlik narsalar solinadigan idish, jom;

bahr – arabcha, dengiz, ummon.

otashgoh – forscha, o‘txona, o‘choq

tadrij – arabcha, darajama-daraja, ketma-ket,izchil kabi so‘zlar arab, fors va turk xalqi uchun birdek tushunarli bo‘lgan.

Gazallardagi so‘zlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tarkibidagi nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan har bir bayt lirik qahramon kechinmalarining tadrijiy rivojidagi muayyan motivning ifodasidir. G‘azaldan biror so‘zni chiqarib tashlash esa kechinma oqimidagi uyg‘unlikni, poetik fikr mutanosibligini buzadi. Demak, g‘azaldagi yoki boshqa lirik janrlarga mansub asarlardagi har bir bayt ma’no va ifoda nuqtai nazaridan chuqur o‘ylangan, poetik tafakkur tarozisida «yetti marta o‘lchab» tortilgan bo‘lishi lozim. Poetik ijodning mana shu qonuniyatiga XV asrda Alisher Navoiy to‘liq takomiliga erishgan g‘azallar, ruboiylar, tuyuqlar va qit’alar yaratish orqali amal qildi. U g‘azal tarkibida baytning mazmun va ifoda jihatidan mustaqilligini saqlagan holda har bir asarida lirik kechinma hamda poetik g‘oya yaxlitligini ta’minlash uchun baytlar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlik bo‘lishini saqlashga e’tibor qaratadi. Bu esa ijodkordan katta mahorat talab etadi. Chunki bunda semantik va sintaktik jihatidan mustaqil baytlar o‘rtasida mantiqiy aloqadorlik, davomiylik fikriy ko‘chuv vositasida emas, balki muayyan poetik motivni kuchaytirish, boshqa motivlardagi sabablarni sanash, izohlash, oqibatidan ogoh etish kabi yo‘llar orqali amalga oshirilishi zarur edi. «G‘azal mulkining sultoni» (M.Shayxzoda) bu vazifani o‘z ijodida uddalay oldi. Shu bois Alisher Navoiy g‘azallarining aksariyatida she’rxon bir baytdan ikkinchisiga qanday o‘tganligini sezmay qoladi. Buning esa quyidagicha sabablari bor:

- Poetik kechinma va g‘oya rivojida mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilish;

- Kechinma oqimidagi shiddatni, boshqacha aytganda, lirik dramatizmni pog‘onama-pog‘ona ko‘tarib, tobora taranglashtirib borish;

- Barcha baytlarni yagona yaxlit kechinma hamda g‘oyani ifodalashga xizmat qildirish, tasodifiy fikr va g‘oyalarni ifodalovchi baytlardan qochish, bir baytdan ikkinchi baytga bir xil fikriy parvoz hamda ifoda nozikligida o‘tish-taxallus san’atiga amal qilish.

Dastlab, poetikada matla’ bayt tarkibidagi misralar mazmuni bir-biriga teng va aloqasiz, ya’ni ular muayyan poetik mazmunni kuchaytirishga xizmat qiladigan

bo‘lishlari talab etilgan. Masalan, Alisher Navoiyning quyidagi matla’si ana shu talabga rioya qilingan holda yaratilgan:

Bo‘lmasam oshiq fig‘onim zor bo‘lg‘aymu edi,
Kuymasam pinhon ichim afgor bo‘lg‘aymu edi?

Ayrim matla’ baytlar esa ikki misraning o‘zaro sabab-oqibat munosabatidagi birikishidan iborat bo‘lishi mumkin. Navoiyning quyidagi matla’si bunga misol bo‘ladi:

Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,
Yetkach ohim shu’lasi, ani sarig‘ gul ayladim.
Kimsa hargiz ko‘rmadi chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur, ne tama’ andin vafo.

Yana shunday matla’lar ham borki, ularning birinchi misrasidagi mazmun ikkinchi misradagi o‘zgacha motivlarda davom ettiriladi. Navoiyning quyidagi mashhur g‘azali matla’sining birinchi misrasida oshiq mahbubasining husni jamolini ko‘rishga mushtoqligidan zorlanadi. Ikkinchi misrasida esa o‘zi tolib bo‘lgan mahbuba bilan oshno bo‘lgan kunni la’natlaydi. Shu bois u mahbuba bilan duch kelgan ana shu kunni «balolig‘ kun» deb ataydi

Ko‘rgali husnungni zoru mubtalo bo‘ldum sanga,
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.

Baytning birinchi misrasidagi favqulodda tugal fikr kishi diqqatini o‘ziga kuchli jalb etadi. G‘azalni o‘qigan yoki tinglagan kishi ana shu misradan keyin endi nima bo‘lar ekan deb, butun diqqatini kechinma oqimining keyingi yo‘nalishiga qaratadi. U lirik qahramondan yana shikoyat, zorlanish kutadi. Ammo ikkinchi misrada oshiqning zorlanish motivi davom ettirilmaydi. Oshiq mahbuba bilan oshno bo‘lgan kunni la’natlar ekan, o‘quvchi baytning ikkinchi misrasidagi bunday keskin burilishdan lol bo‘lib qoladi. Ko‘rinib turibdiki, matla’ tarkibidagi ikki misrada ifodalangan mazmun o‘zaro zid munosabat orqali birlashib, yaxlit poetik g‘oya ifodalashi bilan favquloddalik kasb etadi. Yuqorida alohida qayd etganimizdek, baytdagi nisbiy mustaqillik matla’da ifodalangan poetik g‘oyani yanada rivojlangirishga da’vat qiladi. Mahbuba husnini ko‘rishga oshiq ahvoli, bunday holatga solib qo‘ygan «balolig‘ kun»ni la’natlash bilan baytda, garchi nisbiy mustaqil mazmun va ifoda to‘la yuzaga kelgan bo‘lsa ham, lekin uning mohiyati asosida yana nimanidir aytish istagi ana shu baytdan keyin yana mustaqil mazmun va ifodaga ega bo‘lgan baytni keltirishga imkon beradi. Ammo poetik g‘oya rivojida shoir birinchi baytdagi birinchi misra mazmuniga tayanib emas, balki ikkinchi misra mazmuniga asoslanib keyingi baytni keltiradi. Shunday «balolig‘ kun»da oshno bo‘lgan mahbubadan lirik qahramon faqat ko‘ngil uzish orqali qutulishga ahd qiladi. U bu qarorga kelishga juda ko‘p marta ahd qiladi. Ammo aksiga olib, u kundan kunga mahbubaga yanada qattiqroq mubtalo bo‘lib boradi.

Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo‘ldum sanga.

Matla’ bayt va undan keyingi bayt o‘rtasidagi aloqa, munosabat ham hissiy, ham fikriy jihatdan shu darajada uzviy bog‘likki, g‘azalni o‘qigan kishi qanday qilib birinchi baytdan ikkinchisiga o‘tganligini sezmay qoladi. Lirik kechinma oqimidagi

dramatik taranglik, poetik mantiq izchilligi, kechinmani pog‘onama-pog‘ona rivojlantirib borish, ikkala bayt o‘rtasida fikriy va hissiy parvoz darajasidagi tenglik Alisher Navoiyning taxallus san’atiga og‘ishmay rioya qilganligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy g‘azaliyotida bayt misralarining o‘zaro sababiy bog‘lanishi ko‘zdan kechirilsa, baytlarning ikki tipdagi sabab-oqibat munosabatidagi bog‘lanishni uchratish mumkin. Birinchi tipdagi bog‘lanishda baytning birinchi misrasida ifodalangan poetik mazmun ikkinchi misrada xuddi ana shunday yana bir poetik mazmun bilan kuchaytiriladi:

Ne kun kelgayki, kelgay nozaninim,
Ne xush bo‘lg‘ayki, bo‘lg‘ay hamnishinim.

Birinchi misrada lirik qahramon nozaninning keladigan yaxshi kunini orzu qiladi. Ikkinchi misrada esa ana shu ushalgan orzu tufayli hamnishin kelishiday yaxshi ish yuz beradi deb o‘ziga tasalli beradi. Baytning har bir misrasi fikran mustaqil, ammo mazmunan bir-birini quvvatlaydigan, tasdiqlaydigan tarzda o‘zaro bog‘langan. Aniqrog‘i, ikkinchi misradagi poetik mazmun birinchi misradagi mazmunning natijasi sifatida ifodalangan. Ikkinchi tip baytlarda misralar bir-biri bilan oqibat-sabab munosabati bilan bog‘langan:

Yuz balo boshimga yog‘durg‘on dedim aflok emish,
Chunki tahqiq ayladim, ul kofiri bebok emish.

Birinchi misrada lirik qahramon boshiga yog‘ilgan balolarni falakdan deb biladi. Ammo ikkinchi misrada u tekshirib ko‘rsa, ana shu balolar bevosh kofir (go‘zal) dan ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Alisher Navoiy baytdagi misralar o‘rtasida sabab-oqibat munosabatidagi bog‘lanishlarga, har bir poetik fikrning mantiqiy- hayotiy jihatidan asoslanishiga katta e’tibor bergan. Uning g‘azallaridan birida baytning har bir misrasi ikkita bir-birini izohlovchi qismga bo‘lingan. Birinchi misraning birinchi yarmida oqibat aytilib, ikkinchi yarmida uning sababi aytilsa, ikkinchi misraning birinchi yarmida sabab aytilib, ikkinchi yarmida oqibat izohlanadi:

Muvofiq kiydilar, bo‘lmish magar navro‘z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil’at, mening sarvi ravonim ham .

Navro‘z bayrami kelganda mening sarvi ravonim tabiatga muvofiq kiyinadi, chunki tabiat yashil kiyadi, jumladan, mening go‘zalim ham tabiatga mos kiyinadi. Muhimi shundaki, ikkinchi misra aslida birinchi misraning sababini anglatadi, chunki navro‘z bayramida mening sevgilim ham tabiatga muvofiq yashil kiyim kiyadi deyilgan fikr baytning asl ma’nosini ifodalaydi. Buni o‘qigan har bir odam bir qarashda shoir fasllar kelinchagi bo‘lmish bahorni tarannum etganini sezmasligi mumkin emas. Ammo misralarda ishlatigan har bir so‘z ma’nosini tubdan tahlil qilsak, bilishimiz mumkinki, shoir ruboiysi orqali hayotning o‘tkinchi ekanligini ta’kidlaydi. Ruboiyning birinchi misrasida bahor faslining kirib kelishini “nishot” fursati, ya’ni xursandchilik payti yetib kelganiga o‘xshatadi. Keyingi misrada esa “gul”ga murojaat qilinadi. Biz bu gulni ikki ma’noda tushunishimiz mumkin: birinchi navbatda, haqiqiy gul, o‘simlik ma’nosida, ikkinchi navbatda esa, yor, ma’shuqa ma’nosida. Shoir gulga murojaat qilar ekan, undan xursandchilik jomidan bahramand bo‘lishni so‘rab qoladi. Ushbu misrada aks ettirilgan ma’no keyingi

misra orqali yanada batafsil yoritiladi. Jumladan, ushbu misra orqali gulga qilingan murojaatning asl sababi keltiriladi. Ushbu ikki misrani tahlil qilar ekanmiz, shoir ularda dunyoning o‘tkinchi ekanligini ta’kidlaydi hamda ushbu o‘tkinchi dunyoda xursandchilikdan bahramand bo‘lishni tavsiya qiladi. Shu o‘rinda, agar bir gul obrazini yor deb oladigan bo‘lsak, shoir yorni sevgi bog‘ida sarhush bo‘lishga chaqiradi, Zero, insonning bunday lahzalari g‘animatdir.

Lekin misralarning har biri ham ikki bir-biriga sabab-oqibat munosabatida bog‘langan qismlardan tashkil etilganligi uchun har bir misradagi qismlarining sabab-oqibat yoki, oqibat-sabab munosabatlari tufayli bu narsa sezilmay turadi. Mana shu misraning o‘zi ko‘rsatib turibdiki, Alisher Navoiy bayt tarkibidagi misralarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashda sabab-oqibat munosabatiga alohida e’tibor bergan. Shuning uchun uning ijodida baytlar mazmunan kuchli, asosli va mantiqan yaxlit yaratilganki, ularning biror misrasi yoki qismi olinib tashlansa poetik mazmun yaxlitligi buziladi. Quyidagi baytda dastlab oqibat aytilib, keyingi misrada uning sababi aytilgan. Misralar o‘rtasidagi kauzal munosabat esa ular o‘rtasidagi fikriy tadmin (ko‘chuv) orqali ta’minlangan:

Do‘stlar, bu kecha voqif bo‘lingizkim, chiqadur
Onsizin shefta jonim tan uyidin toriqib.

Lirik qahramon do‘stlariga murojaat qilib, bu kecha mendan xabardor bo‘linglar, chunki uning hajrida kuygan jonim tan uyiga sig‘may tashqariga chiqadi, deydi. Ko‘rinib turibdiki, birinchi misradagi mendan voqif bo‘linglar deyishning sababi ikkinchi misrada ma’lum bo‘ladi. Inson umri davomida turli xil insonlar bilan tanishadi, ayrimlari bilan umrbod do‘st tutinsa, ayrimlari bilan esa faqat tanish sifatida qoladi yoki ayrim sabablarga ko‘ra umuman yuzko‘rmas bo‘lib ketadi. Shuning uchun birinchi taassurotdan, sinamasdan turib insonga ko‘ngil berish noto‘g‘ri. Agar u shoir aytgandek, va’dasiga vafo qilmaydigan nomard inson bo‘lib chiqsa, faqat ko‘ngilingiz og‘riganiyu, unga bildirilgan ishonchingizning oyoqosti bo‘lgani qoladi. Ko‘ngilni Allohniki deyishadi, uni og‘ritishga, o‘ksitishga hech kimning haqqi yo‘q. Shuning uchun ko‘ngilni asrab-avaylash kerak, uni har kimga ham bog‘lash yaxshi emas.

Demak, o‘zbek mumtoz she’riyatida purmazmun, g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak baytlar yaratishda ikki xil munosabat ifodalovchi ikki xil usuldan barcha shoirlar unumli foydalanganlar. Birinchisi muayyan poetik fikrni ta’kidlash, tasdiqlash va kuchaytirishga xizmat qiluvchi mutlaqo mustaqil mazmun hamda ifoda shakliga ega bo‘lgan misralardan tuzilgan baytlar. Ikkinchisi birinchi misrasi ikkinchi misraga sabab bo‘lgan yoki birinchi misradagi mazmunning sababini ikkinchi misra ifodalovchi baytlar. Bunday baytlar badiiy tafakkur rivojining nisbatan keyingi bosqichlarida, ya’ni har bir poetik tezis yoki mazmunni aniq dalillash ehtiyoji asosida yuzaga kelgan. Har ikki tipdagi baytlarni yaratish mumtoz she’riyatimizda barqaror poetik an’anaga aylangan.

Shu o‘rinda bir narsani aytib o‘tish kerakki, shoir so‘zlarni o‘z o‘rnida, juda ta’sirli va sermazmun qilib qo‘llagan. Masalan, “dono” va “nodon” so‘zlarini oladigan bo‘lsak, ular faqat bir insonning salohiyatining ta’rifi sifatida kelgan emas. Negaki, hamma savodli, o‘qigan odam “dono” bo‘lib qolmaydi yoki aksincha,

hamma o‘qimagan odamni ham “nodon” deb bo‘lmaydi, xuddi “o‘qish va uqish”ning orasida katta farq bo‘lganidek. Insonga “dono” deb qachon ta’rif beriladi? Qachonki, aytayotgan so‘zi ma’noli, qilayotgan ishi mulohazali bo‘lsa, oqil inson nazarda tutiladi. Ammo shunday zakovatli inson davlatda nodon, ya’ni johil, kaltafahm, befarosat odam oldida bir burda nonga zorligi, bu juda achinarli holligini, nohaqlik bo‘layotganini nazarda tutib bitilgan.

Alisher Navoiy o‘zbek tilining ravnaqi, kamoli, ona tili imkoniyatlarini namoyish etish, ona tilidagi so‘zlarning kuchi, quvvati, latofatini ko‘rsatish uchun butun umrini baxshida qildi. Buning evaziga esa u millionlarning qalbidan muqim joy oldi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 4-жилд. - Т.: Фан, 1989. -558 б.
2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзои. // Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 16-жилд. - Т.: Фан, 2000. - Б.43- 95.
3. Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2002. - № 2 - Б.77-90.
4. Муаммар Юзбашиоглы Орнекларла адабият белгилари. - Истанбул, 1982. - 243 б.

ЎЗБЕК ЗАМОНАВИЙ ҚИССАЧИЛИГИНИНГ ЎРГАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ

Эшматова Юлдуз Боймахматовна
Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ
Ўзбек тили кафедраси катта
ўқитувчиси, филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Истиқлол даври ўзбек адабиётшунослигида ҳам ўзбек қиссачилигини ўрганиш ва тадқиқ этиш ишлари жадал ривожланди. Бинобарин, К.Кўбаев, Ю.Каримова, М.Рустамова, А.Холмуродов, М.Бобохонов, М.Шералиева, Д.Холдоров, Ф.Раджапова каби ўнлаб тадқиқотчилар бу соҳада монографик ишлар ёзишди. Шу муаллифлар орасидан баъзи бирларига алоҳида тўхталиб ўтишни жоиз биламиз. Н.Раҳимжонов, Қ.Кўбаев ҳаммуаллифликда яратган “Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди” монографиясида М.Осим, О.Ёқубов, Я.Илёсов, З.Аълам, Х.Султон, А.Ибодинов, Ш.Исахонова, Исфандиёр, М.Тошпўлатовларнинг ўзбек халқи тарихида ном қолдирган буюк тарихий шахслар ҳаётига бағишланган қиссалари таҳлилига бағишланган. Тадқиқотчи Қ.Кўбаев ўзининг ўзбек қиссалигида алоҳида йўналиш сифатида шаклланган тарихий қиссалар ва бу жанрда ижод қилган ўнлаб қиссанависларнинг шу мавзудаги асарларига хос тарихий ҳақиқат ва ёзувчининг бадиий маҳорати

масаласини ўрганади [11] . Хусусан, тарихий қиссаларни жиддий ўрганган олимларнинг қуйидаги фикрлари эътиборга лойиқ: “Тарихий қиссалар ўз хусусияти ва табиатига кўра прозанинг бошқа жанрларига қараганда анча мураккаб ҳисобланади. У ҳикоя, эссе, роман жанрларининг етакчи хусусиятларини ўз табиатига сингдирган ҳолда янги фазилатлар касб этиб бормоқда. Тарихий қиссалар аксар ҳолларда синкретик жанр, дейилганда ана шу белгиларнинг уйғунликда зоҳир бўлиши назарда тутилади. Адабиётшунослик илмида унинг устувор хусусиятларини, жанр табиатини белгилашдаги қийинчиликлар мураккаблиги ана шу омиллар билан изоҳланади”[12]. Ўзбек адабиётшунослигида сўнгги йилларда қиссанавислар ижодини алоҳида ажратиб олиб ўрганиш ҳолати ҳам кузатилади. Жумладан, бу ўринда Ю.Каримованинг номзодлик, З.Сувановнинг филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертациясини кўрсатиш мумкин [13] . Тадқиқотчи мазкур илмий монографиясида ўзбек қиссачилиги тараққиётига катта ҳисса қўшган П.Қодировнинг қатор қиссаларида илгари сурилган маънавий-ахлоқий муаммоларни ўрганади.

Адабиётшунос А.Холмуродовнинг “Ўзбек қиссачилиги: тараққиёт муаммолари” мавзусидаги докторлик ишида XX аср охирида яратилган ўзбек қиссаларидаги услубий ўзгаришлар тадқиқ этилади. Тадқиқотчи мазкур диссертациясида қисса жанрининг тарихий илдизлари, жанрнинг назарий табиати, трансформацияси, қиссада композиция ва эпик тасвир, қиссанавис образи, замонавий қиссачиликда давр ва психологик таҳлилнинг ўзига хослиги, тарихий қиссада образ яратиш муаммоси, тарихий қисса спецификаси, тарихий қиссада реал шахс ва бадиий тўқима, янги бадиий тафаккур ва тарихий образ яратиш муаммоларини ўрганади. А.Холмуродов мазкур тадқиқотида ўтган асрнинг сўнгги йигирма беш йил ичида яратилган қиссаларни жамлаб, муайян муаммолар юзасидан аналитик таҳлилий кузатишлар асносида қисса жанрининг назарий табиати ва генезиси ҳақида ижобий мулоҳазалар юритишга муваффақ бўлган.

М.Рустамованинг “Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари” номли номзодлик диссертациясида янги қаҳрамон, шахс фожеаси талқини, ноанъанавий услубий шакллар кузатилган[14]. Тадқиқот иши ҳажман жуда катта материални ўз ичига олгани билан аҳамиятли.

Истиқлол даврида яратилган “Оромкурси”, “Куза...”, “Нигоҳ”, “Паноҳ”, “Сўроқ”, “Ҳижроним мингдур менинг”, “Чаёнгул” (Х.Дўстмуҳаммад), “Шўродан қолган одамлар”, “Бир кунлик меҳмон”, “Эски

---

[11] Кўбаев Қ. Ўзбек қиссаларида тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. Раҳимжонов Н., Кўбаев Қ. Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири ҳузуридаги “Адолат” нашриёти. – 2005. – Б. 188.

[12] Раҳимжонов Н., Кўбаев Қ. Тарихий қиссалар ҳақиқат излайди – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири ҳузуридаги “Адолат” нашриёти. – 2005. – Б. 177.

[13] Каримова Ю. Пиримқул Қодиров қиссаларида маънавий-аҳлоқий муаммоларнинг бадиий талқини: Филол.фанлари номзоди ...дис. - Тошкент: 2005. Сувонов З. Тоғай Мурод насрида образлар поэтикаси: Филол. фан. б-ча. ф-фа. д-ри. ...дис. автореф. – Тошкент, 2019. – Б. 53.

[14] Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари: Филол. фан. номзод. ...дис. – Тошкент: 2005. – Б. 134.

арава”, “Шоҳона совға”, “Муюлишдаги уй”, “Кунботардаги боғ” (Ш.Бўтаев), “Уруш одамлари”, “Момоқўшиқ”, “Тун панжаралари”, “Қора китоб” (Н.Эшонқул), “Ёлғизлик” (У.Ҳамдам), “Шоирнинг тўйи”, “Чапаклар ва чалпаклар мамлакати”, “Забаржад”, “Фаришта” (Э.Аъзам), “Асқартоғ томонларда”, “Ҳали ҳаёт бор” (А.Аъзам) каби қатор қиссаларнинг баъзилари кўпчилик тадқиқотчиларнинг диссертацион ишларида тадқиқот объекти вазифасини ўтаган.

Тадқиқотчи Д.Холдоров “Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси” фалсафа доктори (PhD) диссертациясида бугунги ўзбек қиссачилигига янгича услубий изланишлар ва янгича образлар, топилма сюжетлар олиб кирган икки қиссанавис Ш.Бўтаев ва Н.Эшонқул қиссаларини тадқиқот объекти сифатида танлайди. Масалан, тадқиқотчи Ш.Бўтаевнинг “Шўродан қолган одамлар”, “Эски арава”, “Муюлишдаги уй”, “Шамол ўйини”, “Бир кунлик меҳмон”, “Шоҳона совға”; Н.Эшонқулнинг “Тун панжаралари”, “Қора китоб”, “Момоқўшиқ”, “Уруш одамлари” қиссалари мисолида бадиий услуб муаммосини кун тартибига қўяди ва илмий таҳлиллари орқали ечим топишга ҳаракат қилади. Д.Холдоровнинг қуйидаги фикрига эътибор қаратамиз: “Изланишларимиз натижаларига кўра ўзбек қиссасининг бугунги ҳолати, асосан, унинг услубий ўзига хослиги тўрт асосий омилдан келиб чиқади. Булар: а) фольклор таъсиридаги қиссалар; б) ёзма мумтоз қиссачилик; в) шўро қиссачилиги (рус повести); г) жаҳон реалистик ва модерн қиссалари бўлиб, айни омиллар адабий жараённинг турли даврларида гоҳ фаол, гоҳ сустроқ вазифа бажаргани кузатилади”[15]. Д.Холдоров замонавий ўзбек қиссачилигига фольклор анъаналарининг, мумтоз қиссачилик, рус қиссачилиги, жаҳон қиссачилигининг таъсирини илмий асослар орқали кузатган.

Бундан ташқари, тадқиқотчи Ф.Раджапова “Истиқлол даври ўзбек қиссаларида услуб ва поэтик тил” фалсафа доктори (PhD) диссертациясида қисса жанридаги услуб, тадрижийлик, ички турлар, янгиланаётган услубда руҳият талқини тамойиллари, қиссалар тилининг бадиий-эстетик ва услубий вазифалари каби масалаларни таҳлил қилган[16]. Масалан, тадқиқотчи ҳозирги ўзбек қиссачилигини қуйидагича таснифлаган: “Ҳозирги қиссачиликдаги эврилишларда жанр ва услуб муносабати салмоқли ўрин тутади. Унда анъанавий ва замонавий услуб, публицистик талқин, психологик таҳлил, ижодий ўзига хослик каби тамойилларни кузатиш асосида алоҳида шахсни руҳий-маънавий ракурсда тафтиш этиш кенгаймоқда. Шунингдек, реализм имкониятлари қисса ва услуб таркибида янги хусусиятлар ва кўринишларни вужудга келтирмоқда. Бу жиҳатдан қиссанинг қуйидаги ички турлари мавжуд: 1) драматик қисса; 2) монолог-психологик қисса; 3) ҳангома қисса; 4) эссе қисса; 5) саргузашт-детектив қисса; 6) мактуб қисса; 7) лирик қисса; 8)

[15] Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул асарлари мисолида): Филол. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD). ...дис. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 11.

[16] Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек қиссаларида услуб ва поэтик тил: фил. Филол. б-ча. ф-фа. д-ри. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: 2018. – Б. 11.

киноқисса”[17]. Бу ўринда жанрлар ўз ички ўзгаришларга кўра турланиб-тусланиб кетганлигига сабаб сифатида адабиётшунос Д.Қуроновнинг фикрларини келтириш жоиз. “Эпик жанрларнинг кино таъсирида шаклланган модификациялари – киноэтюд, киноҳикоя, киноқисса, кинороман кабилар ҳам адабиёт мулкида фуқаролик олишга ҳақли”[18]. Ҳақиқатан ҳам эпик тур ва жанрларнинг синкретизми, бошқа санъатларнинг аралашуви натижасида, жанрнинг янги-янги турлари вужудга келди. Жумладан, Э.Аъзамнинг “Забаржад”, “Фаришта”, “Пакананинг ошиқ кўнгли” киноқиссалари яратилди. Тўғри, бу қиссалар кино қилиниши учун сценарий тарзида яратилган. Уларни бадиий асар сифатида ўқиш мумкин. Олимлар ўртасида шу типдаги қиссаларни адабий қисса сифатида ўрганиш керак эмас, деган баҳсли фикрлари ҳам пайдо бўлди. Бугунги ўзбек адабиётшунослигида киноқисса, киноэтюд, кинороман, киноҳикоялар ҳам ўрганилиши кун тартибидаги масалалардандир.

Биламизки, қисса жанри жамиятдаги ўзгаришларни, янги ижтимоий характерларни акс эттириш учун қулай, оператив жанр ҳисобланади”[19]. Умуман олганда, ёш олиманинг илмий кузатишларида масалага, бадиий асар таҳлилига нисбатан тамомила янгича қараш, янгича назариялар асосида ёндашув сезилади.

ЎЗБЕК АДАБИЙ ТИЛИДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИНГ ДАВОМЛИ ТАҲРИР ЖАРАЁНИДА АКС ЭТИШИ (АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ “САРОБ” РОМАНИ МИСОЛИДА)

Мусулмон Намоз,
Алишер Навоий номидаги
ТошДЎТАУ Ўзбек тили
кафедраси ўқитувчиси

Ўзбек адабиётининг энг машҳур намояндаларидан бири бўлиб танилган Абдулла Қаҳҳор “Сароб” романини ёза бошлаганида эндигина йигирма уч ёшга тўлган истеъдодли ва серғайрат йигитча эди. У Октябр тўнтаришидан сўнг ташкил этилган янгича типдаги бошланғич ва ўрта таълим ўқув юртларида турли сиёсий ва мафкуравий маслакдаги муаллимлардан таҳсил олди. Ўн олти ёшида ўта сиёсий руҳдаги ва жангари ташкилот бўлмиш комсомолда масъул лавозимда хизмат қилди. Ўрта маълумоти ҳам том бўлмаган бу ўсмир республиканинг энг нуфузли сиёсий ва адабий нашрларида аввал мухбир, кейинроқ таҳририятларда масъул вазифаларда ишлади. Шу йилларданоқ сиёсий ва адабий жараёнда фаол иштирок этди, мафкуравий курашларда пишиб, яхшигина тажриба орттирди.

[17] Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек қиссаларида услуб ва поэтик тил: Филол. фан. б-ча. ф-фа. д-ри. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: 2018. – Б. 11.
[18] Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б. 375.
[19] Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. (Ижтимоий-псхологик омиллари, поэтик тизимдаги ўрни) – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 84-85.

Шулар боисидан унинг биринчи йирик асари бўлмиш “Сароб” романида ўша давр ўзбек жамиятида мавжуд бўлган ижтимоий ҳодисаларнинг бадиий инъикосидан ташқари, ўзбек адабий тилининг ҳам энг муҳим хусусиятлари бўртиб кўриниши табиий бир ҳолдир.

1933-34 йилларда мазкур романнинг илк варианти “Ўзбек шўро адабиёти” журналида тўлиқ босилиб чиқади. Уни китобхонлар жуда катта қизиқиш билан кутиб олди. Журналнинг ҳар бир янги сони интиқлик билан кутилгани ҳақида маълумотлар мавжуд. Романга қизиқиш шунчалик бўлган эдики, 1936 йилда унинг эпизодик қаҳрамонларидан бири бўлган Саримсоқ ҳаётига тегишли қисмлари “Саримсоқнома” номи остида “романдан парча” сифатида алоҳида нашр қилинади. Ҳолбуки, роман тўқимасига бегонароқ мавзудан ҳикоя қиладиган бу ўринлар асарнинг кейинги нашрларида бутунлай қисқариб кетган.

Бироқ романнинг алоҳида китоб ҳолида чоп қилиниши бирмунча чўзилади. Бунинг сабаблари ҳақида кўп гапириш мумкин, албатта. Лекин энг муҳим сабаби ўша давр сиёсати билан боғлиқ эканини таъкидлаб ўтишнинг ўзи кифоя қилади.

Роман журналда эълон қилинганидан салкам икки йил ўтгач, 1936 йилнинг 13 декабр куни китоб ҳолида чоп қилиш учун теришга берилади. Бироқ уни расман нашр қилиш учун фақатгина 1937 йилнинг 23 декабрида рухсат этилади. Яъники, у китобхонлар қўлига 1938 йилда етиб боради[20].

Романнинг илк нашри 1938 йили чоп этилган бўлса ҳам, унинг 1930-33 йиллари ёзиб тугатилганини қаҳҳоршунослар – Озод Шарафиддинов, Раҳмон Қўчқор, Отабек Жўрабоев бир овоздан тасдиқлашади. Бинобарин, унинг илк нашрида ўша давр ўзбек адабий тилининг барча муҳим жиҳатлари алоҳида бўртиб кўриниб туради, дея таърифласак ҳақлимиз.

Маълумки, ўзбек адабий тили ва халқнинг жонли тили ўтган асрнинг бошларида бир-биридан жуда кескин фарқ қилар эди. Ўша давр матбуотини адабий тил ривожи нуқтаи назаридан текширган киши буни дарровда англайди. Шунингдек, ўша давр матбуотини кузатишда давом этсак, ўзбек адабий тили жуда қисқа муддатда ниҳоятда катта ва ўта шиддатли ўзгаришларни бошидан кечирганига гувоҳ бўламиз. Яъники, янгидан шаклланиб келаётган адабий тилимиз ўзаро бир-бирини инкор қиладиган, ички табиати зид, моҳиятан бир-бировидан кескин фарқли бўлган икки жиҳатга эга ва бу жиҳатлар орасида кўзга кўринмас бир кураш давом этар эди.

Биринчиси, мумтоз адабиётимиз анъаналарига суянган ва аллақачон шаклланиб улгурган адабий тил бўлиб, у арабий ва форсий сўзлар, иборалар, гап қурилиши билан характерланади. Унда дабдабабозлик, жумлаларнинг чийратма қурилиши, авом халқ учун тушунилиши қийин бўлган тил мантиғи ҳукмрон эди. Иккинчи жиҳат эса аср бошларидан Марказий Осиёга жадал

[20] 1.Абдулла Қаҳҳор: (Биоблиография) Тузувчи: Бердиева Зуҳра. Муҳаррирлар: Кибриё Қаҳҳорова, М.Я.Носирова) -Т, 1989, -151 б. Сарлавҳа олдида: ЎзССр Маданият вазирлиги. Тошкент Давлат маданият институти.

2. Шарафиддинов, О. Абдулла Қаҳҳор: (Эссе). -Т.: Ёш гвардия, 1988. -256 б.

3. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 2- жилд. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. -420 бет.

кириб кела бошлаган Қозон ва Қрим татар тилли газета ва журналлар таъсирида маҳаллий ёзарларимизнинг умумтуркий лаҳжага мойиллиги ўлароқ юзага чиққан эди. Қайд этиш лозимки, бу ҳар икки жиҳат ҳам бир вақтнинг ўзида халқ жонли тилидан узоқлиги билан характерланади.

Навоий замонларидан буён давом этиб келаётган анъанавий адабий тилнинг матбуотда ўз ўрнини янги тамойилларга бўшатиб бериши қийин кечаётган эди. Ўша давр Россия империясидаги нисбатан илғор таълим усулларига асосланган Қозон ва Уфа шаҳарларидаги мадрасаларни битириб келган, шунингдек, ислом диёрларининг энг маърифатли маскани бўлган Истанбулда таҳсил олган зиёли муҳаррирлар бошқараётган янги матбуотнинг тили эса, муҳаррирларининг мойиллигига қараб, баъзан Қозон, баъзан Қрим татар тилига, баъзан Рум туркийчасига тортиб кетар эди. Халқ жонли тилидан узоқлик масаласи ўша давр матбуотида дарровда кун тартибига чиқмади.

Ўзбек адабий тилининг ўша даврдаги тараққиёт имкониятларини яхшироқ тасаввур қилиш учун ўша давр ижтимоий ҳаётида юз бераётган воқеаларга эътибор қаратишимизга тўғри келади. Чунки бу воқеалар бевосита тил тараққиётига таъсир кўрсата бошлаган эди.

Тарихдан маълумки, Биринчи жаҳон урушида чор империясига асир тушган турк зобитларининг катта қисми Марказий Осиёга сургун қилинган ва улар кун кўриш мақсадида бизнинг ўлкалардаги мактаб ва мадрасаларда дарс бера бошлаган эди. Катта ҳаётий тажрибага ва замонавий билим ҳамда дунёқарашга эга бўлган усмонли турк муаллимлар қўлида сабоқ олган ёшлар, шунингдек, кўп масалаларда усмонли турк муаллимлар билан ҳаммаслак бўлган маҳаллий зиёлиларнинг ёзишмаларида ҳам турк лаҳжаси устувор мақомга келиб қолган эди. Натижада, жорий адабий тил ва халқ жонли сўзлашув тили орасидаги фарқлар кучайиб кетади.

Асрнинг йигирманчи-ўттизинчи йилларига келиб, бундай вазият бирмунча ўзгара бошлади. Матбуот жуда кучли тарғибот қуроли эканини яхши тушунган шўро мафкурачилари унинг халққа таъсир кучини янада ошириш учун адабий тилни халқ жонли тилига яқинлаштириш зарурлигини тушуниб турарди. Ўрта бир турк тилининг юзага келишидан хавфсираган шўровий мустамлакачи маъмурият туркий миллатнинг бирлашишига зимдан қарши бўлиб, зўр бериб ўзбек, қозоқ, қирғиз, татар, туркман каби маҳаллий миллатларни яратишга интилар эди. Бунинг учун маҳаллий миллатларнинг ўз адабий тили пайдо бўлиши учун барча шароит яратилди. Айниқса, ёш адиблар мана шу ишга сафарбар қилинди.

Шунингдек, шўро тизимига баъзан зимдан, баъзан очиқдан очиқ қарши бўлган, аввалги ташкилий ва мафкуравий аҳамиятини, таъсир кучини йўқотган бўлса-да, ҳамон ўз ғояларидан қайтмаган жадид ёзарманлар ҳам халққа таъсир кўрсатиш учун матбуотни ривожлантиришга уринар эди. Улар бу йўлдаги бир тўсиқ сифатида адабий тилнинг халқ жонли сўзлашув тилидан узоқлашиб кетганини кўрарди. Ижтимоий ҳаётдаги мазкур икки интилишнинг муайян вазиятда бир-бирига мос келгани натижасида адабий тилнинг халқ жонли

тилига яқинлашиши тамойили қисқа муддат ичида устувор мақомга кўтарилди.

Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романи айни шу кейинги тамойил энг кучли тараққиёт босқичига чиққан бир паллада ёзилгани ва эълон этилгани билан ҳам аҳамиятлидир. Мазкур романнинг дастлабки нашрини кузатадиган бўлсак, унда жонли сўзлашув тилининг адабий тилга жуда катта таъсир ўтказаётганини, уни ўзгаришга мажбур қилаётганини кўрамиз.

Жамиятдаги ҳар қандай ўзгариш тилда, албатта, ўз аксини топади. Бу ҳол адабий тилнинг янги сўз ва жумлалар билан бойиб боришини ҳамда ишлатилиб турган сўзларнинг янги маъно нозикликлари касб этишини, тилнинг морфологик ва синтактик қурилишидаги такомиллашувни аниқлашни тақозо этади. Бу қонуниятни ёш Абдулла Қаҳҳор ҳам жуда яхши тушунган. Унинг илк романи бир тарафдан, арабизм ва форсизмдан қутилишга интилиши билан, иккинчи тарафдан, татар ва рум туркийчасига хос бўлган сингармонизмдан қочишга уриниши билан ажралиб туради. У яратган матн халқ жонли сўзлашув тилига жуда яқиндир.

Мисолларга мурожаат қилсак. Романнинг илк нашрида ***фикр*** сўзининг ***фкир*** тарзида жонли талаффузга мослаб ёзилганини кўрамиз[21]. Бугунги адабий тилимизда ***иккала*** тарзида ёзиладиган ва талаффуз қилинадиган яна бир сўз эса талаффузга мос бўлмаса-да, сўзнинг луғавий шаклига қўшимча қўшилиши тарзида ***иккила*** деб битилган. Бугун биз ***европалик*** деб ёзадиган ва талаффуз қиладиган сўзимиз эса ***явропали*** тарзида ўша замон сўзлашув услубига хос ҳолатда келтирилган. Бугунги имло қоидаларимизга биноан **“и”** ҳарфи орттириб ёзиладиган ***билан, бироқ, китоб, тиласа, йигит, бижиб, ширин, чироқ, сира, ҳикоя*** каби сўзлар эса ***блан, брақ, ктаб, тласа, йгит, бжиб, шрин, сра, ҳкая*** тарзида берилган. Бу каби сўзлар имлоси асарнинг 1957 йил нашрида бугунги адабий тилимизга мослаб ўзгартирилган.

1957 йилги нашрни қарайдиган бўлсак, таҳрир асарнинг биринчи саҳифасидан бошланганини кўрамиз. Абдулла Қаҳҳор бу таҳрирда, нафақат, тасвирнинг тиниқлигига эришишни мақсад қилган, шунингдек, у асар матнидаги сўзларнинг жорий адабий тилга мослигини таъминлашга ҳам интилган эди.

Мисолларга мурожаат қилайлик. Асарнинг илк саҳифаси 1937 йилги нашрида шундай бошланади: ***“У эшик олдиға юраги бетламайрак келди; эшикнинг тутқичидан ушлаб аста тортиши...”*** Асарнинг 1957 йилги нашрида эса илк мазкур жумла ҳам таҳрирга тортилади. Илк ***“У”*** сўзи ***“Қиз”*** сўзи билан алмаштирилади. Бу билан муаллиф ҳаракат эгасининг қиз бола эканини аввалдан билдириб қўяди. Ва бундай таҳрир тўғри ҳам эди. Дейлик шу жумла шу ҳолида рус тилига таржима қилинадиган бўлса, таржимон ***“У”***ни ***“Она”*** деб ёзишга мажбур бўлар ва бунинг натижасида муаллиф кўзда тутган қаҳрамоннинг ким эканини дарровда билдирмай туришга интилиш эффекти йўқолар эди. Қолаверса, бундай яшириб туриш усулининг матнда бадиий юк

[21] Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 2- жилд. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016, 14-б.

ташиши масаласи ҳам жуда эътирозлидир. Чунки, беш-ўн сатрдан кейиноқ ***“У”***нинг қиз бола экани билиниб қолади.

1957 йилги нашрда мазкур жумла қуйидагича кўриниш олган: ***“Қиз эшик олдига юраги бетламайроқ келди; эшикнинг тутқичидан ушлаб аста тортиши...”***. Эътибор қилсак, ёзувчи ***бетламайрак*** сўзини ҳам бугунги адабий тилимизга, ҳам жонли сўзлашув тилига мос бўлган шаклга келтириб, ***бетламайроқ*** тарзида таҳрир қилган.

1967 йилдаги нашрда шунингдек, ***“тутқич”*** сўзи ***“қабза”*** сўзи билан алмаштирилган. Бу таҳрир ҳам жуда ўринли. Чунки ***тутқич*** сўзи умумий маъноли бўлиб, у айнан эшик тутқичига нисбатангина ишлатилмайди. ***“Қабза”*** сўзи эса жонли сўзлашув тилида кам ишлатилганига қарамасдан, айни эшикка тегишлилиги билан аҳамиятли. Шунингдек, биринчи ва иккинчи нашрда ҳам мазкур жумлада ***“эшик”*** сўзи икки марта ишлатилган эди. Маънони етказиш жиҳатидан тўғри бўлган бу ҳолат, бадиият нуқтаи назаридан олганда, бир сўзнинг қайта-қайта ишлатилиши сабабли камчилик саналади. Учинчи нашрда Абдулла Қаҳҳор шу камчиликни тузатади: “Қиз ***шик*** олдига юраги бетламайроқ келди; ***у***нинг қабзасидан ушлаб аста тортиши...”

Иккинчи хатбошидаги ***“паришонхотир турган қизга”*** жумласидаги ***“га”*** қўшимчаси иккинчи нашрда ***“га”*** деб тузатилади. ***Паришонхотир*** туриш ва ***паришон*** туриш ўртасидаги ҳолатларда ҳам маъно кучайиши деярли йўқ даражада, чунки бу ерда асосий эътибор қизнинг маълум бир ***туриши***да бўлиб, паришон**хотир** дейилганда, қизнинг **хотира**сидаги бирон фикр кейинроқ, ҳеч бўлмаса, қайд этилиши лозим эди. Бироқ асарда бундай ҳолатни кузатмаймиз. Шу боисдан Абдулла Қаҳҳорнинг жумлани ***“паришон турган қизга”*** деб тузатиши ҳар жиҳатдан ўзини оқлайди. Бу ерда жумла озгина қисқарган, лекин бу қисқариш тасвирга ҳам, маънога ҳам салбий таъсир қилмаган.

Асарнинг биринчи нашридаги шу хатбошида қия эшикни зичлаб ёпган қиз йигитнинг ортидан ***“ўйланиб”*** қараб қолади. Қаҳҳор бундаги ***“ўйланиб”*** сўзини ҳам олиб ташлайди: чунки қараб қолишнинг ичида ўйланиб маъноси ҳам бор, буни такрорлаш шартмас.

Кейинги хатбошида Қаҳҳор Мунисхоннинг чақирганини эшитган Саидийнинг ҳолатини шундай тасвирлайди: ***“Йигит бу товушнинг қаёқдан келганлигини билолмай аланглаб орқасига қаради. Қиз саволини яна такрорламакчи бўлган эди, у худди ундан бирон хизмат кутгандай қўлидаги қоғозларини толстовкасининг чўнтагига солиб”***, қизга жавоб қайтаради. Бу анчайин батафсил тасвир бўлса ҳам, бирмунча ноаниқликлар бор. Хусусан, Абдулла Қаҳҳор асарнинг бошидан охиригача Саидийнинг Мунисхонга муносабатини бир кўришда муҳаббат, деб таъкидлаб тургани сезилади. Мазкур жумлада эса айни шу тушунчага хилофлик мавжуд. Яъни, айни ҳолатда Саидийнинг “***бу товушнинг қаёқдан келганлигини билолмай аланглаб”*** қараши юқорида айтилган маънога зид келиб турибди. Мабодо, бу Абдулла Қаҳҳор кўрсатишга интилганидай, бир қарашда муҳаббат бўлганида

эди, Саидий шундай бир чақириқни ич-ичидан кутиб турган бўлар ва натижада у ***алангламасдан***, дарровда ортга ўгирилган бўларди. Шуни ҳисобга олган адиб, кейинги нашрларда жумлани бутунлай қайта ишлайди, ўқувчининг хаёлини чалғитиши мумкин бўлган ортиқча тафсилотлар қисқариб кетади: ***“Йигит орқасига қаради ва худди ундан бирон хизмат кутгандай қўлидаги қоғозларини толстовкасининг чўнтагига солиб”,*** қизга жавоб қайтаради.

Дастлабки нашрда шу ҳолат тасвирида қизнинг саволига жавобан Саидий: ***“Мен... – деди ва негадир қизарди”***, деб қайд этилади. Кейинги нашрлардан Абдулла Қаҳҳор ***“ва негадир қизарди”*** деган сифатни олиб ташлайди. Бу ердаги ***“қизариш”*** ҳолати ўқувчининг хаёлини чалғитиши мумкин эди. Чунки эндигина қўлига китоб олиб, ўқишни бошлаган китобхон, ҳали Саидийнинг Мунисхонга муҳаббатидан хабардор эмасди. Шу эҳтимолни ҳисобга олган адиб жумлани қисқартади ва объективлаштиради.

Маълумки, XIX асрнинг II ярми ва XX аср бошлари ўзбек адабий тилининг бойиб бориши ва тараққиёти даври ҳисобланади. Тилшунос ва тил тарихчиси бўлган олимларимизнинг якдил фикрига мувофиқ, бу даврда ўзбек адабий тили тизимида газета-публицистика тили ва услуби шаклланди. Газета-публицистика услуби ва давр адабиётининг таъсирида рус тили ҳисобига тилимиз лексикаси бирмунча бойиди. Айниқса, ўтган асрнинг йигирманчи йиллари охирида ўзбек миллий тили меъёрларини яратиш борасида бошланган ишлар адабий тилимизда анъанавий равишда қўлланиб келган араб, форс, турк ва татар тилларига хос хусусиятларнинг камайиб кетишига сабаб бўлди.

Хусусан, миллий тилни яратиш ва шакллантириш соҳасида шўро сиёсати сабабли бошланган курашлар оқибатида бугунги ўзбек адабий тили услублари тўла шаклланди ва уларнинг ҳажми анча кенгайди, дея эътироф этсак-да, айни вақтда умумтуркий лисоний майдондан четга чиқиб қолганимизни ҳам эътироф этишимиз даркор.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 1- жилд. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. -320 бет.
2. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 2- жилд. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. -420 бет.
3. Абдулла Қаҳҳор. Танланган асарлар. 3- жилд. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. -320 бет.
4. Абдулла Қаҳҳор архиви каталоги (араб ёзувидаги ҳужжатлар). Нашрга тайёрловчи О.Жўрабоев -Тошкент: Муҳаррир, 2011. -136 бет.
5. Абдулла Қаҳҳор: (Биоблиография) Тузувчи: Бердиева Зуҳра. Муҳаррирлар: Кибриё Қаҳҳорова, М.Я.Носирова) -Т, 1989, -151 б. Сарлавҳа олдида: ЎзССР Маданият вазирлиги. Тошкент Давлат маданият институти.
6. Саъдий Маҳмуд. Теран томирлар: адабий-танқидий мақолалар ва суҳбатлар. -Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. -163 б.

7. Қўшжонов, М. Ҳаёт ва қаҳрамон: Адабий мақолалар/сўз боши О.Ёқубовники. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. -366 б.

8. Қўшжонов, М. Қалб ва қиёфа. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. -223 б.

9. Қўшжонов, М. Моҳият ва бадиият. (Адабий-танқидий мақолалар). -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. 232 б.

10. Қўшжонов, М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати: Монография. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 232 б.

11. Шарафиддинов, О. Истеъдод жилолари. Адабий портретлар. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. 229 б.

12.Шарафиддинов, О. Абдулла Қаҳҳор: (Эссе). -Т.: Ёш гвардия, 1988. -256 б.

13. Қўчқоров,Р. Истеъдод қадри: (Абдулла Қаҳҳор романларининг ижодий тарихига оид мақолалар). -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 108 б.

14. Султонова, М. Абдулла Қаҳҳор услубининг баъзи масалалари. (Масул муҳаррирлар: Н.Каримов ва Б.Сайимов). Т., “Фан”, 1967. -136 б.

15. Абдусаматов, Ҳ. Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк. Т., Ўзадабийнашр, 1960. 208 б.

ЖАҲОН БОЛАЛАР АДАБИЁТИНИНГ МАЪРИФИЙ-МАДАНИЙ АҲАМИЯТИ

Турдиева Кавсар Шералиевна,
Тошкент Педиатрия тиббиёт институти,
“Ўзбек тили ва адабиёти” кафедраси
мудири, ф.ф.н.доц.

Одатда ҳар янги ўқув йили бошланганда гуруҳдаги биринчи дарсимга кирганимда она тилимиз ҳақида сўзлар эканман, дафтарга шу сўзларни ёздираман:

“Кўп тилларни билиш – шараф, она тилини билмаслик - уят”. Ўзбек талабалари учун ҳар бир ўзбек тили дарсида ўзликка қайтиш, ўз тилининг гўзал ва бойлигидан ҳайратланиш, янги сўзларни ўзи учун кашф қилиш завқини туйиш ҳисси муҳимдир.

Русийзабон ва хорижлик талабаларнинг ёзма нутқини ривожлантириш учун эса ўқитувчи ўзбек тилида саломлашиш ва қисқа диалогларни уларга смслар юборишлар орқали ҳам дарсини йил давомида мустаҳкамлаб бориш имкониятига эга бўлади. Шу борада мен ўзбек тили лотин имлосидаги стикерларни бойитишга ва уларнинг саводли бўлишига эътибор қаратилишини истар эдим. Жуда чиройли стикер ёнида саводсиз, чала ёки бачкана сўз бўлса, ундан дарсларни мустаҳкамлаш ва талабалар саводини ошириш йўлида фойдаланиш имкониятидан маҳрум бўламиз. Айни шундай эътирозни турли мавзуларни (кийим-кечак, уй-рўзғор буюмлари ва ҳ.к) қамраб

олган расмли тарқатмалар ҳақида ҳам айтиш мумкин. Уларда одатда инглиз ва рус тилларидаги ёзувлар тўғри бўлиб, ўзбек тилидагисида чалкашликлар мавжуд. Русийзабон талабалар нутқидаги бир хил кўринишдаги нуқсонлар: ўзбек тилига хос товушлар талаффузи, луғат заҳирасининг қашшоқлиги, эгалик ва келишик қўшимчаларини нотўғри қўллаш, сўзларни услубий жиҳатдан ноўрин ишлатиш: (қисқа одам каби) гапда рус - интернационал, текинхўр сўзларнинг кўп қўлланилиши, гапда сўз тартибининг бузилиши ва ҳ.к. камчиликлар мавжуд. Улардан халос бўлиш учун дарсларда турли самарадор услублар, технологиялар қўлланилади.

Масалан, бизнинг болалар шифокорларини тайёрловчи институтимиздаги ўзбек тили дарсларида талабалар сўз бойлигини ошириш мақсадида 2-3 дақиқалик «тимсоҳ» ўйинини ўтказамиз. Ушбу қисқа вақт талаб қилувчи ўйин орқали талабалар «ошқозон» ва «меъда» сўзлари маънодош сўзлар эканлигини ёки бўлмаса доривор гиёҳ бақаяпроқнинг «баргизут» ва «зубтурум» номлари ҳам борлигини билиб олишади.

Дарснинг маърифий жиҳатдан мутахассислик фанлари билан бир қаторда топшириқларни топишмоқ жанрида тақдим этиш дарснинг ўзлаштирилиш даражасини оширади.

Масалан, «Ўтган замон ҳикоя феъли» мавзусини янада мустаҳкамлаш учун «Тушимда ким бўлибман?» саволи билан мурожаат қилиш албатта турли клиник амалиётлар билан танишишга ёрдам беради. Масалан, «мен бир туш кўрибман, тушимда беморнинг терисини кўрикдан ўтказибман,

– Тирноқларингизни кўрсатинг, дебман,

– Соч ва тери қатламларидан текширишга қирқма олибман.

Тушимда ким булибман?

Туғруққа болани қабул қилибман,

Унинг ҳолатини баҳолабман,

Туғруқхонадан чақалоқни кузатибман.

Тушимда ким бўлибман?

Болғача билан беморнинг тиззасига уриб кўрибман,

Бемордан кўзини юмиб, қўлини бурнига текказишини сўрабман, гугурт ёқишни илтимос қилибман.

Тушимда ким бўлибман?

Юқорида айтилганидек, ҳар бир дарс нафақат билим, балки тарбия воситаси эканлигини ўқитувчи доим эсда тутиши лозим. Мавзуларни ўтиш жараёнида тарбиявий жиҳатнинг уйғунлиги маърифий-тарбиявий самарадорликни келтириб чиқаради.

Ҳол эргаш гапли қўшма гап мавзусини ўтганда талабаларга «қофияларни топинг!» деган вазифани бериш айни муддао:

Агар талаба бўлса ишёқмас,

У касб-ҳунар яхши,_____

Агар талаба бўлса танбалроқ,

Ундан зўр дўхтир чиқмайди _____.

Қачон талаба бўлса сабрсиз,

Илмдан қуруқ қолар _____
Қачон талаба бўлса серғайрат,
Ундан зўр шифокор чиқади _____
Қачонки илмга бўлса у чанқоқ,
Унинг келажаги бўлади _____.

Талабалар мазкур шеърдаги қофияларни топиш жараёнида яна бир бор қўшма гапларнинг турлари билан тўқнашади ва шу билан бирга шифокорлик касби учун лоқайдлик ва танбаллик ёд эканлигини, зукколик ва эътиборлилик, ўз устида ишлаш, сабр улар учун нақадар зарур фазилатлар эканлигини ўзлари таъкидлашади.

Кўриб турганимиздек, ҳар бир дарс ижодий жараён, гарчи режа бир бўлгани билан ўқитувчи ҳар бир мавзуни ўтишда дарснинг мақсадига эришишнинг самарали йўлларини излар экан, русийзабон гуруҳларидаги ўзига хосликни, гуруҳ талабаларининг билим даражасини, маърифий материални тарбия ва ижодкорлик билан йўғрилган ҳолда тақдим этиши она тилимизнинг нуфузини оширишдаги асосий йўллардан биридир.

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА БАДИИЙ МАТННИНГ ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚИ

Ниязова Д.Х.,
ҚарДУ катта ўқитувчиси

Бадиий матннинг лингвистик таҳлили тилшуносликнинг муҳим масалаларидан бири бўлганлиги учун ҳам бу йўналишдаги тадқиқотлар кўлами йил сайин кенгайиб бормоқда. Маълумки, бадиий матн – ифоданинг ўзига хос шакли, ҳар қандай бадиий ифода инсон ҳаётини, дунёқарашини акс эттирувчи кўзгу. Шунинг учун ҳам бадиий матн инсон турмуш тарзини ифодаловчи, белгиловчи, баҳоловчи мезон ҳисобланади. Шунга кўра бадиий матн умумхалқ тилининг бадиий адабиётларда акс эттирадиган, бадиий-образли, эстетик таъсирчан кўринишини намоён этувчи макро ва микро матнлардир. Шу сабабли бадиий адабиёт тилини ўрганиш тилшунослик фани учун ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга молик бўлиб, долзарб масалалардан бўлиб қолаверади.

Бадиий матнларда қўлланувчи тил материаллари, истеъдодли адиблар асарларининг тили ва услуби кенг кўламда ўрганила бошланди. Бироқ ўзбек адабиётининг қатор етакчи адиблари ижодига хос луғавий-услубий хусусиятлар тилшунос олимлар томонидан махсус тадқиқ объекти сифатида лингвистик жиҳатдан ўрганилган эмас.

Академик Ғ.Абдураҳмонов таъкидлаганидек, бадиий асар тилини таҳлил қилиш орқали ёзувчи ёки шоирнинг бадиий маҳорати, ўзига хос услуби очилади. Шундай экан, ҳар бир бадиий асар тилини чуқур ва ҳар тарафлама ўрганиш асосий масалалардан бири бўлиб қолмоғи лозим [Ғ.Абдураҳмонов, 1966: 7]. Чунки бадиий асар инсон тафаккурининг, оламни англаши ва тасвир

этишининг намунаси сифатида майдонга келади. Бу жараённи тилсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Ҳар қандай ижодкор фаолиятининг асосини тил материаллари ташкил этади. Ҳар бир ижодкорнинг тилдан фойдаланишдаги услуби, тил воситаларини нутқда қўллашдаги маҳорати ўзига хос бўлади. Бу ўз навбатида, индивидуалликни вужудга келтиради. Шу боисдан ҳам Ғ.Абдураҳмонов ҳар бир бадиий асар тилини ўрганишнинг муҳимлигини таъкидлаган эди. Бадиий асар тилини таҳлил қилиш, ҳар бир ижодкор асарларининг тил хусусиятларини ўрганиш, умумхалқ тилининг бойликларини намоён қилиш билан бир қаторда, ижодкорнинг муайян тил ривожига қўшаётган ҳиссасини белгилаш учун ҳам муҳимдир. Шунингдек, бадиий адабиёт тилини ўрганиш ва таҳлил қилишнинг долзарб муаммоларидан эканлиги, бадиий адабиёт тилининг адабий тил тараққиёти йўлларини белгилаб беришда чуқур аҳамиятга эга эканлигида ҳам кўринади.

Маълумки, ўзбек бадиий адабиёт тили асосан лингво-услубий аспектда ўрганилган бўлиб, кейинги йилларда бадиий асар тилини тадқиқ қилиш усуллари кенгайиб бормоқда. Бу тил воситаларининг бадиий матнлардаги вазифасини кенгроқ ёритиш имкониятини бермоқда. Чунки тил воситалари бадиий асарда фикр, тушунча ифодаловчи восита бўлиб қолмайди, балки бадиий асарнинг асосини ташкил қилувчи образлиликка хизмат қилиб, эстетик вазифа бажаришини таъминлайди. Шунга кўра бадиий адабиёт тили образли тил бўлиб, ҳам коммуникатив, ҳам эстетик вазифа бажаради. Бу ҳол бадиий адабиёт тилининг функционал доираси кенглигини кўрсатади. Бадиий адабиёт тилининг ўзига хос хусусиятларини белгиловчи омиллардан бири бадиий асар тилининг таъсирчанлиги ҳисобланади. Унинг асосини эса тил воситаларидан маҳорат билан фойдаланиш ташкил қилади. Шунга кўра ёзувчининг тил имкониятларидан унумли фойдаланиши унинг маҳорати сифатида баҳоланади. Ёзувчининг сўз қўллаш маҳорати, сўздан бадиий ифода жараёнида мақсадга мувофиқ фойдаланиши бадиий муҳим сифати бўлиб, асарнинг бадиий қимматини белгилайди.

Бадиий асарда маҳорат билан ишлатилган ҳар бир тил элементи воқеа-ҳодисаларни тасвирлашда, характерларни очишда муҳим манба бўлиб, бадиий матннинг таъсирчанлиги, образлилигини таъминлаш учун хизмат қилади. Шу боисдан ижодкорлар умумхалқ тилнинг имкониятларидан унумли фойдаланиш орқали ўз асарлари тилининг такрорланмас ташбеҳлар ва образлар билан бойитишга ҳаракат қилади. Бу жараёнда бадиий матнлар асосида умумхалқ тили сайқалланиб, тил воситаларининг мавжуд имкониятлари ойдинлашиб боради. Адабий тил норматив воситаларининг танланиши, унинг сайқалланиши, адабий тилнинг бойиб боришига хизмат қилади. Бу ҳолат бадиий адабиёт тилини махсус ўрганишни тақозо қилади.

Юқорида таъкидлангани сингари, бадиий адабиёт тилини ўрганиш ўзбек тилшунослигида XX асрнинг 60-йилларидан бошланган [И.Кучкартаев, 1965] ва асосан назмий асарларнинг тил хусусиятлари таҳлил қилинган. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, ўзбек тилшунослигида ушбу мавзунинг ёритилиши кўпроқ шеърий нутқ материаллари асосида амалга оширилган,

насрий матнда тил воситаларидан фойдаланиш масалаларининг ўрганилиши мустақиллик йилларида анча кучайди. Бадиий наср тилининг илк тадқиқотчиларидан бири проф. И.Қўчқортоев эди. Олим ўзбек тилшунослигида биринчилардан бўлиб А.Қаҳҳор асарлари тилининг фразеологик хусусиятларини таҳлил қилди.

Бадиий асар тилида ёзувчининг сўз қўллаш маҳорати билан боғлиқ равишда таҳлил қилинган илк тадқиқотлардан яна бири Қ.Самадовнинг Ойбек асарлари тилининг тадқиқига бағишланган номзодлик ишидир.

Ёзувчининг тилдан фойдаланиш маҳоратини, халқ тилининг битмас-туганмас хазина эканлигини кўрсатиш учун тил воситаларини танлаб, саралаб ўз асарларида қандай ишлатганлигини мисоллар асосида таҳлил қилиб берган. Маълумки, Ойбек асарларида халқимизнинг ўтмишига хос даврлари кўпроқ акс эттирилганлиги сабабли тадқиқотчи унинг асарларидаги тарихий ва архаик сўзларни қўллашдаги маҳоратини белгилашга ҳам алоҳида аҳамият берган. Шу орқали тадқиқотчи давр руҳининг сўзда акс этишига алоҳида эътиборни қаратади.

Маълумки, бадиий нутқ умумхалқ тили воситалари асосида шаклланади, шундай экан, унда умумхалқ тилига хос барча воситалар акс этади. Агар шу воситалар бадиий нутқда, нутқнинг моҳиятидан келиб чиқилган ҳолда қўлланилса, у бадиий нутқ воситасига айланади. Зеро, бадиий асар, аввало, таъсирчанлиги билан белгиланади, таъсирчанлик эса тил воситаларидан мақсадга мувофиқ фойдаланиш асосида вужудга келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Абдураҳмонов Ғ. Адабий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тилини ўқитиш методикаси масалалари. –Тошкент, 1966. – Б. 7.

2. Кучкартаев И. Фразеологическое новаторство А. Каххара. Автореф. дисс…. канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.

HURRIYAT – HAMZA IJODINING BOSH MASALASI

Davronov Azimjon Soliyevich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O`zbek tili kafedrasi o`qituvchisi
azimjondavronov2@gmail.com.

Davronova Nargiza Abduqahhorovna
Farg`ona viloyati Furqat tumanidagi 6-sonli
davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti metodisti

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida Hamza Hakimzoda Niyoziyning o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Hamza o‘zining ijodiy faoliyati davomida o‘zbek mumtoz adabiyotining tarixiy an’analarini davom ettirdi. Jumladan, Alisher Navoiy,

Muhammad Fuzuliy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqatlarning g‘azallariga nazira, tazmin va muxammaslar bog‘lab, ajdodlarga munosib shoir bo‘lganligini isbot etdi.

Hamza o‘zining atigi 40 yillik umri davomida badiiy ijodning barcha janrlarida ijod qildi. Hamza-shoir, yozuvchi, dramaturg, kompozitor, rejissor, publitsist, noshir, teatrshunos, yirik jamoat arbobi va ma’rifatparvar pedagog edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida, xususan, erk, ozodlik va Hurriyat mavzulari bilan yog‘rilgan asarlari salmoqli darajada. Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor shunday yozadi:

“Hamza Hakimzoda Niyoziy ko‘zi ochilibdiki, qulog‘i mehnatkash xalq ko‘ksida bo‘lgan, xalqning dardiga malham qidirib har yonga bosh urgan kimsa, eski o‘zbek ziyolilarining halol qismiga mansub kishi edi. Hamza Hakimzoda asarlarining xalqqa bu qadar yaqin va suyumli bo‘lishiga asosiy sabab uning zamon bilan hamnafas va xalq dilining tarjimoni bo‘lganligidir” Abdulla Qahhor. [1] .

Hamza Abdulla Qahhor aytganidek, xalqning, millatning dardi bilan yondi. Uni savodli qilish yo‘lida, uni farovon turmush sari olg‘a qadam tashlashini istab, doimiy ravishda jonini fido qildi. Ziddiyatli va ikkiyuzlamachi bir tarixiy sharoitda tinimsiz jangovar she’rlarni yozishdan charchamadi, qo‘rqmadi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Hamzaning “Hoy ishchilar!”, “Ishchilar, uyg‘on”, “ Yasha, Sho‘ro”, “Biz ishchimiz” singari she’rlari o‘zbek she’riyatida inqilobiy o‘zgarish yasaganini aytib, shunday yozgan edi: “Bu rus inqilobiy poeziyasiga, Mayakovskiy poeziyasiga o‘xshaydi. Uning har bir so‘zi-bir shior, har bir she’ri davr hayqirig‘i edi. Ishchilar sinfi haqida birinchi bo‘lib poeziya yaratgan shoir Hamzadir” [1].

“Hoy ishchilar” she’ri 1917-yilda Oktyabr inqilobi arafalarida yozilgan, deb taxmin etiladi.Ushbu she’r birinchi marta 1919 -yilda Hamzaning “Atirgul” to‘plamida bosilgan. So‘ng shoir vafotidan keyin nashr etilgan barcha she’rlar to‘plamlariga kiritilgan.

“Hoy, ishchilar!” she’rining tuzilishi quyidagicha bo‘lib, 8 ta beshlik bir xil ohangda naqorat singari takrorlanadi.Undan keyingi to‘rtlikda esa shoirning she’rxonga yoki ommaga aytmoqchi bo‘lgan fikri ifoda etiladi.

Hoy, ishchilar! (Ashula)
Hoy, ishchilar,
Ezilgan mehnatchilar!
Bitsin zolim boylar!
Erkingni qo‘ldan berma,
Yasha, xizmatchilar!

Haqingni ol, ishchilar,
Yashov davri sening,
Basdur shuncha xo‘rlik,
Zorliklar ko‘rganing!

“Ishchilar, uyg‘on!” she’ri 1917- yilda Oktyabr inqilobining dastlabki oylarida yozilgan.Bu she’r Hamzaning yaqin do‘sti Muhiddin Qoriyoqubovdan yozib olingan.1939- yili birinchi marta “Tanlangan asarlarida” nashr qilingan [H.H.Niyoziy, 1988: 501]

“Ishchilar, uyg‘on” she’ri esa, 4 ta to‘rtlik ,ya`ni 16 qatordan iborat bo‘lib, har bir to‘rtlik ostida quyidagi ikkilik takrorlanadi. Bu ikkilik ikkinchi va to‘rtinchi to‘rtlik ostida ishlashga so‘zining o‘rnida o‘qishga so‘zi bilan almashtirib ifoda etiladi.

“Yasha, Sho‘ro!“ she’ri Sotti Husayn ma’lumotiga ko‘ra, 1918-yilda yozilgan, 1919-yilda “Atirgul “ to‘plamida nashr etilgan. Boshqa ma’lumotlarga qaraganda, Muhiddin Qoriyoqubovdan yozib olinib, birinchi marta 1939-yilda “Tanlangan asarlari”da chop etilgan. Keyinchalik shoirning “Tanlangan asarlar” (1954, 1958), “Asarlar” (1960,1969), “Saylanma asarlar” (1979) to‘plamlarida va “Mukammal asarlar to‘plami” ning 3-jildida qayta nashr etilgan. She’r Hamza rahbarligidagi O‘lka sayyor dramtruppasi tomonidan 1919-1920-yillarda ko‘p marta ijro etilgan. Hamzaning zamondoshlaridan biri Sh.Sadrulin shoirning o‘sha davr faoliyati haqida shunday yozadi: “Hamza Hakimzoda tomonidan tuzilgan orkestr va dramatik truppa ichki dushmanlarga qarshi kurashda katta rol o‘ynadi ...

Biz o‘sha davrda Hamzaning “Hoy, ishchilar”, “Yasha, Sho‘ro”, “Ishchilar, Uyg‘on!”, “Hoy, hoy, otamiz” kabi qo‘shiqlarini ko‘p aytar edik...” [4, 1957: 108]. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu she’r dastlab, “Yasha, Turon!” shaklida bo‘lgan. Lekin bu taxminni tasdiqlovchi dalillar topilmagan. She’r O‘zbekistonda barpo etilgan sovet hokimiyatining o‘ziga xos madhiyasi sifatida aytilgan. “Tanlangan asarlar” (1939)da nashr qilingan [H.H.Niyoziy, 1988: 503-504]

Shoirning navbatdagi she’ri **“Uyg‘on”** “Yasha Sho‘ro“ “Biz ishchimiz“ she’rlarining tadrijiy davomi hisoblanadi. Shoir bu she’rlari bilan xalqni ma`naviy ruhlantiradi, kuch, shijoat bag‘ishlaydi. Mazkur she’r 1918-yil boshlarida yozilgan. 1919-yil “Atirgul” to‘plamida nashr etilgan. Bu she’rga shoirning o‘zi kuy bastalagan. She’r o‘zbek xalqining sevimli revolyusion qo‘shig‘iga aylangan.

Hamza she’rlarining har birida xalqni olg‘a undovchi misralar asosiy mazmundan oldin yoki keyin kelib, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni takror -takror ta`kidlaydi va o‘z o‘rnida she’rga o‘ziga xos ohangdorlik baxsh etadi.

“Ishchi bobo“ she’ri 1918-yil boshlarida yozilgan. 1919-yil “Atirgul” to‘plamida nashr etilgan. Bu she’rga shoir o‘zi kuy bastalagan. Bu haqda mazkur to‘plamga yozilgan so‘z boshida quyidagilar aytiladi: “Ohangi shoirning o‘zi tarafidan yasalgandir. O‘quvchi og‘alarimizga bilimsiz qolmasin uchun har birini notaga ko‘chirdik” She’r shoirning “Tanlangan asarlar” (1949, 1951, 1958), “Asarlar” (1960, 1969). “Saylanma asarlar” (1979) va “Mukammal asarlar to‘plami”ning 3-jildida qayta nashr qilingan [H.H.Niyoziy, 1988: 159].

“Hoy, hoy, otamiz!” she’ri 1918-yil boshlarida yozilgan va 1919-yilda “Atirgul” to‘plamida bosilgan. Keyinchalik nashr qilingan barcha asarlar nashrlariga kiritilgan. She’rga shoirning o‘zi kuy bastalagan. O‘zbek xalqining revolyusion qo‘shiqlaridan biriga aylangan ushbu she’r, o‘z vaqtida qardosh xalqlar tomonidan ham sevib kuylangan.

Tojik sovet shoiri M. Tursunzoda bu haqda,shunday yozadi: “Rus, tojik revolyusion qo‘shiqlari qatorida o‘zbek qo‘shiqlarini, shu jumladan, Hamza Hakimzoda qalami bilan ijod etilgan “Ishchilar, uyg‘on!”, “Hoy, hoy, otamiz” kabi jangovar qo‘shiqlarni jonu dilimiz bilan kuylar edik” (“Hamza zamondoshlari

xotirasida” 30-bet). She’r “Tanlangan asarlar” matni asosida e’lon qilingan [H.H.Niyoziy, 1988: 162].

“Oy singlim, oy og‘am” nomli she’ri 1918- yilda yigit va qizning dialogi shaklida yozilgan. Ushbu she’rning dastxati Hamza arxivida 32-inventar raqami bilan saqlanadi. She’r 20*27 formatli katak daftar varag‘iga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan. Birinchi marta “Mukammal asarlar to‘plamining 3-jildida e’lon qilingan. Qo‘lyozma asosida chop etilgan [H.H.Niyoziy, 1988: 164].

“Berma erkingni qo‘ldan” she’ri Hamza arxivida 52-inventar raqam bilan saqlanadi. “Oy singlim, oy og‘am“ she’rining davomiga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan. She’r sarlavhasi va yozilgan sanasi qayd etilmagan. Hamzashunos olimlar bu she’rning 1919-yilda yozilib, 1919-1920-yillarda Hamza rahbarligidagi O‘lka sayyor dramtruppasi tomonidan ko‘p marta ijro etganligini ta’kidlab o‘tadilar. She’r ilk daf’a “Tanlangan asarlar” (1949) da nashr etilgan. Keyinchalik shoir asarlarining barcha nashrlariga kiritilgan. Qo‘lyozma asosida e’lon qilingan[H.H.Niyoziy, 1988: 167].

“Yashangiz, ishchi, dehqonlar!” she’ri 1919-yilda yozilgan. Ushbu she’rning to‘la bo‘lmagan nusxasi (18-20 va 23-25 satrlari) shoir arxivida 79-inventar raqami bilan saqlanadi. Parcha 23*35,8 sm formatli qog‘ozga arab grafikasida ko‘k qalam bilan yozilgan. Hamzaning o‘zi kuy bastalagan mazkur she’r, O‘lka sayyor dramtruppasi tomonidan 1919-1920-yillarda ko‘p marta ijro etilgan. Dastlab “Tanlangan asarlar” (1949)da, so‘ng barcha she’riy to‘plamlarida e’lon qilingan. Nashrda “Tanlangan asarlar” matni asosida e’lon qilingan [H.H.Niyoziy, 1988: 170].

“Qalpoq kiygan qahramonlar” she’ri 1919-yilda 23*35,8 sm formatli qog‘ozga arab grafikasida qalam bilan yozilgan, dastxati Hamza arxivida 79-inventar raqami bilan saqlanmoqda. Qo‘lyozmaning 1-2-satrlari “Berma erkingni qo‘ldan” she’rining dastlabki satrlari bilan mushtarakdir. She’r birinchi marta “Mukammal asarlar to‘plami”ning 3-jildida e’lon qilingan.Ushbu nashrga qo‘lyozma asosida kiritilgan [H.H.Niyoziy, 1988: 172].

“Yasha, Sho‘ro, Yasha, Irfon!” she’ri “Yasha, Sho‘ro!”she’ri bilan hamohang tarzda 20*22 smli formatga arab grafikasida qora siyoh bilan yozilgan. Uning dastxati Hamza arxivida 55-inventar raqami bilan saqlanadi. Dastxatda “Ashula havosi tatarcha”, “1920-yil 16-yanvar” degan yozuvlar bor. She’r “Tanlangan asarlar”(1949,1951)da va “Mukammal asarlar to‘plami”ning 3-jildida bosilib, qo‘lyozma asosida kiritilgan [H.H.Niyoziy, 1988: 174].

Yuqoridagi fikrlar asosida shoirning, erk, ozodlik, hurriyat mavzularida yozilgan she’rlari o‘sha davrda mehnatkash, ammo savodsiz xalqning she’rni o‘qiyolmasligi va ko‘zi ojizlar uchun ashula qilib aytilgan. Chuhki ashulani o‘qishni bilmagan, yoki ko‘zi ko‘ra olmagan kishilar ham eshitib tushunib olishi nazarda tutilgan. Jumladan, Hamza adib Sobir Abdullaga shunday degan ekan: “Gazeta va jurnallarda she’rlaringni o‘qib juda xursandman! Biroq afsuslanadigan yerim shuki, xalqimizning ko‘pchilik qismi hali savodsiz, chala savod. Savodi borlari ham she’rlarimizni gazetalardan o‘qib zavqlanish saviyasiga ega emaslar. Agar she’rlarim hammaga barobar yetib borsin, hamma o‘qisin desang, qo‘shiq yoz, uka!

Qo‘shiqni savodsiz ham, chala savod ham hatto ko‘zi ojizlar ham eshitadi. Yangi qo‘shiqni huzur qilib tinglab, uni yozgan shoirga rahmat aytadi. Bu bilan seni gazetadan uzoqlashtirmoqchi emasman. Gazeta-jurnallarda ham faol qatnasha beru, ashula yozishni birinchi vazifalar qatoriga qo‘y. Xalqqa tez tanilasan. Gazeta-jurnal yo‘q qorong‘u zamonda Muqimiyni xalqqa tanitgan shu ashula-da” [5, 1970: № 3]

Demak, shoir, xalqni, millatni, erkin,ozod, hur yashashini juda xohladi va bu yo‘lda hormay-tolmay ijod qildi. Xalqning farovonligi yo‘lida hayotini xavf ostida qoldirdi. Uning fojiona o‘ldirilishiga sabab – otashin vatanparvarligi, millatparvarligi, ma`rifatparvarligi va hurriyatparvaligi bo‘ldi. U o‘zbek millatining faxri bo‘lib, tarixda qoldi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning adabiy-ijodiy merosi nafaqat o‘zbek adabiyoti tarixida balki dunyo xalqlari tarixida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoldosh-solijonov-haqiqat-izlagan-adib.html
2. Hamza zamondoshlari xotirasida.1979, 82-bet.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 501-bet.
4. Октябрская социалистическая революция и гражданская война в Туркистане, Ташкент, 1957, с. 108.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 2-jild, T., 1988 yil, 503-504-betlar.

ШАВКАТ РАҲМОН ШЕЪРИЯТИДА АЙРИМ ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

Юнусова Жамила Болтабоевна
ЎзР ФА ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг илмий ходими
Jamila2020_yunusova@mail.ru.

Ўзбек тили ўзининг ранг-баранг синонимик қатламига эга бўлиб, бу сўзлар тилимизнинг бой ифода имконятларини ўзида акс эттиради. Синонимлар ҳақидаги билимлар азалдан ўрганилиб келинган. Буюк бобоколонимиз Алишер Навоий ҳам ўзининг машҳур асари “Муҳокаматул луғатайн”да ёрқин мисоллар келтириб турк тилининг имкониятлари форс тилидан кам эмаслигини кўрсатиб бера олган.[Алишер Навоий, 1968: 110].

“Бирлаштирувчи маънолари бир хил, талаффузи ва ёзилиши ҳар хил, қўшимча маъно нозиклиги, эмоционал бўёғи, қўлланиши каби қатор хусусиятлари билан фарқланадиган сўзлар синонимлардир” [А.Хожиев,1974: 74].

“Маънодош сўзларнинг илмий талқинларига суянган ҳолда, бундай сўзларнинг аташ ва вазифа семалари бир хил, ифода семалари эса фарқли сўзлар эканлигини ҳисобга олсак, тилда бундай сўзларнинг мавжудлиги

ёзувчи учун, бадиий тасвир учун бениҳоя катта имконият”[М.Йўлдошев, 2000: 31].

Шоир Шавкат Раҳмон шеърларида тил бирликларидан бўлган маънодош сўзларнинг кенг қўлланганини кузатишимиз мумкин. Синонимлар тилнинг тасвирий воситаларидан бири бўлиб, ифодадаги таъсирчанликни оширади. Масалан, *совқотмоқ* ва *музламоқ* сўзлари маънодош бўлиб, улар маъно қиррасига кўра фарқланади. Совқотмоқ сўзига нисбатан музламоқ сўзида белги кучлироқ. Шоир лирик қаҳрамоннинг ҳолатга нисбатан карахтлик ва руҳий курашувини синонимлар орқали акс эттирган.

Совқотдим,
қўлларим ***музлади,***
осмондай сидирға ялангда
гулханга *қўлларим қалайман*
кўккача ўралсин ***аланга.***

Синонимлар таҳлили орқали шоир бадиий ниятини англаш мумкин. Карахтлик ижтимоий вазиятдан ноҳақликдан карахт бўлиш ва бундан қалб ларзага келиб гулхан олов бўлиб ёнади. Бу ёнишлардан руҳ лаззатланади ва янада кучлироқ ёнишга ундайди.

Ёқмоқлик мунчалар ёқимли!
Аланга, ўсавер, ўс тағин.

Шоир маънодош сўзлар ёнма-ён қўллаб белгининг кучайиб ортиб боришини ҳамда риторик маъно англанишини ифодалашга эришган.

Ёғилади майин ***сас, садо***
ёғар,ёғар шомурт қори.

Шунингдек, мисралардаги сўз қўлланиши эътиборни тортади.Аслида, қор ёғаётганда атрофга ҳеч бир товуш чиқармайди. Қор ёғиши лирик қаҳрамоннинг хотираларини уйғотади. Хотиралар болаликдан, ёшликдан, сурурли дамлардан сас йўқ, садо бера бошлайди. Шоир фикрича, қорни тинглай билган, бу овозларни эшита олади. Ёғар сўзининг такрор қўлланиши оҳангдорликни оширган. Қорнинг ёғиш темпини ҳис эттирган шу билан бирга майин сўзининг қўлланиши лирик қаҳрамоннинг субъектив муносабатини(авайлаш) кўрсатган.

Тилнинг эстетик вазифасини бажаришда коннотатив маънолар муҳим ўрин тутади. Шоир лексемаларнинг маълум бир нутқ шароитида вужудга келадиган ифода семалридан унумли фойдаланиб, контекстуал синонимлар ҳосил қила олиши унинг тилни тасарруф қилиш маҳоратидан дарак беради. “Коннотация семаларидан ўз ўрнида, бадиий тасвир мақсадига тамомила мувофиқ тарзда реаллашишини таъмин этиш ёзувчи маҳоратининг даражасига боғлиқ”. [М.Йўлдошев, 2000: 31].

Шоир “Чўл” номли шеърида қуёш нурларининг кенгликка тикка тушиши кўзни қамаштириш жараёнини маънодош сўзлар ёрдамида жуда гўзал поэтик тасвир ифодалашга эришган. *Гўл* ва *девона* сўзларининг “*ишонувчан*” семаси орқали маънодошлик ҳосил қилинган ва эстетик бўёқдорлик ортган..

Ёввойи чўл буюк кенгликда

менга борин очиб ташлади,
***гўл-девони** икки кўзимни*
шошилмасдан ўйнай бошлади
Бу қўшиқ ажойиб қўшиқдир,
сўзлари куйдирар томоқни,
ўлимни назарга илмайсан,
*сезмайсан **сургуну қамоқни**.*(“Озодлик қушиғи”)
Ибтидоий, ўткир қоялар...
Бу тоғларнинг осмони мовий,
*бунда гуллар **фариштасимон,***
*бунда ҳатто тошлар **самовий**.* (“Ибтидоий ўткир қоялар”)

Келтирилган шеърий парчалардаги *сургун* ва *қамоқ* сўзларидаги “*озодликдан маҳрум бўлиш*” семаси орқали, *фаришта* ва *само* сўзлари эса “илоҳийлик” семаси орқали маънодошлик ҳосил қилинган ва айни ҳолатлар шоирнинг юксак маҳоратидан дарак беради

Ёки “Гуржистон мозаикаси” шеърида асосий фикрни синонимларга юклайди. Шоирнинг куйиш, ачиниш, ҳиссиёти китобхонга ҳам юқади, экспрессивлик ортади.

Куйлашар-
Минглаган қуёшлар балқар,
*Нақадар **бахтсизидир**,*
нақадар гўлдир
ягона қўшиғи бўлмаган халқлар.

Демак, шоир шеърларида синонимлар тилнинг тасвирий воситаларидан бири бўлиб, ифодадаги таъсирчанликни оширади, маънодош сўзлар ёнма-ён қўлланиб, белгининг кучайиб ортиб боришини ҳамда риторик маъно англанишини ифодалайди, контекстуал синонимлар эса янги поэтик оҳорга эга бадиий тасвир яратиб шоир маҳоратидан дарак беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т.14 –Т.: Адабиёт ва санъат.1968.Б.110.
2. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати.-Т.: Ўқитувчи,1974.Б.210
3. Йўлдошев М. Чўлпон бадиий тил маҳорати. Филол. фанлари номзоди... дисс. -Т., 2000. Б-145
4. Шавкат Раҳмон. Сайланма. –Т.: Шарқ, 1995. -100 б.

“ХОЛДОРХОН” – ТИЛИМИЗНИНГ КЎРКЛИ ОБИДАСИ

Зуҳра Юлдашева,
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институти кичик илмий ходими

Адабиётимизнинг қадим анъаналарига эътибор берсак, товуш ва сўзларни мунтазам такрорлаш орқали ўзига хос бир оҳанг бутунлиги ҳосил қилишнинг кенг тарқалганлигини кўришимиз мумкин. Халқ достонлари ҳам бундан мустасно эмас, албатта. Айниқса, Эргаш Жуманбулбул ижросидаги “Холдорхон” достонида[22] товуш, сўз, сўз бирикмаси ва жумла такрори орқали намоён бўлган таъсирчан мусиқани кузатиш мумкин.

Достонлар тилидаги такрорларнинг поэтик хусусиятлари ҳақида тўхталишдан олдин “оҳанг” ҳақида қисқача тўхталиб ўтайлик. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да мазкур сўзнинг 5 маъноси шундай изоҳланади: “Оҳанг (*ф*. келишув, ҳамжиҳатлик; ёқимли товуш, куй; ҳамоҳанглик, уйғунлик) 1. Бир-бирига уланган, уйғунлашган ёқимли товушлар оқими. 2. Турли товушларнинг маълум бир тартибда уйғунлашиб, мусиқий бутунлик ташкил этган бирикмасидан иборат мусиқа асари; куй. 3. Нутқда маънога қараб овознинг кўтарилиши ва пасайиши; интонация. 4. Сўзловчининг ички ҳис-туйғуларини ифодалайдиган талаффуз услуби. 5. *кўчма*. Нарсаларнинг ўзаро қўшилишидаги мослик, уйғунлик.”[23] Оҳанг фақат тил ва мусиқада эмас, фалсафа, архитектура каби кўплаб соҳаларда қўлланиладиган муштарак атама сифатида ҳам мавжуд. Мазкур сўз фалсафада ўзига хос уйғунлик маъносида коинотдаги мунтазам алоқадорликка нисбатан, меъморчиликда ўлчамлараро муносабат ва мувозанат маъносида қўлланилиб келинади. Адабиётда оҳанг ҳам шеърда, ҳам насрда сўз ва сўз бирикмаларининг, товуш ва шакл жиҳатидан ўхшашлигидан ҳосил бўлган, эстетик ифодани таъминлаган тизим сифатида идрок этилади.

Достонлар тилида ифодавийликни орттиришнинг турли-туман йўллари бор. Ижодкор айтмоқчи бўлган фикрини тингловчи ёҳуд китобхонга тез ва таъсирчан етказиш учун тилнинг беқиёс имконларидан фойдаланадилар. Такрор деб аталувчи поэтик фигура ана шундай имконларнинг фақатгина бир тури ҳисобланади. Бадиий матнда такрорнинг фонетик, морфемик, лексик ва синтактик кўринишларидан кенг фойдаланилади. Такрорланувчи бирликларнинг аксарияти тез ва осон идрок этилади ҳамда ўзаро қулай алоқалантирилади. Аммо шундай такрорлар борки, уларни фарқламоқ учун тингловчи ёҳуд китобхондан жиддий тайёргарлик, матн билан яқиндан ошнолик талаб қилинади. Бундай сирли такрорлар уч ўлчамли расмларга ўхшайди. Уларни кўрабилмоқ учун тилнинг шакл ва маъно имконларини

[22] Холдорхон. Ўзбек халқ ижоди серияси. Кўп жилдлик.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
[23] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. .- Тошкент, 2008.

теран англамоқ талаб қилинади. Яъни такрорнинг бўю бастини кўрмоқ учун матннинг остки қатламларини ҳам тасаввур қилиш керак бўлади.

Уста бахши Эргаш Жуманбулбул ўғли репертуаридаги “Холдорхон” достонида ҳам такрорнинг турли кўринишларига гувоҳ бўламиз. Маълумки, тилшунослик, адабиётшунослик ва фолклоршуносликда такрорлар билан боғлиқ кўплаб тадқиқотлар мавжуд.[24]

Бадиий услубдан бошқа услубларда такрорланувчи бирликлар ифода ғализлигини келтириб чиқаради. Бироқ бадиий услубда алоҳида эстетик мақсадага хизмат қиладиган воситага айланади. Халқ оғзаки ижоди намуналари тилида ҳам бу ҳолатни кўп кузатишимиз мумкин. Ҳатто бахшиларнинг ижодий лабораторияси билан боғлиқ тадқиқотларда такрорга асосланган қолип ифодаларнинг энг биринчи ёд олинадиган парчалар эканлиги айтилади. [25] Достонларда таъсирчанликни ошириш, маънони кучайтириш ва тасвирдаги айрим эпизодларни алоҳида ажратиб кўрсатишнинг махсус усули товушлар такрори бўлиб ҳисобланади ва бунда шаклнинг мазмун реаллашувига хизмат қилиш тамойили амал қилади.

Табиийки, ҳар бир ижодкор такрор бирликлардан мумкин қадар эҳтиёткорлик билан, ўз услубига мос тарзда фойдаланишга ҳаракат қилади. Айниқса, тўлиқ такрорга кўп мурожаат қилинавермайди. Муайян матнларда атайин такрорлардан фойдаланилганлигини ҳам очиқча кузатишимиз мумкин. Мутахассислар фикрича, такрор ўринли ва меъёрда фойдаланиган тақдирда асарнинг таъсир кучи қулай йўл билан орттириш имконини бағишлайди.[26]

Эргаш Жуманбулбул ҳам ўз асарларида такрорнинг турли кўринишларидан катта маҳорат билан фойдаланади. Масалан:

Мен бу сўздан ғам емасман,
Мен сени одам демасман,
Мен ҳам сендан кам эмасман,
Саваш этсанг, кел-кел бери.[27]

---

[24] Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: «Фан», 1981. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: «Фан», 1983. Бобоев Т. Ўзбек шеър тузилиши асосларини ўрганиш. Тошкент, 1991. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. НД. Тошкент, 1993. Мамажонов А.,Маҳмудов У. Услубий воситалар. Фарғона, 1996. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. ТДПУ, 2001. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент: «Ўқитувчи», 2002. Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Фарғона, НДА., 2004. Шукуров Р. Параллел синтактик бутунликлар. Фарғона, НДА., 2004. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингво-поэтик хусусиятлари. Тошкент: «Фан», 2005.

[25] Бу ҳақда қаранг: Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. Тошкент: Фан, 1979. Мирзажонова М. Барқарор эпик формулалар ҳақида баъзи мулоҳазалар. ЎТА. №6. 2000. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент: Фан, 1981.

[26] Бу ҳақда қаранг: Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р, Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: "Ўқитувчи", 1983. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текст-нинг лингвистик таҳлили. Тошкент: "Ўқитувчи", 1990. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Тошкент: "Ўқитувчи", 1992. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. -Тошкент: Фан, 2008.

[27] Бу ва бундан кейинги мисоллар қуйидаги манбадан олинди:“Холдорхон”. Достон, айтувчи: Эргаш Жуманбулбул. Ёзиб олувчи: Ҳоди Зариф ва шоирнинг ўзи. Нашрга тайёрловчи: Ҳоди Зариф. Ўзбек халқ ижоди серияси, кўп жилдлик, Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

Мазкур парчада олмош, келишик, бўлишсизлик ва шахс-сон қўшимчаси ўринлашувига кўра симметрик такрорланган. Бундай такрорда бир товуш, қўшимча, сўз ёки сўз бирикмаси жумла ёки сатрнинг бир хил ўрнида такрорланади. Асосан, бошда, ўртада ва сатр сўнггида келиб оҳанг бутунлигини таъминлайди: Олмош сатр бошида келгани учун анафорик такрорни, шахс-сон аффикси сатр сўнггида келгани учун эпифорик такрорни, келишик ва бўлишсизлик қўшимчалари инфорик такрорни ҳосил қилади.

Ана бўлди тоза майдон, талотўп,
Ҳар тарафдан шовқум чиқар ургин деб,
Икки қўшин энди бўлди аралаш,
Икки ёқ ҳам ғайрат қилар қўйсак деб.

Келтирилган парчада сон, *бўлмоқ* феълининг яқин ўтган замон шакли, *-ар* ўтган замон давом феъли аффикси ва *демоқ* феълининг равишдош шакли симметрик такрорланган. Бунда, сон сатр бошида – анафорик такрорни, *деб* инверсияга учраган ҳолда сатр сўнггида – эпифорик такрорни, *бўлмоқ* феълининг яқин ўтган замон шакли, *-ар* ўтган замон давом феъли аффикси - инфорани ҳосил қилган.

Мен ҳам сендан ночор эмас,
Саваш этсанг, кел-кел бери,
Майдонда лоф даркор эмас,
Саваш этсанг, кел-кел бери.

Бу парчада эса, бир сатрга сиғдирилган жумланинг такрорини кўришимиз мумкин. Достонда бундай такрор кўп учрайди. парчадаги умумий оҳанг бутунлигини таъминлашга *ночор* ва *даркор* сўзларидаги ўхшаш товушлар ҳам ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Хулоса ўрнида айтишимиз лозимки, тил мунтазам равишда тараққий этиб турувчи ҳодиса бўлганлиги учун давомли ўзгариб туради. Бу ўсиш-ўзгаришларнинг асосий сабабларидан бири, тилнинг ифода имкони билан боғлиқ эҳтиёжни қондириш ҳисобланади. Сўз усталари тил бирликларини маҳорат билан ишлатиш орқали тилнинг ифода имконини кенгайтиришга ўз ҳиссаларини қўшадилар. Кўҳна адабиётимизда сўзларни фарқли шаклларда такрорлаш орқали ўзига хос мусиқийликни ҳосил қилиш кенг тарқалган стилистик анъаналардан бири ҳисобланади. Бир сатр ёки мисрада от, феъл, сифат, сон ва бошқа туркумга оид сўзларни ўзак ёки қўшимчали ҳолда такрорлаш орқали бадиий нутқнинг таъсирчанлиги таъминланади. Шу билан бирга, эсда сақлаб қолишни қулайлаштиради. “Холдорхон” достонининг матни такрор ва у билан боғлиқ турли фикр-мулоҳазаларни юритиш имконини бериши жиҳатидан ҳам бой достонларимиздан саналади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Тошкент: Фан, 1983.

2. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: “Фан”, 1981.

3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002.
4. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Тошкент: “Фан”, 2005.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. Тошкент: “Фан”, 2008.
6. Мамажонов А., Маҳмудов У. Услубий воситалар. Фарғона, 1996.
7. Мамазияев О.Х. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация. Фарғона, НДА., 2004.
8. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. Тошкент: Фан, 1979.
9. Мирзажонова М. Барқарор эпик формулалар ҳақида баъзи мулоҳазалар. ЎТА. №6. 2000.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. 2008.
11. Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент: Фан, 1981.
12. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текст-нинг лингвистик таҳлили. Тошкент: "Ўқитувчи", 1990.
13. Холдорхон. Ўзбек халқ ижоди серияси. Кўп жилдлик, Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

“ДЕФЕКТОЛОГИЯ” ТЕРМИНОЛОГИЯСИГА ДОИР

Урунова Заҳро Низомиддиновна
Низомий номидаги ТДПУ
ўқитувчиси

“Дефектологик тезаурус” ўқув қўлланмасида “дефектология”, “коррекцион педагогика” ва “махсус педагогика” терминларига қуйидагича таърифлар берилган [Дубовская В.А., Гоголева Г.С, Егорова Н.Л., Вехова Т.А., 2010: 115.]: “Дефектология” – аномал болалар ривожланишининг психофизиологик хусусиятлари, уларни ўқитиш ва тарбиялаш қонуниятлари ҳақидаги фан. Дефектологиянинг асосий соҳалари: сурдопедагогика, тифлопедагогика, олигофренопедагогика ва логопедия.”

“Коррекцион педагогика” (лот. *correctio* тўғрилаш, тузатиш + юнон. *paidagogike* < *pats (paidos)* бола + *ago* етаклайман, тарбиялайман) – ривожланишида турли четга чиқишлар бўлган болаларнинг руҳий ва жисмоний ривожланиши хусусиятларини ўрганиш, уларни тарбиялаш, таълим бериш, ўқитиш билан шуғулланувчи педагогик фан”.

“Махсус педагогика” (лот. *specialis* + юнон. *paidagogike* < *pats (paidos)* бола + *ago* етаклайман, тарбиялайман) – болаларнинг турли тоифалари (ривожланишида, ахлоқида, эмоционал-иродавий ҳолатида оғишлар бўлган болалар, алоҳида иқтидорли болалар)ни тарбиялаш, таълим бериш, ўқитиш муаммолари билан шуғулланадиган педагогика соҳаси”.

Таърифлардан кўриниб турганидай, ҳар учала терминга берилган таърифда ҳам асосий нуқта “нормал ривожланишдан оғиш, нормал ривожланишнинг бузилиши” мазмунидан иборат. Ана шу нуқтаи назардан

келиб чиққан ҳолда бир қатор мутахассислар мазкур терминларни синонимик терминлар сифатида баҳолайдилар. [Сложеникина Ю.В., 2000: 10]. Баъзи тадқиқотчилар эса уларнинг синонимлар эканлигини эътироф этмайдилар. [Назарова Н., Аксенова Л.И., Богданова Т.Г., Морозов С.А, 2013: 20] . Биз эса кўпроқ уларни синонимлар деб қараш тарафдоримиз, бизнингча, улар, камида, даврлараро синонимлардир.

Рус дефектологи В.П.Глухов 2017 йилда нашр қилинган “Дефектология. Махсус педагогика ва махсус психология” номли ўқув қўлланмасида мазкур фаннинг номи сифатида “дефектология” терминини изчил қўллайди. У шундай ёзади: “Махсус (коррекцион) педагогика ва махсус психология дефектологиянинг асосий таркибий қисмлари, соҳалари ва айни пайтда дефектологиянинг тармоқларидир. Яхши маълумки, катта ёшли аҳоли ўртасида ҳам, болалар ўртасида ҳам жисмоний ва руҳий ривожлаишда нормадан у ёки бу тарздаги оғишлари бўлган шахслар (кўришда нуқсони бўлган, эшитишда нуқсони бўлган, ақлий фаолияти етарли ривожланмаган ва бошқа) учрайди. Бундай болаларни тарбиялаш ва ўқитишкаттагина ўзига зослиулар билан ажарлиб туради ва махсус ташкил этиладиган шароитларни талаб қилади. Ўқитиш ва тарбиялаш учун бундай махсус шароитларга бўлган эҳтиёж ижтимоий-тарихий тараққиёт жараёнларида билимнинг алоҳида тармоғи ва ижтимоий амалиёт соҳаси бўлган дефектология фанининг пайдо бўлишига олиб келди. Дефектология (лот. *defectus* – “камчилик, нуқсон” ва юнон. *logos* – “сўз, таълимот” сўзларидан) – бу соғлик имкониятлари чекланган шахслар (болалар ва катталар) ривожланишининг қонуниятлари ва хусусиятлари, уларни тарбиялаш, ўқитиш ва меҳнатга тайёрлаш, ижтимоий адаптация ва реабилитация қилиш ҳақидаги фандир.” [Глухов В.П., 2017: 5].

Аксарият манбаларда юқорида келтирилгани каби “дефектология”, шунингдек, “махсус (коррецион) педагогика” терминларига тавсиф, изоҳ берилар экан, “нормал ривожланишдан оғиш, нормал ривожланишнинг бузилиши, ана шу бузилишларни ўнглаш” тарзидаги умумлаштирувчи маъно етакчилик қилганини кўриш мумкин. Бундай ҳолат махсус илмий асарларда ҳам, оммабоп қомусларда ҳам кузатилади. Қиёсланг:

“Педагогика” ўқув қўлланмасининг “Махсус педагогика” деб номланган 20-бобида: “Дефектология фани – бу жисмоний ва руҳий ривожланишида нуксони бор болаларнинг психофизиологик ривожланишидаги хусусиятларини ўрганадиган, уларнинг таълнм-тарбияси билан шуғулланадиган фан”. [Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Ҳ., Ниёзов Г., Ҳасанбоева О., Усмонбоева М., 2006: 259].

В.С.Раҳмонованинг “Махсус педагогика” китобида: “Ўзбекистонда дефектология махсус ёрдамга мухтож жисмоний ёки руҳий камчиликлари бор болаларнинг психофизиологик ривожланишидаги хусусиятларини ўрганадиган, уларнинг таълим-тарбияси билан шуғулланадиган фандир. Дефектология фанининг мавзу баҳси аномал, махсус ёрдамга муҳтож болалардир. Дефектологиянинг вазифаси — аномалияларнинг келиб чикиш сабаблари, турларини, аномал болаларнинг психофизиологик

ривожланишдаги хусусиятларини ўрганиш, шулар асосида инклюзив ёки дифференциал таълимни ташкил этиш, уларнинг таълим-тарбияси билан шуғулланишдир" [Раҳмонова В.С., 2004: 28-29].

"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"да "дефектология"га берилган таъриф: "Дефектология – жисмоний ва руҳий нуқсонли болалар ривожланишининг психофизик хусусиятларини ўрганиш, уларга махсус таълим-тарбия бериш, ундаги нуқсонларни йўқота бориш қонуниятларини ўрганувчи фан. Кўр ва кўзи ожиз, кар ва қулоғи оғир, ақли заиф, таянч-ҳаракат аппаратида нуқсони бор, нутқ камчилигига эга бўлган болалар дефектология фани объектидир. Шунга кўра дефектология 4 алоҳида соҳага бўлинади: сурдопедагогика (кар ва қулоғи оғир болаларни ўқитиш, тарбиялаш усулларини ўрганади), тифлопедагогика (кўр ва кўзи ожиз болаларни ўқитиш ва тарбиялаш масалаларини тадқиқ этади), олигофренопедагогика (ақли заиф болаларни ўқитиш ва тарбиялаш қонуниятларини ишлаб чиқади), логопедия (нутқ камчиликлари бўлган болаларни ўқитиш ҳамда тарбиялаш назарияси ва амалиёти б-н шуғулланади)" [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002: 269].

"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"да "махсус педагогика"га берилган таъриф: "Махсус педагогика – жисмоний ва руҳий ривожланишда нуқсони бўлган болаларни тарбиялаш ва ўқитиш ҳақидаги фан. Махсус педагогика жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болаларнинг ўзига хос ўқув-таълим фаолиятларини ҳисобга олган ҳолда педагогиканинг умумий тамойиллари асосида ривожланади. Махсус педагогиканинг бош вазифаси жисмоний ёки рухий ривожланишида нуқсони бўлган болаларнинг таълим-тарбиясини ташкил этишнинг илмий ва назарий асосларини яратиш ҳамда шунга мос дефектолог кадрларни тайёрлашдан иборат. Махсус педагогика, шунингдек, болаларни психик-педагогик ва клиник жиҳатдан ўрганиш, нуқсон сабабларини аниқлаш, педагогик таснифлаш ва турларга ажратиш, махсус таълим ва тарбия муассасалари шароитида болаларга индивидуал муомала қилиш, нуқсонли болаларни жисмоний меҳнатга тайёрлаш каби масалаларни ишлаб чиқишдан иборат. Махсус педагогика қандай нуқсондаги болаларни ўрганишига қараб сурдопедагогика, олигофренопедагогика, тифлопедагогика, логопедия каби соҳаларга бўлинади. Буларнинг ҳар бири умумий педагогика тармоғини ва барчаси биргаликда дефектологияни ташкил этади" [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004: 30].

"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"да "Педагогика" мақоласида дефектологияга берилган таъриф: "Педагогиканинг жисмоний ёки руҳий ривожланишида нуқсони бўлган болалар ривожланишининг руҳий-жисмоний хусусиятларини, уларни тарбиялаш, ўқитиш ва шакллантиришдаги ўзига хосликларини ҳисобга олиб иш кўрадиган тармоғи дефектологияпнр. Дефектология боланинг қандай жисмоний ва руҳий нуқсонга эгалиги ҳамда уларга бериладиган таълим-тарбиянинг йўналтирилганлигига қараб тифлопедагогика, сурдопедагогика, олигофренопедагогика, логопедия

сингари тармоқларга бўлинади” [Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004: 30].

Шуни ҳам айтиш жоизки, “дефектология” термини, аввалроқ таъкидлаб ўтганимиздек, кунимизда ҳам яқин хорижда ва мамлакатимизда фан номи сифатида, ихтисослик номи сифатида, айни пайтда “дефектолог” шаклида касб номи сифатида қўлланиб келмоқда. Аммо айрим луғатларда шундай луғатнинг “дефектолог ходимлар учун зарур”лиги таъкидлангани ҳолда “ҳозирда бу сўз архаик сўзлар қаторидан ўрин олган”лиги ҳам қайд этилади [Мўминова Л., Назарова Д., 2010: 4].

Табиийки, “дефектология” термини илмий ва илмий-амалий фаолиятда мавжуд экан, уни архаик сўз ўлароқ баҳолаш мушкул.

Қисқаси, кўриб ўтилган манбаларда дефектология (махсус педагогика, коррекцион педагогика)га берилган таърифларда айни соҳа терминларини бирлаштирувчи архисема “нормал ривожланишдан оғиш, нормал ривожланишнинг бузилиши ва ана шу бузилишларни ўнглаш” тарзидаги умумлаштирувчи маънодан иборат эканлиги аён бўлиб турибди. Демакки, дефектологияга оид терминларнинг барчаси айни шу архисема асосида “дефектология” терминологик майдонига бирлашади, шундай терминологик майдонни ташкил этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Дубовская В.А., Гоголева Г.С, Егорова Н.Л., Вехова Т.А. Дефектологический тезаурус: Учебное пособие. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2007.
2. Сложеникина Ю.В. Терминологиия коррекционной педагогики: лексико-семантический аспект. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –М., 2000.
3. Назарова Н. М., Аксенова Л. И., Богданова Т. Г., Морозов С. А. Специальная педагогика. Под ред. Н. М. Назаровой.11-е изд., перераб. – М.: Издательский центр «Академия», 2013.
4. Глухов В.П. Дефектология. Специальная педагогика и специальная психология. Курс лекций. –М.: МГПУ, 2017.
5. Ҳасанбоев Ж., Сарибоев Ҳ., Ниёзов Г., Ҳасанбоева О., Усмонбоева М. Педагогика. Ўқув қўлланма. –Т.: Фан, 2006.
6. Раҳмонова В.С. Махсус педагогика (Дефектология мутахассислигига кириш): Ўқув кўлланма. —Т.: F.Ғулом номидаги НМИУ, 2004.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2003. –Б.529.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004. –Б.30.
10. Мўминова Л., Назарова Д. Махсус таълим атамаларининг изоҳли луғати. –Т.: А.Авлоний номидаги ХТХҚТМОМИ, 2010. –Б.4, 48.

ERTAKLARNI IJRO ETISH TARTIBI VA ERTAKCHILIK AN’ANALARI

Xalilova Shaxlo Jalilovna
Qarshi davlat universiteti
Lingvistika kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ertak xalq og‘zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. Bola juda yoshlikdan ertak eshitib o‘sadi. Bolalarni ovutish uchun kattalar ertak aytib beradilar, bolalar ham ulg‘ayib, maktabga bora boshlagan vaqtlaridan kichik-kichik ertaklarni o‘zlari ayta boshlaydilar. Bu bolaning bir-biriga aytgan ertaklari qisman kattalardan eshitgani qisman esa o‘zi to‘qigani bo‘ladi.

Yu.Sokolovlar shuni nazarda tutib bo‘lsa kerak: «Bolalarning bir-birlariga aytib bergan ertaklari esa, deyarli yozib olinmadi», deb afsus qilgan edilar [Б.Соколов, 1936]. Haqiqatan ham to‘plangan xalq ertaklarini aytib beruvchilarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, aksariyat kattalar tomonidan aytilganining guvohi bo‘lamiz. Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O‘tmishda ertaklar yilning ma’lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘, dono, hurmatli va e’tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Ertak aytuvchilarni qadimda «ertakchi», «matalchi» deb atashgan. Odatda, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi. Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. Epik turning doston, ertak, naql singari janrlariga oid folklor asarlari muayyan epik xotira, epik bilim va ijrochilik salohiyatiga, ya’ni maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan professional ijrochilar tomonidan aytiladi. Rivoyat va afsonalar esa keng xalq ommasi tomonidan ijro etiladi. Professional aytuvchiga ega bo‘lmaslik afsona janrining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini qayd qilgan K.Imomov «afsonani faqat professional ertakchi yoki dostonchi aytishi shart emas, balki eshitgan, bilgan shaxs xohlagan formada hikoya qila oladi», - deb yozgan edi [K.Imomov, 1991: 67]. Folklorshunos M.Jo‘rayev esa afsona, rivoyat va og‘zaki hikoya janrlariga oid matnlarni aytuvchi kishilarning folklor asarlarini ommalashtiruvchi professional ijrochilikka daxli yo‘qligini qayd qilar ekan, quyidagi muhim xulosani bayon qiladi: «Ertak, latifa yoki naql ijrochisi o‘rni kelganda afsona yoki rivoyatlarni ham hikoya qilaveradi. Ammo ma’rifiy nasr janrlariga (mif, afsona, rivoyat, og‘zaki hikoya - U.S.) mansub asarlarni aytuvchi har qanday odam xalq ertaklarini professonal ertakchi darajasida maromiga yetkazib aytolmaydi» [M.Jo‘rayev, 1996: 32]. Shu haqdagi nuqtayi nazar «Ertak ermak emas, ertakchi og‘ziga kelganini demas» maqolida ifodalangan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Ertak, umuman, folklor namunalarini aytish jarayonlari ham juda qiziq va o‘ziga xos. Folklorshunos olimlar B.Karimov, H.Zarifov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainovalarning ma’lumot berishicha, og‘zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat’iy odatlarga amal qilganlar.

Xususan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig‘ilganidan so‘ng o‘z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho‘p va boshqalarni ma’lum tartibda qo‘yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g‘olib va mag‘lub taraflarni belgilovchi shartlar e’lon qilingan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg‘ona,

(Namangan) an’analari mashhur bo‘lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an’analar muhim rol’ uynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda matniy an’analarga e’tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o‘rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an’anaviy o‘rinlarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar yetakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo‘shiqlaridan tortib dostonlargacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o‘ziga xos ko‘rinishlarga egadir.

Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta’minlash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e’tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh shivirlab, goh ovozini ko‘tarib, ko‘zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo‘lishini ta’minlaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o‘zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o‘z kechinmalari bilan to‘ldiradi va hayajonbaxshligini ta’minlaydi. Shu ijro xususiyatiga ko‘ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatsa-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi. Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda — kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o‘ziga xos an’ana tusini, olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o‘zi bu hodisani «Doston kunda aytiladi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta’kidlab qo‘yishni unutmagan. Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga – kulminatsiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytish to‘xtatilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligida bunga qat’iy amal qilingan. Sababi – sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina singari qorong‘ulik olamining mavjudotlari yorug‘lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda, ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin, degan e’tiqod tufayli shunday yo‘l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo‘qolishidan, uning moddiy hayot qobig‘iga singib ketishidan qo‘rqilgan. Shomdan boshlanuvchi qorong‘ulik tonggacha hukmron bo‘lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan.

Ertaklar og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqal topgan holda avloddan avlodga yetkazilar ekan, bu jarayonda ular sujetidagi ayrim motivlar, obrazlar tushib qolishi yoki, aksincha, ko‘payib borishi tabiiy. Hatto goho bir xalq ertagiga xos syujet motivlari boshqa bir xalq ertagiga ko‘chib o‘tishi va buning oqibatida bir necha o‘xshash sujetli ertak paydo bo‘lishi mumkin. Folklorshunoslikda bunday ertaklar – sayyor sujetli ertaklar deb yuritiladi. Sayyor syujetli ertaklar ko‘pincha mazmunan o‘zaro o‘xshasalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf-odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xos ifodaviy vositalar va geografik muhit tasviriga ko‘ra farqlanuvchi mustaqil adabiy-og‘zaki hodisa sifatida yashash huquqiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Б.Соколов. «Поэзия деревни». Руководство для собирателей производений устной оловестности. – Москва, 1936.

2. Imomov K. O‘zbek xalq prozasi. –T.: Fan, 1991. -B. 67.

3. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1996, №5.-B.32. 21.

TILDAGI GENDER FARQLANISHLAR

Xudayberdiyeva Orifa Rustamjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti,
orifa.xudayberdiyeva@mail.ru

Sotsiolingvistikani sodda va murakkab bo‘lgan ikki jihatdan tahlil qilish mumkin. Sodda qilib aytganda, sotsiolingvistikaning asosiy mazmuni til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishdir. Xususan, til tuzilishi va ijtimoiy konteksni o‘rganishdan iboratdir. Ular orasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikni o‘rganish orqali sotsiolingvistlar turli xil ijtimoiy madaniy hodisalarni tahlil qilishga va turli xil nutq xulq-atvorlarini o‘rganishga harakat qilishadi. Sotsiolingvistika tadqiqotlari ko‘lami, umuman olganda, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga qarab belgilanadi. Tadqiqotning istiqbolidan kelib chiqib, uni taxminan ikki darajaga bo‘lish mumkin: mikrokosmik va makroskopik sotsiolingvistika, bu fanlararo tabiatga asoslangan tasnif bo‘lib, makro sotsiologiyaning jamiyatga yo‘naltirilganligini anglatadi va mikro tilshunoslik nuqtai nazaridan, lingvistik hodisaga e’tiborni qaratadi, ijtimoiy omillar uning hosil bo‘lish omilidir. Sotsiolingvistika til va uni fanlararo o‘rganish uchun yangi istiqbol va tahlil usulidan foydalandi va sotsiolingvistikani o‘rganishni ancha boyitdi, bu bizga tilning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va sotsiolingvistik hodisa haqida tushunchalarni kengaytiradi hamda ijtimoiy muammolarning anatomiyasiga yordam beradi, shuning uchun u muhim tadqiqiy ahamiyatga ega.

Til va gender. Til belgilar tizimi sifatida mavjud, abstrakt fikrlash va mavhum tushunchalar nuqtai nazaridan, bu obyektiv dunyonini tavsiflash uchun metod va usullarni ochib berishga xizmat qiladi. Boshqa nuqtai nazardan qaraganda, til tizimi va til tuzilishining farqi ma’lum darajada bizning dunyoni tan olishimizni aks ettiradi. Bundan tashqari, o‘ziga xos tarixiy va madaniy meros sifatida, undan foydalanish jarayonida, til ma’lum ma’noda madaniy an’analarning shakllanishi, sivilizatsiya evolyutsiyasi, milliy ruhni yaratish, ijtimoiy hayotni yaxshilashni aks ettiradi. Til va gender farqlarini o‘rganishda Leonard Blumfield, McConnel-Ginet, ZhaoYuanren kabi ko‘plab tilshunoslar tadqiqotlar olib borgan. Gender farqlarni o‘rganish davomida ular erkak va ayollarning nutqida fonologik daraja, so‘z tanlash va grammatik, sintaktik jihatdan farqlar mavjud degan xulosaga kelishdi. Eckert va McConnel-Ginet [Language and gender, 2003] shuni ta’kidlaydiki, milliy- ijtimoiy

omillar sababli erkaklar yuqori ijtimoiy mavqega egaligi ularga nutqda imtiyozlar yaratadi. Buni yosh omili bilan bog‘laganda, Xitoy tilshunosi Chen Songcen tildan foydalanishda yuzaga keladigan gender va yoshdagi farqli jihatlarni tadqiq qildi. Bu insoniyatning kommunikatsiya qiyinchiliklari yoki ijtimoiy masofasida emas, balki so‘zlovchining ijtimoiy psixologik omillari bilan birga turli xil gender va yosh xususiyatlarini namoyon qiladi. Turlicha gender va yosh tilning xilma-xil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Buni ikki xil aspekt asosida ko‘rsatish mumkin, birinchisi qachonki milliy- ijtimoiy mavqe turlicha bo‘lganida, ularning aqliy holati farqli bo‘ladi; ikkinchisi erkak va ayollarning jamiyatda turli rolga egaligi bilan bog‘liq, ularning ijtimoiy harakatlardagi ishtiroki va ularning jamiyatdagi faoliyati ko‘lami ham katta farqlarga ega.Yuqoridagi omillar ularning nutqdagi xilma-xilligining sabablari hisoblanadi.

Tildagi gender farqlanishlar murakkab hodisadir. Tildagi gender farqlari, nafaqat, lingvistik hodisa sifatida, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham qaraladi. Shuningdek, tilshunoslik va sotsiolingvistikaning mashhur mavzusiga aylandi. Dunyo tilshunoslari tilning gender farqlanishi bo‘yicha juda chuqur izlanishlar olib bordi va uning sabablarini tadqiq qildi. Gender farqlanishlar til foydalanuvchilarining ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odati bilan bog‘liq bo‘lib, u boy madaniy asosga, tarixiy mazmunga, chuqur ijtimoiy haqiqatga, ijtimoiy psixologiyani aks ettiruvchi, xalq psixologiyasi va ijtimoiy va madaniy qiymatga egadir. Sotsiolingvistikada gender farqlanish juda muhim ilmiy ahamiyatga va qiymatga egadir. U tilshunoslikdagi tadqiqot doirasini kengaytiradi, tilning umumiy qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtiradi va til taraqqiyotining ichki o‘zgarish omillarini tushunishga yordam beradi. Tilning tuzilishi jihatidan, gender farqlanish til va gender o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi. Tildagi gender farqlanishni ikki turga ajratish mumkin: absolyut va relativ farqlanish.

Sotsiolingvistikada asosan, relativ farqlanish o‘rganiladi. Relative gender farqlari erkaklar va ayollar bir xil til yoki lahjadan foydalanganda, ulardagi sezilarli farqlarni bildiradi.

Til gender farqlanishining ijtimoiy asoslari. Til fenomenidagi gender farqlari tasodifiy emas, ular chuqur ijtimoiy ildizga ega. Gender farqlanish insoniy tafovutlar va ijtimoiy hayotning fundamental faktlari hisoblanadi. Erkaklar va ayollar jamiyatda turli xil mavqega ega va turli xil rollarni o‘ynaydilar, shuning uchun ular har xil burch va huquqlarga ega. Tadqiqotchilarning fikricha, til farqining shakllanishi tarixan erkak va ayolning teng bo‘lmaganligi bilan bog‘liq. Ming yillar muqaddam, “erkak tashqarida, ayol ichkarida” tushunchasi odamlar o‘rtasida hukmronlik qilgan. Erkakalar kuch va maqom jihatdan dominant deb qaralgan. Shunday qilib, an’anaviy tushunchalarda ayollar tili muloyim va odobli, erkaklar esa nisbatan sodda, mag‘rur va qat’iy. Tabiiy ijtimoiy kutish avtomatik ravishda kuchli ijtimoiy stressga aylanadi va odamlarni o‘zlarining xatti-harakatlarini o‘zlarining jinsiy holatiga ko‘ra cheklashga majbur qiladi. Bola tug‘ilganidan boshlab, jamiyat o‘g‘il va qiz bolalarga har xil ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ularga fiziologik omillar va ijtimoiy rollarni hisobga olgan holda jinsga xos ism beriladi. Jamiyat boladan qaramlik, qo‘rquvni yengib o‘tadigan haqiqiy erkak bo‘lishini kutadi. Nutqda jinsga

xos unsurlar namoyon bo‘ladi, shuning uchun o‘g‘il bolalarning qo‘pol so‘zlar bilan gaplashishi jamiyat tomonidan ham qabul qilinadi va tan olinadi. Ayollar nutqida esa, talaffuzning aniqligi va grammatik jihatdan tartiblilikni kuzatishimiz mumkin, bu ularning jamiyatdagi rollari bilan bog‘liq. Gender rolning o‘ziga xosligi va madaniyat doirasi ijobiy korrelyatsiyaga ega. Ijtimoiylashuv jarayonida to‘g‘ri odob-axloq qoidalari til foydalanuvchilarining gender rollariga ta’sir qiladi. Bolalar o‘zini anglash jarayonida o‘g‘il bolalar va qizlar asta-sekin o‘z jinslariga qarab rivojlanishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, erkaklar va ayollar o‘zlarining bolaligida ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni qabul qilishlari va moslashishlari, ularning muloqot usullariga ta’sir qiladi. Ular o‘sib-ulg‘ayganida ham bolalikdagi muloqot usullari saqlanib qoladi.

Odatda, erkaklar sport kabi har qanday raqobatbardosh mavzularda bemalol gapirishadi, ayollar mavzusi odatda oilaviy hayot, shaxslar va hissiyotlar haqida bo‘ladi. Shunday qilib, o‘z ichki olamini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatadigan dialoglar ko‘proq ayollarga xos, aksincha, erkaklar o‘zlarining his-tuyg‘ularini yashirishga moyil.

Talaffuz me’yorlarida esa ayollarning talaffuzlari to‘g‘ri va ixcham shaklda bo‘ladi.

Intonatsiya. Bir vaqtlar Xitoy Fanlar akademiyasi erkaklar va ayollarning intonatsion qiymatlarini sinash bo‘yicha tajriba o‘tkazdi. Sakkiz erkak va sakkiz ayolni Mandarin tili unlilarining o‘ntasini o‘qish uchun tanladilar va ayollarning intonatsion qiymatlari erkaklarnikidan yuqori ekanligi aniqlandi. Odatda, intonatsiyaning o‘zgarishi boy iboralarni anglatadi, shuning uchun ayollar bitta gapda bir nechta intonatsiyalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi. Aksincha, erkaklar o‘zgaruvchan ohanglarni emas, balki past va bir me’yorda bo‘lgan ohanglarni afzal ko‘rishadi.

So‘z tanlashdagi farqlar: ayollar nutqida orttirma datajadagi va bo ‘yoqdor so‘zlardan foydalanish ko‘p uchraydi.

Mashhur tilshunos Lakoff [Language and women’s place, 1975] ingliz tili misolida ba’zi izlanishlar olib borgan va ayollarning “Tag question” savollardan ko‘proq foydalanishlarini ta’kidlab o‘tgan, bu ularning fikrini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan xususiyat sifatida qaralishi mumkin. Masalan, «U juda yaxshi qiz, shunday emasmi?” deb so‘radi. Bu erkaklar nutqida keng tarqalgan emas. Agar erkaklar shu kabi fikrlarni bildirishni istasalar, ular "Qiz juda yoqimli" deb o‘z fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalaydilar. Tag savol so‘zlovchining ohangini evfemistik va kamtarin qiladi. Shuningdek, u so‘zlovchining xatolardan qochishi va suhbatdoshlar o‘rtasidagi ziddiyatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun foydalaniladi. Tag savollari odatda so‘zlovchilarning noaniq qarashlari va boshqalarning ijobiy javobini olish istaklarini aks ettiradi. Shunday qilib, ayollar o‘zlarining noaniq qarashlarini bildirish va boshqalarning fikrlarini so‘rash uchun umumiy savol va maxsus savolni tanlashadi. Biroq, erkaklar ochiq gapirishga moyil va boshqalarga ko‘p gapirish huquqini bermaydilar. Shunday qilib, erkaklar nutqining aniqligi ayollarga qaraganda kuchliroqdir. Ayollar ko‘proq standart va aniq sintaktik

qurilmalardan foydalanishga moyildir. Masalan: M: "U juda tez yuradi" yoki "Men buni bilardim"; F: "U juda tez yuradi" yoki "Men buni endi bildim" kabi.

Gender masalasa nafaqat tilshunoslikning, balki psixologiya, ta'lim, jamiyatshunoslik va san'atning ham muhim masalasi hisoblanadi. Sotsiolingvistika nuqtai nazaridan tillardagi jinslar o'rtasidagi farqni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uchta masalani o'z ichiga oladi: birinchidan, u tilshunoslik tahliliga asoslangan gender namunalarini tadqiq qilish paradigmasini yaratadi; keyin, bu genderga asoslangan va sinfga asoslangan farqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi va variatsiya nazariyasining mazmunini boyitadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, til obyektiv dunyo mahsuli bo'lib, buning natijasida odamlarning ichki dunyosiga ta'sir o'kazadi. Ko'pgina ijtimoiy omillar tilda aks etishi mumkin va shu bilan birga til tarkibini belgilaydi va cheklaydi. Ularning ikkalasi ham bir-biriga ta'sir qiladi. Tildagi gender farqlanish hodisalari shuni ko'rsatadiki, tildan foydalanuvchilarning psixologiyasi va ijtimoiy qiymat nafaqat ijtimoiy, balki oilaviy madaniyat va tajribaga ham ta'sir qiladi. Tildagi gender farqlari o'zgaruvchandir. Ularga yoshi, ma'lumot darajasi, kasbi va mavqei ta'sir qiladi va ijtimoiy rivojlanishga qarab o'zgaradi. Ta'lim darajalarining rivojlanishi va ijtimoiy muloqot faolligining oshishi bilan jinsga qarab tillardagi farqlar kamayadi va erkak va ayol o'rtasidagi til o'xshashliklari kuchayadi. Bu erkak va ayol o'rtasida tildan foydalanishning o'xshashliklari va farqlarini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu ijtimoiy ma'naviy sivilizatsiya rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Til va jins o'rtasidagi munosabat o'sha davrning ijtimoiy rivojlanishiga qarab o'zgarib boradi.

FOYDALANIlGAN ADABIYOTLAR:

1. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2003). Language and gender.
2. Lakoff, R. (1975). Language and women's place. -New York.

MAKTABLARDA LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISH MUAMMOLARI

Siddiqov Mansur Rahimjonovich
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek tili kafedrasi o'qituvchisi

Bugungi yangi avlod darsliklarida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga alohida urg'u berilayotir. Lingvistik kompetensiya so'zlar haqidagi bilimlarga asoslanadi. So'z boyligi nutqning aniqligi, to'g'riligi, ravonligi hamda rang-barangligini ta'minlashga asos hamdir. Shu jihatdan leksikologiya bo'limi o'quvchining ona tilini his qilishi va sevishida katta o'rin tutadi.

Leksikologiya tilning lug'at tarkibini, so'z ma'nolari bilan bog'liq hodisa va munosabatlarni o'rganuvchi bo'limdir. O'quvchi o'z ona tilisining imkoniyatlari, so'z ma'nosidagi tovlanishlari bilan ilk bor aynan shu bo'limda yaqindan tanishadi.

Shunday ekan, leksikologiyani o‘qitish boshqa bo‘limlardan mas’uliyatliroq, muhimroq hisoblanadi.

Maktablarimizda 5-, 10- va 11-sinf darsliklarida mazkur bo‘limga xos birliklar maxsus yoritilgan. So‘nggi nashrlarda nofaol so‘zlar, xususan, neologizm va eskirgan so‘zlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratilayotganini inobatga olsak, qolgan darsliklarimizda ham leksikologiya fani doirasidagi ma’lumotlar uchraydi deya olamiz.

Xo‘sh, bugungi kunda leksikologiya bo‘limini o‘qitish holati qanday?

Buni 5-sinflarning amadagi ona tili darsligi asosida ko‘rib chiqsak.

Tilning lug‘at boyligi leksikologiya bo‘limida o‘rganiluvchi ilk mavzu sanaladi. Bunda o‘quvchiga bo‘lim haqida ma’lumot beriladi. Shu o‘rinda terminning kelib chiqishi haqidagi ma’lumot 12 yoshli o‘quvchi uchun qanchalik muhim degan savol tug‘iladi. Mavzular hamqida ma’lumot berishda yosh va muhimlik mezoni bir zum ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ikkinchi mavzudan boshlab so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari haqida ma’lumotlar bera boshlanadi. Lekin so‘zning bosh ma’nodan tashqari ko‘chma ma’nolarga ham ega ekani omonimlardan oldin o‘tilishi kerak edi deb o‘ylaymiz. Bir so‘zning jumlada qaysi ma’noda qo‘llanayotgani ham qiziqtiruvchi, ham mushohadaga chorlovchi, ham foydali (yangi bilim berish ma’nosida) mashq hisoblangan bo‘lar edi. Masalan, quyidagi topshiriqqa e’tibor qaratsak:

*Quyidagi gaplarda **tez** so‘zi qanday ma’noda qo‘llanayotganini aniqlang.*

1. O‘zing tezroq (ildamroq; yaqinroq) harakat qilganingda, bunday bo‘lmas edi.

2. Sizning buyurtmangiz tez (jadal; yaqin) kunlarda tayyor bo‘ladi.

3. Odiljonim juda tez (jahldor; chaqqon) yigit: birdan portlab ketadi.

Shu kabi topshiriqlar ham qiziqarliligi, ham foydaliligi jihatidan ahamiyatlidir.

Qolaversa, omonimlarni ko‘chma ma’nodagi qo‘llanishlardan farqlash ham lozim bo‘ladi, shu bois ko‘chma ma’no haqidagi ma’lumotlarning oldinroq berilishi maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Sinonimlar mavzusi eng muhim mavzulardan biri sanalib, o‘qituvchidan alohida mahorat talab qiladi. O‘quvchining so‘z boyligi oshishida, bir ma’noni ifoda etuvchi so‘zlar o‘rtasidagi nozik ma’noviy farqlarni ilg‘ay olishida ushbu mavzuning mohirona o‘tilishi katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning aksar qismi bu mavzu orqali *ganjina, diyda, qarog‘* so‘zlari bilan ilk bor tanishadi.

Omonimlar mavzusini o‘tar ekan, o‘qituvchi o‘quvchining o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshira bilishi lozim. *Qovoq, shim, tuz* kabi oson misollarni so‘rash bilan bunga erishish mumkin. *Karam, asar, dam, sir* kabi misollarga keyinroq navbat berilishi tarafdorimiz.

Antonimlar mavzusi o‘quvchida assotsiativ munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. *Toza – iflos, kasal – sog‘, yaxshi – yomon* kabi juftliklar miyada yonma-yon yashaydi, biri ikkinchisini yodga soladi.

Paronimlar mavzusi, shubhasiz, leksikologiyaning eng muhim mavzularidan sanaladi. Shu kunga qadar *yetti – yetdi, tunashdi – to‘nashdi, xol – hol, urush – urish* kabi juftliklarni farqlamay kelgan o‘quvchi uchun bu ma’lumotlar – kutilmagan yangilik. Mana shu hayratni dars yakuniga qadar tutib tura bilish, undan samarali foydalanib qolish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq.

Biz omonim, sinonim va paronimlar mavzulari uchun ko‘proq soat ajratilishini to‘g‘ri deb bilamiz. Ayni shu mavzu orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi sezilarli darajada oshadi.

O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari mavzusi garchi leksikolgiya bo‘limiga tegishli bo‘lsa-da, biroq 5-sinf o‘quvchilari uchun mos emas deb bilamiz. Bu yoshda o‘quvchi ushbu mavzuga tayyor bo‘lmaydi; tayyor bo‘lganda ham, amaliy ahamiyatga ega emas. Lug‘atimizdan o‘rin egallagan birliklar, kelib chiqishi xoh turkiy, xoh chet tili bo‘lsin, bizning so‘z boyligimiz hisoblanadi va undan foydalanishimiz lozim. “Bahor forsiy so‘z ekan, ko‘klam o‘zimizniki”, – deb biri ikkinchisidan ustunroq qo‘yilmaydi. Lekin bir paytlar bo‘lgan e’tiborsizlik sabab bugun tilimizda o‘zlashma so‘zlar ko‘pligi, biz bugun neologizmlarni o‘zbekcha muqobillar bilan alishtirishimiz lozimligi tushuntirilishi kerak. Shunda ham 5-sinf o‘quvchisiga emas, yuqori sinflarga. Quyidagi topshiriqqa e’tibor qaratamiz:

Quyidagi so‘zlarga qanday o‘zbekcha muqobil topa olasiz? Topgan variantingiz imkon qadar qulay va bir so‘zdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq.
1) remiks; 2) “lichka” (shaxsiy kabinet atamasi noqulay); 3) pin; 4) layk; 5) xeyter; 6) pult; 7) joystik; 8) selfi; 9) chat; 10) fleshka.

Garchi mazkur topshiriq mutaxassislar – filologlar uchun berilishi lozim bo‘lsa-da, har kim fikr bildirishi mumkin. Aslida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo‘yib, filologlar ulardan manzurlarini tanlab olishsa yoki ayrim variantlardan ilhomlanishsa, o‘zbekchalashtirish ishi katta harakatga aylangan bo‘lardi.

Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar mavzusi zamonaviyligi bilan o‘quvchining e’tiborini tortadi. Uzoq yillar bu mavzu darsliklarda e’tiborsizlarcha yoritib kelindi. Birgina *kompyuter* so‘zi 20 yilcha neologizmlar sirasida “yashadi”. So‘nggi darsliklarda keltirilgan *mental arifmetika, fleshka, sayt, virus, antivurus, xaker, shou* kabi so‘zlar mavzuga mos misollar sanaladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar *koronavirus, pandemiya, yangi shtamm* kabi eng so‘nggi va dolzarb terminlarni dars jarayonida tilga olib o‘tishlari lozim. Har 4-5 yilda darsliklar qayta nashr etilar ekan, kamida neologizmlar mavzusi yangilanishi kerak.

Tarixiy va arxaik so‘zlar mavzusi o‘quvchi so‘z boyligini oshiradigan, uni tarix bilan, mumtoz adabiyotimiz bilan bog‘laydigan mavzulardan sanaladi. Bu mavzuni o‘qishda o‘qituvchining mahorati sinovdan o‘tadi. Agar mavzuni o‘tishda me’yor ushlanmasa, o‘quvchi zerikadi, o‘zini olib qocha boshlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi darsliklarimiz amaliyotga xizmat qilishi, zamonaviyligi bilan avvalgilaridan ajralib turadi. Biroq ayrim munozarali o‘rinlar ham mavjudki, ularni bartaraf etishdan ta’limimiz faqat yutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: o‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik. – T., 2020-y. – 110 – 133-b.
2. Mengliyev B.R. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv// Ma’rifat. 2014.8-9-b.
3. Asadov Y.M. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv// Maktab va hayot. 2014. 8-10-b.

TILSHUNOSLIKDA NOM YARATISH MUAMMOSINING O‘RGANILISHI VA NEYMLAR TASNIFI

Jumanazar O‘rozov
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili kafedrasi
o‘qituvchisi

Bugun jahon hamjamiyatida o‘z tilini, madaniyatini namoyish etish, korxona, tashkilot va ishlab chiqarish obyektlariga munosib nom tanlash muhim vazifaga aylanib qoldi. Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy neyminglar kompaniya faoliyatida muhim komponentga aylantirdi. Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta’limining ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning ham, ta’limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo‘ydi. Natijada dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan nazariy lingvistikadan til va shaxs mushtarakligi masalasi bilan shug‘ullanadigan amaliy yo‘nalishlarga o‘tish to‘lqini kuch olmoqda.

O‘zbek tilshunos olimlarimizdan D.Lutfullayeva, M.Saparniyozovalar aynan mana shu *neyming* loyihasi ustida ish olib bormoqda va bu olimalar nom (neym) yaratish hamda uning tasnifi haqida quyidagicha fikrni keltirib o‘tadi: “Tilda nom yaratishning, nafaqat, lingvistik, balki psixologik, milliy-madaniy mezonlari ham mavjud. Nom lingvistik jihatdan mukammal bo‘lishi bilan birga inson ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi, aksincha, til egalarining milliy-madaniy qarashlari, milliy odob-axloq me’yorlariga mos bo‘lishi lozim. Nom ijodiy faoliyat natijasi hisoblanadi” [1; 4183 – 4189]. Demak, nom uni yaratgan til egasining ijod mahsulidir. Nom yaratishda tilda yangi ma’noli birliklar hosil bo‘ladi yoki so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklanadi, ba’zan mavjud leksik birlik butunlay o‘zga ma’no, yangi mohiyat kasb etadi. Nom yaratish jarayonida tildagi yangi so‘z hosil qilishning mavjud usullaridan foydalanish bilan birga yangi usullar ham ixtiro qilinadi. Jumladan, *neyming,* ya’ni nom yaratish amaliyotida ba’zi brend nomlarining nutq egasi xotirasida beixtiyor tiklangan assotsiatsiyalar orqali xayolan hosil qilinganligi kuzatiladi. Masalan, nom yaratish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi “Soldis” agentligi tomonidan “Good fud” kompaniyasi brendi uchun taqdim etilgan “Vival” nomi

mana shu usulda hosil bo‘lgan. Manbalarda bu nomning XVIII asr fransuz saroyida rasm bo‘lgan salomlashuvni bildiruvchi “vivat” so‘zi asosida yuzaga kelganligi qayd etiladi.

Nom yaratish faoliyati bir qarashda o‘ta jo‘n va oson vazifadek tasavvur uyg‘otadi. Ammo bu faoliyat nom yaratuvchiga muayyan talablar qo‘yadi: 1) nom yaratish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishilar tilning barcha lingvistik me’yorlarini mukammal bilishlari lozim; 2) nom yaratishda har bir tilning o‘ziga xos ichki imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olish, bu imkoniyatlardan zukkolik va mohirlik bilan foydalana bilish kerak; 3) nom yaratuvchi xalqning milliy-madaniy qadriyatlari, odob-axloq me’yorlaridan xabardor bo‘lish, ularga zid nomlarni yaratmaslik zarur; 4) nom yaratuvchi, nafaqat, buyurtmachi, balki iste’molchilarning ham istak-xohishlari, ehtiyojlarini inobatga ola bilishi lozim. Nomlar qanday obyektni nomlab kelayotganligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Jumladan, ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat obyektlari, mahsulotlar, ularning markasi (brendi)ga qo‘yilgan nomlar muayyan maqsadni ko‘zlashi jihatidan boshqa turdagi nomlardan ajralib turadi. Shunday obyektlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun nom yaratish faoliyati marketologiyada *neyming* deb ataladi.

“Manbalarda *neyming* terminiga turlicha tavsif berilganligiga guvoh bo‘lamiz”, – deydi filologiya fanlar doktori, professor D.Lutfullayeva. – Jumladan, А.П.Панкрухинанинг “Маркетинг: большой толковый словарь” nomli lug‘atida *neyming* termini quyidagicha izohlangan: “Neyming (ingl. *to name* - atash, nom berish) nom hosil qilish bo‘yicha kasbiy faoliyat bo‘lib, buyurtmachi nuqtayi nazaridan o‘ziga xos nomlanishga ehtiyoji bo‘lgan barcha narsalarga nisbatan muvofiq nom tanlash (qidiruv, o‘ylab topish)ni anglatadi” [2, 2019: 56.]. “Энциклопедия маркетинга” saytida *neyming* terminiga quyidagicha izoh berilgan: “Neyming (ingl.name-nom) - tilshunoslikning fonosemantik va psixotahlil vositalaridan foydalanish asosida kompaniya va savdo marka (brend)lari nomlarini yaratish jarayonidir”. “Финансовый словарь”da *neyming* tashkilot, loyiha va Internet-saytlar uchun jarangdor, esda qolarli va aniq nom yaratish bilan bog‘liq ishlar majmuyi sifatida tavsiflangan. “Викисловарь” da ham *neyming* kompaniya, mahsulot, loyihalar uchun jarangdor, esda qolarli va aniq nom yaratish, nomlash sifatida izohlangan”. [3, 2018: 36-38] “Nomlash – bu san’at. San’at bir so‘z bilan obyektni tavsiflash, unga o‘ziga xos jozibali xususiyatlarni berishdir. Ammo nomlash ham fan. Obyektni qanday berish kerakligi - bu mahsulot, xizmat yoki kompaniya bo‘lsin - yorqin, esda qolarli va jozibali ism, bu mijozning sodiqligini kafolatlashi va uni xaridorning ongiga ma’lum bir tarzda joylashtirishi mumkin. Bugungi kunda nomlash tilshunoslik, psixologiya, marketing va boshqa fanlarning bilimlarini birlashtirgan butun bir intizomdir”. [4, 2015: 826-828.] Izohlardan ma’lum bo‘ladiki, *neyming* marketing sohasiga tegishli birlik bo‘lib, nom yaratish faoliyatini anglatadi. V.Y.Kojanova ingliz va rus tillarida nom yaratish texnologiyasi haqida fikr yuritar ekan, *neymingga* “brend nomini yaratish” faoliyati sifatida baho beradi. Olimaning fikricha, *neyming* lug‘at asosida shunchaki so‘z tanlash emas (bu faoliyatning faqat bir bosqichi bo‘lishi mumkin), balki muloqotning o‘ziga xos tizimini yaratish bo‘lib, bunda bir nomdan iborat brend

o‘zaro muloqot va tildan foydalanuvchi bilan aloqa predmeti bo‘la oladi. Darhaqiqat, ishlab chiqarish, savdo, maishiy xizmat obyektlari, mahsulotlar, ularning markasi (brendi)ga qo‘yilgan nomlar, avvalo, ishlab chiqarish obyektining bosh maqsad va vazifasi, mahsulotning asl mohiyati haqida qisqacha ma’lumot berishi, shu orqali iste’molchi bilan birlamchi kommunikativ aloqani ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Bu jarayonda nom emotsional-ekspressiv ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajarishi maqsadga muvofiq. Bu o‘rinda shuni aytib o‘tish joizki, К.А.Дзюба neyming haqida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tovar nomlarini o‘rganish uchun nazariy asos bo‘ladi. Bugungi kunda onomastik makon har doimgidan ko‘proq reklama aloqalari sohasida paydo bo‘ladigan yangi til birliklari bilan faol ravishda to‘ldirilmoqda. Bozorda yangi kompaniyalar paydo bo‘lganda va ular ishlab chiqaradigan tovarlarning nomlarini yaratish zarurati tug‘ilsa, ushbu jarayon xalqaro savdoning jadal o‘sishi bilan rag‘batlantiriladi. Natijada mahsulotning bozorda tobora ommalashib borishi bilan bir qatorda, uning nomi asta-sekin tilning leksik fondida qayd etilib, ko‘pincha bir qator birikmalarga ega bo‘lib, ona tilida so‘zlashuvchilar nutqida o‘zlarining ma’nolariga ega bo‘lmoqda”. [5, 2014: 12] Ishlab chiqarish, savdo obyekti, korxona, firma yoki mahsulot, uning markasi (brendi)ga o‘zbek tilida nom berishda quyidagi qat’iy mezonlarga amal qilish lozim:

- **Milliylik va an’anaviylik -** Til egalarining umummilliy madaniy qarashlari, an’analari, mentaliteti, dunyoqarashi, psixologiyasiga zid kelmasligi. Brend nomi til egalarining milliy-madaniy qarashlariga muvofiq kelishi lozim. Xalq milliy qadriyatlariga mos bo‘lmagan holatlarni aks ettiruvchi nomlar iste’molchilar tomonidan ijobiy qabul qilinmaydi;
- **Jozibadorlik -** nomning jozibadorligi til egalari uchun tushunarli, ishlab chiqarish obekti, mahsulot, uning brendi haqidagi eng muhim ma’lumotlarni aks ettirishi, brend nomi istemolchini o‘ziga jalb etilshi talab etiladi;
- **Yengil talaffuz -** til egalari uchun tushunarli, aniq hamda talaffuzga oson bo‘lishi;
- **Zamonaviylik –** nom go‘zallik haqidagi g‘oyalarga mos kelishi, zamon ruhiga mos kelishi va iste'molchini chalg‘itmasligi kerak;
- **Oson yodda qolishi -** Brend nomi imkon boricha oson esda qolishi uchun fonetik jihatdan savodli tuzilgan bo‘lishi lozim;
- **Noyobligi -** Har qanday muvaffaqiyatli nom o‘ziga yarasha noyob va betakror bo‘lishi, Boshqa nomlar bilan o‘xshash bo‘lib qolmasligi, boshqa mahsulotlarni yodga solmasligi darkor;
- **Bozorga monandlik -** Kompaniya yoki mahsulot nomi bozor yoki mahsulotlar toifasiga mos kelishi;
- **Tasavvur va o‘xshatish -** Nom o‘qilganda, obyekt faoliyati to‘g‘risida axborot bera olishi yoki uning xarakterini, obrazini ochib beruvchi tasavvur uyg‘ota olishi va mahsulotning nomini eshitganda maqsadli auditoriyaning ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladigan obraz va tasavvur hosil qilishi kerak;
- **Davlat tiliga mosligi -** Nomni yaratishda tilning adabiy me’yorlariga rioya etilishi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga kompaniya nomini moslash ham yaramaydi. Chunki vaqt o‘tib ular boshqa turdagi mahsulotlarni ham sotish bilan shug‘ullanishni istab qolishi mumkin. Faoliyat nomga mos bo‘lishi uchun esa keyin kompaniya nomini o‘zgartirish uchun uni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga to‘g‘ri kelishi mumkin. O‘zgalardan ajralib turmoqchi bo‘lgan ba’zi tadbirkorlar qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarishadi: murakkab so‘zlar va tushunarsiz jumlalardan foydalanishadi. To‘g‘ri, tanlangan nom o‘zgacharoq jaranglasa va yozilsa, u noyoblik kasb etadi. Ammo bu iste’molchilar yoki mijozlar jig‘iga tegmasmikin? Shunchaki chiroyli bo‘lgan so‘zni topish yetarli emas. Nom faoliyat turiga ishora qilishi joiz. Yaxshi nom – eshitilgandayoq kompaniya qanday sohada faoliyat yuritishi va qanday xizmatlarni taqdim etishi to‘g‘risida tasavvur hosil qiladiganidir. Neyming texnologiyasida har qanday ishlab chiqarish obyekti yoki mahsulot, uning brendi nomini yaratishda jamiyat a’zolarining dunyoni qay tarzda anglashi, milliy-madaniy qarashlari, mentaliteti, voqelikka baho munosabati kabilarni e’tiborga olish muhim o‘rin tutadi. Jamiyat a’zolari uchun yot bo‘lgan yoki ular tafakkurida salbiy assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi nomlar samarali kommunikativ muloqotni hosil qila olmaydi. Neym, avvalo, o‘z-o‘zini baholovchi akt sifatida yuzaga chiqadi. Neym ishlab chiqarish obyekti yoki mahsulot, uning brendini o‘ziga o‘zi baho berish kabi tasvirlaydi [6, 2019:.1-3].

Demak xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, nom yaratish oson ish emas, u murakkab ijodiy jarayon. Nom yaratishda muayyan tilning lingvistik me’yorlariga amal qilish barobarida xalq madaniyati, dunyoqarashi, mentaliteti, psixologiyasi kabilarni ham inobatga olish lozim bo‘ladi. Shundagina yaratilgan nom mahsulot va iste’molchi yoki ishlab chiqarish obyekti va iste’molchi o‘rtasida manfaatli kommunikativ aloqa vazifasini bajarishga xizmat qiladi, mahsulotning keng tarqalishiga, bozor raqobatida kuchli pozitsiyani egallashiga yordam beradi. Har qanday neymda obyektga berilgan subyektiv baho o‘z ifodasini topadi. Bunda neym orqali ishlab chiqarish obyekti yoki savdo mahsuloti haqida ma’lumot olish imkoniyati tug‘iladi. Aslida neym mahsulot mohiyatiga ishora qiluvchi, unga urg‘u beruvchi nom bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Нейминг: тилда ном яратиш технологияси. “SCOPUS” базасидаги журнал. November-December 2019. ISSN: 0193-4120 Page No. 4183 - 4189
2. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари// Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. –№9. – Б. 56.
3. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Нейминг технологияси: тилда неймларнинг яратилиши.// Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2018. -Б. 36-38.
4. Евдокимова К. В., Кандаурова И. Р. Технология нейминга // Молодой ученый. — 2015. — №11. — С. 826-828.
5. Дзюба К. А. Способы формирования наименований торговых марок. – Тамбов, 2014. –Б.12.

6. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратиш муаммолари // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2019 – № 10. – Б.1-3.

DUNYO TILSHUNOSLIKLARIDA O‘XSHATISH QURILMALARI TADQIQI

Tursunova Oliya Sharafiddinovna
Buxoro viloyati Shofirkon tumani
9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Til jamiyatda kishilar o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydi, ma’lum axborotlarni yetkazadi. Shuningdek, kishi ruhiyatiga ta’sir etadi, estetik zavq beradi va madaniy taraqqiyot bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Har qanday fan tarixni, jumladan, o‘zbek tilshunosligi tarixini tadqiq qilish va o‘rganish ham ma’naviyatimizning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi.

Ma’lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: “Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so‘z bo‘lishi mumkin emas, ya’ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo‘lishi shart” [Н.Трубецкий, 1960]. Til va madaniyatning ana shunday o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi.

Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi.

1. Til va madaniyat inson va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.
2. Til va madaniyat o‘zaro diologda mavjud: nutq subyekti va uning adresati hamma vaqt madaniyat subyekti sanaladi (etiket shakllari: salomlashish, urf-odat bilan bog‘liq rasm-rusum va hokazolar).
3. Har ikkala shakl individual yoki umumiy mavjudlik shakliga ega, ya’ni til va madaniyat subyekti – hamma vaqt individual yoki ijtimoiy, shaxs yoki jamiyat sanaladi.
4. Til va madaniyat uchun umumiy belgi bu umumiylikdir.
5. Tarixiylik – “til va madaniyat” uchun (“dinamika” (o‘zgaruvchanlik) yoki “statika” (turg‘unlik)) eng asosiy xususiyat sanaladi.

6. Madaniyat xalqning o‘ziga xos tarixiy xotirasidir. Til esa o‘zining kumulyativ (to‘ldiruvchi) xususiyatiga ko‘ra o‘zida o‘tmish xotirasini saqlaydi va to‘ldirib boradi, shu kabi qator xususiyatlari ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini berdi.

Ayni damda inson va jamiyat o‘rtasida quyidagi farqlar ko‘zga tashlanadi:

1. Komunikatsiya vositasi sifatida til xalq madaniyatida va taraqqiyotda yuz bergan o‘zgarishlarni ozmi-ko‘pmi aks ettiradi.
2. Madaniyatning belgi sistemasiga o‘tishi tildan farqli ravishda mustaqil shakllanish xususiyatiga ega emas.
3. Til va madaniyat boshqa-boshqa (semiotik) belgi tizimidir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni tilga ozomorf emas, balki “gamomorf”, ya’ni aloqador ekanligini isbotlaydi.

Lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o‘rganish muhimroq sanaladi, chunki taraqqiyot moddiy, madaniyat esa ramziydir. Mif, urf-odatlar, marosimlar madaniyatga xos, ular xalqning turmushi va marosimlari shaklida til birliklari va ifodalarida jo bo‘ladi. Shu sababli, ulardagi til birliklari lingvokulturorologiyaning obyekti sirasiga kiradi.

Professor A.Nurmonovning “Sepir-Uorfning nisbiylik nazriyasi haqida mulohazalar” nomli maqolasida keltirilishicha, B.Uorf til bilan madaniyat o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlik mavjudligini ta’kidlash bilan birga, madaniyat hodisalari til shakllarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirida maydonga kelishini bayon qiladi. Lekin bunga B.Uorf hech qanday dalil keltirmaydi.

Darhaqiqat, til bilan madaniyat o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud. Aslida madaniy til xalq madaniyatining bir qismi. Lekin til bilan madaniyat o‘rtasida determinizm, sabab-natija munosabati yo‘q. Buning dalili sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, ba’zi hollarda ma’lum xalq o‘z madaniyatini saqlagan holda, tilini o‘zgartirishi mumkin. Til shakli bilan madaniyat shakli bir-biriga muvofiq kelmagan holatlar ham uchraydi. Xususan, bir-biriga yaqqol qarindosh bo‘lgan*xuta* va *navaxo* tillarida gaplashuvchi qabilalar butunlay boshqa-boshqa madaniyatga ega. Aksincha, *pueblo* va *pleyi* hindu qabilalari juda yaqin madaniyatga ega bo‘lib, tamomila boshqa-boshqa tillardan foydalanishadi. Yoki Markaziy Osiyoda o‘zbek va tojik xalqlari tamomila boshqa-boshqa sistemadagi tillarga mansub bo‘lsalar-da, bir-biriga juda yaqin madaniyatga ega.

Bu esa shuni ko‘rsatadiki, madaniyat hodisalari bilan til strukturasi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sababiy tobelilik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlik yo‘q. Shunday bo‘lsa ham, ular o‘rtasida umumiy bog‘liqlik mavjud. Chunki, madaniyatdagi o‘zgarish tilda aks etadi. Shu ma’noda madaniyatning tilga ta’siri haqida gapirish mumkin, lekin shunda ham tilning madaniyatga ta’siri haqida emas. Ammo bu har ikki tushuncha, ta’kidlab o‘tganimizdek, bir-biriga uzviy bog‘liq va bir-birini taqazo etadi. O‘zbek xalqi purma’no so‘zga, o‘git-u naqllarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o‘zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g‘am-anduhi, rohat-farog‘ati, muvaffaqiyat va mag‘lubiyati, rasm-rusumlari – hamma-hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko‘zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo‘yoqdor, serjilo leksikasining,

frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o‘lchanadi. O‘zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma’nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Turg‘un o‘xshatishlarning xalqning nutqiy etiketi, milliy urf-udumlari turmush tarzida o‘rni beqiyos, turg‘un o‘xshtishlarni o‘rganish qadimgi zamonlardan faylasuf-u olimlarning diqqat e’tiborida bo‘lgan va hali-hanuzgacha bu e’tibor kuchayib bormoqda, chunki turg‘un o‘xshatishlar – millatning ko‘zgusi.

Hozirgi kunda dunyo tilshunosligida ko‘plab tillarning turg‘un o‘xshatishlar lug‘ati tuzilgan.

Masalan, ingliz tilining turg‘un o‘xshatishlari lug‘ati 1924-yilda J. Frank Vilstax tomonidan «Dictionary of Similes» (O‘xshatishlar lug‘ati) yaratilgan. Lug‘atning ikkinchi nashri taxminan 20 mingga yaqin turg‘un va individual – muallif o‘xshatishlarni o‘z ichiga oladi.

Rus tili turg‘un o‘xshatishlar lug‘ati ko‘plab rus tilshunoslari tomonidan tadqiq etilgan. Lebedova tominidan tuzilgan “Ustoychivie sravneniya ruskogo yazika” (краткий тематический словар. Краснодар. Кубанский ГУ, 2003) lug‘atida 12000 ga yaqin rus xalqining nutqiga barqarorlashgan o‘xshatishlar asoslab berilgan. Lug‘atda asos so‘z yuqoriga chiqarilib, ma’nosi, qanday vaziyatda ishlatilishi va misollar bilan izohlar o‘rin olgan. Ogolsova “Словар устойчивих руского язика (синонимо-антонимческий.-М.,Руские словари. АСТ. Астрел. 2001) lug‘ati orqali turg‘un o‘xshatishlarning aksariyati ko‘p ma’noli ekanligi va ular o‘rtasida sinonimik- antonimik va graduonomik munosabatlar mavjudligini aytadi.

Mokienko tomonidan yaratilgan katta rus milliy o‘xshatishlar lug‘ati (Большом словаре русских народных сравнений) 45 mingga yaqin rus xalqi milliy tilidagi turg‘un, xususiy, xalq sheva va jargonlaridagi o‘xshatishlarni o‘z ichiga oladi.

Shved tilining tur’un o‘xshatishlar lug‘ati Alyoshin Aleksey Sergeyivich tomonidan yaratilgan (устойчивые сравнения шведского языка, характер изующие человека. Лингвокультурологический аспект. Санкт-петербург. 2011) bo‘lib, unda inson xarakteriga oid turg‘un o‘xshatishlaning lingvokulturologik xususiyati tahlil ostiga olingan.

Tatar tili o‘xshatishlari lug‘atini yaratgan F. Hakimzanov tatar millatining milliy ong mahsuli bo‘lgan 1001 ta o‘shatishga to‘xtalib o‘tgan. Kyuvlieva – Mishakova tomonidan bolgar tili turg‘un o‘xshatishlar lug‘ati yaratilgan. [Кювлиева-Мишайкова, 1986: 175] M.Banko rus tili turg‘un o‘xshatishlari ko‘plab tilshunoslar shu bilan bir qatorda asosan keng ko‘lamli tadqiqotlar K.S.Gorbachevicha, V.M.Mokienko, T.G.Nikitinoy, V.M.Ogoltseva va boshqalar tomonidan olib borilganligini e’tirof etadi [3]. Ispan tilining turg‘un o‘xshatishlari lug‘ati ispan millati iboralari, maqollari bilan birga 1977-yilda Shiriley, L.Arora tomonidan yaratilgan [Shiriley, Arora L:, 1977: 521].

O‘xshatishlar millatning ko‘p yillik tajribasi va ijtimoiy ongi mahsuli hisoblanadi. “Bu sohada jiddiy nazariy va amaliy ishlar olib borgan tilshunos A.O.Dolgovaning qayd etishicha, 1965-yilda fransuz tili turg‘un o‘xshatishlarining lug‘ati (A.G.Nazaryan), 1966-yilda ukrain tilining (I.Gurin), 1973-yilda belorus

tilining (F.M.Yankovskiy) ana shunday lug‘atlari nashr etilgan, keyinroq esa chex (1983), bolgar (1986), polyak (2004) va boshqa tillarning turg‘un o‘xshatishlari lug‘ati, shuningdek, bir qator tillar turg‘un o‘xshatishlarining tarjima (muqobillar) lug‘atlari chop etilgan.

FOYDALANIlGAN ADABIYOTLAR:

1. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.: НЛ.в.1.М.,1960.
2. Кювлиева-Мишайкова В. Устойчивите сравнения в българския език. София: Издателство на Българската академия на науките, 1986. – 175 с.)
4. Shiriley, Arora L: Proverbial comparisons and related expressions in Spanish. Los Angeles-London: University of California Press, 1977. – 521 s.
5. Mahmudov N. Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. -T.: Ma’naviyat, 2013. 17-b.

TIL TA’LIMIDA MORFOLOGIYANI O‘QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI

Rahmatullayeva Shahodat
f.f.f.d. (PhD) QarDU dotsenti

Shodmonova Sevara
QarDU Boshlang‘ich ta’lim
yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq xalq ta’limi sohasida tub islohotlar boshlab yuborildi. Zero, bundan buyon “Ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi”[28].

O‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish konsepsiyasi” qabul qilinib, uning talablariga ko‘ra sinovdan o‘tkazilgan davlat ta’lim standartlari tasdiqlandi va yangi mazmundagi darsliklar yaratildi.

Umumiy o‘rta ta’limning ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida o‘quvchilardan ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish maktab ona tili ta’limining asosiy maqsadi qilib belgilangan. Shunga ko‘ra ona tilidan yaratilgan dastur va darsliklardan ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash maqsadida pedagogik texnologiya, axborot hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va o‘quvchilar faoliyatlarida qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlar kuchaydi, o‘quvchilarning ijodiy ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bosh maqsadga aylandi; o‘qitishning eng samarali, ayniqsa,

[28] Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -Toshkent: Sharq, 1999, 83-b.

noan’anaviy, interfaol metod, vosita va usullarini tatbiq etishga bo‘lgan intilishlari ortdi.

Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili fani o‘quvchilarni og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish, o‘z fikrini aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, fikr ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga – ta’lim samardorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Mazkur vazifani amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq eta olish, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullaridan foydalana olish, ilg‘or pedagogik tajribalardan foydalangan holda ona tili darslarini tashkil etish muhimdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini oson va qiziqib o‘rganish uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Tilshunoslikning “Morfologiya” bo‘limi hajm jihatidan ancha katta va murakkab bo‘lim hisoblanadi. O‘quvchilar bu bo‘limni 1-sinfdan boshlab ona tili darslarida o‘rgana boshlaydilar. Dastlab o‘quvchilar so‘z, uning ma’nosi, so‘roqlari bilan tanishadilar. Ot, uning ma’nosi, so‘roqlari, birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi, otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi, egalik qo‘shimchalarini olishi, sifat, uning ma’nosi va so‘roqlari, kishilik olmoshlari, fe’l, uning zamoni, so‘roqlari, bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda qo‘llanishi, fe’llarning tuslanishi, son, tartib sonlar haqidagi materiallar bilan tanishadilar.

So‘z turkumlari haqidagi bo‘lim o‘rganilayotganda **“Tarmoqlar” (klaster)** metodidan foydalanish mumkin. Bu metod o‘quvchilarni mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha va aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi. Masalan, 4-sinfda “So‘z turkumlari” mavzusi o‘tib bo‘lingandan so‘ng bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin. O‘qituvchi so‘z turkumlari, deb doskaga yozib qo‘yadi, o‘quvchilar esa birin-ketin so‘z turkumlarining nomlarini hamda ularga xos xususiyatlarni yozadilar. Bu o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini boyitish uchun zamin hozirlaydi.

“Bu so‘z bizniki” o‘yinini o‘tkazishda o‘qituvchi ko‘chma doska orqali ot so‘z turkumiga oid bir qancha so‘zlarni o‘quvchilarga tavsiya etadi. Shu so‘zlarni harsani nomini bildirgan so‘zlar va shaxsni nomini bildirgan so‘zlar deb ikki ustunga yozish topshiriladi. Qaysi guruh birinchi bajarsa, shu guruh o‘quvchilari rag‘batlantiriladi. Berilgan so‘zlar: *parta, shifokor, traktorchi, barg, g‘o‘za, qalam, o‘qituvchi, suvchi, bog‘bon, daftar, gul, gulchi, guldon va h.*

Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim metodi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, bilimlarni o‘zlashtirishga mas’uliyat va qiziqishni tarbiyalaydi. Bu metoddan “Fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi” mavzusini o‘rganishdan oldin foydalanish mumkin.

Buning uchun o‘qituvchi xattaxtani uch qismga bo‘ladi. Birinchi qismiga “Bilaman”, ikkinchi qismiga “Bilishni xohlayman”, uchunchi qismiga “Bilib oldim”

deb yozadi. Keyin o‘quvchilarga murojaat qilib, kim “Fe’l so‘z turkumi” haqida nima bilishini so‘raydi va o‘quvchilar fikrini birinchi ustunga yozadi. O‘qituvchi o‘quvchilardan “Fe’l so‘z turkumi” haqida yana nimalar bilishni xohlashlarini so‘raydi. O‘quvchilar bergan javoblarni xattaxtaning “Bilishni xohlayman” qismiga yozib qo‘yadi va “Fe’l so‘z turkumi” haqida oldindan yozilgan matnlarni o‘quvchilarga tarqatib chiqadi. O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqib, fikrlashga o‘tadilar. O‘qituvchi o‘quvchilardan “Fe’l so‘z turkumi” haqida yana nimalarni bilib olganliklarini so‘raydi va ularning fikrlarini jadvalning “Bilib oldim” qismiga yozib qo‘yadi.

Bilaman	**Bilishni xohlayman**	**Bilib oldim**
Shaxs va narsalarning harakatini bildiradi, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Harakat bildirgan so‘zlar gapda bosh bo‘lak vazifasida keladi. Harakatni bajarilganligini yoki bajarilmaganligini bildiradi. Ya’ni bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda ifodalaniladi. Fe’llarda uch zamon bor. Fe’l zamonlari nutq so‘zlab turgan vaqt (payt)ga nisbatan belgilanadi. -si, -gan, -yap, -moqchi, -moqda – zamon bildiruvchi qo‘shimchalardir.	-m, -man, -ng, -san, -di(-ti), -k, -miz, -ngiz, -siz, -di(lar) qo‘shimchalari qanday qo‘shimchalar ekanligi.	-m, -man, -ng, -san, -di(-ti), -k, -miz, -ngiz, -siz, -di(lar) qo‘shimchalari shaxs-son qo‘shimchalari. Ular harakatning uch shaxsdan biri tomonidan birlik va ko‘plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda ona tili darslarida bunday metodlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘tilgan mavzularni qanday o‘zlashtirganliklarini bilish, mustahkamlash va yangi bilimlarni oson o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Darsning qiziqarliligi va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchilarni darslarga faol ishtirok etishlariga imkon beradi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

ANTROPONIMLARNING ALLYUZIV NOM SIFATIDA QO‘LLANILISHI

Bobojonova Sitora,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU Lingvistika
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

O‘zbek tilshunosligida antroponomlarning lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasining nutq jarayonidagi o‘rni xususida bahs

yuritish lozimligiga e’tibor qaratdi. O‘zbek tilshunosligida antroponimlar, ularning lingvopoetik xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, tadqiqotchi D.Andaniyazova “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi” nomli tadqiqot ishida onomastik birliklarning matnda biror obyekt nomini atash bilan birga, yozuvchining badiiy niyatini ham ifodalashini, metafora, allyuziv nom sifatida bajaradigan vazifalari haqida so‘z yuritadi [D.Andaniyazova, 2017.]. Antroponimning pragmatik, kognitiv xususiyatlari hali tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida antroponimlar haqida qator tadqiqot olib borgan olim professor E. Begmatovning quyidagi ta’kidlari fikrimizning isbotidir: “O‘zbek onomastikasi materiallari (jumladan, o‘zbek antroponimlari yuzasidan ba’zi kuzatishlar istisno qilinsa) hozirga qadar tavsifiy usulda o‘rganilib kelindi. Endilikda antroponimlarni nazariy usullarda tadqiq qilish imkoniyati tug‘ilmoqda. Shunga ko‘ra o‘zbek antroponimlari antroposentrik, kognitologiya lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi lozim. Bunday tadqiq antroponomik materialga, nafaqat, lisoniy jihatdan, balki etnolingvistik, etnomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan ham yondashishni talab qiladi [E.Begmatov, 2013: 261]

Shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek antroponimikasi birliklari ham zamonaviy tahlil tamoyillari asosida o‘rganilishi lozim. Bunda o‘zbek lisoniy ongida saqlanuvchi pretsedent nomlarni tadqiq etish, nafaqat, tilimiz xususiyatlarini, balki xalqning milliy tafakkuri va psixologiyasi, milliy madaniyati, tarixi, urf- odatlari bilan aloqador jihatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Badiiy asarda qo‘llangan pretsedent nomlar, eng avvalo, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan semantik-stilistik komponentlardan biridir. Shu bilan birga, pretsedent nomlar qatnashgan matn o‘zida butunjahon yoki umummillat ilmi, adabiyoti, madaniyati va tarixiga doir axborotlarni saqlovchi kontekst vazifasini ham bajaradi. Bu, xususan, pretsedent nomlar matnda allyuziv nom sifatida qo‘llanganida voqe bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida matnning antoposentrik tadqiqini amalga oshirgan D.Xudoyberganova allyuziv nom yashirin mazmun ifodalovchi vosita ekanligini ta’kidlaydi. [D.Xudoyberganova, 2015: 137]

Shu kabi pretsedent nomlarni tadqiq etish o‘zbek lingvokulturologiyasiga xos jihatlarni yoritib berishda ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, pretsedent nomlarning muhim vazifalaridan biri bo‘lgan sinxron holat va qaysi lingvomadaniyatga mansubligi masalasi Muhammad Yusufning “Mehr qolur- muhabbat qolur” she’ri misolida ko‘rish mumkin:

Oqib ketdi suvlarda Tohir,
Zuhro yig‘lab qoldi qon bag‘ir
Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur- muhabbat qolur.

Ma’lumki pretsedent nomlar milliy va universal turlarga bo‘linadi. Shoirning ushbu bayti orqali o‘zbek millatining lingvokulturologiyasini ochib bergan, xalq o‘zaki ijodiga bog‘liq bo‘lgan hamda umumxalqqa tanish bo‘lgan “Tohir va Zuhra” dostoniga ishora tariqasida allyuziya yaratgan.

Pretsedent nomlarning yana bur funksional turlaridan biri bo‘lgan allyuziv nomlarga nomlar badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvokulturologiyada ular ikki semiotik maydonni o‘zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat muhim ahamiyat kasb etadi:

a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi:

b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi [D.Xudoyberganova, 2015: 18]. Ushbu fikrga dalil sifatida Muhammad Yusuf she’riyatining gultoji bo‘lgan “Vatanim” she’riga murojaat qilamiz:

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,-

Matndan o‘quvchi ko‘z o‘ngida shubhasiz tarixiy voqealarni gavdalantira olgan shoir ushbu misralari orqali Chingizxon zulmiga qarshi jang qilgan davrni yodga oladi. Bundan tashqari, allyuziv nomlar turli tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda yaratilgan matnlarga ham ihora qilib keladi. Shuning uchun ularni sof lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish bu hodisaning mohiyatini to‘liq yoritib berish imkonini bermaydi.

Pretsedent nomlarning yana bir o‘ziga xosligi shundaki, ular muayyan bir ramz, ya’ni timsolga ham ishora qiladi. She’riyatda an’anaviy ramzlarni qo‘llash orqali shoir allyuziyaning qanchalik ommaviyligi hamda o‘quvchiga tushunarli ekanligini birinchi planga qo‘yishi kerak. Shu jihatni hisobga olib Muhammad Yusuf ijodida namoyon bo‘lgan quyidagi she’riy baytni tahlil qilamiz:

Asli turkman qiz bir bahona, xolos,
Izlaganim edi sizlar kabilar,
Qo‘msaganim -hayo, momolarga xos,
Sog‘inganim edi Kumushbibilar...

Shoirning “Sodda Muhammadman” she’ridan olingan ushbu baytlarda qo‘llanilgan Kumushbibi allyuziv nom bo‘lib, iboli, andishali o‘zbek ayoli ramzi sifatida qabul qilinadi. Shoirning “Ey, dil” nomli she’rida quyidagi misralar bor:

Ko‘ksimda bir
She’r yig‘laydi,
Chingiz o‘tgan joylarda.
Tulpor izi toshga sizib,
So‘roqlaydi soylarda:
Qayda qoldi
Jaloloddin
Manguberdi, qaylarda?

Shoirning badiiy niyatini anglash uchun o‘quvchi Chingiz, unga qarshi chiqqan mard o‘g‘lon Jaloliddin Manguberdi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Keltirilgan nomlar badiiy matnda vertikal kontekstni yuzaga keltiradi hamda shoirning *Jaloliddindek mardlar qolmagan* degan xulosasini yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

Oy nurida xanjardek
Yaltiraydi maysalar.
Bobo Shiroq
Yelkasida
Qaltiraydi, nayzalar.

Bu matnda ham shoir tarixiy faktga, bosqinchilarga qarshi chiqqan Shiroq voqeasiga ishora qilish orqali matn shakllantirishda qo‘shimcha, verbal bo‘lmagan ma’lumot yuklashga erishgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, allyuziv nomlarning badiiy matnda qo‘llanilishi shoir va yozuvchidan mahorat talab qilsa, o‘quvchidan uni tushunish, ijodkorning maqsadini anglash uchun bilim talab qiladi. Agar bu ikki jihat bo‘lmasa, badiiy matnda qo‘llanilgan antroponimlar onomastik birlik sifatidagina anglanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2017.
2. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent, 2013.
3. Xudoyberganova D.O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori diss. – Toshkent, 2015.
4 Xudoyberganova D. Onomastik birliklarga lingvomadaniy yondashuv xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2015, 6-son 16-21-bet.

SHE’RIY ASARLARNING ESTETIK IMKONIYATLARI VA FONOPOETIK XUSUSIYATLARI

Boboyorov O‘rinboy
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi

Til millliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning mevalari va ma’naviy boyliklarini zamon va makonda abadiylashtiruvchi vosita hisoblanadi. “…bizning eng katta boyligimiz, – deydi muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir.Bu salohiyatni yaratish va yanada ko‘paytirishda hurmatli ziyolilarimiz-ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrli va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san’at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilganliklari va qilayotganliklarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz”.

Ma’lumki, she’riy matnlarda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘lganligi sababli nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Albatta, bunga tovushlarni estetik qo‘llash natijasida erishiladi. She’riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan, shuningdek, segment va supersegment birliklardan

foydalaniladi. Tovushlarni turli kombinatsiyalarda qo‘llash (fonetik xiazm) orqali ham poetik effekt hosil qilinadi. Nazmda unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so‘zlarning talaffuzi, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ham ekspressivlik ta’minlanadi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e’tiborni qaratish zarur. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. Tovushlarni uslubiy qo‘llash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda aynan ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Badiiy va she’riy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, orzu-istak, qo‘llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda mualliflar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. Mazkur hodisa filologik an’anaga ko‘ra ***geminatsiya*** atamasi bilan yuritiladi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da mazkur hodisa “qo‘sh undoshlik - ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi” sifatida izohlanadi. Tilimizning tarixiy fonetikasini yorituvchi ko‘pgina o‘quv qo‘llanmalarda bu hodisa “qo‘shoqlanish” yoki “ikkilangan undosh” deb yuritiladi: “qo‘shoqlanish”- undoshlarning cho‘zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o‘zgarishlar sirasida ko‘rib chiqish o‘ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo‘la olishi bilan fonetik o‘zgarishlarga o‘xshaydi. Qo‘shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan k, q, t, l tovushlarida va ba’zi bir sanoq sonlarini nomlashda sodir bo‘ladi. Bu sonorlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo‘lgan. “Boburnoma” asarida, Gulxaniy va Munis asarlarida “bir toqquz”, “toqquz” sonlari qo‘llangan, bu narsaning to‘qqiztalik songa ega ma’nosini anglatgan. Elik (ellik) soni tarkibida -l undoshi dastlab ikkilanmagan, keyinchalik geminatsiyaga uchrab tashdid orqali ifodalangan. “Boburnoma”da hindcha kjrur (o‘n million), arb (bir milliard), kjrb (yuz milliard), nayl (o‘n trillion) kabi sonlar uchraydi.Shuningdek, qattiq, katta, latta, yakka, salla, yalla, chakki, ukki kabi so‘zlardagi ikkinchi t, l, k tovushlari tarixan morfologik ko‘rsatkich bo‘lib, ulardagi qo‘shoqlanish singish, moslashish (adaptatsiya) natijasidir degan fikr mavjud. A.Abdullayev esa “undoshlarni qavatlash” atamasini ishlatgan. Undoshlarni qavatlab qo‘llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan,

Buncha ko‘p ko‘p oshiqu ovvoralaring,
Faqat taskin berar favvoralaring.
Ular bari yaqin ko‘ngillarimga,
Ular o‘xshar opa- singillarimga

Sirojiddin Sayyidning “Toshkentga bag‘ishlovlar” she’ridan olingan bu misralarda “ovvoralaring” so‘zidagi v undoshining takrori bir tomondan belgining me’yordan ortiqligi ma’nosini ifodalasa, ikkinchi tomondan ikkinchi misradagi “favvoralaring” so‘ziga ohangdoshligini ta’minlash uchun xizmat qilgan.

Tilning asalidan qorilgan rozmi?
Lablar shakkaridan yaralgan rozmi?
Yana qaydin topgum bunday
ovozni Olamni aylansam
charxpalak kabi?

Ushbu parchada esa keltirilgan “shakkar” so‘zidagi k undoshi ham qavatlangan bo‘lib, u ham badiiylikni ta’minlash uchun, ya’ni ma’noni bo‘rttirish, kuchaytirish, takidlash uchun xizmat qilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo‘llab bo‘lmaganidek, so‘zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lavermaydi. Sirojiddin Sayyidning quyidagi misralarida “tenglikka”(tenglik+ga), ”tinchlikka” (tinchlik+ga) so‘zlaridagi k tovushining qavatlanishi grammatik me’yor hisoblanadi, ya’ni jo‘nalish kelishigi shakli oxiri k bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilishi natijasida jarangsiz talaffuz qilingan va fonetik me’yorga ko‘ra shundayligicha yozilgan:

Barcha bilan bir bo‘ling, bepoyon taqdir bo‘ling,
Xalq uchun faqir bo‘ling,
Tenglikka yordam bering!
Kunduzdan hayratlaning, yulduzdan hayratlaning
Urushdan nafratlaning,
Tinchlikka yordam bering!

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “Birinchi muhabbatim” she’rida esa gradatsiya uslubiy vosita sifatida betakror o‘rin tutgan.

Nido bergin qaydasan? Sharpangga quloq tutdim.
Sirli tushlar ko 'rib men, bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim.
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim!

She’riy asarlarning estetik imkoniyatlari va fonopoetik xususiyatlarini to‘laqonli yoritishda alliteratsiya ham muhim o‘rin egallaydi.Chunki,badiiy nutqning jozibasini, ohangdorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda alliteratsiyaning o‘rni beqiyosdir. Mirtemir “El-u yurt maqtovi” she’rida “m”tovushi takrori bilan bog‘liq quyidagi soda, ammo ta’sirchan, mazmunli misralar yaratgan:

Saratonim, sovurim, chillam,
Bog‘-u rog‘im, tutzorim,tillam.
Qo‘rg‘oshinim, tagi mo‘l, tillam,
Ipagimsan, qorako‘limsan.

Shunga o‘xshash takrorni Hamid Olimjon she’riyatida ham ko‘p uchratamiz.

Yuvib, tarab, sevib, o‘pib, quchib, opichlab,
Ey baxtlarni balog‘atga yetkazgan ona!
Yozilib, yetilib, to‘lib yotadur,
Yoppasiga yangi kunga erishgan Quva!

Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo‘llanilib kelingan. Ko‘hna badiiyatshunoslik («ilmi bade’»)da alliteratsiya «tavzi’ san’ati» deb yuritilgan. Nutq tovushlari sistemasida ekspressivlikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning imkoniyati katta ekanligi ham ta’kidlanmoqda. Biroq badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta’sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning o‘rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganligini ham alohida qayd etish lozim. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar yuzasidan jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borgan N.Rahmonov o‘zining “Kultegin yodnomasining poetikasi” nomli asarida alliteratsiya Kultegin yodnomasida ham badiiylikni ta’minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligini alohida ta’kidlagan. Badiiy matnda tovushlarning xilma xil kutilmagan kombinatsiyalari ham petik aktuallashishi mumkin. Bunda tasvir o‘ziga xos yangilik, ohorlilik va ohangdorlik kasb etadi, matn komponentlarining zich ham mazmuniy, ham shakliy integrativligi badiiy matnning estetik butunlik sifatidagi mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Kuyi ishqida, qarangkim,
andalib bo‘ldi ko‘ngil.
Andalib bo‘ldi ko‘ngil,
ham aldanib bo‘ldi ko‘ngil.

Mazkur parchada shoir andalib (bulbul) va aldanib so‘zlarini betakror mahorat bilan qo‘llagan, ularda n va l tovushlarining almashinuvi asosida poetik aktuallashuv juda kuchlidir. Yorning oshiqqa vafo qilmasligi, uni hamisha kuydirishi, uning aldashining gul va bulbul obrazlari orqali tasvirlanishi badiiy adabiyotdagi ancha eski an’anadir, ammo bu o‘rinda andalib va aldanib tarzidagi tamoman o‘ziga xos bir qarshilantirish betakror oxorlilik kasb etganki, fonetik vositalarning poetik aktuallashuvi bois mazkur eski obrazlar yangilanganday bo‘lgan. Shuningdek, mazkur so‘zlarning aloqalantirilishi natijasida fonetik xiazm yuzaga kelgan.Masalan:

Taxtani taxtadan tejab, tarashlab,
Paxtani paxtaga qo‘shib yashaymiz.
Zimdan mehrimizni o‘lchab, qarichlab,
Sirtdan daryolarday jo‘shib yashaymiz.

Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional - ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan.

Bir gul ko‘rdim naqshi nigor shaklinda,
Kamzullari bog‘u bahor shaklinda,
Qaro ko‘zi laylu nahor shaklinda,
Ikki zulfi mor, ajdahor shaklinda,
Bul ikkisi tun kun bedor shaklinda.

Ushbu parchada assonans qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she’riy nutqqa ko‘tarinki ruh va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etgan.

She’riy asarlarda yuqorida sanab o’tilgan tasvir vositalari fikrni lo‘nda va

ixcham ifodalash, tasvirni yanada teranlashtirish, ta’kidni kuchaytirish, kitobxon diqqatini jalb etish kabi turli maqsadlarda qo‘llanilshi nazmning fonopoetik imkoniyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. - T.: O‘qituvchi, 2002.
3. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ.-Тошкент: Фан,1978.
4. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. -T.: Oqitvchi, 1995.
5. Тўхтасинова О.Ю. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари.Ф.ф.н. автореф. -Т., 2007
6. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. -Тошкент: Фан, 2005.
7. Сирожиддин Саййид. Ватан абадий. -Тошкент: Шарк, 2001.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA *UCHUN* KO‘MAKCHISINING TAHLILI

Qahramonova Sevara,
Navoiy davlat pedagogika instituti
3-bosqich talabasi

Ma’lumki, yordamchi so‘z turkumlaridan biri ko‘makchi mustaqil so‘zlar o‘rtasidagi tobe munosabatni ifodalash va kelishik ma’nosini aniqlashtirish, to‘ldirish, ular orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning tarixiy taraqqiyoti o‘rganilgandagina uning tub mohiyati ochiladi. Tarixiy manbalarga nazar tashlasak, ko‘makchilar leksik jihatdan ma’no anglatgan bo‘lsa-da, bugungi tilshunoslikda o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ifodalanib, Grammatik ma’no hosil qiladi. Boshqa turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tilida ko‘makchilar semantik jihatdan biror kelishikdagi so‘z bilan aloqador bo‘lgani uchun ko‘makchilarning qaysi kelishikni boshqarib kelishi, ya’ni sintaktik tomoni hisobga olinishi kerak.[29]

Bilan, uchun, kabi, sari, singari kabi ko‘makchilar ma’no jihatdan bir xil emas, ammo vazifaviy jihatdan kelishik qo‘shimchalariga juda yaqin turadi. Shu jihati bilan ularni kelishiklar bilan almashtirib qo‘llasa ham bo‘ladi.Ya’ni nutq jarayonida o‘rni kelganda ko‘makchilardan, o‘rni kelganda ularning gap qurilmasidagi sinonimlari –kelishiklardan foydalanishimiz mumkin. Lekin, shunday o‘rinlar borki, ularning o‘rnida kelishik yoki unga teng keladigan boshqa so‘zlarni qo‘llash kontekstning butunlay boshqa ma’no kasb etishiga sabab bo‘ladi.

[29] O‘zbek tili grammatikasi. I tom. – Toshkent: Akademik nashr, *1975*

Ayniqsa, badiiy matn tahlilida yozuvchining qaysi maqsadda ko‘makchilardan foydalanganligi va aytilayotgan fikrning qay darajada yuzaga chiqishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Sof ko‘makchilardan eng sermahsuli uchun ko‘makchisidir. Bu ko‘makchining tarixiy shakliga nazar tashlasak, morfologik tarkibiga ko‘ra ikki qismga bo‘linadi: *uch* –ot , *un* –vosita kelishigining ko‘makchisi. *Uch* esa ikki xil ma’no anglatgan: 1) predmetning eng yuqori qismi; 2) sabab. Bu ko‘makchining arxaik hisoblangan shakli, ya’ni *chun* badiiy adabiyotda, ayniqsa, nazmda keng qo‘llanib kelinmoqda. Uchun ko‘makchisi sabab, maqsad, atalganlik, evaz, obyekt kabi besh xil semantikani ifodalaydi va ifodalanayotgan obrazga yanada aniqlik, ta’sirchanlik kabi hissiy emotsiyalarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ulug‘bek Hamdamning “ Ota ” romanidagi bir qancha obrazlar orqali uchun ko‘makchisining qo‘llanishi va vazifalarini ko‘rishimiz mumkin.

Bilganimiz shuki, birga bo‘lishimiz shart, tamom! Bilganimiz ***uchun*** *ham qishlog‘imizning chetiga –ovloq shu joyga ko‘chib olganmiz. Onangni ko‘zim qiymagani* ***uchun*** *ham shunday qilganman.* Ushbu gapda *uchun* ko‘makchisi sabab ma’nosini ifodalashga xizmat qilyapti.

Nega birovlar urush qilsa, men unga qo‘shilib ketdim? Vatan ***uchun****mi? Nima degani o‘zi Vatan? Nega men uning* ***uchun*** *jonimni qurbon qilishim kerak? Men, Nikita, anavi uchovlon nima* ***uchun*** *o‘lib ketayapmiz o‘zi? Yana o‘sha Vatan* ***uchun****mi? Shu hammadan qoladigan yer, suv, ko‘k* ***uchun****mi? Biz kim* ***uchun*** *jang qilyapmiz unda? Bizga xiyonat qilgan xotinlar* ***uchun****mi? Bizni ayollarimizni qo‘yniga kirayotgan, dordan qochgan iblislar* ***uchun****mi?* Ushbu parchada *kim uchun, nima uchun* birliklarida so‘roq olmoshidan keyin kelib, noaniq sababni ifodalovchi so‘z hosil qilsa, *vatan uchunmi, yer, suv ko‘k uchunmi, xotinlar uchunmi, iblislar uchunmi* birliklarida esa otlardan keyin kelib, atalganlik, belgilash, mo‘ljallash kabi semalarni ifodalagan. Bundan tashqari, uchun ko‘makchisi qaratqich kelishigidagi olmoshdan so‘ng kelsa, atash ma’nosini yanada kuchaytirib, ajratib ko‘rsatadi. Yuqoridagi parchada ko‘makchilarning takroran qo‘llanishi va so‘roq gap mazmunida ekanligi matn ta’sirchanligini, emotsional bo‘yoqdorligini yanada oshirgan.

Hozirgi o‘zbek tilida maqsad ma’nosini ifodalashda *uchun ko‘makchisi* keng qo‘llanadi. *-gani* affiksi yordamida yasaluvchi ravishdosh maqsad ma’nosini ifodalaganda bu ko‘makchi bilan birga qo‘llanadi. Ushbu konstruksiyani boshqa affiks bilan almashtirib bo‘lmaydi yoki almashtirilsa, so‘zlovchi nutqida sun’iylik seziladi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘ramiz:

O‘tkir aka va Oychechak opalarning to‘ng‘ich farzandi ham, o‘rtanchasi ham, kenjasi ham bitta ***bo‘lgani uchun*** *ular bu ismga butun borliqlarini jo qilib aytishardi.*

Erboy otaga o‘xshab kelgani ham o‘z dardi bilan keldi, oyog‘i fo‘rga yaqinlashib ***qolgani uchun*** *oxiratini o‘ylab keldi.*

Uchun ko‘makchisi *-gina, -dir* affikslarini olishi mumkin. Masalan: *Ehtimol, aynan shu yerda ortiqcha to‘shak, yostiq taxlanib qo‘yilgani* ***uchundir,*** *nima bo‘lganda ham kiyim javonlarining ichini ag‘dar-to‘ntar qilgan qilgan Yog‘du negadir u bilan devor o‘rtasiga tiqilibb turan bittagina yostiq tagini ochib ko‘rmadi.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, *uchun* ko‘makchisi yordamchi so‘z turkumlari tarkibidagi eng faol ko‘makchilardan biridir, *uchun* ko‘makchisi orqali aytilayotgan fikrning sababi, maqsadi va atalganlik semalari anglashiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *O`zbek tili grammatikasi*. I tom. – Toshkent, «Akademiknashr», *1975*
2. Rustamov T. Sof ko‘makchilar. – Toshkent, 1991
3. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010
4. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – Toshkent, 2020

NE’MAT ARSLONNING “ASHIRIT” NOVELLASIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA BADIIY TO‘QIMALAR HAQIDA

Shermatova Gulnora Ikrom qizi,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi gulnoraikrom@gmail.com

Modern adabiyotda yaratilgan jamiki asarlar inson dunyoqarashiga boshqa janrlarga qaraganda kuchliroq ta’sir qilib, asarda yuz beradigan keskin vaziyatlar, kechinmalar, nafrat yoki samimiy hislar beixtiyor mutolaa qilayotgan ruhiyatiga ko‘chadi. U dunyoni teran anglash, “dunyoni ramziy tafakkur qilish” ham demakdir. Shu sababli ham ijodkor asarda ramziylik vositasi sifatida badiiy to‘qima obrazlarga murojaat etadi. Lekin bu to‘qima obrazlar ortida butun insoniyatga daxldor haqiqatlar yashirin. Bu to‘g‘rida P.Qodirovning ushbu so‘zlari o‘rinli: “Menimcha, haqiqiy badiiy to‘qima qalbaki to‘qilgan puch narsadan, puch to‘qilgan narsaning asosiy farqi shuki, birinchisining mag‘zida kitobxonga yuqadigan haqiqiy tuyg‘ular mavj urib turadi, samimiy his bilan yo‘g‘rilgan yangi bir fikr muhim bir g‘oya o‘quvchini to‘lqinlantiradi, unga badiiy ixtiroday tuyulib, zavq beradi. Sun’iy to‘qima “suvdan yasalgan halvo” ga o‘xshab sal-pal ko‘pirib turishi mumkin, Ammo ko‘p o‘tmay tagidan “suvi” chiqadi-yu siri fosh bo‘ladi”[30]. Biz yozuvchi N. Arslonning qay bir asarini olmaylik soxtalikdan yiroq badiiy to‘qimalarni ko‘ramiz. Uning “Ashirit”nomli hikoyasi - umuman hamma davrlarda bo‘lagni kabi odamlar uchun “qimmatbaho”, aslida tabiatning bir bo‘lagi bo‘lgan oddiy toshlar haqida hikoya qiluvchi uchbu novellasida sharq va g‘arb adabiyotining uyg‘unlashtirilganiga guvoh bo‘lamiz[31].

Bilamizki, badiiy asardagi voqealar rivoji ma’lum bir vaqt va makonda kechadi, ushbu novellada syujet vaqti taxminan XVIII-XIX asarlarga to‘g‘ri kelib, real vaqtdan badiiy vaqt farq qiladi. Sababi asar qachon o‘qilmasin, huddi bugun, ayni vaqtda sodir bo‘layotgandek o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalandi. Asarning ekspozitsiya qismi Kyonigsberg (hozirgi Kaliningrad, 1946-yil 4-iyulgacha

[30] Pirimqul Qodirov. Xalq tili va realistik proza, 74-bet
[31] Ne’mat Arslon. “Ashirit”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2017-yil, 7-son, 101-109-betlar

Kenigsberg) da yashovchi Aglaida Gerder ismli ayoldan Parijda yashovchi ismi Adeilina (xatda Syuzi) ga yo‘llangan xat bilan boshlanadi. “Kyonigsberg guvranib yotibdi. Hammaning og‘zida bitta so‘z takrorlanadi: “Ashirit!”, “Ashirit!”. Bu mo‘jizaviy bir tosh. O‘zi zumradday yashil yoki ko‘k. Ichi ko‘rinadi... Uni Buxoro degan allaqanday mamlakatdan bir kishi olib kelgan… Shu Ashurboy degani Parij orqali Madridga o‘tmoqchi. Eskurialni ko‘rish niyatida emish. Menimcha, Parij uni osonlikcha qo‘yvormaydi! Qisqasi, quruq qolma, hech bo‘lmaganda birorta uzugini qo‘lga kirit. Bu qanday natijaga olib kelishini keyin o‘zing ko‘rasan” degan mazmundagi maktubdanoq muallif o‘quvchiga asar voqealarining asosiy qismi Fransiya o‘lkasida bo‘lishi, qimmatbaho “Ashirit” toshi va u bilan bog‘liq ekanligi haqida tasavvur uyg‘otadi. Novelladagi Syuzi –Agleida, Adelina, Beranje xonim, “… Parij zodagonlari orasida ham “Ashirboy”, degan savdogar va juda qimmatbaho “Ashirit” obraz va ramziy timsollari oddiy obrazdan badiiylikka ko‘chgan obrazlardir. Ularda jamiyatga xos bo‘lgan xarakter, xususiyat jamlangan.

Muallif asarda juda ko‘p badiiy detal va shtrixlardan foydalanadi. Bu detallar unchalik ahamiyatli, muhum ko‘rinmasligi mumkin, lekin obrazlar harakterini ochishda muhum ro‘l o‘ynaydi. Masalan, asarda aytilganidek “shaffoflanuvchi yoki o‘zidan nur taratuvchi madanlar nafaqat inson kayfiyatiga, sog‘lig‘iga va uning ruhiyatiga g‘oyibona ta’sir ko‘rsatadi, balki hayotining tubdan o‘zgarib ketishiga ham sabab bo‘lishidan bashorat qiluvchi aqidalar ham bor”[32]. Agar ming yillik tarixga nazar solsak, hozir ham ayrim jism, buyumlarga sig‘inish – Fetishizm (tabiatdagi jonsiz narsalarga sig‘inish) hamon ko‘zga tashlanadi. Ma’lumot o‘rnida alohida buyumlarda o‘z maqsadiga erishtirish, ma’lum voqea-hodisalarni o‘zgartirish qudrati mavjud. Fetishizm yog‘och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo‘lishi bilan bir paytda shakllangan. Fetishizmning unsurlari – haykallar, suratlar, tumor, ko‘zmunchoq va turli ramzlarni ilohiylashtirish hozirgi davrda ham ayrim xalqlarning urf-odat va e’tiqodida saqlanib qolgan. Bugun ham jamiyatda attorlik do‘konlaridan “balo-qazodan asrovchi”, “yomon nigohdan asrovchi”, “baxt keltiruvchi”, “omad toshi” kabi toshlarni sotib olishadi. Qaysidir ma’noda ularning kuchiga ishonishadi.

Asar syujeti davomida ham tosh haqida turli taxminlar yuritiladi. Masalan, тoshni “Ko‘hinur toshi emasmikin” degan fikr bildirgan turkolog qiz Eloiza yoki buxorolik savdogar Ashurboyning o‘zi ham nutq so‘zlaganda bu toshni “…Biz o‘zbeklar “Kohinur” deb biroz ulug‘lab va biroz noto‘g‘ririoq ataganmiz” kabilar asarning tuguni hisoblanadi[33]. Lekin barcha fikrlarga qarshi ravishda savdogar Ashurboy uni “dioptaz”- ich-ichigacha ko‘ryapman” degan fikrni aytadi. Manbalarda ham aslida bu tosh mavjud. Ya’ni, Ashirit, mis zumradi —dioptazning eski nomi (qadimgi. Dioptaz)[34]. Ashirit Markaziy Kozog‘istondagi Oltintepa koni yonidan topilgan. Bu mineralning 1785-yilda katta kristallini topib kelgan buxorolik savdogar Ashir Muhammadning nomiga qo‘yilgan. Demak asar hayotda mavjud real voqeani ijodkor tomonidan badiiylashtirilgan. Asardagi falsafiy, ijtimoiy ruh,

[32] Ne’mat Arslon. “Ashirit”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2017-yil, 7-son, 108-bet
[33] Ne’mat Arslon. “Ashirit”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2017-yil, 7-son, 110-bet
[34] Dioptaz. www.Wiki.sunlight.net

metaforaning turli ko‘rinishlari, frazeologik birliklar, ibora va maqollar orqali ochib berilgan. Xususan, asar ekspozitsiya qismida Kyonigsberg shahriga nisbatan “**guvranmoq**” so‘zi qo‘llanilgan. Asl ma’nosi “noaniq, tushunib bo‘lmaydigan ovoz chiqarmoq, noaniq gapirmoq, g‘o‘ldiramoq”[35]. Demak asarning ma’nosini yanada kuchliroq ifodalash uchun shaharning odamlari ovozi va tabiatiga xos o‘xshatishdan foydalanilgan. “**Dardi harina” - asarda taqinchoqlarga nisabatan ishlatilgan ushbu ibora ma’nosi** “ketmaydigan, kishiga yopishib olgan dard, (*ko‘chma)* qutulib bo‘lmaydigan kulfat, azob. Ushbu so‘z Adelina tomonidan aytilgan bo‘lib, taqunchoqlariga nisabtan qo‘llanilgan.

“Tilla topgan tentakday” – juda xursand – bu ibora turkolog qiz Eloiza holati haqida.

“Tilini og‘zida yetti marta aylantirib oladigan” – o‘ylab gapiaradigan kishi. Bu Ashurboyga nisabatan keltirilgan sifathisoblanadi.

Shuningdek, asarda ba’zi muqaddas maskanlar tilga olinadi va o‘quvchiga ham sirli bo‘lgan ma’lumotlarni keltiradi. “**Bibi Fotima qabrlari” ga** nisbatan – “Dunyoga o‘n ikki nafar imomni bergan ayol qabri, **“Sitorai Mohi Xosa”** – “Yulduzlar va oyga monand” yoki qadimiy Afshona qishlog‘i haqidagi satrlarni ko‘rishimiz mumkin.

Asar voqealari ketma-ketligini kuzatgan kishi, uning xalqchil ekanligini, folklor namunalaridan foydalanganini guvohi bo‘ladi. Masalan asarda hammamizga tanish ushbu“Yetti o‘lchab bir kesadigan”, maqoli ham keltirilgan. Bu maqol mulohaza qilib yashaydigan Adelinaga nisbatan qo‘llanilgan. Muallif maqol orqali o‘zbek xalq ruhini, falsafasini asarda qamrab olishga intilgan.

Asarda qisman realistik va majoziy (simvolik) obrazlarga murojaat qilingan. Bundan tashqari asarning xulosa qismida yozuvchi biroz lirik cheknish qilib, o‘z kechinmalarini yanada yorqinroq ifodalashga harakat qiladi.

Mo‘liyon suvin hidi kelganda alhol,

Mehribon yor yodini qo‘msaydi xayol[36].

Asarda Ashirboyning “o‘zi tarjima qilgan” deb keltirilgan ushbu parcha Rudakiy qalamiga mansub bo‘lib, Buxorodagi Mo‘lyon arig‘i haqida. Ashirboy sirli tosh – Ashiritda shu ariqni ko‘radi.

Asar ortiqcha unsurlardan holi, muallif ruhiy holatining chizgilari mahsuli bo‘lib, asar haqiqiy fenomenal hodisa sanaladi. Muallif asar tendensiyasini chuqur anglaydi va voqealarga xolis inson sifatida o‘z qarashlari bilan birgalikda haqiqiy – o‘ziga xos asarga aylantirgan. Muallif asar syujetida voqealarning birmuncha avvalroq ro‘y berganini tasvirlab, retrospektiv vaqtdan foydalangan. Xulosa qilib aytganda, muallif asar kompozitsiyasi va syujetini mahorat bilan, hayot haqiqatlarini jo qilgan holda har davrda ham o‘qishli bo‘lgan asarni yarata olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.academic.ru Fetishizm.

[35] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom, 514-bet

[36] Ne’mat Arslon. “Ashirit”. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2017-yil, 7-son, 107-bet

2. www.Wiki.sunlight.net
3. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: “Фан”. 1974. –126 б.
4. Неъмат Арслон. “Аширит” // “Жаҳон адабиёти” журнали, 2017 йил, 7-сон.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1 том. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2020. – 680 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4 том. Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2020. – 608 б.

3-SHO‘BA. O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA TIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

O‘ZBEK TILIDA LEKSIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI1

Munira Shodmonova
ToshDO‘TAU O‘zbek tili kafedrasi
katta o‘qituvchisi (PhD)

Talabalar nutqining go‘zalligi, izchilligi, ta’sirchanligi asosan ularning lug‘at boyligi bilan bog‘liq. Boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilar o‘rganadigan so‘zlar lug‘ati kengaytirilib boriladi. Bunda bir qator xususiyatlar e’tiborga olinadi. Xususan:

— so‘zlarning amaliy ahamiyati, ya’ni butun ta’lim jarayoni uchun ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar;

— so‘zlarning amaliyotda qo‘llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo‘llanishi;

— so‘z ma’nosining to‘la tushunilishi, o‘rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

Shu o‘rinda soddadan murakkkablik darajasi bo‘yicha ayrimmahsqlar tizimini ko‘rib chiqamiz.

So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosini o‘rganish usullari mavzusini o‘rganish jarayonini tahlil qilib ko‘ramiz:

Topshiriq: quyidagi gaplarni o‘qing. O‘z va ko‘chma ma’noda kelgan so‘zlarni ajrating.

Me’mornikida bir yorqin yulduz
o‘syapti. U yulduz — Badia.
(Mirmuhsin)
Hovlimizda bir gul bor,
Uning ismi — Zulxumor
(A.Suyun)

Havo ochiq. Yulduzlar yorqin nur sochadi.
(Mirmuhsin)

Har o‘zbekning hovlisini
Gilam kabi gul bezar.

I-topshiriq. Berilgan gaplardagi gul, yulduz so‘zlarining ma’nolarini aniqlang.

Namuna: 1-ustunda berilgan gaplardagi yulduz, gul so‘zlari qiz, farzand ma’nosini beradigan ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. 2-ustundagi mazkur so‘zlar esa o‘z ma’nosida qo‘llangan. Demak, bir xil shakldagi so‘zlar ikkinchi tur ma’noda ham qo‘llaniladi va mazkur holat so‘zning ko‘chma ma’nosi deb yuritiladi.

2-topshiriq. Gapdagi gul va yulduz so‘zlarining uyadoshlarini toping.

Namuna: gul — atirgul, chinnigul, gulsafsar, bo‘tako‘z; gul-qiz, farzand, ona, ayol. singil; yulduz – sayyora. Yer, Oy, Quyosh, Mars, Yupiter, Neptun, Yulduz – qiz, go‘zal qiz, tarbivali, aqlli, ilmli qiz...v.h. Bu kabi o‘yin-topshiriqlar

o‘quvchilardagi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, mustaqil mushohada malakasini chuqurlashtirishga, so‘z boyligini oshirish va boyitishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Izchil kurs”ni o‘rganishda — o‘z va ko‘chma ma’noli so‘zlar orasidagi ma’noviy munosabatlar, ma’no guruhlari (uyadosh, ma’nodosh, zid ma’noli so‘zlar kabi)ning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi ustida ishlash, til sathlarini bog‘lab o‘rganish orqali lug‘at xazinasini oshirish va boyitishga imkon beradi.

So‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari. Tilimizda ayrim so‘zlar o‘zlariga xos xususiyatlariga ko‘ra ma’noviy, shakliy, ma’no jihatdan o‘xshash yoki zidlanishni bildiradi. Shunga ko‘ra ular shakldosh, ma’nodosh. zid ma’noli va paronim so‘zlar kabi guruhlarga boiinadi. So‘z ustida ishlash jarayoni murakkab va ko‘p qirrali. Ta’lim jarayonida shunga erishish lozimki, o‘quvchi yangi va notanish so‘zga e’tiborsiz bo‘lmasin. Uning ma’nosini anglashga. zarur paytlarda o‘z nutqida qo‘llashga harakat qiladigan bo‘lsin.

Ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) ustida ishlash usullari. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sinonimiya hodisalari va uning nutqiy amaliyotini o‘rganish uchun maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim amaliyotida xilma-xil shakl va usullar mavjud. Ularning orasida eng keng tarqalganlaridan biri sinonim so‘zlar qatorini hosil qilishdir. Buni o‘quvchi va talabalar mustaqil ravishda bajarishadi. O‘quvchining dunyoqarashi, tasavvur doirasi, tayyorgarlik darajasiga qarab, bu qatorlar ancha mukammal yoki ixcham bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar sinonimik qatorlami tuzish jarayonida yangi so‘zlami o‘z lug‘at bovliklari sirasiga kiritadilar. Shu bilan birga, hozirgacha nisbatan kam ishlatiladigan so‘zlarning faollashishiga ham zamin yaratiladi. Bu xildagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va takomillashtirish uchun berilgan so‘zlarga sinonimlarni tanlash; tegishli matndan, darslikdagi mashqlar yoki badiiy asarlardan sinonim so‘zlarni ajratib yozish; sinonim so‘zlar asosida saylanma diktant o‘tkazish; har bir sinonim so‘zning ma’no nozikliklarini izohlash kabi mashqlar bajarilishi mumkin.

Eng oxirgi turkumdagi vazifalar talabalarning yangi so‘zlarni o‘rganishlari va o‘zlashtirishlarida eng ko‘p darajada yordam beradi. Bu jarayondagi mashqlarning turlari juda rang-barang bo‘lishi mumkin. Ular orasida sinonimik qatordagi barcha so‘zlar uchun umumiy bo‘lgan ma’noni topish asosiy o‘rin tutadi. Masalan, jahl, achchiq, g‘azab, qahr. zarda so‘zlarini ko‘raylik. Bularning hammasini birlashtirib turadigan bosh ma’no nojo‘ya xatti-harakat yoki hodisaga nisbatan qo‘zg‘algan kuchli darajadagi his-tuyg‘u va uning ifodasidir.

Mazkur so‘zning ma’nolarini aniqlashda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanish mumkin: achchiq — qahr. jahl; zarda. zarda — ko‘chma: jahl, g‘azab, zug‘um. qahr — qattiq achchiqlanish holati; g‘azab. g‘azab — kuchli darajada nafratlanish, achchiqlanish hissi, qahr, jahl. Keyingi bosqichda shu qatordan barcha so‘zlar uchun umumiy bo‘lganlarini (jahl. achchiq), ulardan belgining darajasi nisbatan kuchli va yuqori bo‘lganlarini (g‘azab, qahr) ajratish mumkin bo‘ladi. Ushbu qatordagi so‘zlarni ma’noning kuchayib borishi yoki pasayib borishi yo‘nalishida joylashtirib chiqish ham topshiriq sifatida yaxshi samara beradi. Bunda ham o‘quvchilar so‘z ma’nolari ustida bosh qotirishadi, natijada, mazkur so‘zlarning ular ongida mustahkamlanib, nutqlarida faollashib qolishiga imkon yaratiladi.

Sinonimlar ustidagi ish jarayonida o‘quvchilar so‘zlarning faol yoki passiv darajadagi iste’molini ("barvasta” oddiy nutqda juda kam ishlatiladi, “gavdali” esa juda faol qo‘llanadi), ularning muayyan yo‘nalishdagi chegaralanishini (“norg‘ul” asosan yosh yigit kishilargagina nisbatan qo‘llanadi), ayrim hollarda ularning emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lishini (“barzangi” asosan salbiy m a’no tashiydi) anglab yetishadi. Bu sinonimlarni nutq jarayonida qo‘llash orqali ham o‘quvchilaming sinonim so‘zlarga bog‘liq bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari bor. Ular nutq jarayonida bir so‘zning o‘rniga boshqasini qo‘llab bo‘lmasligini, bordi-yu, qo‘llanganda ham u yerdagi ma’noning boshqacha noziklik bilan yuzaga chiqishini amaliy jihatdan sezib olishadi, ko‘rishadi. Sinonimlar ustidagi ishlar o‘quvchilar nutq bovligini oshiradi, ularning bitta ma’noni ifodalashdagi ortiqcha takroriylikdan qutulishlariga imkon beradi, fikrni nisbatan aniq, lo‘nda va tiniq ifodaJashga o‘rgatadi. Shunig uchun ham bu jarayonda badiiy adabiyotlarga ko‘proq murojaat etish, o‘quvchilarning bevosita izohli lug‘atlar ustida ishlashlarini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

So‘zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlari ustida ishlashda ma’nodosh so‘zlar guruhlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’nodosh so‘zlar — tilimizning leksik boyligi. Undan qancha o‘rinli foydalanilsa, fikrni ravon, go‘zal ifodalash imkoniyatlari shuncha kengayadi. so‘zdan to‘g‘ri va samarali foydalanish malakalari shakllanadi. Og‘zaki hamda yozma nutqni m a’nodosh so‘zlar bilan boyitishda so‘zlarni quyidagi leksik ma’no guruhlariga ajratish usullaridan foydalanish mumkin.

1. Istamoq, kengashmoq, so‘ram oq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, fikrlashmoq, orzu qilmoq, sog‘inmoq, ko‘rishmoq, omonlashmoq, ahdlashmoq. salom-alik qilmoq kabi ma’nodosh so‘zlarni leksik ma’no guruhlariga ajrating.

2. Ma’nodosh so‘zlarni ma’lum bir belgining oshib yoki kamayib borishi (so‘zning ma’no darajalari) bo‘yicha tartib bilan joylashtiring:

Namuna:

– hujra, xona, kulba, uy, koshona, saroy, qasr, qal’a;

– tuzuk, durust, yaxshi, ajoyib, a’lo...

Yoshlarni mustaqil fikrlashga, leksik m a'no belgilarini farqlashga yo‘naltiradigan bunday topshiriqlarni bajarish gapda so‘zning o‘rnini aniqlashni osonlashtiradi, undan sharoitga mos ravishda foydalanish imkoniyatini varatadi.

Ma’nodosh so‘zlar ustida ishlashning shakl va usullari nihoyatda xilma-xil. Ularning eng keng tarqalganlarini talabalarga eslatish, mavzuga oid ijodiy va mustaqil ishlar bajarish, nazorat testlari tuzish va ularni guruh oldida himoya qilish o‘ta foydali o‘quv topshiriqlaridan hisoblanadi. Bunday ijodiy-amaliy ishlar, og‘zaki nutqni ma’nodosh va uyadosh so‘zlar bilan boyitishda muhim o‘rin egallaydi.

O‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda zid ma’noli so‘zlar ustida ishlash ham katta ahamiyatga ega. Ular nutqqa alohida aniqlik, ifodalilik, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Ulardan foydalanish usullari xilma-xil. Nutqni zid ma’noli so‘zlar bilan boyitishda xalq maqollarining o‘ziga xos o‘rni, vazifasi bor. O‘quvchilar “O‘zbek xalq maqollari”, “Aql aqldan quvvat oladi”, “So‘z ko‘rki — maqol”

kitoblaridan zid ma’noli so‘zlar ishtirok etgan maqollarni ajratadilar va ma’nosini sharhlaydilar.

Masalan: “Yaxshidan yetar sharofat, yomondan yetar kasofat”, “Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib” va boshqa shu kabi maqollar ma’nosini sharhlash, ma’lum bir mavzuga oid maqollar topish va yozish ham qiziqarli, ham samarali usullardan biridir.

Berilgan ma’nodoshlarga zid munosabatda bo‘ladigan qator hosil qilish ham so‘z boyligini oshirish, gap tuzish malakasini mustahkamlashda, nutqda gap ma’nodoshligi hodisalaridan foydalanishda yaxshi samara beradi. Namuna: Bu ertakni barcha o‘qishi kerak. — Bu ertakni katta-kichik o‘qishi kerak. Turmush g‘avg‘olaridan xabardor. — Turmushning issiq-sovug‘ini bilgan kabi.

Nazmiy matnlarning lisoniy tahlili ustida ishlash ham talabaning mustaqil ilmiy mushohada yuritish, fikrni mantiqli, to‘g‘ri va ravon ifodalash, aytilgan fikr yuzasidan hukm va xulosalar chiqarish malakalarini mustahkamlaydi, mumtoz adabiyot javohirotlarini anglash, undan sharqona m a’naviyat va axloq tariqatlarini tuyish, adabiy til sehridan zavqlanish, fikr ifodasida she’riy san’atlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Kam ishlatiladigan so‘zlar ustida ishlashda berilgan so‘zlarni/a/i/a/ga *oid*, *kasb-hunarga oid, shevaga oid, tarixiy so‘zlar* kabi guruhlarga ajratish, jumlalarni mustaqil davom ettirish, shunday so‘zlar ishtirokida matnlar yaratish, asosiy e’tiborni kam ishlatiladigan so‘zlar ma’nosi va ularning nutqda qo‘llanishiga qaratilishi darkor. Atamalar (terminologiya) shunday so‘zlar jumJasiga kiradi. Atamaiarning qaysi fanga mansubligiga ko‘ra guruhlarga ajratish, so‘z va atamalar orasidagi munosabatni aniqlash *(til* — anatomiya atamasi; til — muloqot vositasi, ona tili faniga oid atama; izg‘irindek dilni tilgan (sifatdosh) o‘ylar ... kabi); uyadosh va shakldosh atamalar yordamida matn tuzish kabi topshiriqlarni bajarish — talaba lug‘at zahirasini atamalar bilan boyitishga yordam beradi.

Olinma so‘zlar ustida ishlash. Boshqa tillardan kirib, o‘zbek tiliga o‘zlashib qolgan so‘zlar — olinma so‘zlar hisoblanadi. Ularni og‘zaki va yozma nutqda bemalol ishlatish uchun ular anglatgan ma’no talabalar ongiga singdirilishi zarur. Ayniqsa, ilmiy atamalar borasida olinma so‘zlar muhim mavqega ega. *Aniq fanlarga xos “kvadrat*” *“kub”, tilshunoslikdagi “morfologiyci”, “sintaksis”, “leksikologiya”, kundalik turmushda ishlatiladigan EHM, kompyuter, disket, kasseta kabi atamalarni almashtirish o‘zbek xalqini jahon madaniyatidan uzishga olib kelmasligi lozim.* Tilimizda maktab, maorif, mashq, tolib (talaba) kabi arabcha; barg, daraxt, shirin kabi *forscha-tojikcha*\ lag‘mon, shiypon kabi *xitoycha* so‘zlar mavjud; boshqa xorij tillaridan kirgan stol, stul, ruchka, buxgalteriya, soldat (*nemischa*), palto, triko *(fransuzcha*), klub, futbol, biznes, kompyuter (*inglizcha*), tomat, limon (*ispancha*) kabi atamalar ham o‘zbek tilida keng iste’mol qilinadigan va o‘zlashgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Bunday so‘zlaming ma’nosini sharhlash, imlosi va ma’nosi ustida ishlash, ular ishtirokida gaplar tuzish va turli matnlar yaratish kabi amaliy ishlardan dars jarayonida unumli foydalanish mumkin. Turli sohalar bo‘yicha olinma so‘zlarning ro‘yxatini olish, ularning lug‘aviy ma’nolari ustida ishlash, olinma so‘zlardan so‘z birikmalari va gaplar tuzish kabi amaliy ishlar

izchillik va o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsagina, bunday so‘zlar talabalar so‘z boyligini oshirish, ularning nutqiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, matn yaratish mahoratining oshishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash iozimki, ravon, aniq, ta’sirchan uslub tuyg‘usi tilning barcha sohalarini o‘rganish jarayonida, til birliklarida (tovush, so‘z, qo‘shimcha, so‘z birikmasi, gap kabi sintaktik qurilmalarda), so‘zlarning ma’no va shakl munosabatlari asosidagi bog‘lanishlami taqqoslash zaminidagina shakllanadi. O‘quvchi ongida ana shu xususiyatni tarkib toptirish, barcha ona tili o‘qituvchilarining diqqat markazida bo‘lishi lozim. Shuning uchun o‘zbek tili mashg‘ulotlarining bosh maqsadi o‘quvchi so‘z boyligini oshirish, uni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, til bo‘limlarini uslubiyat bilan bog‘liq holda o‘rganish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010. -184 b.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Boshlang‘ich ta ’lim fakulteti talabalari uchun darslik: –Toshkent, Noshir. 2009. 352 b.

НУТҚ ЎСТИРИШДА ҚИЁСИЙ МАЪЛУМОТЛАРНИНГ ЎРНИ

Аҳмедова Гулноза Мухторовна,
Тошкент Педиатрия тиббиёт
институти ўқитувчиси, п.ф.н.

Ўзбек тилидан рус тилига сўзма-сўз ўгириш мумкин бўлган қолип гаплар эса кўп эмас. Аксарият сўзма-сўз таржима қилинмайдиган гаплар рус тилидаги эквивалентларидан ё лексик жиҳатдан, ёки грамматик шакл жиҳатдан, ёҳуд ҳам лексик, ҳам грамматик жиҳатдан маълум фарқларга эга.

Ўзбек тилидаги қолип гаплар, шаблон сўз ва иборалар рус тилида турлича ифодаланади:

1. Иккала тилдаги ушбу тил ҳодисалари лексик ва грамматик жиҳатдан тўлиқ мос келиб, сўзма-сўз таржимага имкон беради. Масалан: *Соғ бўлинг.– Будьте здоровы. Ишлар қалай? – Как дела? Лаббай, эшитаман! – Алло, слушаю! Майли! – Ладно.*

Келтирилган ушбу мисоллардаги ўзбекча сўзлар рус тилида луғавий жиҳатдан ўз муқобил таржимаси билан берилган. Масалан: *соғ – здоров(ый), қалай – как, иш – работа, дела, эшитаман – слушаю* ва ҳоказо. Сўз шакллари ҳам ўзбек ва рус тилларида мос келади: *бўлинг – будьте* каби.

Ўзбекча қолип гап икки, кўпи билан уч сўзли бўлса, уни сўзма-сўз таржима қилганда, русча сўзларнинг гапдаги тартиби ўзгарган вазиятда бўлса,

мазмунини тушуниш мумкин бўлаверади. Масалан: *Соғ бўлинг.– Здоровы будьте. Ишлар қалай? – Дела как (какие)? Энг яхши тилакларимни қабул этинг! – Мои самые лучшие пожелания примите!* Лекин ўқувчи дарҳол ўз хатосини англаб, таржимадаги сўзлар тартибини рус тилининг қонун-қоидаларига мослаштиради.

2. Ўзбек ва рус тилларидаги қолип гаплар лексик жиҳатдан қисман мос келмайди. Масалан: *Оқ йўл! – Светлого пути! Хайрли тун! Спокойной ночи! Доброй ночи! ... айтганингиз келсин! Пусть сбудутся вашы пожелания. Ишларинг (ўқишларинг) яхшими? – Как дела (учеба)? Нима янгиликлар бор? – Какие новости (есть)? Яхшимисан, ўғлим? – Как ты, сынок?Яхши юрибсанми? – Как ты поживаешь?* Ушбу мисолларда *оқ* сўзи *светлый* деб, *хайрли* сўзи *спокойный* деб, *келсин* сўзи *пусть сбудутся* деб, *яхшимисан* сўзи *как* деб, *нима* сўзи *какие* деб, *юрибсанми* сўзи *поживаешь* деб, *зарар* сўзи *ничего* деб ўгирилган.

Ўзбекча баъзи қолип гаплардаги сифат (*яхши* сўзи) русчада сўроқ сўз (*как* сўзи) билан берилади. Масалан: ***Яхши*** *юрибсанми? –* ***Как*** *поживаешь.* ***Яхши****мисан? – Как ты? Соғлиқларинг яхшими? – Как твое здоровье? Ўқишларинг яхшими? –* ***Как*** *учеба?* Таржималарда *как* рус тилида сўроқ сўз, *яхши* – сифат. Демак, ўқувчилар *яхши* сўзини *как* деб рус тилида ифодалаш кераклигини билишлари лозим бўлади.

Бундай ўгирмалар асосан сўроқ гап шаклидаги қолип гапларда юз беради. Дарак гапларда истак мазмунидаги жумлаларда *яхши* сўзи ўз луғавий маъносида, шунингдек, русча қолип гапга хос, луғавий жиҳатдан фарқли сифатлар билан берилади. Масалан: ***Яхши*** *боринг: –* ***Счастливой*** *поездки.* Ўқувчилар бундай таржималарни суҳбатдошларнинг бир-бирига билдирадиган тилакларидан келиб чиққан ҳолда амалга оширадилар.

Ўқитувчи ўқувчиларга икки феълнинг биринчисини рус тилига таржима қилишни таклиф этиши тўғри бўлади: *деб(демоқ) – сказать, айтиб (айтмоқ) – сказать, тушиб (тушмоқ) – попасть.* Бунинг натижасида қолип гапни рус тилига ўгириш ва мазмунини тушуниш имконияти юзага келади.

Кўмакчи феълли бирикув таркибидаги баъзи кўмакчи феъллар, хусусан, *қўймоқ* феъли русча таржимада акс этмайди. Масалан: *Салом, деб (айтиб) қўй. – Передай привет. Қўй* сўзи *передай* феълида акс этмайди.

Айрим ўзбекча қолип гапларнинг русча таржимасида сўз орттирилади. Масалан: *– Нима деб қўяй? – Что* ***ему*** *передать. Омадингиз келсин! – Пусть удача сопутствует* ***Вам****! Илтимос, кечир! – Прошу* ***тебя****, извини! Йўқ эдилар! –* ***Его (ее)*** *нет! Овора бўлиб нима қилардинг? – Незачем было утруждать* ***себя****.*

Келтирилган ўзбекча қолип гапда *унга, сизнинг, сендан, у, ўзингни* сўзларини ишлатиш шарт эмас, рус тилида *ему, Вам, тебя, его (ее), себя* сўзларини ишлатиш шарт.

Баъзи ўзбекча қолип гаплардаги *нима* сўроқ сўзи рус тилида *какой* сўроқ сўзи билан ифодаланади. Масалан: ***Нима*** *янгиликлар бор? –* ***Какие*** *новости*?

Бундай ўгирмалар асосан сўроқ гаплар билан боғлиқ равишда кузатилади. Ўқувчилар *нима* сўзини *какой* деб рус тилига ўгиришлари керак бўлади. Лекин улар аввал бу сўзни ўз луғавий маъносида рус тилида ифодалаб кўради *(Нима янгиликлар бор? – Что новости есть?))*. Таржима ғализ чиққач, ўз ўгирмаларини «Какие новости есть?» деб тўғрилайдилар.

3. Ўзбек ва рус тилидаги қолип гаплар бир-бирига лексик жиҳатдан мос келган ҳолда, баъзан грамматик жиҳатдан фарқланади. Қуйида ана шундай тафовутли ҳолатларни кўриб чиқамиз.

Одатда, чиқиш келишигидаги сифатдош рус тилида *тому что, от того что* каби предлогли бирикмалар билан бошланувчи феъл шакли орқали ифодаланади: *суюнганимдан қичқириб юбордим – я закричал от того что обрадоваля, келмаганидан хафа бўлдим – я обижен тем, что он не пришел* каби. Бу икки тилда мос келадиган таржимада шундай бўлади, лекин *«Танишганимдан хурсандман»* каби қолип гапларда ўзбекча чиқиш келишигидаги сифатдош рус тилида феълнинг ноаниқ шакли билан ифодаланиши керак. Агар ўқувчи *хурсандман* сўзини *рад* сўзи билан ўгира олса, у ҳолда ўз-ўзидан *танишмоқ* феълини *познакомиться* деб ўгириш орқали русча қолип гапни юзага келтира олади. Бунда у чиқиш келишиги қўшимчасини рус тилида махсус ифодаламайди. Яъни уни таржима пайтида тушириб қолдиради. Бундай таржималар ўқитувчидан қўшимча изоҳларни талаб қилади. Тегишли кўникмаларни ҳосил қилиш учун *«Келганингдан хурсандман», «Ғалаба қилганингдан хурсандман»* каби гапларни таржима учун бериши мумкин.

Ўзбек тилидаги баъзи қолип гапларни рус тилига ағдаришда сўзга қўшилган кўплик ва эгалик қўшимчалари тушириб қолдирилади. Масалан: *Ўқиш**аринг** қалай?– Как учёба?Ишларинг яхшими? – Как дела?*

Ўзбек тилидаги шахс-сон қўшимчалари рус тилида притяжательний олмоши билан ифодаланади. Масалан: *Соғ-саломатми**сан**? – Как **твоё** здоровье?*

Ўзбек тилидаги «*Соғ-саломатми**сан**?», «Тузукмисан?»* каби луқмалар рус тилида икки хил ифодаланиши мумкин: «Ты здоров?», «*Как **твоё** здоровье?»* Биринчи вариант кишининг реал ҳолати – саломатлиги ёмон кўринган пайтда берилади. Иккинчи вариантда яширинган эга (сен сўзи), унга ишора қилувчи шахс-сон қўшимчаси (*-сан)* рус тилига притяжательний олмоши билан таржима қилинади. Аслида «Ты здоров?» саволига ўзбекча *«Тузукмисан?»* саволи мос келади, чунки у рангидан, умумий ҳолатидан бетоблиги билиниб турган одамга берилади. «Саломатмисан?» деб сўраганда соппа-соғ одамнинг аҳволи шунчаки аниқланади. Бундай савол рус тилидаги *здоровье, состояние* сўзлари билан ифодалангани маъқул.

4. Ўзбек тилидаги қолип гаплар рус тилида лексик ва грамматик жиҳатдан бутунлай мос келмайдиган аналогияси билан берилади. Масалан: *Хорманг. – Бог в помощь. – Шукур. – Слава Богу.*

Ўзбек тилидаги *«От**инг** нима?», «Отим…»* қолип гаплари рус тилида лексик ва грамматик жиҳатдан фарқли ифодаланади: *«Как **тебя** зовут?»,*

«Меня зовут…». Бу ердаги *от, нима* сўзлари русчага *имя, что* деб эмас, *зовут, как* деб ўгирилади. *Отинг, отим* сўзларидаги мос эгалик қўшимчаси рус тилида предлогсиз родительний келишик шаклидаги кишилик олмошлари билан ифодаланади: *меня, тебя* каби.

Ўзбек тилидаги ҳаракат номлари рус тилида отлар билан ифодаланади: *сузиш – плавание, юриш – поход* каби. Қолип гаплардаги баъзи феъллар ҳам ўзбекчадан рус тилига ана шундай отлар билан берилади. Юқорида келтирилган мисолда *боринг* феъли *поездка* сўзига тенг келган. Бу ерда сўзма-сўз таржима эмас, балки русча муқобил қолип гап келтирилгани учун шундай ўгирма юзага келган. Сўзма-сўз таржимада *«Яхши боринг» «Хорошо идите»* бўлади. Лекин рус тилида шу маъно-мазмун «Счастливой поездки» тарзида билдирилади.

5. Қолип гапдаги сўзнинг рус тилида асл эквиваленти бўлмайди. Масалан: – *Сўрайверинг,* ***бемалол***. – *Спрашивайте* (*бемалол* сўзининг таржимаси йўқ).

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA TIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Talipova Fotima,
TDAU O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o‘qituvchisi
talipova.f75@mail.ru

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda barcha millat vakillarining o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun o‘zbek tili ta’limi xalqaro standart talablariga javob berishi, o‘zbek tilining kommunikativ-nutqiy va lingvistik kompetensiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni yetarli darajada egallashlari ko‘zda tutiladi. Shunga ko‘ra o‘zbek tilini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish vositasida ko‘zda tutiladi:

- o‘quvchilarni sinflar va bosqichlar kesimida belgilangan nutqiy mavzularga oid faol leksikani tinglab tushunish hamda og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatish;
- o‘zbek tilida so‘zlarni o‘zaro bog‘lash vositalarini bilish hamda og‘zaki va yozma nutqda so‘z birikmalari va gaplarni to‘g‘ri tuzish, o‘z fikrini mantiqan va grammatik to‘g‘ri ifodalay olish ko‘nikma-malakalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, egallagan bilimlarini vaziyatga mos holda to‘g‘ri qo‘llay olish, o‘z fikrini umumlashtirish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o‘quvchilarni o‘rganilgan mavzular doirasida o‘z fikrini bog‘lanishli bayon eta olish, dialog va polilogik nutqda suhbatga qo‘shila olish, fikrga o‘z munosabatini bildira olish, suhbatni davom ettirish va xulosalay olish malakalarini shakllantirish;

- o‘zbek xalqiga xos odob-axloq fazilatlari, muomala odobiga oid asosiy nutqiy me’yorlarni turli, nutqiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash malakalarini shakllantirish, o‘zbek xalqining milliy-ma’naviy qadriyatlarini bilish va ularga hurmat bilan qarash ko‘nikma-malakalarini shakllantirish. O‘zbek tili ta’limining provard natijasi ta’lim oluvchilarda fanga oid xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga qaratiladi.

Nutqiy kompetensiya. Mazkur malakada nutq faoliyatining quyidagi 4 turi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirib borish ko‘zda tutiladi:

tinglab tushunish - suhbatdoshining nutqini, tinglangan matnni, radio va teledasturlarda eshittirilgan asosiy axborotlarni tushunish**;**

gapirish - o‘zini tanishtirish, murojaat etish, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish, nutqiy etiket iboralarini to‘g‘ri qo‘llagan holda bevosita va telefon orqali muomala-muloqot yurita olish, ma’lumot olish va berish, o‘zgalar fikrini qisqacha sharhlash, bahs-munozaralarda o‘z mulohazalarini bildira olish, shuningdek, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalarini, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayotiga oid lavhalar, o‘zbek allomalari, olimlari, madaniyat ravnaqiga hissa qo‘shgan insonlar haqidagi matnlar mazmunini bog‘lanishli so‘zlab bera olish;

o‘qish – o‘zbek tilining spesifik nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, berilgan mavzuga oid materiallar, topshiriqlarni, adabiy-badiiy matnlarni, gazeta, jurnallar, teledasturlarda berilgan axborotlarni, shaxsiy va elektron xatlarni o‘qish, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalaridan: tez aytish, topishmoq, maqol, masal, rivoyatlarni, o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘zbek adabiyoti namunalaridan berilgan parchalarni ifodali o‘qiy olish;

yozish - o‘rgangan so‘zlar va jumlalarni o‘zbek tili imlo qoidasi asosida to‘g‘ri yozish, darsda va uy vazifasi sifatida berilgan mavzuga oid yozma topshiriqlarni bajarish, mavzuga oid matnlarni tuzish, diktant, bayon yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ma’muriy-tashkiliy hujjatlar (ariza, tushuntirish xati, tarjimai xol, e’lon, xat, hisobot va h.k) yoza olish.

Lingvistik kompetensiya. Mazkur kompetensiyada o‘zbek tili leksikasi, grammatikasiga oid zarur bilimlarni egallash va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash uchun amaliy ko‘nikmalarni shakllantirib borish ko‘zda tutiladi. Shu maqsadda:

- o‘quvchilarda nutqiy mavzularga oid faol leksik zahirani, o‘zbek tilining milliy madaniy leksikasini, ma’nodosh, shakldosh so‘zlarni, kasb-hunarga yo‘naltirilgan lug‘at boyligini boyitib borish;

- o‘zbek tilida so‘z tarkibi va so‘z yasalishi vositalarini, grammatik vositalarning qo‘llanishi, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab so‘z birikmalari va gap tuzishga oid imlo qoidalarini bilish, o‘zbek tilida gap bo‘laklarining o‘rnini, o‘zbek tilida tinish belgilarini qo‘llash qoidalarini bilish va og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay olish.

O‘zbek tilini o‘qitishda faoliyat turlarining har biri bo‘yicha ko‘nikma va malakalar baravar rivojlantiriladi. Faqat o‘qishga yoki matn mazmunini tushunishga

e’tibor berilgan taqdirda so‘z boyligi passiv shakllanadi. O‘zbek tilida og‘zaki nutq, o‘zaro fikr almashuv, muloqotga o‘rgatish asosiy maqsad bo‘lgani tufayli nutq faoliyatining so‘zlash turiga ko‘proq e’tibor beriladi. Lug‘at bilan ishlash, grammatik materiallarni o‘rganish, o‘qish va yozuv bo‘yicha olib boriladigan mashg‘ulotlarga ana shu nuqtayi nazardan yondashiladi.

O‘zbek tilini o‘qitishda til ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratish lozim:

O‘qitishda amaliy kommunikativ yo‘nalishda ish tutish.

1. O‘quv materialini nutqiy vaziyat asosida bosqichma-bosqich izchil tarzda berish.

2. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

3. O‘zbek tilini o‘zbek adabiyoti bilan uyg‘unlikda, uzviy bog‘lab o‘qitish.

Til ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘zbek tilining izchil grammatik kursini emas, balki amaliy jihatdan ta’lim oluvchilarda o‘zbek tilida so‘zlashish, og‘zaki va yozma tarzda o‘z fikrini bayon eta olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Ya’ni o‘quvchi muayyan mavzular doirasida o‘zbekcha nutqni tinglab tushuna olishga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda mustaqil ifoda eta olishga, hamda egallangan bilim va ko‘nikmalarini turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatish ko‘zlangan maqsadga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6084- son. 20.10.2020

2. Talipova F., Aydarova F. “O‘zbek tili” ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent - 2020 yil. “Zamin - nashr”.

ЎЗБЕК ТИЛИНИ ХОРИЖЛИКЛАРГА ЎРГАТИШ БЎЙИЧА ИНТЕНСИВ УСУЛЛАР

Туракулова Оқила Амиркуловна,
Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ
“Ўзбек тили” кафедраси ўқитувчиси

Туракулова Нилуфар Амиркуловна
Нишон тумани 2-ўрта мактаб
инглиз тили ўқитувчиси

Бугунги кунда мамлакатимизда 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси асосида барча соҳа ва тармоқларда улкан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бу борада жамият ҳаётида эзгу қадрият ва анъаналарни чуқур қарор топтиришга, хусусан, халқимиз, айниқса, ёш авлоднинг

маънавий-интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол шахсни тарбиялашда беқиёс аҳамиятга эга бўлган давлат тилига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони, 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон Фармони, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги "Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1059-сон Қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ушбу вазифаларни амалга ошириш белгилаб берилган.[37]

Ўзбек тилининг жаҳондаги бир қатор нуфузли университетларда ўқитилиши, хорижлик турли соҳа мутахассислари, тадбиркорлар, хоижликларнинг юртимизда келажакда Ўзбекистон билан ҳамкорлик қилиши, қўшма корхоналар очиш, тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш мақсадида фақат ўзбек тилини ўрганиш мақсадида келаётгани юртимиз ва тилимизнинг равнақи учун катта аҳамиятга эга. Бугунги кунда хорижликларга ўзбек тилини ўргатиш бўйича ўқув дастурлари, дарсликлар ва ўқув қўлланмалар жуда оз бўлиб,ўларда хорижликларга ўзбек тилини интенсив ўргатиш мақсад қилиб қўйилмаган.

Шу нуқтаи назардан хорижликларга ўзбек тилини интенсив ўргатишга қаратилган ўқув дастурлари тузиш, ўқув қўлланмалар яратиш бугунги куннинг муҳим масалаларидан биридир. Ушбу муаммонинг ҳал этилиши миллатимизнинг хорижий миллатлар билан муомала воситасига айлантиради. Ўзбек тилини хорижликларга ўргатиш бўйича интенсив усуллар қуйидаги босқичлар асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқ.

*****Ўзбек тилини ўргатиш дастурини CEFR – A1, A2 ***(бошланғич)***, B1, B2 ***(ўрта)*** ва C1/+ ***(юқори)*** ёки International English testing system (IELTS)га ўхшаш тизимда ишлаб чиқиш ва қўлланмаларни ҳам шунга мос равишда яратиш;

*Яратилган қўлланмалар базаси асосида ўзбек тилини билиш даражасини аниқлаб берувчи синов тизимини яратиш.

Биринчи босқич ўзбек тилини ўргатиш усулини CEFR – A1, A2 ***(бошланғич)*** босқич:

Ўзбек тилини ўргатиш усулини CEFR – A1, A2 ***(бошланғич)*** босқичида ўзбек алифбоси, нутқ товушлари билан таништирилади. 6 та ҳарф ичида ўзбек тилининг нутқ товушлари, талаффуз меъёрлари ўргатилади. Соҳалар бўйича луғат иши олиб борилади.

[37] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон Фармони

Иккинчи босқич ўзбек тилини ўргатиш усулини B1, B2 ***(ўрта)*** босқич:

Бу босқич нутқ малакаларини шакллантириш босқичи бўлиб, янги сўзларни ўзлаштиришни давом эттириш, ушбу сўзларни нутқда қўллашга ўргатиш,уларни қисман диологик ва монологик нутққа ўргатиш назарда тутилади. Сўзларни бир-бирига боғлаш учун зарур бўлган грамматик воситалар, грамматик шакллари ҳақида маълумот берилади.

C1/+ ***(юқори)*** ёки International English testing system (IELTS). Бу босқич кучли босқич бўлиб, 4 ой давомида коммуникатив методнинг функционал-семантик тамойили асосида хорижликларга ўзбек тилида фикр ифодалаш йўллари ўргатилади.бунинг учун ўзбек тилидаги сўз таркиби,сўзларни ўзаро боғлашга хизмат қилувчи грамматик категорияларнинг қўлланиш хусусиятлари, сўзларнинг гапдаги вазифалари, тартиби, фикр ифодалашнинг воситалари ҳақида кенг ва изчил маълумот берилади.[38]

Бу тажриба дунёнинг кўплаб мамлакатлари тил дастурларига хос бўлиб, бу йўл тил тезроқ ва осонроқ ўзлаштирилишида, шунингдек, уни маълум бир тизим асосида ўрганилиши ва билим баҳоланишида муҳим рол ўйнайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. 6-сон, 70-модда.
2. Узлуксиз маънавий тарбия Концепцияси / Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори 1-иловаси / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.
3. Муҳитдинова Ҳ. Хорижликларга ўзбек тилини ўргатиш дастури. Илмий-амалий анжумани материаллари. -Т., 2018.

INGLIZ TILIDA SO‘ZLASHUV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Amirqulova Nargiza Amirqul qizi
Qarshi davlat universiteti
“Lingvistika” kafedrasi катта o‘qituvchisi

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda tilni rivojlantirish ingliz tili va o‘zbek tili so‘zlashuvida qo‘llaniladigan frazeologik birliklarni o‘rganishni talab qiladi.Shu kabi rang-baranglikni tilimiz bilan bog‘lasak, frazeologik birliklar, frazemalar, iboralar va maqollar tilimizni mazmunli va ta’sirchanligini oshiradi.

[38] Мухитдинова Х. Хорижликларга ўзбек тилини ўргатиш дастури. Илмий-амалий анжумани материаллари.Т.2018

Bunday birliklarning nutqda qo‘llanilishi so‘zlovchining intellektual salohiyatini ko‘rsatib berish imkoniyatiga ega. Shu sababli frazeologik birliklarning til sistemasidagi funksiyalarini alohida ta’kidlash joiz.

1) Muqim funksiyalar

2) O‘zgaruvchan funksiyalar

Barcha frazeologik birliklar uchun nominativ, kommunikativ va kognitiv funksiyalar xarakterlidir. frazeologik birliklarning kommunikativlik funksiyasi uning nutq jarayonida ma’lum bir fikr ifodalash uchun xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Albatta, frazeologik birliklardan nutq momentida ma’lum bir ma’lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi. Nominativ funksiya frazeologik birliklarning moddiy dunyodagi ma’lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklarning nominativ funksiyasi tilning leksik qatlamidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib kelishi bilan xarakterlanadi va ikki turga bo‘linadi: neytral nominal va nominal.

Nominativ funksiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan funksiya bu kognitiv funksiya hisoblanadi. Chunki borliqdagi narsa-predmetlarni jamiyatda tushunganimizdek aks ettiramiz. Ular ongimizda o‘z in’ikosini topadi. Frazeologik birliklar ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Frazeologik birliklar uchun xos bo‘lgan semantik funksiyaga volyuntativ (lot. voluntas-istak) deyktik, rezultativ va boshqa funksiyalar bevosita tegishli.

Volyuntativ funksiya – bu xohish, istak bildirish funksiyasidir. Bu funksiya ba’zi frazeologik birliklar uchun xarakterlidir. Masalan: wish smb. well- omad baxt tilamoq; Wish smb ill- muvaffaqiyasizlik tilamoq; I wish to God... — xudodan tilagim; Get one’s wish- o ‘ylagan niyatiga erishmoq 1) I wish Jane Fairwax very well;but she tires me to death(Dickens Ch. Pickwick Papers, p. 112 2) I wish to Godwe knew what was in their mind (A.J. Cronin The stars look down, p.496 3) Fleur, I love you, Fleur! Fleur uttered a short laugh. Come again, she said,when I haven’t got my wish? (Christie A. Easy to Kill. ch. 5, p.276)

If I would govern this country wisely, I must be posted in the details of its life, and not at second hand**,** but by personal observation and scrutiny (M. TwainThe Adventures of Tom Sawyer. ch, I, p. 254) frazeologik birlik voqealarning baravar yuz berayotganini ifodalab ko‘rsatmoqda; ba’zi frazeologik birliklar uchun **rezultativ funksiya** ham xos bo‘lib, u Frazeologik birliklar ifodalab kelayotgan harakat yoki holatning sababini ko‘rsatib berishidir. Masalan: come a cropper- muvvofaqiyatsizlikka uchramoq; Make one’s bed and have to lie on it- qilgan ishiga javob bermoq; Set smb’s teeth on edge-kimnidir asabiga o ‘ynamoq;

1) Gerald: I may as well tell you at once that I’ve had very bad luck. I wanted to make money and I’ve **come** an absolute **cropper.** (Maugham W.S. The Razors Edge,p.156) 2) She felt that... she must go on leading her strained, humdrum life. This was her punishment for having made a mistake. She **had made** her **bed, and she must lie on it** (O‘Hara J. Assemly, p.266). 3) The laugh, the first they have heard from him sets **Trench's teeth on edge** (G.B.Shaw).Tildagi barcha birliklar, jumladan, FBlar uchun xos bo‘lgan eng muhim funksiya bu **pragmatik funksiya** hisoblanadi. Pragmatik

maqsadga yo‘naltirilgalik frazeologik birliklar uchun xarakterli jihatlardan biridir. Rus tilshunosi S.G.Gavrin rus tilida Frazeologik birliklarni tahlil qilganda, ularning bir necha funksiyalari mavjudligini ko‘rsatib bergan. Ana shu funksiyalar ingliz tili frazeologik birliklari uchun ham xarakterli hisoblanadi He appears to know just how long he can torment me before I get my dender up (Mark Twain, The Adventures of Tom Sawyer, ch, IV, p.34) Hang it! You cut up quite nasty….(W.Thackeray “Pendennis” ch.XII,p.169) frazeologik birliklarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg‘ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog‘liqdir. Frazeologik birliklarning emotsionalligi bir vaqtning o‘zida ikki ma’noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi.. Darhaqiqat, frazeologik birliklar qo‘rquv, shodlik, azoblanish, hayrat taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, “miserable as bandicoot”, “over a barrel”, “ like a bastard” , “be for the high dive” kabi Frazeologik birliklar dardu alam, xafagarchilik emotsional bo‘yog‘iga ega bo‘lsa, “have a ball”, “full of beans”, “a guy bird” frazeologik birliklari quvonch, sevinch emotsional bo‘yog‘iga ega. Frazeologik birliklar uchun xarakterli funksiyalardan bo‘lgan stilistik funksiya tarkibiga giperbolizatsiya hamda intensivlik funksiyasi ham kiradi. Yuqorida keltirilgan barcha funksiyalarni Frazeologik birliklar nutq momentida bir vaqtning o‘zida namoyon eta olmaydi. Ba’zi jihatlar doimiy, konstant vazifalar bo‘lsa, ba’zilari faqat ma’lum bir frazeologik birliklar uchun xosdir. Tilning frazeologik fondida alohida o‘rin tutadigan, maqol va matallar uchun **kumulyativ** funksiya xosdir.. Chunki ayanan maqollar xalq tarbiyasi umumlashmasi bo‘lib, kishilarni to‘g‘ri yo‘lga, yaxshilikka yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллина А.Р. Контекстуаьлные трансформатции ФЕ в английском и русском языках: дис ...канд.филол.наук. – Казань, 2007. – 167-с.

2. Абреимова П.А, Абдимомунова П.А. Жоржолиани Д.А К вопросу о функционально-семантической классификации фразеологических единиц// Фразеология в тексте и словаре. – Самарканд, 1986. – С.51-53.

3. Авдеева О.И. Всероссийская научная конференция «Фразеология на рубеже веков: достижения, проблемы, перспективы» // Филологические науки. – М., 2000. - №5. – С. 122-125.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN MADANIY BILIM VA KO‘NIKMALARNING TEMATIK QAMROVI VA FOYDALANILISHI

Israfilov Doston,
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU
o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-boschiq magistri

So‘ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlar hamda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar salmog‘i bir necha barobar oshdi. Bu o‘z navbatida o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish istagidagi xorijliklarning miqdor va qamrov jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarilishiga turtki bo‘lib kelmoqda. Joriy davrda o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan elatlar tomonidan o‘rganishiga bir tomondan iqtisodiy, siyosiy omillar sabab bo‘layotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan O‘zbekistonning sharqona madaniy sivilizatsiya o‘chog‘laridan birida joylashganligi hamda o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy meros va an’analarga egaligi asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik, nafaqat, til o‘rganishdagi to‘rt asosiy kompetensiya: o‘qib tushunish, eshitib tushunish, og‘zaki nutq va yozma savodxonlikni o‘zida shakllantirishni, balki ana shu til vositasida jonli muhitda erkin muloqot tashkil qila olishni ham xohlaydi. Bu esa til o‘rganuvchilardan muloqotning bir qismi bo‘lgan madaniy bilimlarga ega bo‘lishni hamda o‘zlarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishni talab qiladi.

Ana shu o‘rinda til va madaniyat uzviyligi yuzaga chiqadi. G.O.*Vinokur* fikriga ko‘ra “tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili mahsuli bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi” [В.Воробьев, 1997: 31]. Yuqoridagi fikrlar til va madaniyatning chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatib turadi. Chunonchi, ba’zi kontekstlarda til va madaniyat parallel o‘ringa qo‘yilsa, ba’zida ular bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy element sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni tilning lisoniy chizgilari bir tomondan madaniyatni ham aks ettirsa, boshqa tomondan madaniyat tilni ham qamrab oluvchi umummilliy konsepsiya hisoblanadi. Shularga asoslangan holda aytish mumkinki, o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlikdan bevosita va bilvosita tilda aks etgan va etmagan madaniy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda til va madaniyat uzvlarining qanchalik muhim va mustahkam ekanligini ana shu nuqtalarda ko‘rinadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijlik lingvomadaniy kompetentlikni o‘zida shakllantirishi uchun qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi haqida fikr yuritsak. Dastlab ushbu bilim, malaka va ko‘nikmalar **CEFR** (Common european framework of reference for languages: learning, teaching, assessment) (Tillarni o‘rganish, o‘rgatish, baholash bo‘yicha umum-Yevropa ma’lumotlar ba’zasi) me’zonlariga ko‘ra qanday tematik klassifikatsiyaga ega ekanligini ko‘rib chiqsak.

T/R	Tematik guruhlanish	Qamrov doirasi
1	**Kundalik hayot tarzi**	Taomlar va ichimliklar, ovqatlanish vaqtlari dasturxon odobi; Umumxalq bayramlari; Ish rejimi va amaliyoti; Ko‘ngilochar tadbirlar: mutoalaa madaniyati, media vositalari, sport, qiziqishlar.
2	**Yashash tarzi**	Yashash standartlari; (hududiy, sinfiy va etnik farqliliklar) Yashash sharoitlari; Ijtimoiy ta’minot.
3	**Shaxslararo munosabatlar**	Jamiyatning sinfiy tuzilishi va sinflar orasidagi aloqalar; Jinslar orasidagi munosabatlar; Oilalar tuzilishi va o‘zaro munosabatlari; Avlodlar orasidagi munosabatlar; Ish joylaridagi munosabatlar; Xalq va hukumat orasidagi munosabatlar; Diniy va siyosiy guruhlar orasidagi munosabatlar.
4	**Qadryatlar, e’tiqodlar va qarashlar**	Ijtimoiy sinflar; Kasbiy guruhlar; (akademik, boshqaruv, jamoat xizmatlari, malakali va oddiy ishchilar) Boylik; (foyda va meros) Hududiy ma’daniyat: Xavfsizlik; Ta’lim; An’ana va ijtimoiy o‘zgarishlar; Tarix, tarixiy shaxslar va hodisalar; Milliy o‘ziga xoslik; Siyosat; San’at; (tasviriy va amaliy san’at, musiqa, adabiyot, sahna asarlari) Din; Yumor.
5	**Ta’na tili**	Ta’na a’zolarining turli holati yoki harakati natijasida anglashiladigan nolisoniy ma’nolar.
6	**Ijtimoiy qulayliklar**	Punktualnilik; Kiyimlar; Sovg‘alar; Muomalaa va muloqot odobi; (masofani saqlash, tana tilidan foydalanish) Efemizm va disfemizimlar; Eshitish va tinglash madaniyati.

7	**Marosim an’analari**	Diniy bayram va marosimlar; Tug‘ulish, nikoh, o‘lim marosimlari; Bayramlar, sayllar, nishonlashlar va festivallar.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha ma’daniyat elementlari o‘z ichiga katta hajmdagi lingvomadaniy leksika hamda semantik ma’no-mazmunni qamrab oladi. Tilshunoslik va tarjimashunoslik ilmida realiya va lakunalar termini ostida umumlashtiriluvchi ushbu til birliklari madaniyatimizga tegishli hayotiy haqiqatlar ochib beriladi.

O‘zbek tilini xorijliklarga o‘qitishda yuqoridagi jadvalda berib o‘tilgan umummilliy konseptual mavzularni samarali usul va vositalar yordamida yetkazib berishni taqazo qiladi. Bu esa oldimizga quyidagi vazifalarni belgilab beradi.

- Lingvomadaniy leksik birliklarning mavzulashtirilgan, izohli va adekvatlik hamda ekvivalentlik tamoyillari asosida tarjima qilingan lug‘atlarini yaratish;
- Lingvomadaniy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilimlarni o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatish uchun mo‘ljallangan til bilish darajasiga ko‘ra tabaqalashtirilgan darslik materiallari va o‘quv qo‘llanmalari ichiga singdirish yoki alohida bo‘lim sifatida aks ettirish;
- Madaniy vaziyatlarni ochib beruvchi audio-vizual materialning onlayn platformasini yaratish va uni bosqichma-bosqich boyitib borish;
- O‘zbekistonga kelib o‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijliklar uchun madaniy ekskursiyalar marshrutini shakllantirish va samarali tashkil etish. Bunda mehmon uylari va yo‘lboshlovchi xizmatidan foydalanish;
- Lingvomadaniy leksikamizning o‘zbek tili milliy korpusdagi o‘rnini belgilash va undan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
- Wikepedia ma’lumotlarini lingvomadaniy leksikamizni ochib beruvchi rasmli va matnli ma’lumotlar bilan boyitish;
- O‘zbek tilini xorijiy til sifatida masofadan turib o‘rganayotlar uchun yaxlit onlayn platforma yaratish va unda boy kontentga ega bo‘lgan madaniyat bloklarini tashkil etish;
- O‘zbekistonning xorijiy elchixonalari qoshida tashkil etiladigan madaniyat markazlarida o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar uchun madaniyat kurslari yoki ekskursiya darslarini tashkil etish va boshqalar;

Yuqorida keltirib o‘tilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga tadbiq etilish jarayonida muvofiqlashtirilishi, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini talab etadi. Shulardan kelib chiqqan holda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda madaniy bilim, ko‘nikma va malakalarning chegarasi va qamrovini bilib olish va shu asosda ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. — М., 1997. — 331 с.

2. Common european framework of reference for languages: learning, teaching, assessment. Language Policy Unit, Strasbourg.

3. Pennycook A., “Popular Cultures, Popular Languages and Global identities”, The Handbook of Language and Globalization, Ed. by N. Coupland, Wiley – Blackwell, P. 592- 607, 2010.
4. Rafiyev A. Tunjay O‘zturk, Nuriddinova D., Chet elliklar uchun o‘zbek tili, Toshkent – 1997
5. Alexander Gilmore. Authentic materials & authenticity in Foreign Language Learning. Tokyo University, Japan.2014.
6. Andree F Sjober. Amerika Qo‘shma Shtatlari. Indiana universiteti. 1963-yil.
7. Ngozi B.O., Samuel A.O., Ameh O.I., “Motivating use of Audio-Visual in a Nigeria Technological
8. Baker M. In Other Words: a Coursebook on Translation, London: Routledge, 1992.

6-SHO‘BA. O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O‘QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI VA USULLARI

MULOQOT TILINI TANLASH

Muhamedova S.X.
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili kafedrasi mudiri, filologiya
fanlari doktori, professor e-mail:
prof.s.muhamedova@mail.ru

Shirinova Y.T.
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
e-mail: yekaterina@navoiy-uni.uz

Muloqot paytida biz noverbal vositalar orqali 80% ma’lumot uzatamiz degan fikr keng tarqalgan. Verbal muloqot noverbal muloqotga qaraganda ikkilamchi va u ancha keyin paydo bo‘lgan. Nega unda biz tabiiy tilga ehtiyoj sezamiz? Nima uchun odamga tabiiy til kerak?

Muloqot madaniyati suhbatdoshlarning tili bilan belgilanadi va ma’lum bir til aloqa kodidan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. U, o‘z navbatida, ma’lumotni kodlash usulini belgilaydi: nutq miqdori, kommunikativ niyatning ruxsat etilgan darajasi, verbal va noverbal holda uzatiladigan ma’lumotlar miqdori, nisbati va boshqalar.

Muloqot tilini tanlash, nafaqat, bu kommunikatsiya uchun zarur bo‘lgan umumiy aloqa kodini tanlashdir, balki tilni tanlash psixologik ta’sirga ham ega. Uch xil vaziyat bo‘lishi mumkin:

a) A kommunikator tilida muloqot;

b) B kommunikator tilida muloqot;

c) kommunikatorlarning ona tillaridan boshqa til.

Keling, uchta vaziyatni tasavvur qilaylik:

1. O‘zbek ingliz bilan yakkama-yakka suhbatlashadi, muloqot O‘zbekistonda amalga oshiriladi.

2. O‘zbek bir guruh inglizlar bilan gaplashadi, muloqot O‘zbekistonda amalga oshiriladi.

3. O‘zbek ingliz yoki inglizlar guruhi bilan suhbatlashadi, muloqot Angliyada amalga oshiriladi.

1-vaziyatda o‘zbek suhbatdoshning odatdagi ijtimoiy-madaniy muhitida bo‘lishi uni "yolg‘iz" inglizning mavqeiga nisbatan imtiyozli mavqega olib chiqadi. Bu holatda ingliz kommunikativ ehtiyotkorlikni namoyon etadi va suhbatdoshning aloqa uslubiga moslashishga intiladi.

2-vaziyatda o‘zbekning mavqeyi endi unchalik o‘ziga xos ko‘rinmayapti, chunki inglizlar o‘zlarining muloqotlarida ham o‘zbek suhbatdoshiga, ham o‘z vatandoshlariga e’tibor berishga majbur bo‘ladilar, chunki u hukmronlik qilganidan keyin u bilan muloqot qilishda u kommunikativ ustunlikka ega, u o‘zining "inglizligini" namoyish etishdan tortinmaydi. Bu holda muloqot tilini tanlash guruhning qaysi rolga asoslangan aloqa shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Inglizlar, shuningdek, o‘zbek tilida so‘zlashadigan suhbatdoshning individual muomalasi va psixologik ko‘nikmalaridan kelib chiqib, muloqot tilini tanlaydilar.

Uchinchi vaziyatda o‘zbek nisbatan zaif pozitsiyada bo‘ladi – u kommunikativ ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur bo‘ladi, chunki endi u mehmon.

Ushbu uchta vaziyatda tilni tanlash har xil ma’noga ega. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, bu ramziy ma’noga ega, chunki bu kommunikatorlardan birining ustunligini, suhbatdoshning "mezbon" va "mehmon" maqomini ta'kidlaydi.

Odatda, til muloqotning kommunikativ uslubini belgilaydi.

Masalan, arab tilini tanlash kengaytirilgan uslubni nazarda tutadi: kommunikatorning boy, ifodali til, jonli metafora va taqqoslashlardan foydalanishi kutiladi. Yapon tilidan foydalanganda, ifodalar ixchamligi ustun, chunki yapon muloqoti qisqa ifoda etishga intiladi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1) "til brokerlari", ya’ni tarjimonlar orqali;

2) mashina tarjimasidan foydalanish. Matnni avtomatik qayta ishlash sohasida ba’zi yutuqlarga qaramay, sun’iy tarjima qilish mukammallikka ega emas;

3) sun’iy tillarda (eng nodir, kamdam kam foydalaniladigan usul);

4) bir nechta tillarda (ular barcha kommunikatorlar uchun tushunarli bo‘lish sharti bilan). Bu usul ham nomukammal, chunki u yagona vaziyatli aloqa kodini ishlab chiqishga hissa qo‘shmaydi;

5) xalqaro aloqa tilida (eng keng tarqalgan usul).

Madaniyatlararo vaziyatda kommunikatorlarning "tengligi" muloqotda uchinchi, neytral tilni tanlashni ta’minlaydi, ammo unda ularning barchasi lisoniy vositalarni tanlashda to‘liq erkin emas. Bundan tashqari, kommunikantlarning ushbu uchinchi tilni bilishi bir xil bo‘lmasligi mumkin, keyin esa kommunikatorlardan biri yana noqulay ahvolga tushib qolishi mumkin.

Madaniyatlararo kommunikatsiya alohida ishi – bu kommunikatorlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qiyin yoki imkonsiz bo‘lganda tarjimon orqali aloqa qilish. Tarjimon ishtirokidagi kommunikativ aktning an’anaviy sxemasida, tarjimonning vazifasi A suhbatdosh tomonidan uzatilgan ma’lumotlarini dekodlash va boshqa til yordamida B kommunikantga qayta kodlashdir.

Tarjimon nimani qayta kodlaydi?

Tarjimon lingvistik kanal orqali uzatilgan ma’lumotni qayta kodlaydi.

Shu bilan birga, tarjimon, odatda, hissiyotsiz, intonatsion jihatdan betaraf bo‘ladi. Uning vazifasi – mijozning hissiy holatini yuqtirmaslik va lingvistik

ma’lumotni tarjima qilish, shuning uchun tarjimon nutqining o‘zi paralingvistik aloqa kanali nuqtayi nazaridan odatda tarjima qilingan nutqqa to‘liq mos kelmaydi.

Tarjimon uzatilgan ma’lumotni qayta takrorlamaydi. U, odatda, imo-ishoralar, xatti-harakatlar va yuz ifodalarini takrorlamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Гузикова М. О. Основы теории межкультурной коммуникации: [учеб. пособие] / М. О. Гузикова, П. Ю. Фофанова; М-во образования и наукиРос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, 2015. – 124 с.

2) Садохин А. П. Введение в теорию межкультурной коммуникации / а.п.садохин.- М.: Высш. шк., 2005. 310 с.

O‘ZBEK TILI TA’LIMINING UZLUKSIZLIGI VA UZVIYLIGINI TA’MINLASH

Asilova G.A.
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
professori, pedagogika fanlari doktori

Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun asosida ta’lim sohasida o‘tkazilgan islohotlarning bosh vazifasi maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim turlarini o‘z ichiga olgan uzluksiz ta’lim tizimini yaratish hamda majburiy umumiy o‘rta ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bosqichlariga, ulardan esa oliy ta’lim bosqichlariga bosqichma-bosqich o‘tilishini ta’minlashdan iborat [1].

Har qanday tilning ahamiyati uning jamiyatdagi, davlatdagi maqomiga bog‘liq. Maqomiga ko‘ra xalqaro, davlatlararo, davlat hamda lokal maqomdagi tillar mavjud. O‘zbek tili ta’limiga ham ushbu tavsifga ko‘ra turlicha yondashish mumkin.

Ma’lumki, “xorijiy til” tushunchasi “ikkinchi til” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. *Xorijiy til* yoki *chet til* (foreign language) – maktabda o‘rganilgan va funksional jihatdan chegaralangan til bo‘lib, asosan millatlararo muloqotda qo‘llanadi. Xorijiy til unda so‘zlashuvchi, uning egasi bo‘lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo‘lmagan tildir. *Ikkinchi til* shaxs (individ)ning ona tilidan keyin o‘rganadigan tilidir. Keyinchalik hayot tarzi va sharoitga qarab bu til funksional jihatdan yoki ikkinchi til sifatida qo‘llanadi, yoxud birinchi o‘ringa chiqadi.

A.Agmanova ona tilini ilk o‘rganilgan va eng ko‘p qo‘llanadigan til, ona tili bo‘lmagan til esa o‘rganilishi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadigan va funksional jihatdan yordamchi til deb ta’riflaydi [2].

V.Kostomarovning fikriga ko‘ra, insonning ikkita tuqqan onasi bo‘lmaganidek, uning ona tili ham ikkita bo‘lmaydi [3]. Biroq “o‘rganilgan til insonning hayotida ona tilidan ham muhimroq bo‘lib qolishi mumkin”. Demak, inson tug‘ilganidan boshlab eshitgan va so‘zlashishni o‘rgangan tilni ona tili, undan

keyin o‘rgangan tilni ikkinchi til deyish mumkin.

Demak, ikkinchi til ham, xorijiy til ham ona tili bo‘lmagan, boshqa tillardir, ya’ni shaxsning bolaligidan o‘rgangan, funksional jihatdan birlamchi tillari emas[4].

O‘zbekistonda 100dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar va ta’lim 7 tilda olib boriladi. O‘zbeklar va qoraqalpoqlardan boshqa millat vakillarining aksariyati rus tilida ta’lim oladilar. Oliy ta’limda asosan uch til: o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillarida ta’lim oladigan guruhlar mavjud. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar bitiruvchilarining barchasi oliy ta’lim muassasalarida rus guruhlarida o‘qiydi. Shuning uchun rus guruhlari deganda turli millatlar vakillari tushuniladi.

“O‘zbek tili” fanidan Milliy o‘quv dasturi ta’lim 7 ta tilda olib boriladigan umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun davlat ta’lim standartining A1, A2, B1 darajasi talablari asosida tuzilgan. Davlat ta’lim standartlarining A1 darajasi umumiy o‘rta ta’limning 2-4-sinflari, A2 darajasi – 5-9-sinflari, B1 darajasi 10-11-sinflari uchun me’yor hisoblanadi. Ushbu ta’lim bosqichlari bitiruvchilari Davlat ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan darajalar uchun qo‘yilgan talablarga javob berishlari shart. Shundan kelib chiqib, har bir ta’lim bosqichi uchun ta’lim mazmuni uzviylik, uzluksizlik asosida taqsimlangan. Biroq bugungi kungacha ushbu darajalar kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim bosqichiga tatbiq qilinmagan. Shu munosabat bilan O‘zbekiston ta’lim muassasalarida 2012-yildan kompetent yondashuv tatbiq etila boshladi. Ushbu tushuncha o‘quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan vaziyatlarda turli tipdagi malakalarni samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish sifatida talqin qilinadi. Bunda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni favqulodda yuzaga kelgan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda qo‘llay olish kompetensiyasiga alohida urg‘u beriladi [5]. Shuni aytib o‘tish kerakki, kompetensiyalar ularni qo‘llagandagina namoyon bo‘ladi. Aks holda ular yashirin imkoniyatlar, ehtiyojsiz layoqat sifatida talqin qilinadi. Shu bois kompetensiya muayyan vaziyatda ma’lum bir layoqatni namoyon qilish, ko‘rsatishni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz majburiy ta’lim tizimida o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishning asosiy maqsadi *“o‘rganuvchilarning kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tilida kommunikativ kompetensiyani, ya’ni o‘quvchining o‘zbek tili bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikmalarini muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatini shakllantirish ko‘zda tutiladi”* deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishda quyidagi asosiy vazifalar qo‘yilgan:

- o‘quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;
- o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;
- o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Ko‘p yillar davomida uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili ta’limining uzviyligiga amal qilinmadi. Natijada oliy ta’lim bosqichiga kelib davlat tili ta’limi yana grammatik material va umumiy, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi matnlar bilan tanishishdan iborat bo‘lib qolgan edi. Aslida, oliy ta’limda til o‘rganish mutaxassislik sohasi va fanlaridan kelib chiqishi va ular bilan uzviy bog‘langan holda kasbga yo‘naltirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Aynan shu yo‘nalishda til ta’limiga kompetent yondashuvni joriy etish talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Demak, o‘zbek tilining barcha ta’lim bosqichlarida o‘qitilishi mamlakatimizda yashovchi, boshqa tillarni ona tili deb biladigan fuqarolar uchun davlat tili ta’limi bo‘lib hisoblanadi. Shu bois u xorijiy tillar sirasiga kirmaydi. Davlat idoralarida o‘zbek tili asosiy muloqot tili bo‘lganligi tufayli esa uning qo‘llanish sohasi birinchi o‘ringa chiqadi. O‘zbek tilining mukammal o‘rganilishi uning funksionalligi jihatidan birinchi, ya’ni insonning maksimal darajada chuqur va to‘liq o‘zlashtirgan, oson, tez va sodda fikrlash hamda fikrni, muloqotni odatiy va qulay shaklda ifodalash vositasi bo‘lgan tilga aylanishini anglatadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН ADABIYOTLAR:

1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
2. Агманова А.Е. Предикативность: теория и моделирование усвоения второго языка / Монография. -Павлодар: ЭКО, 2007. -259 с.
3. Костомаров В.Г. Еще раз о понятии «родной язык» // Русский язык в СССР. -Москва, 1991. № 1.
4. Canale M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. №1.
5. Delamare F. & Winterton J. What is Competence? Human Resource Development International, Vol. 8, No.1, March 2005, Pp. 27–46.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA MATN YARATISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Mo‘minova Oydin,
O‘zDJTU O‘zbek tili kafedrasi
dotsenti, f.f.n.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldagi “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma’no-mazmunidan hamda uning dolzarbligidan kelib chiqib yangi ta’lim mazmuni, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o‘zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo‘lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. (1, 1) “Farzandlarimizni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarni chuqur

egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi", (2, 1) deb o‘z ma’ruzalarida ta’kidlab o‘tgan. Prezidentimizning ana shu so‘zlari biz, ta’lim sohasi ishtirokchilari uchun ham dasturulamal, ham ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borishi ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Bu turli millat vakillarining ham intellektual qirralarini shakllantirish, ularning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi. O‘zbekistonda yashab, o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan faol munosabatda bo‘lib, barcha sohalarda erkin fikr almashish hamda mutaxassisliklari doirasida davlat tilida ish yuritish uchun milliy qadriyat sanalmish o‘zbek tilini yetarli darajada egallashlari lozimligi zamon talabidir. O‘zbek tili ta’limi mazmuni talabalarning nutqiy savodxonligini grammatikani o‘qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutqiy mavzular doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi. O‘zbek tili ta’limi jarayonida grammatik, leksik, orfoepik, uslubiy me’yorlarni nutqiy mavzularni belgilovchi matnlar asosida tushuntirish va natijada og‘zaki va yozma nutqiy savodxonlikka erishish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Rus guruhlari talabalarining o‘zbek tilidagi monologik nutqini izchillik va mantiqiylik, o‘zaro bog‘liqlik va kontekstuallik tamoyillari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan matn oldi, matn usti, matn osti topshiriqlar tizimi, shuningdek, ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunish, turli mavzularda, ixtisoslik sohasida matn yaratish, matn ustida ishlash, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko‘chira olish kabi murakkab talablarni bajara olishi talabalarning tinglab tushunish ko‘nikma-malakalarini rivojlantiradi.

O‘zbek tilini matn tahlili asosida o‘qitishda rus guruhlari talabalarini tayyor matnlar topshiriqlari ustida ishlatishning o‘zi yetarli emas, ularda, avvalo, so‘zlardan so‘z birikmalari, so‘z birikmalaridan gaplar tuza olish, o‘z nutqiy faoliyatiga ijodiy yondashgan holda sintaktik sinonimik variatsiyalardan foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qildirish kerak bo‘ladi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruh talabalarida o‘zbekcha nutqiy ko‘nikmalarni hosil qildirishda turli gap qurilmalarini o‘rgatish, zarur bo‘lgan grammatik bilimlarni, so‘z va so‘z birikmalarining bog‘lanish qoidalarini nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o‘rgatish talab qilinadi. Bu o‘rinda e’tiborni matn yaratishga qaratish lozim.

Matn yaratishning bosqichli tizimi talaba xotirasi, idroki, tafakkuri, tilning nutqda moddiylashuv, yaxlitlashuv, uyg‘unlashuv jarayonini to‘g‘ri yo‘lga solish, lug‘at doirasini kengaytirish, og‘zaki va yozma matn yaratishda izchillik, uzviylik, uzluksizlik tamoyillariga, gapda so‘z tartibiga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Matn yaratishning bosqichli tizimi pastdan yuqoriga qarab harakatlanuvchi 4 ta alohida bosqichlardan iborat bo‘lib, ularning har biri

muayyan til sathlarida talabaning nutqiy bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash, mustahkamlash va rivojlantirish, ularni amaliyotga tatbiq etish, tanlangan tayanch so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari, ulardagi farqli va o‘xshash xususiyatlarni sharhlash, nutq o‘stirish mashqlarini bajarishga, ulardan so‘z birikmalari hosil qilish, gap tuzishga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlar tizimidan iborat. (3, 76-77).

Monologik nutqni egallash ko‘nikmalarini takomillashtirish fikrni mantiqiy rivojlantirib borishni va monologik nutq hajmini kengaytirib borishni taqozo qiladi. Bu o‘rinda talabalar mustaqil mulohaza yuritishni va o‘z fikrini asoslashni bilishlari kerak bo‘ladi. Monologik nutqqa o‘rgatishda qo‘llanadigan barcha ish turlari bir umumiy tizimga ega bo‘lishi, ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning bilimlarida ilgariga qarab o‘sish sodir bo‘layotganini his qilishlarini sezdirib borish zarur. Bu talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini va intilishlarini oshiradi. Quyida shu yo‘nalishda berilgan matn tuzish namunasini keltiramiz. Avvalo, quyidagicha mavzu tanlanadi: “So‘z - ko‘ngil malhami”. So‘ngra ***Matn yaratishning 1-bosqichi:*** mavzuga mos tayanch uyadosh so‘zlar, ya’ni so`z til birligiga assotsiativ birliklar tanlash,

ushbu so`zlarning sinonimlarini, omonim va antonimlarini topish vazifasi topshiriladi. Masalan: so‘z, til, zabon, lison; inson, kishi, odam, bashar, adib, yozuvchi, qalamkash; ko`ngil, yurak, qalb; gap, so`z, suhbat; adib-adip, til, ko`ngil kabilarning ma’nolarini aniqlashadi. Bu kabi sozlar ustida ishlash talaba tomonidan yaratiladigan matnning tili ravon, boy va mazmunli bo`lishiga, matn tarkibidagi imlo va tavtologik xatolarning kamayishiga olib keladi.

2-bosqichda ushbu so`zlardan so`z birikmalari hosil qilinadi. Ushbu bosqichda bajariladigan ish o`zbek tili ta’limining sintaksis bo‘limiga oid bo`lib, bunda talabadan mustaqil, o‘zida mavjud bo‘lgan so‘z boyligi, o‘zi topgan tayanch so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari hosil qilish talab qilinadi. Zero, so‘z birikmasining gap va matn qurilishidagi shakl va mazmun uyg‘unligini ta’minlash, gapning badiiy bo‘yoqdor va jozibador bo‘lishida tutgan o‘rni va ahamiyati katta.

Mazkur jarayonning eng muhim bo‘lgan 3-bosqichi talabalar uchun g‘oyatda qiziqarli bo‘lgan, kashf qilish, izlanishga yetaklovchi o‘quv topshiriqlari, ijodiy tafakkur hosilalaridan tarkib topadi. (“O‘ynab gapirsang, ham o‘ylab gapir”, So‘z

kishining o‘zagi, Odob kishining bezagi”, ”So‘z oyoqdan ilgari borar”, “So‘z chumchuq emas, Og‘izdan chiqsa, tutib bo‘lmas”).

4-bosqichda tuzilgan gaplar asosida bog‘lanishli matn yaratiladi.

1-bosqich	Tayanch so‘zlar tanlash	so‘z, til, zabon, lison; adib, yozuvchi, qalamkash; ko‘ngil, yurak, qalb; gap, so‘z, suhbat, malham
2-bosqich	So‘z birikmasi hosil qilish	Shirin so‘z, dag`al so‘z, dilni vayron qilmoq, muloyim tabiatli, so‘zning salmog`I, nutq ohangi, xushmuomala inson, yomon so‘z, yaxshi so‘z, shoirlar so‘zi, salomatligiga qattiq ta’sir qilmoq, har bir so‘z, har iborani o‘ylab gapirish, qisqa so‘zlash, muomala odobi.
3-bosqich	Gap tuzish	Shirin so‘z ko‘ngilga malham bo‘ladi. Kuch bilan erisha olmagan narsaga yaxshi so‘z bilan erishish mumkin. Bir og`iz dag`al so‘z kishi dilini vayron qiladi, ruhini tushiradi, asablari va salomatligiga qattiq ta’sil qiladi. Modomiki shunday ekan, yaxshi so‘z turganda yomon so‘z bilan dilni og`ritishga ne hojat.
4-bosqich	Matn yaratish	So‘z tirik jon yanglig‘ ilohiy ne'mat, unga yolg‘on, makr, fisq-u fasod aralashsa, joziba va latofatini yo‘qotadi. Shirin so‘z ko‘ngilga malham bo‘ladi. Bir og`iz dag`al so‘z kishi dilini vayron qiladi, ruhini tushiradi, asablari va salomatligiga qattiq ta’sir qiladi. Modomiki shunday ekan, yaxshi so‘z turganda yomon so‘z bilan dilni og`ritishga ne hojat. Yaxshi so‘z, yaxshi xabar dilni quvonchga to‘ldiradi, yuragiga malhamdek ta'sir qiladi. Shu boisdan ham xalqimizda tilga e'tibor berish, har bir so‘z, har iborani o‘ylab gapirish, qisqa so‘zlash, muomala odobi va madaniyatiga qat'iy rioya qilish xususida quyidagicha ko‘plab hikmatlar mavjud: “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki naqli bor”.

Mustaqil fikrlashga undovchi matnni kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar ham berish mumkin. Talabalar tuzgan gaplari va birikmalarini qo‘shib, tayanch matnni kengaytirilgan shaklda yozishi, ayni paytda, fikrga munosabat bildiruvchi so‘zlar va birikmalar yordamida matnni xulosalashi, bunda maqol va aforizmlardan, ko‘chirma yoki o‘zlashtirma gaplardan foydalanishlari kerak bo‘ladi. Quyida shu yo‘nalishda berilgan topshiriq va uning bajarilishi namunasini keltiramiz:

Kichik matnni o‘qing va quyida berilgan topshiriqlar asosida bosqichma-bosqich kengaytirib matn tuzing: *So‘z tirik jon yanglig‘ ilohiy ne’mat, unga yolg‘on, makr, aralashsa, latofatini yo‘qotadi. Shirin so‘z ko‘ngilga malham bo‘ladi. Bir og‘iz so‘z kishi dilini vayron qiladi va salomatligiga ta’sir qiladi. Olimlarning guvohlik berishlaricha, so‘z asab va yurak qon tomir o‘zgarishlarining ehg xarakterlovchi ta’sirlovchisi ekan. So‘z ta’siri kishi organizmiga turlicha-*

ba’zilarning asabiga, boshqa birovning oshqozon-ichak tizimiga ta’sir etarkan. Birovni xafa qilgan kishining o‘z asabi ham asta-sekin yemirilib, kasalikka uchraydi.

1.Matndagi gaplarni obyekt bildiruvchi bo‘laklar bilan to‘ldiring. Ushbu bo‘laklarga savol bering, grammatik shaklini tushuntiring.

2. Matnni ko‘makchili konstruksiyalar bilan to‘ldiring. Bunda quyidagi ko‘makchilardan foydalaning: bilan, uchun, kabi, singari, tomon, yonida, atrofida, tepasida, orqasida, o‘rtasida, qoshida.

3. Matndagi gaplarga belgi bildiruvchi so‘zlar qo‘shib, matnni kengaytiring. So‘ngra sifatlovchili, qaratqichli va izohlovchili birikmalarni 3 guruhga ajratib yozing.

4. Matndagi har bir ish-harakatning qaytarzda bajarilishini bildiruvchi so‘zlar yoki birikmalarni qo‘shib, holli birikmalar tuzing. Ularga savol bering, bog‘lanishi va ifodalanishini tushuntiring.

5.Matnga o‘rin va payt ma’nosini ifodalovchi so‘zlar qo‘shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.

6. Matnga sabab va maqsad ma’nosini ifodalovchi so‘zlar qo‘shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.

7. Matnga shart va to‘siqsizlik ma’nosini ifodalovchi so‘zlar qo‘shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.

8. Matnga o‘xshatish va qiyoslash ma’nosini ifodalovchi so‘zlar qo‘shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.

9. Tuzgan gaplaringiz va birikmalaringiz hamda fikrga munosabatni ifodalovchi so‘zlar, birikmalar qo‘shib, matnni kengaytirib yozing.

10. Matnga ko‘chirma yoki o‘zlashtirma gaplar qo‘shing va xulosalang.

Matn: *So‘z tirik jon yanglig‘ ilohiy ne’mat, unga yolg‘on, makr, fisq-u fasod aralashsa, joziba va latofatini yo‘qotadi. Shirin so‘z ko‘ngilga malham bo‘ladi. Bir og‘iz dag`al so‘z kishi dilini vayron qiladi, ruhini tushiradi, asablari va salomatligiga qattiq ta’sir qiladi. Olimlarning guvohlik berishlaricha, so‘z asab va yurak qon tomir o‘zgarishlarining ehg xarakterlovchi ta’sirlovchisi ekan. So‘z ta’siri kishi organizmiga turlicha - ba’zilarning asabiga, boshqa birovning oshqozon-ichak tizimiga ta’sir etarkan. Birovni xafa qilgan jahldor kishining o‘z asabi ham asta-sekin yemirilib, kasalikka uchraydi. Buyuk hakim Ibn Sino o‘z nodir asarlarida quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan:”Inson har doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa odamlarni rahjitmasligi, dilini vayron qilmasligi hamda o‘zi ham xushtabiatli bo‘lmog‘i lozim”. Modomiki shunday ekan, yaxshi so‘z turganda yomon so‘z bilan dilni og`ritishga ne hojat. Yaxshi so‘z, yaxshi xabar dilni quvonchga to‘ldiradi, yuragiga malhamdek ta’sir qiladi.*

Shu boisdan ulug‘ mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy aytgan hikmatlarga amal qilaylik: Agar bir ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so‘z va shirin til unga malham va rohatdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, bunday tizimlashtirilgan topshiriqlar talabalarning avvalgi bosqichlarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini turli vaziyatlarda amalda qo‘llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda ularning

bog‘lanishli monologik nutqini rivojlantiribgina qolmay, mustaqil fikrlash faoliyatlarini ham o‘stiradi. Ushbu faoliyat talabalarni matn turlarini farqlashga o‘rgatish, matndagi gaplarni analiz va sintez qilish, imloviy va uslubiy xatolarni farqlash va bartaraf qilish, matn mazmunini ochib beradigan, badiiy bo‘yoqdor so‘zlarni guruhlash va tanlash, fikrni aniq, izchil va ravon ifodalash, matndan to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarining shakllantirilishi va mustahkamlanishini ta’minlaydi. Mazkur jarayonda muammoli ta’lim metodlari, lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari, tizimli fikrlash va izchil fikr ifodalash usullaridan foydalansh natijasida talabalarning kommunikativ savodxonligi oshadi, ya’ni so‘z boyligi, ijodiy tafakkur doirasi kengayadi, ijtimoiy muloqot-yozma va og‘zaki ifodali fikrlash mahorati yuksaladi, mustaqil matn yaratish ko‘nikmalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil 8-dekabr.

2.O‘zbekiston Respublikasi 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan ”Harakatlar strategiyasi”. -T.: O‘zbekiston, 2017.

3.Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent: Fan, 2007.

4.Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2013.

5. Yo‘ldoshev R.Uzluksiz o‘zbek tili ta’limida yondashuvning tatbiqiga doir // Uzluksiz ta’lim. –Toshkent: 2008. – 5-son. –B. 20–24.

СИНОНИМИЯ ТЕРМИНОВ КРУПНОРОГАТОГО СКОТА

Уринова Олима Тагаевна,
доцент кафедры узбекского языковедения
Каршинского государственного университета
e-mail: baitov.shahboz@gmail.com

Язык, как абстрактное явление одновременно отражает и духовный мир человека, и материальную систему всего объективного, что нас окружает.

Одним из важных признаков языка является то, что он на основе социальной практики выражает мир в адекватном виде, то есть тождественно с объективной действительностью, равно, конкретно. Именно в этом заключаются стабильность и долголетие языка. В нём существуют сложные и разнообразные отношения между составляющими элементами. Эти отношения обеспечивают богатство языка и его безграничные возможности в плане выражения. Исключением не является также и лексический ярус языка.

Под иерархическим свойством языка понимаются отношения между ярусами языка, а также элементами, составляющими данные ярусы. Непосредственная связь элементов, обеспечивающих целостность языка, называется отношением. В связи с появлением системно-структурных

методов в языкознании выявлены различные виды таких отношений, в том числе: парадигматические, синтагматические, иерархические и т.п. [Взаимодействие языковых единиц различных уровней,1981] Основным признаком таких отношений является сходство и различие между элементами. По мнению Х.Нигматова и Р.Расулова, отношения между единицами языка можно изучать, разделив их на три вида.

1. Парадигматические отношения (по сходству).
2. Синтагматические отношения (по соседству).
3. Иерархические отношения (ступенчатые). [Нигматов Х., 1995:14-15]

Если исходить из того факта, что язык как система систем, адекватно отражает мир, то, следовательно, расположение составляющих данную систему не может быть беспорядочным; элементы, разветвляясь, составляют отдельные категории – парадигмы. Например, слова, входящие в систему терминов скотоводства: *қатиқ (кефир), қаймоқ (сливки), сузма (процеженное кислое молоко), сарёғ (топленое масло), сметана, сут (молоко)* объединяются в одну группу на основе единого общего признака.

Этим признаком в данном случае является слово *молоко*, которое обнаруживается в семантической структуре каждого из вышеперечисленных слов. В связи с наличием именно этого признака в своей семантической структуре слова составляют гнездовое отношение. В данное гнездо мы можем объединить даже те слова, которые имеют характер профессиональной лексики или термины. Возьмем, к примеру, термин «чилчуп». Узбекский писатель Ш.Халмирзаев в своём романе «Мост из волоска» отметил, что горное население Сурхандарьинской области называет «чилчупом» сливки, появляющиеся на поверхности вскипяченного молока, которые отбираются с помощью специальной палочки. Признак «молока», имеющийся в семантической структуре данного слова, обеспечивает ему место в вышеназванной парадигме.

В лексемах *айран* и *чалоб* (напитки, приготавливаемые из густого процеженного кефира) теряется признак молока, следовательно, появляется другой признак – прохладительного напитка. Значит, эти слова не имеют отношения к вышеназванной парадигме, они вместе с такими лексемами, как *сироп, квас, кисель, компот, лимонад*, составляют парадигматический ряд «Прохладительных напитков». Соединение по определенному общему признаку равнозначных единиц, относящихся к одному и тому же ярусу, называется гнездовым отношением. [Нурмонов А., 2001:9] Такие отношения в системе терминов скотоводства бесчисленны. В то же время, они резко отличаются от терминов системы овцеводства, коневодства и верблюжеводства, которые близки по семантике с терминами скотоводства. Например, лексема *кумыс*, занимающая важное место в терминологической системе коневодства, не входит в систему скотоводства, хотя в ее семантической структуре имеется сема «молоко». Так как в семантической структуре лексемы «молоко» в нашем понимании нет таких сем, как «кобыла» и «чувство легкого опьянения».

Системный характер языка, обеспечивает наличие небольших семантических полей в системе терминов скотоводства, как и в других терминологических системах. Значение лексемы проясняется с помощью семантических отношений внутри парадигмы. Например, рассмотрим лексему *чўпон* (пастух), которая, занимает особое место в системе терминов скотоводства.

В толковом словаре узбекского языка данное слово растолковано как «присматривающий на выпасе за мелким скотом»[Толковом словаре…, 1981:387]. Вообще, в узбекском языке слова с общим понятием «пастух» имеют разнообразную форму в зависимости от того, за каким скотом присматривает человек: *қўйбоқар* (пастух, чабан), *молбоқар* (скотник), *бузоқбоқар* (телятник), *эчкибоқар* (козопас), *йилқибоқар* (табунщик), *чўчқабоқар* (свинарь). Из данных терминов только *молбоқар* и *бузоқбоқар* входят в группу терминов скотоводства. Иногда вместо вышеназванных терминов используются слова *подачи* (пастух с общим значением), *подакаш* (подпасок). Однако анализ семантического поля животноводства показывает, что незнание системных особенностей терминов данного поля приводит к стилистическим нарушениям.

На основе вышесказанных мы пришли к выводу, что семантические отношения между единицами лексического яруса следует изучать, разделив их на следующие группы:

1. Гипонимические отношения;
2. Партонимические отношения;
3. Синонимические отношения;
4. Градуонимические отношения;
5. Функционимические отношения;
6. Антонимические отношения.

Данные отношения не искусственно вымышленные явления, а своеобразная классификация, то есть разделение лексической системы на группы на основе многолетнего опыта, накопленного в результате распознания мира.

Лингвист Д.Набиева показывает три этапа системно-структурного изучения объекта: а) непрерывное; б) структурное; в) системное [Набиева Д.,2005:5].

Среди терминов крупного рогатого скота действуют лексическо-семантические виды, отражающие многозначные связи. Потому что, чтобы выразить какое-то понятие системы терминов крупного рогатого скота, следует пользоваться различными видами языковых словарей, что отражено в говорах Кашкадарьинской области. Так как расширение употребления элементов литературного языка в диалектах Кашкадарьинской области и наличие в области различных типов говоров являются объективным доказательством широкого охвата синонимик или вариантных отношений.

Особенно это ярко видно в пометах терминов животноводства или крупного рогатого скота.

Следовательно, (пятнистый) в зависимости от оттенков цвета, входящие в состав терминов крупного рогатого скота, лексемы обладают силой «корова в шерсти которой местами встречаются темные пятна». Этот термин применяется при определении родинок на теле человека.

Таким образом, какого бы цвета не было животное, у крупного рогатого скота, на теле которого местами встречаются темные пятна, в диалектах Кашкадарьи именуются термином «пятнистый» (крапчатый-холдор). Эквивалентом, синонимами этого термина употребляется термин «чигидор».

С точки зрения семантики, термин «Қора доғ» - черное пятно, несколько отличается от термина «холдор» пятнистый, но доминантные слова выражающие их понятия, одинаковые.

Термины «нончи» и «емчи» между собой в синонимическом отношении. Некоторые животные (коровы) привыкшие брать еду с рук пастуха, тоже именуются терминами «нончи», «емчи». Но они отличаются спецификой своих сем. Например, сема «крупный рогатый скот» «нончи» термина. Если образован «образовавший обязательный рефлекс», «привыкший определенное время кушать хлеб с рук пастуха», отличается наличием частицы «ем» вместо частицы «нон» относящейся к семе лексемы «емчи».

Синонимия присуще и к личным именам, связанным с жизни деятельностью пастухов.

В сущности, термины «молбоқар» (животновод), «чўпон» (пастух), «чўлиқ» состоят в гипонимическом отношении. Здесь «молбоқар» (животновод) гипероним, лексемы «чўпон» (пастух), «чўлиқ» гипонимы.

Будучи в гнездовом отношении гипероним и гипонимы в речевом контексте выступают и синонимами. Например, в речи можно одновременно использовать термины и «чўпон», и «чўлиқ»: «Скотовод. Содержатель скота, пастух. Поливальщики чистят арыки, пастухи косят клевер. Айни. Рабы [ЎТИЛ.I, 1981:470]. В словаре (ЎТИЛ) лексема «чўпон» рекомендована «человек пасущий на пастбище мелкий скот» [ЎТИЛ.II,1981:387]. Однако термин «чўпон» в Кашкадарьинском диалекте употребляется и в отношении скотоводов, выращивающих и крупный рогатый скот и с лексемами выражающими семы «литературное применение», «диалектное применение» выступает в отношения отличающиеся смысловым содержанием.

И в продуктах животноводства встречаются смысловые (синонимичные) отношения. Например, термины «ширхўрда” (молочный рисовый суп) и «ширқовоқ» (молочный рисовый суп с тыквой); «шезда» и «мича»; «уютқи» и «кўнарги»; «мет» (бурдюк) и «тулуп», «хурма» (подойник) и «кади» (тыквянка) являются подтверждением нашего мнения.

В заключение можно сказать, что термины животноводства полностью отражают все виды лексико-семантических отношений.

Мы выше осветили некоторую их специфику. Думаем, что приведенные нами примеры помогут полнее представить лексическую семантику терминов животноводства.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Гак В.Г. Слово// Лингвистический энциклопедический словарь. -М., 1990. стр.464.

2. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. –М.: Наука, 1975. - 357 с.

3. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Т.: Шарқ, 2005. -5б

4. Нигматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. -14-15- б.

5. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. -Т.: Янги аср авлоди, 2001, 9- б.

6. Толковый словарь узбекского языка. (ЎТИЛ) (в двух томах). –М.: Русский язык, 1981.т.2. -387 с.

O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O‘QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI VA USULLARI (TA’LIM RUS VA QARDOSH TILLARDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARNING 5-SINFDA O‘ZBEK TILI DARSLARI MISOLIDA)

Muhammedjanova Gulnora
I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti (MTU) Toshkent shahridagi filiali.
p.f.n., Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrasi dotsenti
Nosirov Abdusamad
I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti (MTU) Toshkent shahridagi filiali UEE
18-01-guruh talabasi

Ta’lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy faoliyatning to‘rtala turini (gapirish, o‘qish, nutqni tinglab tushunish, yozma nutq) o‘rgatish mashg‘ulotlardagi asosiy ish turlarini ifoda etadi. Bugungi kunda ushbu to‘rt yo‘nalishdagi ta’limiy tadbirlar o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma bayon qilish hamda axborot olish madaniyati, mutolaa madaniyatini egallashga tomon qarab boradi, shu tufayli ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha erishiladigan natijalarning ta’lim jarayonidagi, o‘quvchilar hayotidagi ahamiyati yanada ortadi. O‘zbek tilida nutqiy muloqot madaniyatini egallash, og‘zaki va yozma axborot manbalarining mazmunini nutqni tinglash yoki matnni o‘qish orqali tushuna olish rus va boshqa millat vakillari, ularning farzandlari uchun birday zarurdir.

Nutqiy faoliyatning to‘rtala turini o‘rgatish sohasida olib boriladigan ishlarning samaradorligini ta’minlash yo‘lida qo‘llanadigan metod va usullar, birinchi navbatda, o‘quvchilarda mustaqil ravishda gap tuzishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga erishilgan yoki erishilmaganlikka qarab

baholanadi va tanlanadi. 5- sinf uchun yaratilgan O‘zbek tili darsligida berilgan mashq va topshiriqlarda shu to‘rt amal orqali til o‘rgatishga ahamiyat berildi.

Ma’lumki, 5-sinfdan boshlab o‘quvchilarga o‘zbek tilining Grammatik qoidalarini izchil singdirish, matn mazmuniga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini o‘stirish va yozma nutq savodxonligini oshirishga va yozma nutq savodxonligini oshirishga keng e’tibor beriladi. O‘quvchining o‘zbekcha nutqini rivojlantirishda faqat so‘z boyligini oshirish bilan cheklanish to‘g‘ri emas. Nutq rivoji, avvalo, fikrlash – tafakkur, ong, idrok kabi psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham til ta’limida so‘zlar yordamida tushinchalarni idrok etish, tinglangan yoki o‘qilgan matnni tushungan holda xotirada mustahkamlash va shu orqali so‘zlash yoki yozish vositasida unda o‘z munosabatini bildirishga erishish muhim samara berishi isbotlangan. Shuni nazarda tutib, 5-sinfdan boshlab o‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirish orqali o‘zbek tilida mustaqil fikrlash, matn ustida ijodiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

5-sinfdan boshlab boshlang‘ich ta’lim bocqichida o‘rganilgan nutqiy mavzularni mustahkamlash, o‘zbek tilida erkin muloqotga amal qilishga o‘rgata borish lozim. Nutqiy qoliplardagi gap qurilishi kengaytirilib, murakkablasha boradi. Bu jarayon bilimlarni uzluksiz, ketma-ket, bosqichma-bosqich o‘zlashtirishni taqazo etishi lozim. Masalan, “Онажонлар байрами” mavzusini o‘zlashtirish sифат сўз туркуми. Ранг-тус билдирувчи сифатларнинг қўллау bilishni taqazo etsa, “Наврўз” mavzusini o‘zlashtirish таза-таъм билдирувчи сифатларнинг қўлланишини bilishni shart qilib qo‘yadi. Bunda o‘qituvchi eng zarur va sodda Grammatik qoidani tushuntirmay turib, murakkabroq bilimlarni singdira olmasligini anglashi lozim. Demak, fan o‘qituvchisi til ilmidan yetarli bilimlarga ege bo‘lishi barobarida nutqiy bog‘liqligini har darsda ta’minlashga harakat etishi lozim.

«Kadrlar tayyorlash mitliy dasturi»da: «Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an’analari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta’minlanadi», deb qayd etilgan [Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 1997]. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va keng ommalashtirish zarurati alohida qayd etib o‘tilgan. Hozirgi kunga kelib ta’lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri – pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir.

Hozirgi kunda ta’limda yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o‘quv jarayoniga tatbiq qilish kun sayin kuchayib bormoqda. O‘qitishning bunday faol usullari o‘quvchilarni mehnat qilishga, diqqatini to‘plashga, o‘z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga, izlanishga chorlaydi, ularning darslarga qiziqishi ortib, darsga qatnashishi faollashadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llashda noananaviy dars usullaridan foydalanish orqali iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, faolligi sust o‘quvchilarning o‘z kuchlariga ishonch hosil

qilishlari uchun sharoit yaratish, sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamkorlik tuyg‘ularini shakllantirishga erishish nazarda tutiladi.

Pedagogik texnologiya – ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish hamda o‘zlashtirish jarayonidan iborat. Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘ikazish faoliyatidan iborat.

Ma’lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta’limning yangi loyihasini rivojlantiravchi ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan boiishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi.

Hamkorlikka asoslangan ta’lim besh asosiy elementga ega:

1. Ijodiy o‘zaro bog‘liqlik (bir-biridan yordam so‘rash, yordam berish, guruhlarda ishlash natijasida ijobiy tomondan bir-biriga bog‘lanish yuzaga keladi).

2. Mas’uliyatlilik (o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish; o‘zi, sherigi va guruhi uchun javob berish; vazifalarga Mas’uliyat bilan yondashish; bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun Mas’ullik hissini rivojlantiradi).

3. «Yuzma-yuz o‘tirish imkoni» (juft bo‘lib yoki guruh bo‘lib ishlaganda o‘quvchilar yuzma-yuz, ya’ni bir-biriga qarab o‘tirishlari kerak. Shu holatda o‘zaro fikrlashib, bahslashib, qarorlar qabul qilishlari osonlashadi, bir-birini eshitish, tinglash malakalari shakllanadi).

4. Ijtimoiy malakalar (hamkorlikdagi faoliyat natijasida o‘quvchilar bir-birlarining qobiliyatlarini aniqlay boshlaydilar, ya’ni kim rasm chiza oladi, kim tez yoza oladi, kim g‘oyalar bera oladi va h.k. Bundan tashqari o‘quvchilar juft bo‘lib yoki guruhda ishlaganlarida bemalol gapira olish imkoniga ega bo‘ladilar (bunda o‘qituvchi o‘quvchining gapini «to‘g‘ri» yoki «noto‘g‘ri» deb baholaydi), demak bunda og‘zaki nutq rivojlanyapti, xuddi shu vaqtda qolganlar tinch eshitishi kerak, ularda tinglay olish malakalari shakllanyapti. Yangi, yaxshi fikrlar qo‘llab-quvvatlandimi, demak, fikr egalarida o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi; o‘quvchilar o‘zlari qaror qabul qila boshlaydilar, bu qarorlarni himoya qila oladilar. Shunday qilib, o‘quvchilar jamiyatda mustaqil hayot kechirishda o‘zlari uchun zarur bo‘ladigan turli ijtimoiy malakalarga ega bo‘ladilar).

5. Baholash (hamkorlik jarayonida o‘quvchilar bir-birlarini kuzatadilar, nazorat qiladilar, baholaydilar. O‘qituvchi o‘quv jarayoninig boshqaruvchisi sifatida kuzatadi, biroq o‘quvchilarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart. Bu jarayonda har bir berilayotgan baho ma’lum faktlar asosida tushuntirilishi va izohlanishi kerak. Baholash jarayonida o‘quvchilar o‘z-o‘zlariga ham baho berishlari mumkin. Bu holat ularni o‘zlariga tashqaridan nazar tashlashlariga, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishlariga o‘rgatadi).

Darsning faol, mahsuldor, ta’sirchan va samarali bo‘lishida darsning yangi shakllari, o‘qitish metodlari, ko‘rgazmali qourollar va texnika vositalaridan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

E’tiboringizga “O‘zbek tili” darslarida samarali texnologiyalar va usullaridan foydalanish uchun namuna keltiramiz.

Darsning mavzusi: Ustozga rahmat. (–lar ko‘plik qo‘shimchasining ishlatilishi

Mustahkamlash: “Yumaloq qor” mashg‘uloti Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy haqidagi rivoyat asosida o‘tkaziladi.

Maqsad: o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirish so‘z boyligini oshirish, mustaqil va mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

Ta’rifi: Mashqning mavzusi beriladi. Dastlab har bir ishtirokchi uning ustida individual ravishda o‘y suradi va o‘z fikrlarini yozib oladi. So‘ng esa guruh ishtirokchilari juftliklarga birlashadilar va o‘zlarining barcha fikrlarini bir varaqqa yozadilar. Takrorlanadigan fikrlar bir marta yoziladi. Shundan keyin guruhlar 4 kishilik bo‘lib birlashadilar va hokazo. Natijada (8 kishidan katta bo‘lmagan) guruh shakllanadi. So‘ng (8 kishidan iborat) guruh har bir ishlab chiqilgan fikrni alohida varaqlarga yozib oladi va ularni vatman varag‘i yoki doskaga mahkamlab, ishlanmalarni taqdim etadi.

Foydalanish doiralari

Mashq birinchi navbatda muloqotni tartibga soluvchi vosita sifatida qo‘llaniladi va ko‘pincha oddiy o‘quv topshiriqlar bilan bir qatorda ishlatiladi. Bu jarayonda adabiy qahramonlarni, tarixiy muammolarni, tabiat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va hokazolarni muhokama qilish mumkin.

Afzalliklari: Axborotni tanlab olish ko‘nikmalarini hosil qiladi;

Quyidagilarga o‘rgatadi:

- Tarqoq holatdagi faktlarni yagona bir shaklga bog‘lash;
- Mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- O‘quvchilarni tinglash va fikrlarini e’tiborga olish.
- Guruhning barcha a’zolarining fikrlarini hosil qilish va muvofiqlashtirish.

Bunday texnikadan foydalanishda deyarli barcha ishtirokchilar faol muhokamaga kirishadilar.

Qiyinchiliklari: O‘qituvchiga o‘quvchilarni baholash qiyin. Baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish kerak, chunki ushbu mashqni bajarishda o‘quvchilar ko‘pincha bir-biriga yoki o‘zlariga baho beradilar.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

1-topshiriqdagi matnini “O‘rgan, o‘rgat” mashg‘uloti (1-guruh o‘z qismini 2-guruhga. 2-guruh o‘z qismini 1-guruhga o‘rgatadi) orqali o‘rganamiz.

Maqsad: Guruh a’zolari tomonidan belgilangan o‘quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarishiga erishish. Og‘zaki nutqini o‘stirish. Mantiqiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Sinf o‘quvchilari 3 guruhga bo‘linadi. Matn uch qismga bo‘linadi. Guruhdan bir o‘quvchi chiqib hohlagan qismini tanlab oladi. Berilgan topshiriqlar asosida matn ustida ishlanadi. Matnni “Zanjir” usulida ifodali o‘qing. Tarjima qiling. O‘z so‘zingiz bilan so‘zlab bering. Matn yuzasidan berilgan savollarni har bir guruh o‘zaro savol- javob o‘tkazadilar.

1-guruhga:

Kunlardan bir kun biri boy, ikkinchisi kambag‘al ikki ota o‘g‘illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo‘lishdi.

– Ey ulug‘ tabib, bolalarimizni tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo‘lsa, oldin sinovdan o‘tkazar, so‘ng tabiblik ilmini o‘rgatar edi.

Ibn Sino: „Bolalarim, tog‘-u toshlar kezinglar, cho‘l-u dashtlarga borib, har biringiz ming donadan o‘t-giyoh terib kelinglar“, – deb ularga xalta berdi. Oradan bir necha kun o‘tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yig‘gan giyohlarini Ibn Sinoning oldiga to‘kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko‘rgan Ibn Sino quvonib so‘radi:

– Barakalla, o‘g‘lim, dorivor giyohlarni teribsan. Qani, ayt-chi, oyoq qavarishiga nima davo bo‘ladi?

– Mening tabiblikdan xabarim yo‘q, – dedi bola, – sizga o‘zim endi shogird tushdim-ku.

2-guruhga:

– Mening tabiblikdan xabarim yo‘q, – dedi bola, – sizga o‘zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: „Senga javob, o‘g‘lim, ketaver! Borib savdogarga shogird tush“, – dedi.

Oradan bir kun o‘tgach, kambag‘al kishining o‘g‘li kelib, to‘plagan o‘tlarini hakimning oyog‘i ostiga to‘kdi. Ibn Sino juda xursand bo‘lib:

– Barakalla, bo‘tam, qani ayt-chi, oyoq qavarganiga nima davo bo‘ladi? – deb so‘radi.

– Yovvoyi rayhon yoki yalpizni suvda ivitib, ozgina tosh tuzdan qo‘shib yuvish kerak, – javob berdi bola.

– Cho‘l-dashtda qolding-u, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – bolani yana savolga tutdi Ibn Sino.

– Yantoqning suvi chanqoqni qoldiradi, ham darmon bo‘ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o‘g‘lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo‘lding!

Vazifani bajarish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan topshiriqlarni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng har bir guruh o‘z taqdimotini o‘tkazadi.

O‘qituvch tomonidan yakunlanib, har bir guruh namoish qilgan taqdimotlari asosida baholanadilar. Mustaqil ish. “Ustozlar“ she’rini “Ikki qismli kundalik” mashg‘uloti orqali o‘rganamiz. **“Ikki qismli kundalik” metodi.** Bu usulni matn ustida ishlash yoki she’rni o‘rganishda qo‘lash mumkin. O‘tkazilish usuli. Daftar varag‘i ikkiga bo‘inadi, chap tomonga she’rdagi o‘quvchiga yoqqan satrlar yoziladi. O‘ng tomonga esa o‘quvchiga nima sababdan shu satrlar yoqqani haqida yoziladi. Topshiriqni bajarib, har bir o‘quvchi yozgan ishini o‘qib asoslab beradi.

Maqsad: Og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish. Mantiqiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». —T.: «Ma’rifat» gazetasi, 1997.

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎЗБЕК ТИЛИНИ ДАВЛАТ ТИЛИ СИФАТИДА ЎҚИТИШ МАСАЛАЛАРИ

Очилов Насим,
филология фанлари доктори
(DSc), доцент, Қарши давлат
университети кафедра мудири
nasim.ochilov@mail.ru

Бугунги таълим жараёнининг миллий қадриятлар асосида уйғунлаштирилаётганлиги ёш авлодни она-Ватанга муҳаббат, аждодлар меросига ҳурмат руҳида тарбиялаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Замонавий ва миллий талаблар асосида яратилаётган дарслик, ўқув қўлланмаларда ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатишга қаратилган мавзулар бой маънавий меросимиз ҳисобланган маданий тилимиз қонун-қоидаларини талабалар томонидан ўзлаштириш муҳим омиллардан ҳисобланади. Зеро, Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг: “Давлат тили масаласи миллий ғоямизнинг асосий тамойилларидан бири бўлиши зарур. Ёш авлод қалбига она тилимизни болаликдан сингдириш мақсадида таълимнинг барча босқичларида ўзбек тилини замонавий ва инновацион технологиялар асосида мукаммал ўргатишга алоҳида эътибор қаратишимиз лозим. Токи, болаларимиз ўзбек тилида равон ўқийдиган, равон ёзадиган ва теран фикрлайдиган инсонлар бўлиб етишсин”[1] деган фикрларида ҳам давлат тилини ўргатиш масаласига алоҳида урғу берилади. Шунингдек, “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонида ҳам давлат тилининг халқаро миқёсдаги ўрни ва нуфузини ошириш, ўзбек тилининг илм-фан тили сифатидаги ўрни, давлат тилининг замонавий ахборот технологиялари ва коммуникацияларига фаол интеграциялашувини таъминлашдек муҳим вазифалар белгиланган[2]. Шулардан келиб чиққан ҳолда таълим жараёнида она тилимизнинг бой ва бетакрор имкониятларидан фойдаланган ҳолда талаба-ёшларнинг илмий ва ақлий тафаккурини ўстиришга эътибор қаратилмоқда. Таълимнинг барча турлари каби олий таълимнинг нофилологик йўналишларида ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитишга мўлжалланган “Ўзбек тилининг соҳада қўлланилиши”, “Давлат тилида иш юритиш ва имло қоидалари” каби фанларининг ўқув жараёнига киритилганлиги талабаларни соҳага йўналтирилган термин ва тушунчаларни мазмун моҳиятини ўзлаштириш усулларини тезлаштиради. Иккинчидан, ўзбек тилининг соҳада қўлланиши фанини ўзлаштириш орқали давлат тилида оғзаки ва ёзма мулоқот юритиш, тилнинг орфоэпик ва имло қоидалари, соҳавий

терминология, мутахассислик тили, нутқий кўникма, соҳавий ҳужжатларни тўлдириш ва расмийлаштириш масалаларини ўрганиш талабаларнинг илмий дунёқарашини, мутахассис нутқининг тил хусусиятларидан мақсадли фойдаланиш кўникмаларини шакллантиради. Бу каби хусусиятларни амалга ошириш масалаларида матний дидактик ўйинлар ёрдамида тилни тизимли, соҳавий ўргатиш малакаларини ўстиришда муҳим омил вазифасини ўтайди. Талабаларга давлат тилини ўргатиш асосида ўзбек тилидан эгаллаган билим ва кўникмаларини мустаҳкамлаш, танлаган ихтисослиги доирасида тилни мукаммал ўзлаштириш имкониятларини кенгайтиради. Шулардан келиб чиққан ҳолда, давлат тилини нофилологик таълим йўналиши талабаларига тизимли ўргатиш масалаларини йўлга қўйиш орқали нутқ жараёнида ўзбек тили имкониятларидан тўғри фойдаланиш, касбий мулоқот юритиш кўникмаларини оширишдаги амалий ва назарий масалалардан биридир. Давлат тилини ўқитиш жараёнида фаннинг энг сўнгги ютуқларини эътиборга олган ҳолда талабаларни соҳа йўналишлари юзасидан илмий ижодкорлигини ошириш воситаларини ишлаб чиқиш ва шу асосда уларни муаммо устида бош қотиришга ундовчи матнли топшириқлар устида ишлатиш масалалари ҳам талабаларни ижодкорлик қобилиятларини шакллантиришдаги асосий омиллардан биридир. Айниқса, машғулотларни турли таълим технология ва методлари асосида ташкил этишда тил имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ҳисобга олиниши лозим. Кичик гуруҳларда ишлаш, ўйинли технологиялар, тақдимот қилиш, синквейн, кластер, дебат ҳамда бошқа интерфаол ва инновацион методлардан фойдаланиб машғулотларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

Таълим жараёнида ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитишнинг қуйидаги масалаларига эътибор қаратиш лозим:

Биринчидан, талабаларни таълим йўналишлари имкониятларидан келиб чиққан ҳолда ихтисосликка оид турли нутқ услубларида матн туза олиш кўникмаларини шакллантириш, ўзбек тилини ўқитишнинг замонавий методикасини яратиш.

Иккинчидан, ўзбек тилида нутқий саводхонликни таъминлаш масалаларига эътибор қаратиш. Бунда талабалар соҳага оид луғатлар устида ишлаш, термин ва тушунчаларнинг моҳиятини англаш, мутахассиликка оид назарий тушунчаларини ўзбек тили адабий меъёрлари асосида такомиллаштира олиш хусусиятига эга бўлишини таъминлаш.

Учинчидан, мутахассис нутқининг коммуникатив сифатларини шакллантириш, маданий нутқ мезонларига эътибор қаратиш асосида илмийлик, мантиқлилик ва хулосавийлик каби жараёнларни шакллантира олиш қобилиятига эга бўлиши лозим. Таълим йўналишлари ҳисобга олинган ҳолда лингвистик, соҳавий-терминологик, изоҳли луғатларни яратиш ишларини амалга ошириш.

Тўртинчидан, ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатишда давлат тилида иш юритиш ҳужжатларидан фойдаланиш малакаларини

шакллантириш, ҳужжатларнинг лексик, грамматик ва услубий хусусиятларини замонавий методларини ишлаб чиқиш.

Бешинчидан, ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш имкониятларини илғор педагогик ва ахборот технологиялари асосида ўқитиш ишларини йўлга қўйиш орқали дарснинг мазмуни, самарадорлигини ошириш, шунингдек, талабаларни соҳага оид муаммоларни тил имкониятларидан фойдаланиш усулларини мақсадли ташкил этишни йўлга қўйиш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // uza.uz.

2. “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 2020 йил 20 октябрь.

TA’LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDA LUG‘AT USTIDA ISHLASH USULLARI

Yuldosheva Nilufar Ergashevna,
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f. f.n.

Bazarova Dildor Baxronovna
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta
o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ta’lim o‘zbek tilida olib borilmaydigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishning asosiy muammolaridan biri o‘quvchilarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va ularning so‘z boyligini oshirish hisoblanadi. O‘quvchi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmasa, so‘zlarni o‘z o‘rnida ishlatishni bilmasa, o‘zbek tilida o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qila olmaydi. “Tilning rivoji shu tilda so‘zlashuvchi kishilarning ma’naviy-ma’rifiy, iqtisodiy-siyosiy, madaniy hayoti bilan uzviy bog‘liq. Tilda xalqning taqdiri, yashash tarzi, o‘tmishi, buguni va ertasi aks etadi” [N.Yuldosheva, 2020: 312]. So‘z esa tilning qurilish materialidir. Shuning uchun ham so‘zni bilmay turib, o‘zga tilni o‘zlashtirish mumkin emas. Shu ma’noda, ayniqsa, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘quvchilarning o‘zbekcha nutqini o‘stirish ishini tubdan o‘zgartirish, yaxshilash davr talabi sanaladi. “Mamlakatimizda o‘zbek tilini zamon talablari asosida rivojlantirish, uning davlat tili sifatidagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda katta va Mas’uliyatli vazifalar turibdi” [Sh.M.Mirziyoyev, 2020: 1]. Zero, o‘zbek tilida fikr almasha olish, ya’ni gapira bilish uchun muayyan so‘z boyligiga ega bo‘lish lozim.

Til egalari ona tilini faqat ta’lim yo‘li bilangina egallamaydi. Tilimizning murakkablik bo‘yicha bosqichlari ilmiy aniqlanib, shu asosda turli leksik-grammatik darajadagi, ketma-ketlikka asoslangan qo‘llanmalar yaratish – dolzarb vazifa. Birinchi o‘rinda lingvistik baza shakllantirilishi zarur [B.Mengliyev, 2020: 378]. Eng kerakli lingvistik baza bu – lug‘atlardir. Tilshunos olim V.V.Morkovkin lug‘atlarni nutq o‘stiruvchi muhim vosita ekanligini ta’kidlab, o‘quv lug‘atlarining nutqiy faoliyat va tushuncha berishi nuqtayi nazaridan uch turini ajratadi: 1) nofaol lug‘at – matnni o‘rganish va tushunish uchun; 2) faol lug‘at – matn tuzish va gapirib berish uchun; 3) nofaol-faol lug‘at – har ikki maqsadga yo‘nalgan [Морковкин B.B., 1986: 105]. Nutq o‘stirishning muhim omillaridan biri lug‘at ustida ishlash hisoblanadi.

O‘zbek tili darslarida lug‘at ishini matnni o‘qish bilan birgalikda tashkil etish an’anaviy tus olgan: yangi so‘zlar matnni o‘qib tushunish, undagi leksik qiyinchiliklarni oldindan bartaraf etish maqsadida o‘rgatiladi, matn orqali mustahkamlanadi va faollashtiriladi. Tushuntirish asosan yangi so‘zlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Har bir darsda 4-6 yangi so‘z ustida ishlash rejalashtiriladi. Aslida buncha so‘z bilan nutqiy mashqlar o‘tkazishning iloji bo‘lmaydi. Mavzu bo‘yicha nutq o‘stirishning oz miqdordagi so‘z asosida boshlanishi o‘quvchining fikr doirasini keskin chegaralab qo‘yadi. Shu mavzu yuzasidan keyingi darslarda o‘rganiladigan yangi so‘zlar qiziqishning pasaygan davriga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan ana shu tartibda tanishtirish tabiiy jarayonga ko‘p jihatdan ziddir, chunki hayotda so‘z o‘rganishda miqdoriy chegara bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham.

O‘quvchi o‘zbek tilida bemalol fikr bayon eta olishi uchun to‘rt mingdan ziyod tub so‘zlarni bilishi lozim. Tub so‘zlar o‘zbek tili so‘z yasalishini o‘rganish asosida o‘quvchilar lug‘atini bir necha barobar ko‘paytirish imkonini vujudga keltiradi. Oz so‘z zamirida ko‘p so‘zni bilish mumkin bo‘ladi. Shunga muvofiq lug‘at ishini ikki yo‘nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Zarur miqdordagi tub so‘zlarni o‘zlashtirish;
2. Tub so‘zlar asosida yasalgan so‘zlarni bilish va ulardan foydalanish.

Yangi so‘zlarni o‘zlashtirish murakkab jarayon bo‘lib, ilk tanishuv, dastlabki qo‘llash va xotirlab qolish, nutqning leksik qatlamini hosil qilish bilan bog‘liq aqliy mehnatni taqozo etadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan tanishtiradi, mustahkamlashga doir mashqlar bajartiradi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turadi.

Yangi so‘zlarni nutq o‘stirish maqsadi bilan hamda matnni o‘qib tushunish niyati bilan tushuntirish va mustahkamlash ikki yo‘nalishdagi ish turlarini taqozo etadi:

1. Nutq o‘stirish bilan bog‘liq ish turlari;
2. Yangi so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini o‘zlashtirishga doir ish turlari. Bu ish turlari ikki xil natijaga olib keladi. Chunonchi, nutq o‘stirish bilan bog‘liq ish turlari yangi so‘zlarni nutqning lisoniy malakalari darajasida egallashni ta’minlasa, ikkinchi xil ish turlari leksik materiallarni o‘qib yoki tushunish darajasidagi, shuningdek, yod olingan gaplarni aytish munosabati bilan so‘zlarni xotirlash darajasidagi malakalarni shakllantiradi.

Lisoniy malakalarni egallash, asosan lug‘at yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish nutq o‘stirish bilan bog‘liq holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda nutq o‘stirishning talab va ehtiyoji yangi so‘zlarni tushuntirishning odat tusiga kirgan yo‘llaridan voz kechib, quyidagi o‘ziga xos usullardan foydalanishni talab etadi:

1. O‘quvchilarni ko‘rsatmalilik asosida yangi so‘zlar bilan tanishtirish;

2. Yangi so‘zlarni nutq jarayonida mavzular yoki so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlangan lug‘atlar orqali tushuntirib borish.

Ko‘rsatmalilik asosida yangi tanishtirilgan so‘zlar bir necha dars davomida nutqiy mashqlar bilan mustahkamlanadi: topshiriqlarni tushunish va bajarish, bir-biriga topshiriqlar berib, uyushtirish, hikoyalash kabi mashqlar tanishtirilgan so‘zlarni eslab qolishga va xotirlash asosida nutqda ishlatishga yordam beradi.

Leksik materiallarni nutq o‘stirish maqsadi bilan tushuntirishda mavzular yoki so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlangan lug‘atlar asosiy manba vazifasini o‘tashdi. Bunda guruhlangan yigirmadan ortiq yangi so‘zlar ikki tilli lug‘at tariqasida beriladi, o‘quvchilarga o‘zbekcha so‘zlar o‘qitiladi, talaffuzi mashq qildiriladi. Shundan so‘ng bolalardan shu so‘zlar asosida savol-javob namunasidan foydalanib o‘zaro so‘zlashish yoki biror mavzuda hikoyalash talab etiladi. Masalan: *mustaqillik, erk, ozodlik, komil inson, barkamol avlod, sog‘lom avlod, tadbirkor, hunarmand* kabi so‘z va so‘z birikmalari asosida “*Mustaqillik bizga nima berdi?- Mustaqillik bizga erk va ozodlik berdi*” tarzida savol-javob uyushtiriladi.

O‘quvchi har bir so‘z ishtirokida savol tuzib, unga javob qaytarishni o‘ylar ekan, ma’no ko‘lamini xayoldan o‘tkazadi. Shu jarayonda ma’nosi xotiradan o‘tkazilayotgan so‘z ichki nutqda jaranglab turadi, yolg‘iz o‘zi emas, balki u bog‘lana oladigan boshqa so‘zlar ham savol-javob tarkibida ishlatiladi. Bu hol yangi leksik materiallar bilan tanishuv jarayonining o‘zlashtirish jarayoniga qo‘shilib ketishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchining bilishga bo‘lgan tabiiy intilishiga turtki beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda lug‘at ustida ishlash usullarini ijodiy takomillashtirish orqali o‘quvchilarda o‘zgalar nutqini tushuntirish, o‘zgalar fikrini o‘zgalarga yetkazish ko‘nikmalarini shakllantirish va shuningdek, lug‘at boyligini yanada oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi // Xalq so‘zi, 2020-yil 20-oktabr, – № 221-222 (7723-7724).

2. Mengliyev B., Nigmatova L. Problems of language, culture and spirituality in general explanatory dictionaries of Uzbek language / Inernational Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192.

3. Морковкин В.В. О базовом лексикографическом знании // Учебники и словари в системе средств обучения русскому языку как иностранному. – М., 1986. – С. 105.

4. Yuldosheva N., Ergasheva R. Research Of Terminology And Aviation

Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x). August 25, 2020 - P.312-317. Doi: https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue08-51

ЎЗБЕК ТИЛИДА “МАЪНАВИЯТ” УМУМИЙ СЕМАЛИ ЛЕКСЕМАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ МУАММОЛАРИ ВА АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

Мирҳайдарова Нодира Ҳайитбоевна,
Гулистон давлат университети
катта ўқитувчиси

“Ҳар қандай тадқиқот бевосита ёки билвосита ё ўрганиш объектини, ёки ундан фойдаланишни такомиллаштириш билан шуғулланиш” [А.Пешковский, 1959: 83]ни мақсад қилар экан унинг вазифаси давр билан ҳамнафас бўлиш, унинг сўнгги талабларига жавоб беришдан иборат. Ҳозирги замон тилшунослиги олдидаги вазифалар ўз ибтидоий табиатидан буткул йироқ. Бугунги кун тилшунослари анъанавий тасниф ёки таҳлиллардан чекиниб, тилнинг яхлит система эканлигини асослаш ҳамда ушбу система ичидаги структур муносабатларни ёритиш масалалари билан банд бўлмоқликлари лозим. Глобаллашув даврида оламнинг миллий лисоний тасвирини типологик тадқиқ этиш, ушбу тасвир таркибидаги парадигмаларни аниқлаш, майдонлар ичидаги систем-структур муносабатларни типологик тадқиқ қилиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимроқ ижтимоий вазифа. Зеро, тилнинг семантик парадигмалари аниқ белгилаб олинмаганлиги, муайян майдон воситаларининг иерархик тартиби ишлаб чиқилмаганлиги, идеографик ҳаритаси тузилмаганлиги оқибатида ўзбек тили мулоқот воситаси ўлароқ қадрсизланиши муқаррар.

Тил – ижтимоий ҳодиса, лисон – идеал система тўла қонуниятларига асосланмаган жонли жараён экан, тилшунослик фани ҳам анъанавий эскирган қолиплардан чиқиши, ўзининг констат хусусиятларидан воз кечиб динамик табиат касб этиши талаб этилади.

“Шахс маънавияти глобал масалалар сирасида марказий ўринни эгаллайди. Зеро, жуда кўп муаммолар диалектик нуқтаи назардан оқибат характерига эга бўлиб, уларнинг аксарияти учун шахс маънавияти масаласи сабаб мақомида” [Б.Менглиев, 2015: 13.05]. Шахс маънавиятини тарбиялашнинг метод ва методикасини ишлаб чиқиш эса дастлабки босқич хисобланади. Шахс тарбиясида “маънавият” институти ўрни беқиёслигини теран англаб етган ўзбек тилшуносларининг мазкур майдон юзасидан олиб борган илмий фаолияти эса ижобий эътирофга сазовор [А.Раҳимов, 2012: №2. – Б.20-25].

Шу ва шу каби бошқа қатор илмий изланишлар “маънавият” семантик майдонининг ўрганилиши учун замин тайёрлаган бўлса-да, ушбу парадигма ҳануз изчил тартибга солинмаган. “Маънавият” категориясининг семантик

жиҳатдан типологик тадқиқ қилинмаганлиги амалий жабҳада қатор муаммоларга сабаб бўлмоқда. Юқорида таъкидланганидек, “маънавият” бу сумматив очиқ система, унинг таркиби мунтазам бойиб, элементлари ўзгариб ёки янгиланиб бориши мумкин. Уларнинг система таркибидаги ўрни, изоҳи ва таржимаси эса луғатшунослардан ушбу майдонни ташкил этувчи мавжуд воситалар луғавий маъносидаги тафовутларни илғаш, уларнинг маъно чегараларини ва лексик қийматини англашни талаб этади. Зеро, лексик сатҳнинг бор сарҳадларини ўзида жамлаган луғат тил ҳақидаги энциклопедик манба бўлибгина қолмай таҳрир ва таржима жараёнида асос бўлиб хизмат қилади. Нутқ меъёрларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш омили бўлади.

Маънавий юксалиш таълимнинг устувор мақсади ўлароқ белгиланган айни даврда ушбу майдон таркибидаги воситалар луғавий маъносига кўра ноўрин қўлланилиш ҳолатларини кўрамиз. Жумладан, оммавий ахборот воситаларида, тарғибот тадбирларида “маънавият” ва “маърифат” сўзларини бир-бирига маънодош, жоиз бўлса оҳангдош жуфт сўз ўлароқ қўлланаётгани масала моҳиятидан қанчалар йироқ эканимизни, пировард мақсад “маънавий юксалиш” негизида бўлган асос тушунчалар замиридаги маъноларга беэътибор қолаётганимизни ошкор этади. Бундай ноаниқлик ва мавҳумлик “маънавият” негизида англашиладиган тушунчаларнинг маънолари аниқ лўнда ифодаланмаганлиги, ушбу сўзларнинг семантик эквивалентлари, уларнинг приватив оппозитлари белгиланмаганлиги бевосита жабҳадаги тарғибот ишларининг самарадорлигини шубҳа остида қолдиради. Бундай бефарқлик эса, ўз навбатида, мавжуд изоҳли ва таржима луғатларининг онтологик қийматини тушириб юборади, бадиий ҳамда бошқа тур таржималарнинг савияси, услуби, аслиятга мослик, сифат даражасига салбий таъсир кўрсатади. Қолаверса, “маънавият” семантик майдони таркибининг изчил тадқиқ этилмаганлиги мазкур йўналишдаги таълим-тарбиявий сайъ-ҳаракатларнинг тизимсиз ва бесамар бўлишидан далолат беради. Зеро, инсон табиати ўзи тўлиқ англай олмаган борлиқ ҳодисаларини мураккаб ва айни пайтда кераксиз дея баҳолашга мойил.

Юқоридаги муаммоларни бартараф этиш учун “маънавият” умумий семали лексемаларни бир майдон ўлароқ тартиблаш, ушбу парадигма элементларини жамлаган идеографик луғат яратиш эҳтиёжи юзага келади. “Агар хусусий тушунчалар ўзидан юқорироқ умумий тушунчалар доирасига кириб, улар, ўз навбатида, янада умумийроқ тушунчалар ичига киради, деб ҳисобланса, ҳеч бўлмаганда, бундай асосда назарий жиҳатдан нутқий фактлар таснифини юзага келтириш мумкин. Бу тасниф тамойили (принципи) қўлланувчи луғатлар идеологик (идеографик) луғатлар дейилади” [Ш.Балли, 1961: 151]. Айни пайтда идеографик луғат ўз мақолалари таркибида қандай элементларни жамлаши лозимлиги хусусида аниқ шаклланган тушунча мавжуд. Яъни изоҳли идеографик луғатда мақолалар:

а) сўзларнинг грамматик характеристикалари ва уларниig кичик контекстлари ҳақида маълумот;

б) сўзнинг синонимлари;

в) алоҳида маънолари;

г) шу сўз туркумидаги бир ўзакли, мазмунан яқин бўлган сўзлар рўйхати каби маълумотларни қамраб олиши лозим. [Ш.Искандарова, 1998: 35]. Бироқ ушбу бандларга қўшимча ўлароқ араб ёки форс тилларидан ўзлашган лексемаларниинг соф туркий эквивалентларини ҳам илова қилиш мақсадга мувофиқ. Маълумки, инсон шууридаги тушунчаларни уч йирик гуруҳга бўлиш мумкин. Улар оламнинг умумий, миллий ва шахсий лисоний тасвири воситаларига ажратилади. “Манъавият” умумий семали лексемаларининг соф туркий муқобилларини бериш ушбу майдонда қайси тушунча умумий лисоний манзара воситаси, қай бири маълум бир миллат ёки дин вакиллари томонидан бошқа ҳалқ нутқига киритилганини аниқлаб беради. Шу аснода идеографик луғат “маънавият” категориясини ташкил этувчи воситаларни оламнинг миллий ёки умумий лисоний тасвири элементлари ўлароқ классификация қилиш имкони туғилади ва айни шу хусусиятига кўра идеографик луғатнинг амалий аҳамияти ортади. Албатта, барча элементларнинг соф туркий муқобиллари бўлмаслиги табиий. Бироқ бу ҳолат луғат мақолаларининг қийматида ассиметрияга сабаб бўлмайди. Аксинча, оламнинг миллий лисоний тасвири шаклланишига доир муҳим хронологик кўрсаткич бўлиб хизмат қилади. “Маънавият” категориясининг таркибий элементларини жамлаган идеографик луғат мақолалари қуйидаги модел асосида тузилиши керак:

1) лексик бирлик;
2) грамматик кўрсаткич ва шакллар;
3) этимологик маълумот;
4) соф туркий этимологияга эга вариантдош лексема (мавжуд бўлса);
5) асосий луғавий маъно изоҳи;
6) асосий луғавий маъно ва кичик контекстуал маъноларни акс эттирувчи далилий мисоллар;
7) синонимлар ва антонимлар.

Тан олиш керакки, айни дамда тарбиявий тарғибот масаласига ҳар қачонгидан кўра кучлироқ урғу берилаётган бўлса ҳам, “маънавият” тушунчаси кўпчилик шуурида аллақандай олий сифатларни ўзида жамлаган мавҳум тушунча ўлароқ ўрнашиб қолган. Ушбу олий “насаб” аксарият ҳолларда эришиб бўлмас, реал ҳаётда долзарб бўлмаган идеал дея кўздан кечирилади. Мавзу доирасидаги барча тарғибот манбаларида категориянинг элементлари тартибсиз, кўпинча луғавий маъноси ноўрин бўлган контекстларда қўлланилади. Комил инсон сифатларини бир-биридан ажрата олмаслик, истилоҳларни уядош сўзлар мисоли бир турга оид деган муносабат билан нутқда пала-партиш қўллаш беихтиёр “Лисон-ут-тайр”даги “Кўрлар ва фил” ҳикоятини эслатади. Маънавият нималиги ҳақида зарра тасаввурга эга бўлмаган мурғак онг унга сингдирилаётган тушунчаларни бир бутун шамоилга жойлай олмаса, уларнинг тузилиши ва тизимини тушунмаса, алалхусус, тарбия марказида бўлган “маънавий етуклик” тушунчасини қабул қилмаса, айбни оммавий маданият каби ташқи таъсирларни қидириш қанчалар ўринли? Тарбия қилмоқчи бўлган сифатларимиз изчил, тизимли ва тушунарли

бўлмас экан, биз маъанан етук шахс етиштириш учун моддиятга қарши олиб бораётган курашда енгилишда давом этамиз. Инсон эса ўз таназзулини ўзи яратади, бу ҳар қайси даврда долзарб бўлган ҳақиқатдир. Ҳозир оммавий маданиятнинг салбий оқибатлари ҳақида бонг урмоқдамиз, эртага инсонни шахс ўлароқ йўқликка турткилайдиган яна бир оғу пайдо бўлиши муқаррар. Мавжуд ва бўлажак салбий ижтимоий феноменларга қарши тура олишнинг ягона йўли руҳ, қалб ва онг тарбияси. Ҳар қандай тузум, тарихий жараён ва эволюцион босқичда ўз аҳамиятини сақлаб қоладиган тарбия масаласини, аввало, “маънавият” умумий семали лексемаларнинг луғавий маънолари ва бошқа характер белгилари аниқ белгилаб берилган рисолага таянган ҳолда кўздан кечирилиши лозим. Англашиладики, “маънавият” категорияси идеографик ҳаритаси ушбу майдон ҳақида шаклланиб улгурган мавҳум тушунча ва семантик ноаниқликларга чек қўйиш билан бирга тилшуносликнинг лексикография, диалектология, этимология, семасиология, типология, қиёсий чоғиштирма тилшунослик, стилистика, лингвомаданиятшунослик ва таржимашунослик каби соҳаларида туб бурилиш ясайди. Манба, назарий ва амалий лингистик аҳамиятга эгалиги билан бирга, тарбиявий дидактика асоси ўлароқ ҳам ҳизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Менглиев Б. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида//”Маърифат” – Тошкент: 2015, 13 май.
2. Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари //Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. –№2. – Б.20-25.
3. Ҳошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. докт. ... (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 47 б.
4. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари – Тошкент: Фан, 1998.
5. Балли Ш. Французская стилистика. – М., 1961. – С. 151.

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA MASHQLARIDAN FOYDALANIB O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI O‘STIRISH USULLARI

Abdurahimova Kamola G‘ayratovna
Toshkent shahri Yunusobod tumani
43-maktab o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘ygan

maqsad, tanlagan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlari — interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Interfaol darslarda o‘qituvchining o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Shu jihatdan o‘zbek tilini o‘qitishda asosiy e’tibor o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularning o‘zbekcha nutqini shakllantirish, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. O‘quvchilarning izlanishi, mustaqil ravishda qo‘shimcha manbalarga murojaat qilishi, ma’lumotlar bankidan o‘ziga kerakli materiallarni saralab olishga o‘rgatish orqali egallayotgan bilimlarining amaliyotda qo‘llay olish layoqati shakllanadi. Darsning faol, mahsuldor, ta’sirchan va samarali bo‘lishida darsning yangi shakllari, o‘qitish metodlari, ko‘rgazmali qourollar va texnika vositalaridan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Quyida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mantiqiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun xizmat qiluvchi pedogagik texnologiya mashqlaridan namunalar taqdim etamiz:

„So‘z top“ („Domino“) metodini darsning kirish qismida o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi biron so‘z aytadi, o‘quvchilar davom ettiradilar. O‘qituvchi boshlagan so‘z qaysi harfda tugasa, o‘quvchi shu harfdan boshlangan so‘zni aytishi kerak. Masalan, ona — anor — rom-maktab — bola va h.k.

„Klaster“ usuli. Bu o‘quvchiga berilgan mavzu bo‘yicha mustaqil o‘ylash va fikrlarini erkin bayon etish uchun sharoit yaratadi. „Klaster“ usuli bir o‘quvchiga yoki guruhlarda qo‘llanishi mumkin. Bunda o‘quvchi nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni aytadi yoki yozadi. Yozilgan fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iy nazar muhokama qilinmaydi. Mashg‘ulot belgilangan vaqt tugagunga qadar davom etadi. Bu esa, sinfdagi har bir o‘quvchi tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni uyg‘unlashtirish hamda ular o‘rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi. „Klaster“ usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o‘quvchini darsga qiziqtirib, mavzu bo‘yicha ilgari egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘tkaziladi.

„Zanjir“ usulini biz she’r berilgan darslarda qo‘llashni tavsiya etamiz. She’rni yod olish uyga vazifa qilib berilmaydi. Biroq berilgan she’r „Zanjir“ usulida, ya’ni kelgan joyidan so‘ralganda, o‘quvchi sinfda do‘stlari oldida uyalib qolmaslik uchun ham she’rni yod olishga majbur bo‘ladi. Matnni ham xuddi shu usulda o‘qitish mumkin. Har bir o‘quvchi bitta gapni o‘qib, keyingi o‘quvchi tartib bilan davom ettiradi. Shu yo‘sinda she’r yoki matn har bir o‘quvchi ishtirokida yoddan aytiladi yoki o‘qib chiqiladi.

„Mevalar va sabzavotlar“ mashqi.

1-variant. Sinf o‘quvchilarining soniga qarab, meva va sabzavotlar rasmi aks etgan kartochkalar stol ustiga teskari holatda qo‘yiladi. O‘quvchilar xohlagan

kartochkalarini tanlab olib, joylarini egallaganlaridan so‘ng, o‘qituvchi doska oldiga chiqib: „Sabzavotlar“ deb chaqiradi. Kimning qo‘lida sabzavot rasmi bo‘lsa, o‘qituvchi ko‘rsatgan joyga chiqib turadi. „Mevalar“ deb chaqirganida, mevalar o‘z joylarini egallaydi-lar. Kim qolib ketsa, mag‘lub bo‘ladi.

2-variant. O‘quvchilar qo‘llaridagi meva yoki sabzavotga ta’rif beradilar.

Masalan, bu — olma, rangi sariq, mazasi shirin. Daraxtda o‘sadi.

Bu — karam, rangi yashil, u vitaminlarga boy. Polizda o‘sadi va h.k. Javob bergan o‘quvchilar joylariga borib o‘tiradilar. Aniq va tez javob bergan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

„Kim tez bajaradi“ mashqi.

1-variant. Berilgan so‘zlar alifbo tartibida joylashtiriladi. Har bir guruhga bir xil so‘zlar beriladi. Topshiriqni birinchi bajargan guruh g‘olib sanaladi.

2-variant. Stol ustiga s o‘zlar yozilgan kartochkalar teskari o‘girilgan holda qo‘yiladi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bolinadilar. Har bir guruh beshtadan kartochka tanlab oladi. Tanlangan kartochkalardagi so‘zlar alifbo tartibida joylashtirilishi kerak. Topshiriqni birinchi boiib bajargan guruh qolib hisoblanadi.

„Har bir harfga bitta ustun so‘z“ mashqi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bolinadilar. Har bir guruhga 3-4 harfdan iborat bo‘lgan so‘zlar beriladi. o‘quvchilar shu so‘zning har bir harfi tagiga shu harf bilan boshlanuvchi to‘rttadan so‘z yozadilar.

Narnuna:

B	O	L	A
bol	Ol	Lola	Asal
bosh	Ota	laylak	Aka
bet	Ona	lampa	ayiq
bob	Olma	Lobar	archa

Mashg‘ulot boshlanishidan avval o‘qituvchi doskada mashg‘ulot namunasini ko‘rsatishi kerak. Guruhlar topshiriqni flipchatlarda bajarib, doskaga osadilar. Yozgan so‘zlarini birma-bir o‘qib eshittiradilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuziga va imlosiga e’tibor berishi lozim.

„Lug‘atimizni boyitamiz“ mashqi. O‘quvchilar doira shaklida turadilar va qo g‘ozdan yasalgan qor bilan qorbo‘ron o‘ynaydilar. Qog‘oz qorni otgan o‘quvchi bir so‘z aytsa, ilib olgan o‘quvchi tarjimasini aytishi kerak. Shu tariqa mashg‘ulot davom etadi (paxta – хлопок, maktab – школа, uy – дом h.k.). Javob bera olmagan o‘quvchi doiradan chiqib ketadi. Bu mashg‘ulotni o‘tkazish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Shu vaqt ichida qolgan o‘quvchilar g‘olib hisoblanadi.

„Navbatchi harf“ mashqi. Uchta kartochkaga uch xil harf yozilib, teskari holatda stol ustiga q o‘yiladi. Guruhlarga rangli markerlar va flipchatlar beriladi. Guruh a’zolaridan biri chiqib, kartochkalardan birini tanlaydi. Bu topshiriqni bajarish uchun uch daqiqa vaqt beriladi. o‘quvchilar shu harf bilan boshlanadigan o‘zlari bilgan va istagan so‘zlarini yozishlari mumkin. Masalan. „0“ harfiga — olma, olam, osmon, Olim, olxo‘ri va h.k.

„Aks-sado“ mashqi. Maqsad: o‘quvchilarda o‘zaro hurmat hissini rivojlantirish va yangi mavzuga oid so‘zlarni o‘rganish hamda mustahkamlash.

Mashg‘ulot quyidagicha o‘tkaziladi: o‘quvchilar yarim doira shaklida o‘tirib oladilar. O‘qituvchi: „Siz qachondir aks-sadoni eshitganmisiz? Bu ovoz bir necha marotaba takrorlanib, har takrorlanganda sekinlashib boradi“ – deydi. O‘qituvchi biron so‘zni baland ovozda aytadi. Yonidagi o‘quvchi sekinroq takrorlaydi. Keyingi o‘quvchi undan ham sekinroq takrorlaydi. Shu tariqa hamma o‘quvchilar takrorlab chiqadilar. Mashg‘ulot har bir o‘quvchi o‘z so‘zini baland ovozda aytib, qolgan bolalar ushbu so‘zlarni qaytarganlaricha davom etadi. Masalan: Ho-ho-hoy. Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar. Yurtimizga Bahor keldi. Navro‘z keldi. Yangi yil muborak. Yangi kun muborak. … Mashg‘ulot tugagach o‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin: Nimani his qildingiz? Qanday yangi so‘zlarni o‘rgandingiz? Har bir o‘quvchi savollarga javob berib bo‘lgach, mashg‘ulot yakunlanib, yangi mavzu tushuntiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар.– Т.: Ниҳол, 2013, 2016.

2. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., ва бошқ. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб.- Т.: Илм-Зиё, 2012, В.12.

3. Супиева Б.А. Тил таълимида замонавий педагогик технологияларидан фойдаланиш йўл-йўриқлари. -Тошкент, 2016.

O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O‘QITISHDA JADID ADABIYOTINING O‘RNI

Bektasheva Gulbahor Rayimjonovna
ADU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
doktoranti. Bahor2288@gmail.com

O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishning ta’limdagi muammolari va yechimlarini topishda, albatta, adabiyot birlamchi manba sanaladi. Boisi har qanday millat tili uning adabiyotida o‘z aksini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham buyuk jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy “Dunyoda millatning borligini bildiradigan oyinayi hayoti bu uning tili va adabiyotidir,” – deydi. Til xususiyatlarining barchasi badiiy adabiyotda yuzaga chiqadi. Mahoratli shoir, yozuvchi millat tilining barcha xususiyatlarini, leksik boyligi, semantik kengligi va uslubiy-ifoda xususiyatlarini ko‘rsatib bera oladi. XV asr o‘zbek adabiy tili deganda Hazrat Alisher Navoiy ko‘z oldimizga kelganidek, har bir davrda tilning imkoniyatlarini ijodkorlar ko‘rsatib bergan. Ayniqsa, istiqlol yillarida o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish, tilimizga hurmat va ehtiromni shaklllantirish, yoshlar o‘rtasida hamda xalqaro doirada milliy tilimizga nisbatan yuqori munosabatni shakllantirishda bugungi kunda davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan qonun va qarorlar, prezident

farmonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21-oktabrdagi 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni davlat tilining jamiyatimiz rivojidagi o‘rnini yanada mustahkamlab berdi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida “O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqiyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda Davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida” Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi mamlakatimiz siyosiy hayotidagi eng katta yutuq, muhim istiqbolli farmon bo‘ldi. Ushbu farmonning ijrosini ta’minlash, nafaqat, belgilangan shaxslar uchun balki tomirida o‘zbek qoni jo‘sh urayotgan har bir millatimiz farzandi uchun sharafli vazifadir.

XX asr boshida tarix sahifalarida Jadidchilik nomi bilan yuritilgan yirik harakat bor ediki, ularning maqsadi ozodlik bo‘lish bilan birga millatga oid har bir tushunchaning asliga muvofiq bo‘lishi edi, milliy til masalasi ham yirik ijtimoiy-siyosiy kurashga aylanib ketdi. Buning belgilari davr adabiyotida o‘z mazmunini ko‘rsatadi. Jadidlarning yetakchilaridan Ismoilbek Gaspirali millatning ikki asosi borligini aytar ekan, bularning biri til ekanini ta’kidlab, agar ular sug‘urib olinsa, millat tanazzulga yuz tutishini aytib o‘adi. Shu ma’noda Turkistonda yetishib chiqqan jadid ma’rifatparvarlari Fitrat, Avloniy, Behbudiy, Cho‘lpon, Munavvar Qori kabilar til masalasini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Til millatning ma’naviy boyligi sanaladi.

Jadid adabiyotini maxsus o‘rgangan professor B.Qosimov o‘z tadqiqotlarida, Behbudiyni publisist sifatida baholar ekan, til haqidagi qarashlariga ham alohida to‘xtalib o‘tadi. “Oyna” jurnalining 1915-yil 11-, 12-sonlarida bosilgan “Til masalasi” maqolasida tillarning o‘zaro munosabati haqida bahs qilar ekan, tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. “Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham o‘n minglar ila begona lug‘otlarni dalil qilib olganligini ko‘rsatadi. Va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi. [B.Qosimov, 2004: 260].

Qolaversa, Behbudiy kabi jadidlar, nafaqat, milliy tilni o‘rganish bilan cheklanmasdan, chet tillarini o‘rganishni ham dolzarb bilib, o‘zining “Ikki emas, to‘rt til kerak” maqolasida o‘zbek tilidan tashqari fors, arab, rus tillarini o‘rganishni yoshlar uchun dolzarb ekanligini isbotlab beradi. “Arabiy bilmasak, din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar. Turkiy va forsiyni keraklig‘iga so‘z yo‘qtur...Yana bir til va xat borki, butun olam bir-biri-la aning ila so‘ylaydur. Ul fransa tili va xatidur” deya kerak bo‘lsa g‘ayridinlarning tilini o‘rganish haqida “Sahihi Buxoriy”dan dalolat keltiradi. [B.Qosimov, 1994: 21]. Demakki, chet tillarini o‘rganish hamma davrda muhim ekan, bugun ingliz tilining xalqaro til ekani va zamonaviy ilm, hunarlarni o‘rganishda bu tilning ahmiyati yuqori bo‘lgani uchun ham yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ham chet tillarini o‘rganish bo‘yicha alohida qaror va farmonlar e’lon qildi. Hozirda ham chet tillarni o‘rganishga qiziqish ortgan. Til bilgan— el biladi. Lekin, avvalo, o‘zga tilni oson o‘rganish uchun ham o‘z milliy

tilimiz grammatikasini, tarixini o‘rganish lozim. Shundagina milliy tilimizning qadri yuksaladi, yosh avlodda ajdodlarimizdan meros bo‘lgan milliy tilimizga hurmat va muhabbat uyg‘onadi.

Jadidlar tomonidan tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” jamiyatining eng birinchi ko‘targan masalasi ham til bo‘lib, unda Fitrat kabi ziyolilar “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir, bilasizmi?” – savolini qo‘yadi. [B.Qosimov, 1994: 98]. “Tilimiz” maqolasida bu tilning turkcha, ya’ni o‘zbek tili ekanini aytib, o‘z fikrini isbotlab beradi. Tashkilot qoshida bir guruh ziyolilar imlo to‘dasi ish olib borib, til millatning sha’n-u sharafi, or-nomusi ekanligini ta’kidlashib, ona tilini chet so‘zlar hisobiga emas, usmonlilar singari ko‘proq o‘z imkoniyati hisobiga boyitish va taraqqiy qildirishni ilgari suradilar. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov “Chig‘atoy”chilar adabiy til, uning nazariy-amaliy masalalari bilan shug‘ullanganligini qayd etadi. “Tong” jurnalida esa Ziyo Said tashkilot qoshidagi “Imlo to‘dasi” tilning tozaligi va sofligiga e’tibor qaratganligini ta’kidlaydi. [Z.Said, 1974: 81].

Bundan tashqari, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”asarida “Biz Turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun, kundan kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishtirmakdadurmiz. Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur. Zig‘ir yog‘i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur,”deydi. Xuddi til ruhini yo‘qotilishëini millat ruhining yo‘qotilishiga qiyoslaydi.

Jadidchilik g‘oyalari ichida milliy tilning davlat tili sifatidagi o‘rnini qayta tiklash masalasi milliy g‘urur darajasiga ko‘tarilgan. Har bir ziyoli o‘z ona tilining sha’nini ulug‘lovchi fikrlari bilan bugungi istiqlol mafkuramizning davlat tili haqidagi qarashlariga o‘xshashlikni ko‘rish mumkin. Demak, til davr tanlamaydi. Balki qaysi zamonda bo‘lmasin o‘zining milliy xususiyatlari bilan xalq qalbida yashaydi. Uning adabiyotida nash’u namo topadi. Tarix sahifalarida ko‘rinadiki, bizning ajdodlarimiz erk va ozodlik yo‘lida kurashar ekan, birinchi galda, millat tili hamda uning jamiyatdagi mavqeyiga alohida urg‘u berganlar. XX asrning boshlarida “Jadid adabiyoti” nomi bilan tarixga kirgan yangicha qalamkashlar avlodi ham milliy til va uning imlo qoidalariga alohida e’tibor qaratib, “Chig‘atoy gurungi” kabi adabiy, madaniy uyushmaning ham til dolzarb vazifasiga aylangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rnini mustahkamlashda jadid adabiyotining o‘rni beqiyos va takrorlanmasdir. Jadidlar ilgari surgan fikrlar o‘zining yangiligi bilan sira eskirmaydi va til taraqqiyotiga salmoqli ta’sir o‘tkazadi. Hozir uchun ham dolzarb bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Qosimov va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T, Ma’naviyat, 2004.

2. B.Qosimov . Maslakdoshlar.T, Sharq,1994.

3. Ziyo Said. Tanlangan asarlar, T.,1974.

4. Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. T., 1992.

DIPLOMATIK TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH MUAMMOLARI (TARJIMA LUG‘ATLARI MISOLIDA)

Mavlyanov Sanjar Djambulovich
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
E-mail: movlanovsanjar@mail.ru

Dunyo terminologiyasida diplomatik terminlarni o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Diplomatik terminlar tizimini yaratish, tartibga solish, lingvistik va leksikografik talqinlarini yaratish masalasi tilshunoslikda qiziqarli, ayni paytda dolzarb vazidalardan biri hisoblanadi. Sohada o‘z tadqiqini kutayotgan biq qancha muammolar mavjud, xususan, o‘zbek tilidagi diplomatik terminlar tadqiqi, asosan, ruscha, inglizcha va fransuzcha o‘zlashmalarga asoslangan bo‘lib, ularning o‘zbekchalashtirilishiga e’tibor qaratilmagan edi. Bu turdagi terminlarning o‘zbek tili leksik tizimidagi o‘rni mavhum va tilning obyektiv rivojlanishi qonuniyatlariga muvofiq emas edi. Tilimizga davlat tili maqomining berilishi diplomatiya sohasida ham ish yuritish, o‘qish va o‘qitish ishlarini o‘zbek tilida yo‘lga qo‘yish zaruratini keltirib chiqardi. Biroq bu muammolarning markazida turgan diplomatiya sohasida termin tanlash va qo‘llash masalasi nechog‘lik dolzarb va ahamiyatga molik bo‘lsa-da, hali tilshunoslikning e’tiboriga tushmagan edi. Diplomatiya sohasida qo‘llanilayotgan aksariyat atamalarning ruscha va inglizcha ekanligi, mavjud terminlarning, asosan, kalkalash asosida hosil qilinganligi, termindagi noaniqliklar, ayrim hollarda, o‘zbek tilida mukammal ifoda vositalari bo‘lishiga qaramay, ruscha yoki ingliz tili orqali o‘zlashgan terminlarning ko‘plab qo‘llanayotganligi, sohaga doir terminologik lug‘atlarning mavjud emasligi diplomatik terminlarning leksik tizimdagi o‘rnini aniqlash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, terminlardagi variantlilik, ma’nodoshlik, ko‘pma’nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish, leksikografik talqin qilish kabi qator muammolarni dolzarblashtiradi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqaro hamdo‘stlik asosidagi munosabatlar ham jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bugun O‘zbekiston to‘la huquqli asosda eng obro‘li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo‘lib, barcha qit’alardagi o‘nlab mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni yo‘lga qo‘ygan.

Bu borada davlat tilining ham xalqaro miqyosda faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e’tiborga molik. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo‘ladigan uchrashuv va suhbatlarda, muzokaralarda, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o‘zbek tilining o‘rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi [1].

Har qanday faoliyat sohasida zaruriy terminologik apparat mavjud bo‘lsagina, uning rivoji va yuksalishi o‘z-o‘zidan ravshan. Shuningdek, bunday vaziyatda ham

mazkur soha terminologiyasini tavsiflovchi izohli terminologik lug‘atning mavjudligi juda muhimdir.

Terminologiya bo‘yicha adabiyotlarda ushbu atamaning so‘zma-so‘z bo‘lish masalasi keng muhokama qilinadi. Garchi bu masala alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, masalan, V.P.Danilenko, T.L.Kandelaki, O.A.Lapteva, V.M.Leychik, S.V.Grinev, chex tilshunosi O.Mana va boshqalar shu paytgacha terminologik tizimlarni o‘rganayotganda, asosan, ism atamalari va substansional iboralarga murojaat qilishgan. Dominant g‘oya shundan iboratki, ilmiy nutqning “nominativ xarakterini” hisobga olgan holda, terminologik tizim nomlar, birinchi navbatda ismlar (N.A.Shcheglova) va mazmunli iboralarga asoslangan. Shuningdek, biz terminologik lug‘at, nafaqat, ularning asosida hosil bo‘lgan otlar va iboralar bilan ifodalanadi, degan nuqtayi nazarga amal qilamiz. Bizningcha, fe’llar va fe’l birikmalari diplomatik hujjatlar tilida ham terminologik funksiyalarni bajaradi va bu diplomatik terminologiya tizimining o‘ziga xos xususiyatidir [2].

Terminologiyada maxsus tadqiqotlar olib borgan Butunrossiya ilmiy-texnik adabiyot va hujjatlarni tarjima qilish markazi ma’lumotlariga ko‘ra, leksikografiya sohasida dunyoda har kuni bitta maxsus lug‘at nashr etiladi [3]. Ammo diplomatik terminologiya haqida bunday fikr bildirish mushkul. Ayniqsa, o‘zbek diplomatiyasi terminologik tizimida bu borada hali ancha qilinishi kerak bo‘lgan ishlar bor.

Diplomatiya davlat tashqi siyosatining asosiy vositalaridan biridir. U qadimgi davrlarda davlatning ijtimoiy institut sifatida shakllanishi bilan birga paydo bo‘lgan. Garchi dastlabki davrlarda xalqaro nizolar odatda qurolli vositalar bilan hal qilingan bo‘lsa-da, Qadimgi Sharq davlatlarida odil diplomatik faoliyat ham rivojlana boshladi.

O‘sha paytdagi diplomatiya nisbatan kam va cheklangan masalalarni hal qilardi, shunda ham har xil turdagi kelishuvlar paydo bo‘ldi, xalqaro hayotning turli muammolarini hal qilish uchun elchilarni yuborish odati shakllandi va harbiy-siyosiy razvedka paydo bo‘ldi [4].

Qadimgi siyosatning diplomatik faoliyati qizg‘in muzokaralarda, elchixonalar almashinuvida, davlatlararo konferensiyalarning chaqirilishida, mudofaa va hujum ittifoqi shartnomalarini tuzishda ifodalangan. Diplomatiyaning tashkil etilishi, usullari va vositalari shu tarzda asta-sekin rivojlanib bordi. Asta-sekin diplomatik odob-axloq qoidalari shakllandi, diplomatik nutqlarni tuzish uchun ma’lum qoidalar va ularni talaffuz qilish tartibi paydo bo‘ldi.

Notiqlik va diplomatik san’at bo‘yicha qadimiy qo‘llanmalarda, nafaqat, nutq rejalari batafsil ishlab chiqilgan, balki uslub namunalari ham berilgan. Mazkur qo‘llanmalarning birida aytilganidek, diplomatning nutqi o‘rtacha, yuz ellik yoki maksimal ikki yuz satrdan oshmasligi kerak [5].

Shu bilan birga, bu vaqtga kelib xalqaro maydonda bir qancha diplomatik terminlar ancha faol iste’molga kirib ulgurgan edi, xususan, “muzokaralar”, “sulh”, “tinchlik shartnomasi” va shu kabi tushunchalarni kelishuvchi tomonlar tushunishi kerak edi. Shu tarzda uzoq revolyutsion tarixga qaramay, diplomatik terminologiya maxsus lug‘atshunoslik tizimida alohida o‘rganilib, tizimlashtirilmadi.

Tilshunoslikning eng muhim va asosiy qomusi hisoblanuvchi lug‘at ma’lum bir tartibda (turli xil lug‘atlarda turlicha) joylashtirilgan so‘zlardan (yoki birliklardan kichikroq (morfemalar) yoki kattaroq (turli xil iboralar, masalan, frazeologik birliklar)ni o‘z ichiga oladigan til birliklarining jamlanmasidir. Lug‘atda til birliklarining ma’nolari tushuntiriladi, soha atamalari haqida turli xil ma’lumotlarni yoki ularning boshqa tilga tarjimasini beriladi. Lug‘atlarning yagona tipologiyasi yo‘q. Uning variantlari asosiy tasnif mezoniga qarab tuziladi. Eng umumiy asosda lug‘atlar lingvistik va lisoniy bo‘lmagan lug‘atlar (ensiklopediyalar)ga bo‘linadi. Lingvistik lug‘atlarning namunasi sifatida til birliklarining ma’lum bir ijtimoiy sohasiga oid atamalarini tavsiflovchi terminologik lug‘atlar ham muayyan soha rivojini belgilovchi va ta’minlovchi muhim manba sanaladi. Dunyo tilshunosligida sohaviy terminologiya, xususan, diplomatiya terminologiyasi borasida ham muayyan tajribalar mavjud. Masalan, rus diplomatik lug‘ati (faqat qisman) bitta ensiklopedik (“Diplomatik lug‘at” 1986) va ikkita tarjima qilingan bosma lug‘atlar (“Ruscha-inglizcha diplomatik lug‘at” (2001).

Ma’lumki, hozirgi paytda leksikografiya nazariyasi va amaliyotining eng mashhur yo‘nalishlaridan biri bu terminologik leksikografiya bo‘lib, u maxsus maqsadlar uchun til terminografiyasi (LSP) deb ham ataladi. Shuni ta’kidlash kerakki, maxsus maqsadlar uchun lug‘atlarning boy tanloviga ega bo‘lgan lug‘atshunoslik (iqtisod, tibbiyot, qurilish, biznes, marketing, bank, informatika va boshqa soha lug‘atlari), hali ham diplomatik terminlarning mufassal lug‘atlariga ega bo‘lgani yo‘q.

Yaqinda Polyglossum saytining “Inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha tashqi siyosat lug‘ati” nomli elektron lug‘ati paydo bo‘ldi. Ishlab chiqaruvchilarning fikriga ko‘ra, ushbu lug‘at soha bo‘yicha so‘z boyligining keng qatlamini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- inglizcha-ruscha-inglizcha tashqi savdo lug‘ati;
- inglizcha-ruscha-inglizcha tashqi siyosat lug‘ati;
- inglizcha-ruscha-inglizcha diplomatik lug‘at;
- xalqaro voqea-hodisalar va tashkilot nomlarining inglizcha-ruscha-inglizcha lug‘ati;
- chet el ommaviy axborot vositalari tilining inglizcha-ruscha-inglizcha lug‘ati;
- xalqaro hayotdagi tarixiy haqiqatlarning inglizcha-ruscha-inglizcha lug‘ati,
- shartnoma va shartnomaviy hujjatlarning inglizcha-ruscha-inglizcha lug‘ati,
- ingliz va rus tillaridagi xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va bitimlarning nomlari [6].

Ushbu inglizcha-ruscha-inglizcha tashqi siyosat va tashqi savdo lug‘atiga klassik diplomatiya terminologiyasi va tashqi siyosiy hodisalarning eng faol darajadagi qo‘llaniladigan inglizcha, ruscha so‘z va so‘z birikmalari kiritilgan. Mualliflarning fikriga ko‘ra, ushbu lug‘at tarjimonlarga, nodavlat sohada ishlaydigan mutaxassislarga, vazirlik xodimlariga tashqi ishlar va savdo missiyalari, ishbilarmonlar, shuningdek iqtisodiy, yuridik, tashqi savdo va diplomatik universitet va fakultetlarning o‘qituvchilari va talabalariga mo‘ljallangan. Shuningdek, lug‘at

juda sodda tarzda tuzilgan bo‘lib, unda lug‘at uchun zarur bo‘lgan atributlar (grammatik va uslubiy belgilar, matnlar, rasmlar, foydalanish misollari, sharhlar va boshqalar) keltirilmagan. Qisqasi, mazkur lug‘at tarjima lug‘ati bo‘lib, unda faqat diplomatik terminning tarjimasi taklif qilinadi, masalan:

About – примерно - taxminiy,

Above – вышеупомянутый - yuqori,

Abracadabra – абракадабра - abrakadabra,

Abroad - за границей - xorij,

Abrogation - расторжение - tugatish,

of a treaty - аннулирование преемника – shartnomani bekor qilish,

of a treaty - расторжение договора – shartnomani tugatish,

Abrupt – крутой - keskin,

Abruptness – резкость - keskinlik,

Absence of control - отсутствие контроля – nazoratning yo‘qligi,

Absence of crime in the act - отсутствие в деянии состава преступления – jinoiy harakatning yo‘qligi,

Absence of personal responsibility – обезличка – shaxsiy Mas’uliyatning yo‘qligi,

Absence of rights lack of political rights – бесправие – siyosiy huquqlarning cheklanganligi,

Absenteeism – абсентеизм - absentizm,

Уклонение от участия в выборах – saylovlardan bosh tortish,

Absolute – безусловный – umuman.

Misol tariqasida keltirilgan lug‘atdan olingan parchaga ko‘ra, lug‘atshunoslar tomonidan termin so‘zni tanlash tizimsiz olib borilganligi, lug‘atga kiritilgan oddiy iste’mol so‘zlari (haqida, yuqorida)ning sohaga aloqasi batafsil izohlanmagan, tushunarsiz atamalar (bekor qilish, tugatish), aniq bo‘lmagan atamalar (abrakadabra, absurdlik) va yomon hazm bo‘ladigan ta’rifga ega atamalar (keskin - to‘satdan, shaxsiy javobgarlikning yo‘qligi - shaxssizlik), polisemantik atama (mavhum) ma’nolarini tanlash qoidalari biron bir tarzda tushuntirilmagan. Shunga asosan, bunday lug‘at deyarli belgilangan faoliyat sohasining to‘liq terminologik tarjima lug‘ati deb da’vo qilishi mumkin emas.

Umuman, diplomatik terminlar diplomatik faoliyatni yo‘lga qo‘yishda, sohani rivojlantirishda, mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega sanaladi. Shu boisdan ularni tizimlashtirish, tasniflashtirish har jabhada ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham lingvistik jihatdan dolzarb ahamiyatga ega. Soha terminologiyasining rivojlanishida mazkur sohaga oid tarjima lug‘atlarining ham katta roli mavjud. Bu lug‘atlarni tahliliy, tanqidiy o‘rganish va zarur kamchiliklarni bartaraf etish soha terminologiyasining asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. –Б.86.

2. Пенчева А.И. “Особенности словообразования дипломатической терминологии (на материале дипломатических документов на русском и болгарском языках)”, Вестник ЦМО МГУ, 2012, № 4.
3. Марчук Ю.Н. Модели перевода. -М.: Академия, 2010.
4. История дипломатии.-Т. I. -М.: Изд-во политической литературы, 1959.
5. Беляков М.В. “Терминология дипломатии: лексикографические проблемы”. Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2012, № 2. -С. 4-5.
6. Беляков М.В. “Терминология дипломатии: лексикографические проблемы”. Вестник РУДН, серия Теория языка. Семиотика. Семантика, 2012, № 2. -С. 6.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘XSHATISH QURILMALARI TADQIQI

Murtazoyeva Malika,
Qurbonova Lola,
Buxoro viloyati Shofirkon tumani 55-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o‘qituvchilari

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida ham eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi [V.A.Maslova, 1985: 33]. Shuningdek, lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan [З.Салиева, 2010: 25].

R.S.Ibrogimovaning nomzodlik dissertatsiyasida esa ***ayol*** konseptining o‘zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo‘llari tadqiq etilgan [N.Mahmudov, 2012: 10].

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berilgan bo‘lib, ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin [N.Mahmudov, 2012: 16].

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsada, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi.

Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir” [N.Mahmudov, 2012: 3-16].

Lingvokulturologiyaning asosiy birliklari bo‘lmish turg‘un o‘xshatishlarni o‘rganish qadim zamonlardan beri yozuvchi, olim va tadqiqoychilani qiziqtirib keladi. O‘xshatishlar haqidagi ilk sodda va aniq ma’lumot Aristotel tomonidan aytilgan. Keyingi yilllarda turg‘un o‘xshatishlarni milliy ong yechimi sifatida o‘rganilgan ishlar sezilarli darajada tahsinga sazovordir. N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab” nomli maqolasida [N.Mahmudov, 2012: 3-16].o‘xshatishlarning obrazli milliy tafakkur mahsuli ekanligi aniq dalil va misollar orqali ko‘rsatib berilgan va “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” da “obrazli milliy tafakkur mahsuli bo‘lmish o‘xshatishlar o‘zbek tilida ham batafsil o‘rganilishi uning tuzilmaviy –sistematik, lingvokulturologik va lingvopoetik xususiyatlari atroflicha tadqiq va tasnif etilishi lozim “ [N.Mahmudov, 2013: 17] ekanligini ta’kidlab o‘tilgan. D. Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida (Toshkent: Fan.. 2013.135 bet.) o‘zbek tilidagi matnlarning antroposentrik paradigma asosida tadqiq etish muammolari yoritilgan va o‘zbek tilidagi matnlarning eng muhim kognitiv-semantik, lingvokulturologik hamda psixolingvistik xususiyatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari monografiyadan inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarning ma’noviy guruhlari yoritilgan tasnif o‘rin olgan. Monografiyada o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokultutrologik xususiyatlarini o‘rganish ochib beriladi. Unda turg‘un o‘xshatishlar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o‘rni, o‘xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o‘rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e’tibor berilgan.

Til insoniyat tamaddunining rivojlanish iyerarxiyasini ko‘rsatib beradigan ko‘zgu bo‘lib, unda o‘sha til egalari haqidagi eng haqqoniy ma’lumotlar jamlanadi. Tilni uning o‘z egasi bilan o‘rganish g‘oyasi nemis olimi Gumbold tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, tilda insonga xos barcha xususiyatlar: insonning insoniyligini ko‘rsatib beruvchi xarakteri, yashash tarzi, madaniyati, dini, tarixi, assotsiativ fikrlash tarzi va boshqalar aks etadi. Tilshunoslikda hukumronlik qilayotgan antroposentrik paradigmaning bosh maqsadiyam ko‘p asrlardan buyon chetda qolgan obyektni o‘z subyekti va uning xususiyatlari bilan o‘rganishdan iborat. Antroposentrik tilshunoslikning allaqachon mustaqil yo‘nalishi bo‘lib ulgurgan lingvokulturologiyaning birligi turg‘un o‘xshatishlardir.

Xalqning muayyan predmet, belgi, harakat, holat haqidagi tasavvurlari shuningdek, shu xalqning yashash tarzi, iqlimi, urf-udumlar haqidagi eng aniq va ishonarli ma’lumotlar turg‘un o‘xshatishlarda ham o‘z aksini topadi. Turg‘un

o‘xshatishlar har bir tilning naqadar boy leksikonga, sayqalga, asrlar aro tajribaga ekanlini ko‘rsatib beruvchi manbadir.

Dunyo tilshunosligida turg‘un o‘xshatishlarni o‘rganishga qiziqish Aristotel zamonidan boshlangan bo‘lib hozirgi kunda bu ishni ko‘plab dunyo tilshunoslari davom ettirishmoqda va turg‘un o‘xshatishlar lug‘atlari yaratilib kelinmoqda мф bunday harakatlar o‘zbek tilshunoslidiga ham aks etmoqda. Fikrimizning yorqin dalili sifatida N.Mahmudov va D.Xudoyberganova tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” kitobini keltirishimiz mumkin. Lug‘at o‘zbek tilining, o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tajriba, tarix, madaniyat va o‘ziga xos tafakkur tarziga ega ekanligini ko‘rsatib beruvchi qomusdir.

Dunyo tilshunosligida ham turg‘un o‘xshatishalarni o‘zida jamlagan ko‘plab lug‘atlar, ularni tavsiflagan va o‘ziga xosligini ko‘rsatib bergan ko‘plab monografiya, dissertatsiya va maqolalar mavjud bo‘lib, bunday ishlar o‘sha til egalarining til xazinasini ochishdagi davomli qadamlaridandir. 1924-yilda J.Frank Vilstaxning ingliz tilidagi, V.Ogolsov (2001, 800 b), E.Nekrasova (1979, 225 b), L.Lebedova (2003), V. M.Mokienko (2003. 608 b), V.M.Mokienko, T.G.Nikitina (2008. – 800 b)larning rus tilidagi, Shiriley, L.Arora (1977,521) larning ispan tilidagi, F.Hakimzyanov (2010)ning tatar tilidagi, A.S.Alyoshin (2011)ning shved tili, A.G.Nazaryanning Fransuz (1965), I.Gurinning ukrain (1966), F.M.Yankovskiyning belorus (1973) tillaridagi lug‘atlari fikrimizning yaqqol isbotidir.

Bu lug‘atlar har bir tilning lingvokulturologik, etnolingvistik, kognitiv xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 33
2. Салиева З.И. Консептуальная значимост и национально – культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. … канд.филол.наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – B. 3 - 16
4. Mahmudov N. Xudoyberganova D.O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati.-T.: Ma’naviyat, 2013.-17-b.

MUNDARIJA

YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI

Fatma Achik. O‘zbek tılını chet ellik talabalarga vazifalar asosida o‘qitish metodikasi..... 3
Aynur O‘z O‘zjan. Turkiyada o‘zbek tilining o‘qitilish tarixi va metodikasi (Anqara universiteti misolida)..... 13
Худайбергенова Зилола. Ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитишда коммуникатив компетенцияни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик омиллари..... 18
Jan Oko. Learning uzbek – learner’s perspective..... 25
Qarayeva Beg‘am Xolmanovna. O‘zbek tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish..... 33

1-SHO‘BA. MULTILINGUALIZM MUHITIDA O‘ZBEK TILI VA MADANIYATINI O‘RGATISH MASALALARI

Hüseyin BAYDEMİR. Otaturk universitetida o‘zbek tili, adabiyoti va folklori bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va faoliyatlar..... 38
Ҳадича Муҳитдинова. Хорижликларга ўзбек тилини ўқитишнинг ўқув-дастурий таъминотини яратиш..... 51
Malik Hodjayev. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida online usulida o‘qitish: aqsh indiana universiteti misolida..... 55
Nursan ILDIRI. Tağay murad’in “bobosi bilan nevarasi (dedesi ile torunu)” adli hikâyesi üzerine metindilbilimsel bir inceleme..... 57
Reyhan KARKINLI. Usman nasir’in şiirleri üzerine tematik bir inceleme 67
Yashnarbek Avlakulov. Multimedia technologies in teaching uzbek as a second language..... 77
Dilafruz Xidoyatova. O‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda interfaol ta’limning roli..... 84
Shahnoza Nurmatova. O‘zbek va xitoy xalq maqollarining ifodalanish usullari..... 87
Артём Герасимов. Об этимологии узбекского языка..... 89
Александра Узбекова. Перспективы изучения узбекского языка за рубежом (на примере МГЛУ)..... 91

2-SHO‘BA. BADIIY MATN TAHLILI VA TIL TA’LIMI

Тоҳиров З.Т. Тил ва услуб матн таҳрирининг биринчи босқичи сифатида..... 93
Abdulxayrov M.X. Navoiy asarlari matnidagi fonetik xususiyatlar tahlili..... 96
Musulmanova N.R. O‘zbek tilidagi morfologik vositalarning lingvopoetik tadqiqiga doir..... 99

Qodirova X.B. Badiiy matnda evfemik va disfemik ko‘chimlarning implitsit ifodasi..... 102
Jo‘rayeva N. G. Alisher navoiy she’riyatida foydalanilgan arabcha, forscha va turkcha so‘zlarning ma’no xususiyatlari tahlili..... 105
Эшматова Ю.Б. Ўзбек замонавий қиссачилигининг ўрганиш тамойиллари..... 110
Мусулмон Намоз. Ўзбек адабий тилидаги ўзгаришларнинг давомли таҳрир жараёнида акс этиши (Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романи мисолида)..... 113
Турдиева К.Ш. Жаҳон болалар адабиётининг маърифий-маданий аҳамияти..... 119
Ниязова Д.Х. Ўзбек тилшунослигида бадиий матннинг лингвистик тадқиқи..... 121
Davronov A.S., Davronova N.A. Hurriyat – hamza ijodining bosh masalasi..... 123
Юнусова Ж.Б. Шавкат Раҳмон шеъриятида айрим тил бирликларининг қўлланиши..... 127
Юлдашева З. “Холдорхон” – тилимизнинг кўркли обидаси..... 130
Урунова З.Н. “Дефектология” терминологиясига доир..... 133
Xalilova Sh.J. Ertaklarni ijro etish tartibi va ertakchilik an’analari..... 137
Xudayberdiyeva O. R. Tildagi gender farqlanishlar..... 139
Siddiqov M.R. Maktablarda leksikologiya bo‘limini o‘qitish muammolari... 142
O‘rozov J. Tilshunoslikda nom yaratish muammosining o‘rganilishi va neymlar tasnifi..... 145
Tursunova O.Sh. Dunyo tilshunosliklarida o‘xshatish qurilmalari tadqiqi.... 149
Rahmatullayeva Sh., Shodmonova S. Til ta’limida morfologiyani o‘qitishning samarali texnologiyalari..... 152
Bobojonova S. Antroponimlarning allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi..... 154
Boboyorov O‘. She’riy asarlarning estetik imkoniyatlari va fonopoetik xususiyatlari..... 157
Qahramonova S. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida *uchun* ko‘makchisining tahlili..... 161
Shermatova G. Ne’mat Arslonning “Ashirit” novellasidagi frazeologik birliklar va badiiy to‘qimalar haqida..... 163

3-SHO‘BA. O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA TIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Shodmonova M. O‘zbek tilida leksik ko‘nikmalarni shakllantirish usullari..... 167
Ахмедова Г.М. Нутқ ўстиришда қиёсий маълумотларнинг ўрни…..... 171
Talipova F.S. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda til ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari..... 174

Туракулова О.А., Туракулова Н.А. Ўзбек тилини хорижликларга ўргатиш бўйича интенсив усуллар..... 176
Amirqulova N.A. Ingliz tilida so‘zlashuv frazeologik birliklarning funksional xususiyatlari..... 178
Israfilov D. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda foydalaniladigan madaniy bilim va ko‘nikmalarning tematik qamrovi va foydalanilishi..... 181

6-SHO‘BA. O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDA O‘QITISHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI VA USULLARI

Muhamedova S.X., Shirinova Y.T. Muloqot tilini tanlash..... 185
Asilova G.A. O‘zbek tili ta’limining uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash... 187
Mo‘minova O. O‘zbek tilini o‘qitishda матn yaratish тexnologiyasidan foydalanish..... 189
Уринова О.Т. Синонимия терминов крупнорогатого скота..... 194
Muhammedjanova G., Nosirov A. O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishning samarali texnologiyalari va usullari (ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 5-sinfda o‘zbek tili darslari misolida)..... 198
Очилов Н. Таълим жараёнида ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитиш масалалари..... 203
Yuldosheva N., **Bazarova D.B.** Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda lug‘at ustida ishlash usullari..... 205
Мирҳайдарова Н.Ҳ. Ўзбек тилида “маънавият” умумий семали лексемаларининг тадқиқ муаммолари ва амалий аҳамияти..... 208
Abduraximova K.G‘. O‘zbek tili darslarida pedagogik texnologiya mashqlaridan foydalanib o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish usullari..... 211
Bektasheva G.R. O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda jadid adabiyotining o‘rni..... 214
Mavlyanov S.J. Diplomatik terminlarning shakllanishi va ularni optimallashtirish muammolari (tarjima lug‘atlari misolida)..... 217
Murtazoyeva M., Qurbonova L. O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish qurilmalari tadqiqi..... 221

O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI: TA’LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ONLAYN ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2021-yil 29-may

Adadi 60 nusxa. Hajmi 14,2 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.
OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.